

BOLALIK AKADEMIYASI

ILMIY METODIK JURNALI

KICHIK
KASHFIYOTLAR,
KATTA KELAJAK

STEAM: O'YIN
ORQALI BILIM

ILM SIRLARI
BOLALAR UCHUN

2026-1-SON
ba-jurnal.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

**BOLALIK
AKADEMIYASI**

**ilmiy-metodik jurnal
(2026 yil, mart)**



2026, № 1

TAHRIRIYAT HAY’ATI:

Bosh muharrir:	DSc, prof. R.H. Davlatova
Bosh muharrir o‘rinbosari:	PhD, prof. S.B. Sanayeva
Mas’ul kotib:	PhD, dots. G.P. Ermatova

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

Tahririyat a’zosi	P.f.d., akademik X.I. Ibraimov
Tahririyat a’zosi	PhD Tabassum Qazi (Kanpur IIT, Hindiston)
Tahririyat a’zosi	DSc., prof. D.X. Narzikulova
Tahririyat a’zosi	DSc., prof. M.S. Ernazarova
Tahririyat a’zosi	DSc., prof. S.Y. Ashurova
Tahririyat a’zosi	P.f.d., prof. B.X. Xodjayev
Tahririyat a’zosi	P.f.d., prof. O‘.M. Asqarova
Tahririyat a’zosi	P.f.d., prof. Sh.Sh. Olimov
Tahririyat a’zosi	DSc., prof. M.B. Artikova
Tahririyat a’zosi	DSc., prof. Sh.R. Urakov
Tahririyat a’zosi	DSc., prof. N.N. Jamilova
Tahririyat a’zosi	DSc., dots. M.J. Boltayeva
Tahririyat a’zosi	DSc., dots. M.M. Raupova
Tahririyat a’zosi	P.f.d., prof. G.X. Jumasheva
Tahririyat a’zosi	B.f.n., dots. G.D. Shamsidinova
Tahririyat a’zosi	P.f.n., dots. S.S. Sayitov
Tahririyat a’zosi	P.f.n., prof. F.O. Xadjayeva
Tahririyat a’zosi	P.f.n., prof. D.A. Axatova
Tahririyat a’zosi	PhD, dots. Sh.N. Xaydarova
Tahririyat a’zosi	PhD, dots. M.U. Azimova
Tahririyat a’zosi	PhD, dots. D.F. Jabborova
Tahririyat a’zosi	DSc, dots. G.E. Djanpeisova
Tahririyat a’zosi	PhD, dots. B.S. Shukurov
Tahririyat a’zosi	PhD, dots. N.K. Musayeva
Tahririyat a’zosi	Sh.T. Karshiyeva
Tahririyat a’zosi	S.U. Xoliqova



MUNDARIJA:

F.I.O	Maqola, tezis, mashg‘ulot ishlanmalar nomi	Sahifasi
<i>Ibraimov Xolboy Ibragimovich</i>	<i>Oliy ta’lim muassasalari pedagoglari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy asoslari</i>	6-bet
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna</i>	<i>Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning kasb-hunarga qiziqishini shakllantirishga qaratilgan o‘yin texnologiyalari</i>	11-bet
<i>Xudaybergenova Zilola</i>	<i>Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limida STEAM texnologiyalaridan Fridrix Frebelning didaktik tizimi tatbig‘i – aniq fanlar bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishning garovi sifatida</i>	17-bet
<i>Asqarova O‘g‘iloy Mamashakirovna</i>	<i>Ta’lim jarayonida “gamifikatsiya” va “Case-study” metodlaridan foydalanish tajribalari</i>	35-bet
<i>Sayitov Sayyom Sayitovich</i>	<i>Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga qiziqtirishning innovatsion yondashuvlari</i>	45-bet
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna Hamroyeva Sayyora Nurullo qizi</i>	<i>Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Smart monitoring” tizimini joriy etishning ilmiy-amaliy asoslari</i>	51-bet
<i>Taylanova Shoxida Zayniyevna Rayimov Begali Urolovich</i>	<i>Etnopedagogik madaniyatning mazmuniy asoslari va mohiyati</i>	62-bet
<i>Axatova Durdona Aktamovna Axatova Hilola Aktamovna</i>	<i>Boshlang‘ich sinflarda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish</i>	70-bet
<i>Шамиева Ойбахор Равшановна</i>	<i>Семейное окружение как фактор развития саморегуляции и автономного поведения у детей дошкольного возраста.</i>	80-bet
<i>Quvvatova Mohira Hikmatullayevna Abdumajitova Sayyohat Abduqosimovna</i>	<i>Bolalarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni</i>	87-bet
<i>G.E. Djanpeisova</i>	<i>TRIZ texnologiyasi maktabgacha yoshdagi</i>	93-bet



A. Zhdanova	<i>bolalarda ijodiy va tizimli tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida</i>	
G‘aniyeva Shodiya Azizovna Abdullayeva Nodiraxon Mamaro‘zi qizi	<i>Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi</i>	98-bet
Muratova Manzura Nemadjanovna	<i>Antipiren moddalarining maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida qo‘llash zarurati va ekologik jihatlari</i>	105-bet
Sidikova Zulfiya Murodjon qizi Oralbayeva Eleonora Ulug‘bek qizi	<i>Hozirgi davrda jahon mamlakatlari boshlang‘ich ta‘lim tizimi tarixi va pedagogika fani rivoji</i>	109-bet
Xaydarova Shaxlo Narzullayevna Ismatova Dilorom Hotam qizi	<i>Inklyuziv bolalar turizmi: Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanish omili sifatida</i>	117-bet
Sapayeva Gulnoza Azimbayevna	<i>Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorini rivojlantirishning konseptual asoslari</i>	123-bet
Allaberdievna Kumri Xamrayevna	<i>Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga yo‘naltirishda neyropedagogik xususiyatlarni hisobga olish</i>	136-bet
Azimova Musharraf Utkirovna	<i>Bo‘lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish metodikasi</i>	146-bet
Qilichova Marxabo Xudoyqulovna	<i>Bo‘lajak pedagoglarda sharof rashidov asarlari orqali ma‘naviy-ahloqiy tarbiyani shakllantirishning nazariy asoslari</i>	151-bet
Nurova Rohila Ismoil qizi	<i>Bo‘lg‘usi tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda teatr pedagogikasidan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari</i>	156-bet
Turdiyeva Mohira Juraqulovna Xudoyorova Barchinoy	<i>Boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida o‘quvchilarda vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik asoslari</i>	167-bet
Xidirova Nilufar Nematovna	<i>Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik-psixologik mexanizmlari</i>	173-bet
Xolboyeva Gulnora Ulashovna	<i>Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga kompleks tayyorgarligi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida</i>	179-bet



Rahmonova Sojida Muxammadovna	<i>Дидактические возможности совершенствования методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности</i>	184-bet
Qilichova Marxabo Xudoyqulovna Abdusalamova Zumrad Hasan qizi	<i>Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM ta’lim texnologiyasi orqali tasviriy faoliyatni tashkil etish</i>	193-bet
Bayumbetova Manzura Salamat qizi Bagibaeva Akmaral Muxtarovna	<i>“Janajan O‘zbekstanim mangi bol aman” temasidagi sabaq shiniğiiv islenbesi</i>	200-bet
Nishonova Kamola Shokirjon qizi Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi	<i>Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishning ahamiyati</i>	203-bet
Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich Saloydinova Sevaraxon Mahammadsharif qizi	<i>Gamifikatsiyalangan o‘quv muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy va ijodiy tafakkurini shakllantirish</i>	209-bet
Xamidova Gulbaxor	<i>Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli</i>	216-bet
Raxmonova Sojida Muxammadovna Yadgarova Hafizabonu Sadriddin qizi	<i>Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi</i>	223-bet
Kurbonova Zilola Ismoil qizi	<i>5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari</i>	227-bet
Djanpeisova G.E. Tursunkulova M.	<i>Integrating steams education in preschool settings: contemporary approaches to developing a child’s key competencies</i>	231-bet



*Ibraimov Xolboy Ibragimovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, akademik*

UDK 37.013.33

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARI KASBIY
KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kompetentligi o'rganilib, ularga qo'yiladigan kompetentlikning asosiy talablari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, pedagogik mahorat, kreativlik, modellashtirish, integratsiyalash, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, innovatsion, adaptatsion, kommunikativlik va prinsipillik, optimistik, pedagogik deontologiya, pedagogik kvalimetriya, pedagogik texnologiya.

*Ibraimov Xolboy Ibragimovich
Директор Национального института педагогики воспитания им. Кори
Ниёзия, доктор педагогических наук, академик*

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПОВЫШЕНИЯ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ
ВУЗОВ**

Аннотация. В данной статье рассматривается компетентность педагогов, работающих в высших учебных заведениях, и научно анализируются основные требования к их компетентности.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, педагогические умения, креативность, моделирование, интеграция, информационно-коммуникационные технологии, инновационные, адаптивные, коммуникативно-принципиальные, оптимистические, педагогическая деонтология, педагогическая квалиметрия, педагогическая технология.

*Ibraimov Kholboy Ibragimovich
Director of the National Institute of
Pedagogy of Education named after Qori Niyoziy
Doctor of Pedagogy, Academician*

**THEORETICAL PRINCIPLES OF PROFESSIONAL COMPETENCE
IMPROVEMENT OF TEACHERS OF HIGHER EDUCATION
INSTITUTIONS**



Abstract. This article examines the competence of pedagogues working in higher education institutions, and scientifically analyzes the main requirements of their competence.

Key words: competence, competency, pedagogical skills, creativity, modeling, integration, information and communication technologies, innovative, adaptive, communicative and principled, optimistic, pedagogical deontology, pedagogical qualimetry, pedagogical technology.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta‘minlamoqda [1]. Turli sohalarda yo‘lga qo‘yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a‘zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat‘iyat ko‘rsatishni talab etmoqda.

Oliy ta‘lim muassasalari pedagoglarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi, o‘z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o‘zlashtirishga intilishi, o‘quv axborotlarini talabalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishda ijodiy yondasha olishlari talab etilmoqda [4]. Binobarin, global axborotlashuv ijtimoiy subyektlar, xususan, talabalar tomonidan ham istalgan ma‘lumotni ixtiyoriy ravishda o‘zi uchun qulay sharoit va joyda turli axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda. Garchi shunday holatda ma‘lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng bo‘lsa-da, biroq, shaxs tomonidan bu tahlitda o‘zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo‘lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma‘lumotlarning muayyan sohalar bo‘yicha tizimli, izchil, uzluksiz hamda maqsadga muvofiqli o‘zlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Ta‘lim tizimida tom ma‘noda talabalarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma‘lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun pedagogi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va talabalarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur [2]. Bu esa pedagogning kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda. OTM pedagoglarini pedagogik kompetentlik, pedagogik mahorat



va kreativlik asoslari bilan tanishtirish ular tomonidan o‘quv jarayonini ijodiy xarakterda, qiziqarli, talabalarning faolliklari asosida tashkil etilishiga yordam beradi [3].

Pedagoglarning har qanday o‘quv axborotiga nisbatan ijodiy yondasha olishi, ularni qayta ishlash, ayniqsa, davr talabidan kelib chiqqan holda matnli ma’lumotlarni modellashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari nafaqat talabalarni balki o‘zlarining ham o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabatlarini ijobiy tomonga tubdan o‘zgartiradi [2]. Pedagogning kasbiy bilimdonligida talaba bilan subyektiv munosabat o‘rnata olish; pedagogik jarayonlar mohiyati, pedagogik voqelikni izchil idrok qila bilish; jahon pedagogik madaniyati asoslarini hamda milliy pedagogik tajribani o‘rganish, ularni integratsiyalashtirish asosida o‘z faoliyatiga tatbiq etish; innovatsion yangiliklar bilan doimiy xabardor bo‘lish; shaxsiy tajribalarni umumlashtirish va talabalarga uzatish; kasbiy fidoiylilik hamda pedagogik texnologiyalarni egallash borasidagi BKMning o‘zlashtirilganligi namoyon bo‘ladi [5].

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim, fan, yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi va ushbu muhim masala “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda hamda ta’lim tizimini yuksaltirishga qaratilgan bir qator qonun va qarorlarda amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasalarida, albatta, ta’lim sifati kafedralarda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning bilim darajasi, pedagogik mahorati va samaradorligiga bog‘liqdir. Shu sababli har bir pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi yuqori darajada bo‘lishini davrning o‘zi talab qilmoqda. Globallashtirish jarayonida bugungi kun pedagogi yuqori sifat darajasidagi kasbiy kompetentlikni, ya’ni innovatsion, adaptatsion sharoitda ishlashni, tez o‘zgaruvchan sharoitlarga nisbatan qayishqoq bo‘lishni taqozo etmoqda. Shu bois ham OTM pedagoglarining kasbiy kompetentligi zamon talablaridan kelib chiqqan holda barcha standartlarga javob bera oladigan darajada bo‘lishi ta’limni tubdan isloh qilish, mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko‘tarishning muhim shartlaridan biridir. Ta’lim tizimida o‘tgan asrning 60 yillarida yangi tadqiqot yo‘nalishi bo‘lgan kompetentli yondashuvning paydo bo‘lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalari oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotida keng targ‘ib etildi.

Kompetentlik - aniq bilimlar va ko‘nikmalar majmui bo‘lib, faoliyat jarayonida ishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kompetensiya atamasining o‘zini esa 1959 yilda birinchi marta R.Uyayt ilmiy maqolasida ishlatgan va ishlab chiqarish motivatsiyasining konsepsiyasi vazifasini bajardi [4].

Kompetentlikni namoyon bo‘lishini ba’zida vaziyat va kontekstda ko‘rish mumkin va ular inson harakat qilish kerak bo‘lgan paytda o‘zgarishi ham mumkin. Favqulodda vaziyatlarni kompetentli, qobiliyatli insonlar ilgari muvaffaqiyatli deb hisoblagan xatti-harakatlariga rioya qilish orqali vaziyatga to‘g‘ri baho beradilar. Kompetentlik bo‘lishi uchun inson vaziyat bilan tanishib darhol qaror chiqarishi lozim bo‘ladi. O‘qitishdan qat’iy nazar, kompetentlik tajribalardan va yillar



davomida insonning moslashishga o‘rganish qobiliyati orqali shakllanadi. Shu bilan birga olib borilgan tadqiqotlar, kompetentlikni va kompetensiyani baholash oson emasligini ko‘rsatadi. “Kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari aslida o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalar bo‘lib, odatda kompetentlikning oshishi kompetensiya doirasining kengayishiga olib keladi va kompetensiya doirasining kengayishi kompetentlik darajasining oshishi zaruratini ta‘minlaydi[4].

Tahlillar va natijalar

Kompetentlik darajasi yuqori bo‘lgan pedagoglar o‘zlarining xatti-harakatlariga javoban qiziqish bildirgan talabalarning o‘zlarini tutishlariga muntazam e‘tibor berishadi, ularning imkoniyatlarini baholab ko‘rishadi, shu bois o‘zlarining faoliyatlarini mazkur holatga moslashtirib borishadi. Bunday pedagoglar ta‘sirida talaba bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi, harakati va zavqi yanada ortib boradi, natijada u yanada yaxshiroq o‘qishi mumkinligini anglab boradi. Ular yuksak pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lgan va talab etiladigan pedagogik vazifalar (yosh avlodni tarbiyalash, o‘qitish, rivojlantirish)ning yechimini optimistik tarzda topishlari mumkin bo‘ladi. Buning uchun esa Ye.S.Romanovanning fikricha, “kompetentli pedagogda quyidagi shaxsiy fazilatlar, qiziqishlar va layoqat bo‘lmog‘i lozim: bolalar bilan ishlash ishtiyoqi; ularni qiziqtirish va ortidan ergashtira olishi; shaxsiy javobgarlikning yuksak darajasi; o‘z-o‘zini nazorat qilish va bosiq bo‘la olish; sabr-toqatli bo‘la olish, odamlarga hayrixoh bo‘la olish; boshqalarni hurmat qilish va ular fikri bilan hisoblashish; ilm olishga va o‘zini rivojlantirishga intilish; originallik, topqirlik, har tomonlama rivojlanganlik; farosatlilik; maqsad sari intilish; aktyorlik mahorati; o‘zi va boshqalarga nisbatan talabchan bo‘la olish”[4].

Oliy ta‘lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ularning hayotiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishda eng kuchli, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vositalarni aniqlash hamda ularning yordamida o‘qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Shuningdek, o‘z oldiga kompetentlilikni rivojlantirish maqsadini qo‘ygan va unga erishish yo‘llarini tanlagan har bir pedagog ma‘lum darajada o‘z dunyoqarash va tasavvuriga, o‘z tushunchalariga, shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi ehtiyojlarga asoslanadi va bunda uning irodaviy harakatlarining vositalari sifatida uning maqsadi, xohishi, istagi bilan birga, uning manfaatlari va ehtiyoji asosiy o‘ringa chiqadi hamda eng asosiysi mazkur vositalar uning kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim tizimida pedagog muhim vazifalarni bajarish bilan birga mehnat jarayonida kompetentlilik xususiyatlarini namoyon etishi zarur. Bunda pedagogning kasbiy kompetentligi bir qator komponentlarni o‘z ichiga olib, ularga quyidagilar kiradi: tashkilotchilik, bilimlilik, izlanuvchanlik, adolatlilik, kommunikativlilik, yuksak ma‘naviyatlilik, nazoratni o‘z vaqtida o‘rnatish, o‘z hissiyotlarini jilovlay olish, pedagogik deontologiya (kasbiy odob-axloq), mehnatni ilmiy asosda tashkil etish istiqbolli, innovatsion fikrlash andragogik ma‘lumot, pedagogik mahoratlilik, fidoyilik, rahbarlik, jarayonlarni loyihalashtirish, ijodkorlik, pedagogik, texnologiyalardan xabardorlik, pedagogik kvalimetriyani bilish, g‘oyaviy siyosiy yetuklik, tashabbuskorlik, kreativlik, yuqori imidj, aktyorlik, notiqlik mahorati, innovatsion



boshqaruvchanlik, optimal qaror qabul qilish, qonun doirasida ishlash, mantiqiy fikrlash, jamoani ergashtira olish, sabr-toqatlilik, prinsipiiallik, yetakchilik qobiliyati, sadoqatlilik, kasbiy refleksiya, mehnatga ijodiy munosabat, g’oyalilik, bir so‘zlilik, yangiliklarni tez qabul qilish, natijani oldindan ko‘rish, mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik kabilarni o‘z ichiga oladi [5].

Ta’lim sifati - bu butun ta’lim tizimiga nisbatan o‘rnatilgan talablarning bajarilishini ta’minlash orqali samarali natijalarga erishishdir. Ta’lim sohasida sifatni nisbiy tushuncha tarzida uning ta’lim standartlariga yoki tasniflarga hamda iste’molchi talablariga moslik darajasi deb qaraladi va ta’lim sifatini baholash va o‘lchashda kompetentlikdan keyin, albatta, ta’lim sifati va samaradorligi turadi.

Kompetentlilikni rivojlantirishda pedagoglarning mavjud ehtiyojlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayoni hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ta’siri pedagoglarda, eng avvalo, o‘qish va izlanish faoliyatiga, qolaversa, o‘z shaxsiga munosabatini o‘zgartirishga qaratilishi zarurligi hozirgi kunda ta’lim sifatini yaxshilash OTM pedagoglar uchun eng muhim vazifa hisoblanadi. Chunki ta’lim sifati avvalo, ta’lim oluvchiga turli metodikalar yordamida bilimni yetkazuvchi (professor-o‘qituvchilar)ning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati bilan belgilanadi [2]. Pedagog ish faoliyati jarayonida har qanday innovatsiyani joriy etishda ma’lum bir to‘siqlarga uchraydi, sababi yangilikni qabul qilish bir muddat og‘ir kechadi, shuningdek innovatsiyalar ham yangilanib turishini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalari pedagoglari quyidagi sifat va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur: faoliyat jarayonida vaziyatni pedagogik tahlil qilib, to‘g‘ri qaror qabul qila olish; har qanday pedagogik vaziyatdan oqilona yechim topish va ishga ijodiy yondashish; o‘z namunalari orqali pedagogik jamoani yetaklash va ishga bo‘lgan ijobiy munosabat bilan ularni rag‘batlantira olish; pedagogik mahoratga ega bo‘lish va sohadagi ilmiy yutuqlarni o‘zlashtirish. Shu bilan birga, yangi innovatsion g‘oyalarni aniqlash va amaliyotga tatbiq etish, dunyo yangiliklari, madaniyat va san’at durdonalaridan xabardor bo‘lish, keng dunyoqarashga ega bo‘lish, shuningdek, insonparvarlik, odamiylik va shaxsni hurmat qilish kabi axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.- 46 b.
2. Eshmamatov I. Zamonaviy pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligiga bo‘lgan talablar va uni shakllantirish masalalari. Xalq ta’limi. 2018 yil, 1-son.
3. Rahmatullayev A., Umarov B., Bobomuratov E. Uzluksiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiya. 2020 y.
4. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent; 2015 y.
5. Muslimov N. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2013 y.



*Djamilova Nargiza Nuritdinovna
Toshkent Amaliy fanlari universiteti
professori, p.f.d (DSc)*

UDK 373.211.24

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA
TARBIYALANUVCHILARNING KASB-HUNARGA QIZIQISHINI
SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN O'YIN TEXNOLOGIYALARI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirishda o'yin texnologiyalarining o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqsad kasb-hunarga qiziqishni shakllantirishga qaratilgan o'yin texnologiyalarining nazariy asoslarini yoritish, amaliy usullarini tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashdan iborat.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kasb-hunar, qiziqish, o'yin texnologiyalari, metodika, pedagogika.

*Джамилова Наргиза Нуритдиновна
Профессор Ташкентского университета прикладных наук,
доктор педагогических наук (DSc)*

**ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ
ИНТЕРЕСА К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
У ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ
ОРГАНИЗАЦИИ**

Аннотация. В данной статье научно обоснована роль и значение игровых технологий в формировании интереса к профессионально-трудовой деятельности у воспитанников дошкольной образовательной организации. Цель исследования заключается в раскрытии теоретических основ игровых технологий, направленных на формирование интереса к профессии, анализе практических методов их применения и оценке их эффективности.

Ключевые слова: дошкольное образование, профессия, интерес, игровые технологии, методика, педагогика.

*Djamilova Nargiza Nuritdinovna
Professor Tashkent University of Applied Sciences,
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)*

**GAME TECHNOLOGIES AIMED AT DEVELOPING INTEREST IN
PROFESSIONALISM AMONG PRESCHOOL STUDENTS**



Abstract. This article provides a scientific substantiation of the role and importance of game technologies in fostering professional interest in preschool students. The aim is to highlight the theoretical foundations of game technologies aimed at fostering professional interest, analyze practical methods, and evaluate their effectiveness.

Key words: preschool education, professions, interest, game technologies, methodology, pedagogy.

Kirish

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini har tomonlama rivojlantirish, ularning qobiliyatlarini aniqlash va kelajakda kasb tanlashiga yo’naltirish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘yinlar tarbiyaviy-didaktik, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish maqsadida ta’limning yaxlitligi, avvaldan loyihalanganligi, ta’lim-tarbiya natijalarining kafolatlanganligi, egiluvchanlik (moslashuvchanlik) va tugallanganlik kabi tamoyillar orqali amalga oshirilsa, u holda ularni o‘yin texnologiyalari deb atash mumkin.

N.Sayidahmedov maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini quyidagi turlarga ajratadi: mavzuli-rolli o‘yinlar, o‘yin-mehnat, didaktik o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, vaqti xushlik, sayr-tomosha o‘yinlari, majmual bayram o‘yinlari[2].

Adabiyotlar tahlili

Texnologiya so‘zi yunoncha “techne” mahorat, san’at, “logos” fan, ta’lim ot ma’nolarini anglatib, biror sohada sifatli mahsulot yaratishda qo‘llaniladigan yo‘l va usullar majmuidir.

Pedagogik atamalar lug‘atida texnologiyaga: 1) shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini mujassamlashtirgan va yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik hodisa; 2) ta’lim -tarbiya jarayonini tashkil etish, uni boshqarish, pedagogik va o‘quv faoliyatini tashkil qilish usullari tavsifi” [3] deb izoh berilgan.

Pedagog olim N.Sayidahmedov texnologiyaning faoliyatlilik bilan aloqadorligiga asoslanib, uni “shaxsni o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish qonunlarini o‘zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta’minlaydigan pedagogik faoliyat”[2] deb tavsiflaydi.

M.Kamoldinov va B.Vaxobjonovlar esa uning tizimlilik xususiyatiga alohida urg‘u berib, “texnologiya deganda, odatda, ularni qo‘llash natijasida yangi sifat va miqdor o‘zgarishlariga olib keluvchi tizimiy usullar tushuniladi”[1] deya ta’kidlaydilar.

Yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirib, ilmiy ishimizning bosh g‘oyasiga asoslangan holda, quyidagi ta’rifni ishlab chiqdik: maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalalrni kasb-hunarga qiziqtirishga qaratilgan texnologiyalar – bu o‘yin texnologiyalarini muayyan ta’lim prinsiplari va o‘yin qoidalari bo‘yicha, ta’limning tizimlilik va izchillik kabi umumdidaktik tamoyillariga tayanib, texnologik jarayon sifatida yaxlitlik, avvaldan loyihalanganlik, kafolatlanganlik,



egiluvchanlik (moslashuvchanlik) va tugallanganlik kabi tamoyillarga asoslanib tizimlashtirilgan pedagogik faoliyatdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirishga qaratilgan o‘yin texnologiyalarini qo‘llovchi pedagog-texnolog quyidagi bilim va kompetenliklarga ega bo‘lishi zarur:

- o‘yin texnologiyalarining mashg‘ulot jarayonidagi o‘rnini baholay olish;
- o‘yin texnologiyalari va uning mazmun-mohiyati haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- o‘yin texnologiyalari turlari, qoidalari, prinsiplari haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- o‘yin texnologiyalarining xar xil turlaridan mashg‘ulotda foydalana olish;
- bolalar faolligini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘yin texnologiyalari orqali kasbiy tushunchalarni singdirish;
- mashg‘ulotlarning jozibasi va samaradorligiga erishish uchun ta’limning texnik vositalari (kompyuter, kodoskop, video va audio qurilmalar)dan foydalana olish;
- mashg‘ulotlarni hamkorlik pedagogikasi g‘oyalari negizida tashkil etish va o‘tkazish;

pedagogik mahorat, takt, texnika, intuitsiya, pedagogik qobiliyat kabilarga ega bo‘lish.

Kasb-hunarga qiziqtirish yo‘nalishida katta maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetentligini samarali rivojlantirish ustuvor pedagogik shart-sharoitlarning mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Xususan:

maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik maqsad sifatida tasavvur qilinishi;

maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagog bilan bola hamkorligi sharoitida individual yoshga oid xususiyatlar, nutqiy rivojlanishning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda tashkil qilinishi;

maktabgacha ta’lim tashkilotidagi pedagogik jarayonda bolalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ishlar tizimi, shuningdek, mazkur jarayonni optimallashtirish maqsadida nazorat qilish imkonini beradigan diagnostik instrumentariyning ishlab chiqilishi kabi pedagogik shartlar yig‘indisi vositasida ta’minlanadi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Kasbga qiziqtirish yo‘nalishida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda:

kasblar olami haqida dialog-suhbatga kirishish ko‘nikmalari;

muayyan kasb orqali e‘zoz topgan kishilar, ularning ish faoliyati haqida qiziqarli ma’lumotlarni bilishga tayyorlik;

mustaqil-ijodiy ishlash ko‘nikmalari rivojlanib boradi.

Bunday kompetentlik bola o‘zi va boshqa bolalarning ishlarini baholashida: o‘ziga nisbatan tanqidni munosib qabul qila olishida, boshqalarga nisbatan tanqidni ijobiy nuqtai nazardan bildira olishida namoyon bo‘ladi .

Kasb-hunarga qiziqtirish yo‘nalishida bolalarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish metodlari ikki guruhga bo‘linadi:



1) bolalarning kasblar olamiga oid nutqi mazmunini to‘ldirish, lug‘atini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan metodlar,

2) uning mazmuniy tomonini rivojlantirish metodlari.

Metodlarning dastlabki guruhi:

a) bolalarni kasblar olami bilan bevosita tanishtirish va lug‘atini boyitish: mashg‘ulotlar tarkibini o‘rganish va boyitish, MTT xonalarini talab darajasida jihozlash, maqsadli sayr-sayohatlar;

b) kasblar olami bilan bevosita tanishtirish va lug‘atini boyitish: mazmuni yaxshi tanish bo‘lmagan rasmlarni o‘rganish, badiiy asar mutolaasi, maxsus tanlangan roliklar, kino va videofilm disklari hamda teleko‘rsatuvlarni tomosha qilishni o‘z ichiga oladi.

E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tuzilmasi ham keng tarqalgan. 15 mehnat obyektiga ko‘ra 5 ta kasb turlari ajratiladi[5].

1. Inson - tabiat. Bu tur namoyondalari o‘simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yashash sharoitlari bilan ishlashadi. Masalan, meva - sabzavot ustasi, agronom, zootexnik, veterinar, mikrobiolog.

2. Inson - texnika. Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob‘ektlari bilan ishlashadi. Masalan, texnik, mexanik, muxandis mexanik, muhandis elektrik, texnik texnolog va hokazo.

3. Inson - inson bunda ijtimoiy tizimlar, axloqiy guruhlar, turli yoshdagi insonlar bilan ishlash nazarda tutiladi. Masalan, oziq - ovqat mahsulotlarini sotuvchisi, sartarosh, shifokor, o‘qituvchi va boshqalar.

4. Inson - belgilar tizim. Tabiiy va sun‘iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, raqamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami va boshqalar. Masalan, dasturchi, chizmachiligi - kartagraf, matematik, tilshunos, nashriyot muxarriri.

5. Inson - badiiy obraz. hodisalarni badiiy aks etishi dalillari - mana shu narsalar bu kasb turi vakillarini qiziqtiradi. Masalan, rassom dekarator, rassom - restavrator, musiqa asboblarini sozlovchi, balet artisti, konsert ijrochisi, aktyor va boshqalar. Bu beshta kasb turlari maqsadlar belgisiga ko‘ra 3 ta sinfga bo‘linadi.

1. Gnostik kasblar (qadimgi yunonchadan “gnosis” bilim);

2. O‘zgartiruvchi kasblar;

3. Qidiruvli kasblar;

Asosiy ish qurollariga ko‘ra har qaysi sinf doirasida 4 ta bilimni ajratish mumkin.

1. Qo‘l mehnati kasblari;

2. Mashina qo‘l mehnati;

3. Avtomatlashgan va avtomatik tizimlar qo‘llanishi bilan bog‘liq kasblar;

4. FunkSIONAL ish quroli bilan bog‘liq kasblar.

Tahlillar va natijalar

Barcha odamlarning qobiliyatlari, ularning kasb-hunarga yaroqlilik darajasi turlicha bo‘lgani uchun ularni kasb-hunar tanlashga yo‘naltirishda mazkur omil muhim ahamiyatga egadir. Shaxsning individual qobiliyatlari tanlangan kasbga mos kelmasligi mumkin. Shu sababli kasb-tanlash va kasb-hunarga yo‘naltirishda insonning muayyan kasbga yaroqli ekanligini to‘rt darajada ajratilgan:



1. Muayyan bir kasbga yaroqsizlik. Ba’zi kasblar inson salomatligiga yuqori talablar qo‘yadi. Bunday kasblar inson salomatligida kamchigi bo‘lgan odamlarning holatini yanada og‘irlashtirishi mumkin. Agar kasb tanalshda tibbiy talablarga rioya qilinmasa, bu hol kelajakda to‘g‘irlab bo‘lmaydigan talofatlarga olib kelishi mumkin. Muayyan bir kasbga yaroqsizlik odamning shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin.

2. Muayyan bir kasbga yaroqlilik. Bunda odamga u yoki bu kasbiy sohada faoliyat yuritishiga nisbatan qarshi ko‘rsatmalar ham, muvofiqlik to‘g‘risidagi tavsiyalar ham berilmaydi.

3. Muayyan bir kasbga moslik. Inson muayyan kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga qarshi ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmasdan, hatto ba’zi kasbiy muhim xususiyatlarga ega. Shu bilan birga u boshqa kasblarda ham ma’lum yuruqlarga erishishi mumkin.

4. Muayyan bir kasbga iste’dod. Bu insonni kasbga yaroqliligining yuqori darajasi bo‘lib, uni o‘z tengdoshlari orasida ba’zi qobiliyatlari bilan ajralib turishi, aynan shu qobiliyatlari bilan tanlangan kasb uchun ahamiyatli bo‘lishidir.

Shu bilan birga, insonning ma’lum bir tor mutaxassislikka umrbod yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini hal qilish juda qaltis muammolardan hisoblanadi, chunki hayot davomida inson shakllanadi va rivojlanadi. Kasbiy yaroqlilik insonga butun umrga berilmaydi, chunki ma’lum bir kasbi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlari, aynan kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Inson turli sharoitlarga moslashib ketish, ya’ni kasbiy adaptatsiya qobiliyatiga ega, shuning uchun deyarli har bir sog‘lom odam turli kasbiy faoliyatlarni bajara oladi.

The Balance Careers jurnalining ish qidirish bo‘yicha mutaxassisi hamda CareerToolBelt.com asoschisi Alison Doyl bolalar eng ko‘p orzu qiladigan 15 ta kasblarni sanab o‘tgan[7]. Ya’ni bular quyidagilar: raqqos, aktyor, musiqachi, o‘qituvchi, kashfiyotchi olim, professional atletchi, qutqaruvchi, detektiv, yozuvchi, politsiya ofitseri, astronom, uchuvchi, veterinar, advokat, shifokor.

Bundan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning aksariyati yuqoridagi kasb egasi bo‘lishni xohlaydilar. Biroq, biz bolalarni shu kasbga nisbatan layoqati va qobiliyati, imkoniyatlarini ham hisobga olgan holda ularni kasblarga yo‘naltirishimiz lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar dunyosi haqidagi g‘oyalarini shakllantirish bo‘yicha ishlar umumiy didaktik tamoyillarga asoslanadi:[6]

qulaylik (bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda; materialni yoshga moslashtirish);

tizimli va izchil (materialni oddiydan murakkabgacha doimiy etkazib berish; o‘rganilgan qoidalar va me’yorlarni tez-tez takrorlash);

ko‘rinish (fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda);

dinamizm (har xil turdagi faoliyatga integratsiyalashuv);

farqlash (yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda).

me’yor va qoidalarni o‘zlashtirish uchun qulay sharoit yaratish.



Xulosa

Bolani kelajakdagi kasbini tanlashga jiddiy tayyorlash kerak. U ota-onasi yoki bobo-buvisi kimga ishlaganligini bilishi, uni turli kasblarning o'ziga xos jihatlari, ular insonga qo'yadigan talablar bilan tanishtirishi, ulg'ayganida kim bo'lmoqchi ekanligi bilan qiziqishi kerak. Bola qanchalik ko'p ma'lumotni o'zlashtirsa va qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, kelajakda uning hayotini belgilaydigan hal qiluvchi tanlovini amalga oshirish osonroq bo'ladi. Insonda hamma narsa bolalikdan, shu jumladan kasbiy yo'nalishdan kelib chiqadi. Bolani kelajakdagi kasb tanlashga tayyorlashning erta boshlanishi, ota-onalarning fikriga ko'ra, bolaga u kim bo'lishi kerakligini yuklashdan iborat emas, balki bolani turli xil mehnat turlari bilan tanishtirish, unga ishlashni osonlashtirishdir. Kelajakda mustaqil tanlov. Ijodkorlik, sport, texnologiya va hokazolar bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali uning o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish zarur. Bola bolalik davrida qanchalik ko'p turli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsa, u o'z imkoniyatlarini kattaroq yoshda ham shunchalik yaxshi biladi va baholaydi. Maktabgacha ta'lim tizimida o'yin texnologiyalaridan oqilona foydalanish bolalarning kasbiy yo'nalishini aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va kelajakda munosib kasb egasi bo'lishlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kamoldinov M., B.Vaxobjonov. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari.uslubiy qo'llanma. – T.: Talqin, 2010.- 128 b. - 61-b.
2. Nurali Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – T.: Moliya, 2003.- 172 b. – 113-b.
3. Pedagogik atamalar lug'ati. Tuzuvchi mualliflar R.X.Djurayev, O'.Q.Tolipov,
4. Гришина Г.Н. Любимые детские игры. - М.: Педагогика, 1997. - 92 с.
5. Климов Е.А. Введение в психологию труда. Учебное пособие для студентов вузов. — М.: Изд-во МГУ, 2004. – 164 с.
6. Шорыгина, Т.А. Профессии. Какие они? Книга для воспитателей, гувернеров и родителей/ Т.А. Шорыгина. - М.:Гном, 2007,-96с.
7. <https://uz.wikipedia.org>.



Zilola Xudaybergenova
Filologiya fanlari doktori, professor
Bartın Universiteti, Turkiya Respublikasi
zkhudaybergenova@bartin.edu.tr

UDK: 37.011.3

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIMIDA
STEAM TEXNOLOGIYALARIDAN FRIDRIX FREBELNING DIDAKTIK
TIZIMI TATBIG'I – ANIQ FANLAR BO'YICHA KO'NIKMALARNI
SHAKLLANTIRISHNING GAROVI SIFATIDA**

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda aniq fanlar, xususan, matematika, geometriya, me'morchilikka bo'lgan qiziqishini orttirishiga xizmat qiladigan STEAM ta'limi texnologiyalarini tashkil etuvchi modullarda biri haqida ma'lumot berish rejalashtirilgan. STEAM texnologiyasi S – science (tabiiy fanlar), T – technology (texnologiya), E – engineering (muhandislik san'ati), A – art (ijodkorlik), M – mathematics (matematika) sohalarining kesishuvini ifoda etadi. Mazkur texnologiyaning modullaridan biriga nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Avgust Frebel tomonidan asos solingan bo'lib, “Sovg’alar” to‘plamlaridan iboratdir. Bu to‘plamlar geometrik jismlar jamlanmasidan tashkil topgan bo‘lib, hayot uchun zarur shakllar, go‘zal shakllar va bilish shakllari tarzida uch bosqishli faoliyat turlarini qamrab oladi. Maqolada Fridrix Frebelning 6 ta “Sovg’alar” to‘plami va uning qo‘llanilish xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim, bola, Fridrix Vilgelm Avgust Frebel, STEAM, “sovg’a”, to‘plam.

Зилола Худайбергенова
доктор филологических наук, профессор
Университет Бартын, Турецкая Республика
zkhudaybergenova@bartin.edu.tr

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ STEAM-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ
ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В КОНТЕКСТЕ
ДИДАКТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ФРИДРИХА ФРЁБЕЛЯ КАК ГАРАНТ
ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ПО ТОЧНЫМ НАУКАМ**

Аннотация. В данной статье планируется представить сведения об одном из модулей, входящих в состав STEAM – образовательных технологий, способствующих повышению интереса детей дошкольного возраста к точным наукам, в частности к математике, геометрии и архитектуре. Технология STEAM отражает интеграцию следующих направлений: S – science (естественные науки), T – technology (технология), E



– engineering (инженерное искусство), A – art (творчество), M – mathematics (математика). Один из модулей данной технологии был основан немецким педагогом Фридрихом Вильгельмом Августом Фрëбелем и представлен в виде набора “Даров”. Эти наборы состоят из совокупности геометрических тел и охватывают трехступенчатую систему видов деятельности: формы жизни, формы красоты и формы познания. В статье рассматриваются шесть наборов “Даров” Фридриха Фрëбеля и особенности их применения в образовательном процессе.

Ключевые слова: дошкольное образование, ребенок, Фридрих Вильгельм Август Фрëбель, STEAM, “дары”, набор.

Zilola Khudaybergenova
Doctor of Philological Sciences, Professor
Bartın University, Republic of Türkiye
zkhudaybergenova@bartin.edu.tr

**THE IMPLEMENTATION OF STEAM TECHNOLOGIES
IN PRESCHOOL EDUCATION
BASED ON FRIEDRICH FRÖBEL’S DIDACTIC SYSTEM
AS A GUARANTEE FOR THE DEVELOPMENT OF SKILLS
IN THE EXACT SCIENCES**

Abstract. This article aims to provide information about one of the modules that make up STEAM educational technologies, which help preschool children develop interest in exact sciences, in particular, mathematics, geometry, and architecture. STEAM technology represents the intersection of the fields of S – science (natural sciences), T – technology, E – engineering (engineering art), A – art (creativity), M – mathematics (mathematics). One of the modules of this technology was founded by the German educator Friedrich Wilhelm August Froebel and consists of the “Gifts” sets. These sets consist of a set of geometric bodies and cover three-stage types of activity in the form of forms necessary for life, beautiful forms, and forms of knowledge. The article discusses Friedrich Froebel’s 6 “Gifts” sets and their application features.

Key words: preschool education, child, Friedrich Wilhelm August Froebel, STEAM, “gift”, collection.

Kirish

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich umumiy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda jadallik bilan rivojlanib, o‘zgarib bormoqda. Avvalo, bu vaziyatda ta’lim jarayonining mazmuni o‘zgarishi mumkinligini diqqat markazimizda tutishimiz lozim. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich umumiy ta’lim mazmunini belgilashda zamon talabidan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining tabiiy fanlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, ularni muhandislik-texnik ijodiyotga jalb qilishga va matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e’tibor beriladi (Уваров, 2008,



55–63; Тюнников, 2004, 53–57). Ayni nuqtai nazardan qaralganida, bolalarda tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi g‘oyalarni shakllantirish, atrof-muhit bilan amaliy o‘zaro ta’sir qilish usullarini o‘zlashtirish, bolalarning qiziquvchanligi va kognitiv faolligini rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalar birinchi o‘ringa chiqadi. Bu borada masalaning uslubiy va texnologik jihatlari ham o‘zgarishi tabiiy. Dunyo bo‘ylab maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich umumiy ta’lim uchun keng ko‘lamli ta’lim texnologiyalari yaratilgan bo‘lib, amaliyotga tatbiq etilmoqdaki, bu, bizning o‘quvchilarimiz va farzandlarimizga eng istiqbolli ta’lim yo‘nalishlarini o‘zlashtirishda dastlabki qadamlarni qo‘yish imkoniyatini beradi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim va ta’lim tashkilotlarining boshlang‘ich sinflari faoliyatiga STEAM texnologiyalarini joriy etish va qo‘llash bunday o‘zgarishlarning yorqin namunasi.

XXI-asrning asosiy muammosi aniq fanlar sohasida ta’lim sifatining pastligi va moddiy-texnika resurslari bilan minimal ta’minlanganligida kuzatiladi. Biroq, davlat darajasida yuqori texnologiyalar sohasida turli sohalaridan yuqori malakali mutaxassislarini yetishtirish masalasi kun tartibiga qo‘yilgan. Bu holat ham STEAM texnologiyalarini qo‘llashni ta’limni eng ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylantiradi (Филимонова, 2020, 40–42). Chunki STEAM texnologiyalari aniq fanlar va muhandislik sohasi bo‘yicha yetuk kadrlarning yetishmasligi bilan bog‘liq muammoni hal qilishga yordam berishni rejalashtirilgan. STEAM texnologiyasi – ta’limning modulli yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi bolaning intellektual qobiliyatlarini ilmiy va texnik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyatini rivojlantirishdir. Muhandislik, texnologiya va matematikani bo‘yicha bolalar qiziquvchaligi orttirish, bu sohalar bo‘yicha bolalarning ma’lum bilimlarni egallashini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM texnologiyasi turli xil mehnat turlariga bolalarning kognitiv qiziqishlarini orttirishga imkon beradi. Bunday dasturlarning ahamiyati ularni maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda ham, asosiy ta’lim dasturi doirasida ham qo‘llash imkoniyatidadir.

Taklif etilayotgan STEAM texnologiyalari kognitiv faoliyat jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning yangi qisman modulli dasturidir. STEAM texnologiyalari nomini shunday ochiqlash mumkin (Соболев, 2019, 141–145):

S - science (tabiiy fanlar).

T - technology (texnologiya).

E - engineering (muhandislik san’ati).

A - art (ijodkorlik).

M – mathematics (matematika).

Adabiyotlar tahlili

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM ta’limi dasturi bir qator modullarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning mazmuni bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur texnologiya bir qator o‘uv modullarini ichiga oladi. Mazkur maqolada “F.Frebelning didaktik tizimi” o‘quv moduli bilan tanishtirish, bu modulning nazmun-mohiyatini tavsiflash maqsad qilinadi.



Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Avgust Frebel (1782–1852) 19-asr o‘rtalaridagi nemis burjua-demokratik pedagogikasining ilg‘or vakili, I.G. Pestalozzining shogirdidir. Ko‘pgina taniqli olimlar va jamoat arboblari singari u ham bolaligida qobiliyatsiz hisoblangan. Maktabda o‘qib yurgan chog‘ida u tabiiy fanlarga qiziqqan, bu mavzu bilan bog‘liq ko‘p kitoblarni o‘qigan, gerbariyalar to‘plagan, geometriyaga qiziqib qolgan (Волобуева, 2001). F.Frebel mablag‘ yetishmasligi sababli universitetni tark etishga majbur bo‘lganidan bir qancha vaqt o‘tgach, u namunaviy maktabning katta o‘qituvchisi Gryuner bilan uchrashib qoladi. Ushbu uchrashuv uning kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Keyinchalik, Fridrix Vilgelm Avgust Frebel Pestalozzi maktabida ishlaydi, harbiy xizmatni o‘taydi. U universitetda o‘qiganidan so‘ng, ko‘plab yaxshi takliflarni rad etadi va o‘zini butunlay bolalarni tarbiyalash ishiga bag‘ishladi. Bern kantonal hukumati unga Burgdorfda mehribonlik uyini tashkil etishni ishonib topshirganida, F.Frebelga yosh bolalar uchun alohida ta‘lim muassasalari zarurligi haqidagi g‘oya birinchi bo‘lib keladi: bu yerda u maktabgacha ta‘lim nazariyasini va “sovg‘alarini” amalda sinab ko‘rishi mumkin edi.

1840-yilda Fridrix Vilgelm Avgust Frebel Blankenburgga ko‘chib o‘tadi va u yerda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun birinchi ta‘lim va tarbiya muassasasini ochadi va uni «bolalar bog‘chasi» deb ataydi. Shunday qilib, uning birinchi bolalar bog‘chasi kitob nashr qilishning bayrami, yani bosmaxonalarnin 400 yilligi kuni ochiladi. Ayni paytda F.Frebel “Farzandlarimiz uchun yashaylik!” shiori bilan yakshanbalik gazeta chiqarishni boshlaydi. F.Frebelning bolalar “hayot gullari”, tarbiyachilar esa “chiroyli bog‘bonlar” degan ta‘sirchan g‘oyasi hozirgacha insonparvarlik pedagogikasining madhiyasi bo‘lib qolmoqda (Джурицкий, 1998). Ayni paytda Bad Blankenburg shahrida Fridrix Frebel muzeyi ochilgan.

Idealistik nemis falsafasi ruhida tarbiyalangan F.Frebel tabiat, jamiyat, inson haqidagi qarashlarida idealist edi va pedagogika idealistik falsafaga asoslanishi kerak, deb hisoblagan. Uning fikricha, bolaga tabiiy ravishda to‘rtta instinkt berilgan: faoliyat, bilim, badiiy ijod va dinga bog‘liqlik. Faoliyat instinkti yoki faoliyat - bu yagona ijodiy ilohiy tamoyilning bolada namoyon bo‘lishi; bilim instinkti - insonga xos bo‘lgan hamma narsaning ichki mohiyatini, ya‘ni yana

Xudoni bilish istagi (Мчелидзе, 1986, 45). F.Frebel hatto Pestalozzining ta‘lim va tarbiyaning bola rivojlanishidagi o‘rni haqidagi fikrlarini diniy-mistik asoslab berdi, shveytsariyalik demokrat pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirish g‘oyasini bolada ilohiylikni ochish jarayoni sifatida izohladi.

F.Frebel o‘zining pedagogik qarashlarida borliq qonunlarining universalligidan kelib chiqadi: “Abadiy qonun hamma narsada mavjud, amal qiladi va hukmronlik qiladi... tashqi dunyoda ham, tabiatda ham, ichki dunyoda ham, ruhda ham...” (Волобуева, 2001). Insonning maqsadi, F.Frebelning fikricha, bu qonun soyasida qolgan “ilohiy tartib”ga qo‘shilish, uning “o‘z tamoyili”ni rivojlantirishdir. Ta‘lim jarayonida insonning ichki dunyosi dialektik ravishda tashqi dunyoga qarab “oqadi”. Atoqli olim ta‘lim va tarbiyani barcha yoshdagilar uchun yagona pedagogik muassasalar tizimi shaklida tashkil etish taklif etadi.

F.Frebel ta‘lim maqsadini bolaning tabiiy xususiyatlarini rivojlantirish va uning o‘zini ochib berish yo‘li deb hisobladi. Bolalar bog‘chasi bolalarning har



tomonlama rivojlanishini ta'minlashi kerak, bu ularning jismoniy rivojlanishidan boshlanadi, degan g'oyani ilgari surdi (История педагогики и образования, 2001, 46).

F.Frebel, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, barcha bolalar uchun ta'limning ochiqligi tamoyilini himoya qilib, ta'lim siyosatiga demokratik yondashuvni qo'llab-quvvatladi va bu Germaniyaning sanoat va ilmiy rivojlanishining jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan aholining yuqori darajadagi ta'limga bo'lgan davlat ehtiyojlariga mos keladi, degan xulosaga keladi. U umumbashariy ta'limni an'anaviy elita ta'limga muqobil deb hisoblaydi (Джуринский, 1998). F.Frebel nuqtai nazaridan umumbashariy ta'limning maqsadi bolalarni yoshligidan jamiyatda oldindan belgilangan o'ringa tayyorlash yoki ularga kasb-hunar o'rgatish emas, balki har bir bolaning rivojlangan shaxs bo'lib yetishishini ta'minlashdan iboratdir.

F.Frebelning fikricha, ta'lim jarayoni “tafakkur va harakat, idrok va amal, bilim va malaka o'rtasida uzviy bog'lanishlar o'rnatilgan”, “insonning ham jismi, ham ongiga uning ichki tabiatiga mos ravishda har tomonlama ta'lim bera olsa”gina shaxsning har tomonlama rivojlanishi mumkin bo'ladi (Волобуева, 2001). Bu shuni anglatadiki, hech bir shaxsning qobiliyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi; haqiqiy ta'lim chegara bilmaydi va hayot davomida uzluksiz jarayon sifatida davom etadi.

Ta'lim mazmuni insonning kuch va qobiliyatlarining xilma-xilligini aks ettirishi kerak. F.Frebel tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturi o'sha davr ijtimoiy-madaniy hayotining barcha asosiy yo'nalishlarini: “san'at”, “tabiatshunoslik”, “tabiiy resurslardan foydalanish usullari”ga o'rgatish, shuningdek, shu yo'l bilan olingan xom ashyoni “oddiy va murakkabroq qayta ishlash”, “tabiiy moddalar va kuchlar haqidagi bilimlar”, “tabiat tarixi va alohida mamlakatlar tarixi”, “insoniyat va tabiatshunoslik”ni o'z ichiga olgan. F.Frebel bu keng qamrovli ta'lim dasturini o'z maktablarida amalga oshirishga intilgan.

F.Frebelning pedagogik qarashlariga binoan, inson qobiliyatlari uning faoliyati jarayonida rivojlanadi va shunga muvofiq ravishda, pedagogik jarayon “harakat, mehnat va tafakkur”ga asoslanishi lozim. F.Frebelning butun ta'lim tizimi, jumladan, maktabgacha ta'lim ham o'qituvchi rahbarligidagi bolalar faoliyatiga asoslanishi kerak, degan ishonchga tayanadi.

F.Frebel ta'limni o'quvchi va o'qituvchi ishtirokidagi ikki tomonlama jarayon sifatida ta'riflaydi, bunda o'qituvchi pedagogik tamoyillarga amal qilgan holda, asosan ko'plab turli faoliyat turlari orqali shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bu jarayon o'quvchini ham, o'qituvchini ham o'zini o'zgartirishga qaratilgan ongli sa'y-harakatlarga yetaklaydi. Haqiqiy o'qituvchi har doim bir vaqtning o'zida «berishga va olishga, birlashishga va bo'lishishga, tayinlash va sabr-toqatli bo'lishga, qattiqqo'l va yumshoq, qat'iy va moslashuvchan bo'lishga» qodir.

F.Frebelning fikriga ko'ra, shaxsshakllanishi uchun faoliyatning ahamiyatini tushunishi kerak, bunda esai faoliyat turlari (o'yin, o'qish va mehnat) ta'lim uchun alohida ahamiyatga ega (Волобуева, 2001). F.Frebel ularning o'zaro ta'sirining ko'plab shakllarini ko'rsatadi, pedagogik jarayonda ularning o'zaro ta'siri zarurligiga e'tibor qaratadi.



F.Frebel o'yinni "bolalar rivojlanishining eng yuqori bosqichi" deb ta'riflagan. U o'yin nazariyasini ishlab chiqadi, harakatli o'yinlarni to'playdi va ularni uslubiy jihatdan sharhladi. F.Frebel tasviriy san'at, mehnat ta'limi bo'yicha o'ziga xos, qat'iy tartibga solingan tizimni ishlab chiqdi va mashhur "Sovg'alar"ni yaratadi (Джурицкий, 1998). Bunda "sovg'alar" vositasida shakl, -hajm, o'lchamlar, fazoviy munosabatlar haqidagi bilimlar bilan birlikda dizayn ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan qo'llanma yaratadi. Qo'llanmada bola nutqining rivojlanishini uning faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini dalillaydi.

F.Frebel o'yinni bog'cha pedagogikasining o'zagi deb hisoblagan. O'yinning mohiyatini ochib berar ekan, u bola uchun o'yin – bu joziba, instinkt, uning asosiy faoliyati, u yashaydigan element, uning shaxsiy hayoti ekanligini isbotlab beradi. O'yinda bola tashqi dunyoni tasvirlash orqali o'zining ichki dunyosini ifodalaydi. Oilaviy hayotni, chaqaloqqa g'amxo'rlik qilayotgan onani va hokazolarni tasvirlash orqali bola o'zidan tashqi narsani tasvirleydi, ammo bu faqat ichki kuchlar tufayli maydonga chiqishi mumkin (Волобуева, 2001). F.Frebel o'yin materiallarini bolalarning ichki ehtiyojlarini rivojlantirishga yordam beradigan muhim ta'lim vositalari deb hisoblagan. U tarixda bolalar o'yinining qadr-qimmatini tan olgan birinchi ta'lim mutaxassisi va bolalar uchun o'quv materiallarini – "sovg'alarni" yaratgan birinchi shaxs edi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Bugungi kunda maktabgacha ta'limning davlat standartida F. Frebelning pedagogik qarashlariga mos keladigan ko'pgina bandlarni ko'rishimi mumkin:

- bolalikning barcha bosqichlarida (go'daklik, erta va maktabgacha yoshdagi) bolaning to'liq tajribasi, bola rivojlanishini boyitish (kuchaytirish);
- bolaning shaxsiyatiga hurmat;
- kattalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsiy rivojlanishi va gumanistik tabiati;
- bolalarni muayyan faoliyat turlarida rivojlantirish: bunda birinchi navbatda o'yin, kognitiv va tadqiqot faoliyati shaklida, ikkinchidan, bolaning badiiy va estetik rivojlanishini ta'minlaydigan ijodiy faoliyat shaklida takomillashishini ta'minlash;
- bolalar va kattalar o'rtasidagi yordam va hamkorlik, bolani ta'lim munosabatlarining to'liq ishtirokchisi (sub'ekti) sifatida tan olish;
- har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv faoliyatini tashkillashtirish.

Turli mamlakatlarda F.Frebelning didaktik tizimini simvolizm, didaktiklik va bolalar faoliyatini haddan tashqari tartibga solish uchun harakat sifatida tanqid qilinganiga qaramay, uning jahon pedagogikasining rivojlanishiga qo'shgan hissasini tan olish zarur. Uning faoliyati tufayli ko'plab mamlakatlarda bolalar bog'chalari maktabgacha ta'lim tizimida etakchi o'rinni egallaydi.

Fridrix Frebel maktabgacha pedagogika tarixida birinchi bo'lib maktabgacha ta'limni keng qamrovli, uslubiy jihatdan batafsil tizimli amaliy qo'llanmalar bilan ta'minladi va maktabgacha pedagogikaning mustaqil bilim sohasi sifatida vujudga kelishiga hissa qo'shdi.



Bundan tashqari, F. Frebel birinchi bo‘lib, yoshga asoslangan davriylashtirish tizimini ishlab chiqqan, u go‘daklik, bolalik, o‘smirlik va yoshlik davrlarini belgiladi. Ushbu davrlashtirishga ko‘ra ma‘lum yoshdagilar uchun ustuvor faoliyat turini va tashqi dunyoning bolaga o‘ziga xos ta‘sirini ta‘riflab berdi. Shunday qilib, go‘daklik davri uchun bu ta‘sirning tabiati «g‘amxo‘rlik» so‘zi bilan, bolalik davrida - «tarbiya», o‘smirlik davrida - «ta‘lim» bilan ifodalanadi. Go‘daklik va bolalik – bu, har bir inson voqeligining uchlik - harakat, sezish va fikrlash shaklida namoyon bo‘lishining asosi bo‘lgan tabiiy qobiliyat, tushunish, idrok etish faoliyatining namoyon bo‘lishining muhim davrlari sifatida qabul etiladi. Shu tarzda F.Frebel bola psixikasining rivojlanishini belgilovchi asosiy jarayonlarni xarakterlashga juda yaqin keldi, ular uchun ma‘lum bir qonuniyatini yaratdi. Ushbu qonuniyat o‘zini namoyon qilishi uchun, F.Frebel ning fikriga ko‘ra, tashqi dunyo bilan tanishish usulini, shuningdek, o‘yinlarda ifodalangan mustaqil faoliyat usulini diqqat bilan ko‘rib chiqish kerak.

Bolaning rivojlanish jarayonida duch keladigan obyektlarni oldindan bilish juda muhimdir va bu faoliyatni tasodifga qoldirib bo‘lmaydi. Bolaning o‘zi bu ehtiyojni harakat qilish, tekshirish, tana a‘zolari bilan o‘ynash orqali namoyon qiladi: barmoqlar, qo‘llar, oyoqlar, yonoqlar va hokazolarni qo‘llaydi. Ammo bularning barchasi bolaning o‘z xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lganligi sababli, uni kerakli tarzda bilib ololmaydi. Buning uchun obyektini boladan ajratish, unga tashqaridan biror narsa berish kerak, ya‘ni bolaga u va tashqi dunyo o‘rtasidagi vositachilarni berish kerak. F.Frebel bolani hayotga, bu hayotni bilishga tayyotlashga zaruriy predmet muhitini yaratadi va oltita sovg‘a didaktik tizimini ishlab chiqadi.

F.Frebel bolalar faoliyatlarining turli turlarini taklif qildi, bunda pedagog «sovg‘alar» bilan ishlash tizimini taklif qiladiki, “sovg‘alar” sifatida qurilish materiallari bilan faol o‘yinlar, rasm chizish, modellashtirish, qog‘ozdan to‘qish, qog‘oz kesish, kashta tikish, metall halqalar biror narsa yasash, tayoqchalar, no‘xat, munchoqlardan yashash va boshqalar.

Dastlab, F.Frebel tomonidan ishlab chiqilgan olti turdagi o‘quv materiallari mavjud edi. Keyinchalik bu raqam ko‘paydi va xilma-xil bo‘ldi, ammo baribir birinchi 6 ta «sovg‘a» o‘zgarmas klassik versiyadir. Boshqa ilmiy va nazariy qarashlar ta‘sirida uslubiy jihatdan o‘zgartirilgan ushbu «sovg‘alarning» aksariyati zamonaviy bolalar bog‘chalarida hali ham qo‘llaniladi. Ushbu o‘quv modulining maqsadi Fridrix Frebel ning didaktik tizimiga asoslangan erta va maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoning tabiatshunoslik manzarasini rivojlantirishdir. «Fridrix Frebel ning didaktik tizimi» tarkibiy o‘quv moduli ikkita tarkibiy blokdan iborat:

1. “F.Frebel to‘plamlari” (klassik). Ushbu blok birlamchi manbalarga tamomila mos keladi va uslubiy tavsiyalarda batafsil tavsiflangan 6 ta «sovg‘a» ni ifodalaydi. Mazkur o‘quv modulida F.Frebel ning «Sovg‘a» atamasi zamonaviyroq «To‘plam» atamasi bilan almashtirildi, ammo ularni raqamlash muallifning tizimiga muvofiq amalga oshiriladi. Blokda taklif qilingan sxemalar F. Frebel tomonidan ishlab chiqilgan va hech qanday tuzatish va o‘zgartirishlarga ega emas.



2. «F.Frebel to‘plami - yumshoq modullar». Mazkur blok F. Frebel tomonidan ishlab chiqilgan materiallarning modifikatsiyasi bo‘lib, u klassik to‘plamdagi ayni 6 ta «sovg‘a» ni ifodalaydi, lekin yumshoq modullari ko‘rinishida bo‘ladi va bolani stolning cheklangan maydonidan xonaning o‘yin maydoniga o‘tkazadi. Bu blok nogiron bolalar imkoniyatlarini kengaytiradi va F. Frebelning pedagogik qarashlariga muvofiq bolaning harakatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini ta‘minlaydi.

Bir shu bilan birga, «sovg‘alar» g‘oyasi Frebel tomonidan qandaydir mistik ramziylik ifoda etadi, ya‘ni «sovg‘alar» orqali bola go‘yo dunyoning birligi va xilma-xilligini tushunishga, keyin esa uning poydevoriga - ilohiy tamoyilga olib keladi. To‘p (koptok), birinchi o‘yinchoq, tinchlik va harakatni ifodalaydi va bolaga mavjud bo‘lgan hamma narsaning birligini tushunishga yordam beradi. Kub birlik va xilma-xillik ramzi. «Sovg‘alar» bilan darslar ketma-ketligi oddiy birlikdan (to‘p) murakkabroq (qismlarga bo‘lingan kub) birlikka o‘tishni belgilaydi.

F.Frebel didaktik tizimining qariyb 200 yillik tarixini, vaqt bo‘yicha o‘zgartirishlar, diniy urg‘u, falsafiy simvolizm va muallif qarashlarining boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olsak, zamonaviy o‘qituvchilarda taqdim etilgan materialdan amaliy faoliyatda foydalanish bo‘yicha savollar tug‘ilishi mumkin. Zamonaviy maktabgacha pedagogika «sovg‘alar» ni ramz emas, koinotning ba‘zi umumiy qonunlarini tushunish vositasi emas, balki didaktik material (ma‘lum darajada o‘yin qurilish materiallarining prototipi) deb hisoblaydi, asosan bolalarning intellektual rivojlanishiga ta‘sir qilishini qayd etadi. Bundan tashqari, to‘plamlar va taqdim etilayotgan katta hajmdagi materiallar o‘rtasida aniq yosh nisbati yo‘qligi o‘qituvchilar orasida ushbu materialni o‘z guruhining ta‘lim mazmuniga qanday kiritish kerakligi haqida savol tug‘diradi.

O‘quv jarayonida F.Frebel to‘plamlaridan foydalanish maktabgacha ta‘lim muassasasining asosiy ta‘lim dasturining majburiy qismida ham, o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan ta‘lim vazifalarini hal qilish uchun qo‘shimcha material bo‘lgan qismida ham, ta‘lim munosabatlari ishtirokchilari tomonidan ham shakllantirilishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham o‘qituvchi o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ustuvorliklaridan kelib chiqib, faoliyat mazmunini belgilaydi.

Tahlillar va natijalar

O‘zining universalligi tufayli F.Frebel ning didaktik tizimi bolalar bog‘chasida STEM ta‘limi texnologiyasi asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin, chunki u sanab o‘tilgan barcha sohalaridagi («fan», «texnologiya», «muhandislik», «matematika») bilimlarni tizimlashtiradi.


Fridrix Frebelning “sovg‘alar” tarkibi va mazmuni bilan tanishib chiqaylik 1-blok, Frebelning an‘aanaviy sovg‘a to‘plamlari.



“Yung sharchalar” to‘plami (Sovg’a № 1).

1). Bu to‘plam bolalar qo‘liga sig‘adigan o‘lchamdagi sharchalardan iborat bo‘lib, bolalar uchun eng tushunarli va eng oson shakldir.

Frebel davridagi sharchalar 4sm diyametrga ega bo‘lib, kamalak rangidagi mato yoki yunglardan tayyorlangan bo‘ladi. Bu sharchalar yog‘ochdan tayyorlangan qutichada, sharchalarni osish uchun mo‘ljallangan taglikka birlashuvchi 3 ta tayoqcha bian saqlanadi. F.Frebel sharchalar to‘plamiga ilova qilgan tushuntirish qog‘ozida sharchalar bilan o‘ynash uchun 30 ta fikr bergan(sharchalarni ko‘tarish, tushirish, aylanma harakat qildirish, mayatnik holatida o‘ynash va b.).



1-rasm. Sharchalar bilan amaliy mashg‘ulotlarga misollar.

“Asosiy shakllar” to‘plami (Sovg’a № 2).

Ikkinchi to‘plam yog‘ochdan tayyorlangan shar, kub va silindrdan iborat. F.Frebel bu asosiy shakllar orqali qarama-qarshi qo‘yish va tenglashtirish g‘oyasini nazarda tutadi. Shar harakat ramzi, cheksizlik ramzidir. Kub shakli ko‘p obrazlilikdagi birlikni anglatadi. Silindr kub va sharning xususiyatlarini jamlaydi, vertikal holatda u turg‘undir, gorizontal holatda harakat qiladi (yumalaydi). Bu to‘plamning yangiligi shundaki, ishlatilgan materiyal - yog‘och bolalardan ko‘proq kuch talab etadi va ayni paytda shovqinli va ovoz chiqaradi. Shar va kubning xossalarini birlashtiradigan silindr (shar kabi dumalaydi, kub kabi turadi)

F.Frebel tomonidan 1843-yilda qo‘shilgan. Ikkinchi to‘plamdagi predmetlar balandligi, kengligi va eniga





ko‘ra birinchi to‘plamdagilar bilan bir xil, ya‘ni 4 sm.dir. Ip bog‘lash uchun maxsus sim halqalar biriktirilgan.

F.Frebel asosiy jismlar bilan harakatlar bolalarga vizual fazoviy effektlarni o‘zlashtirishga yordam berishini ta‘kidlaydi va ularni chizmalar va tavsiflarda taqdim etadi:

Masalan, kubning o‘qidan osigan bo‘lsa-da, lekin aylantirilganda kub vizual ravishda silindrga o‘xshaydi (2-rasm). Diagonal shaklda o‘qidan osilgan kub aylanayotganda rombning yoki tagi bilan birikkan ikkita konusning vizual tasvirini yaratadi(3-rasm).



2-rasm.



3-rasm.

Ikkinchi to‘planning jismlari F.Frebel to‘plamlarining asosiy elementlarini ifodalaydi. Muallifning fikricha, ular birlik va xilma-xillik ramzi bo‘lib, turg‘unlik va harakatni yaqqol ifodalaydi. Ushbu asosiy elementlar yoki F.Frebel aytganidek, «normal shakllar» bolalar tomonidan maktabda matematika darslarida, chizmachilikda (rasmda), qurilishda, san‘at va me‘morchilikda uchraydi. Asosiy jismlar, ya‘ni shar, kub va silindrdan iborat piramida, bu piramida mohiyatan muallifning didaktik tizimining logotipini tamsil etadi.



“Kubiklardan kub” to‘plami (Sovg‘a № 3)

Uchinchi to‘plam (3-sonli sovg‘a) qopqoqli yog‘och qutidagi 2,5 sm qirrali 8 kubdan iborat. Kub tuzilmalari turli usullar bilan yig‘ilishi va demontaj qilinishi mumkin. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, ular bolaga atrofdagi real hayotni takrordan kichik hajmda yaratish imkonini beradi.






F.Frebel ning barcha o‘yin va faoliyat vositalari «hayot, go‘zallik va bilim shakllarini» aks ettirishga yordam beradi. Bunda birinchisi hayot shakllari bo‘lib, turg‘un, qo‘zg‘almaz jismlarni ifoda etadi. Go‘zallik shakllari yoki go‘zal shakllar berilgan kubiklar yoki boshqa vositalardan ma‘lum bir andoza yoki naqshlarni diagramma asosida shakllantirishga yo‘naltiradi. Bilim shakllari bo‘limida esa berilgan shakllar asosida ajratish, ayirish, qo‘shish kabi matematik amallarni bajargan holda ma‘lum bir obyektlarning qurilishiga diqqat qaratiladi. F. Frebel uchinchi to‘plamni qo‘llash bo‘yicha faoliyat turlarini batafsil tafsilotlar bilan tushuntirib beruvchi ko‘rsatmalarni ilova qiladi. U bolalarning kundalik hayoti va muhitidan jismlar sifatida qabul qilingan 100 ta «hayot shakllari» ni tavsiya qildi. Bu shakllar kubiklarning turli shakllarda birlashtirishidan hosil bo‘ladi. «Go‘zal shakllar» yoki bezak rasmlari kubning statsionar markaz atrofida soat yo‘nalishi bo‘yicha aylanma harakatlari bo‘yicha joylashtirish natijasida paydo bo‘ladi. F. Frebel vizual tarzda ichki va tashqi qonun va tartibning qutbli qarama-qarshiligini ifodalovchi 71 ta go‘zal shakllarni ishlab chiqdi. «Bilim shakllari» bilan F. Frebel bolalarga oddiy matematik ma‘lumotlarni va amallarni, masalan, butunga mutanosib ma‘lum bir qismini aniq ko‘rsatmoqchi edi.


“Kubiklardan kub” to‘plamidan “hayot shakllari” hosil qilinishiga shunday misollar keltirishimiz mumkin:

Uchinchi to‘plamning kublari bilan ishlashda, F.Frebel bolalardan ularni chapdan o‘ngga va aksincha, yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga sanab, ikki qismga bo‘lib, kublarning tengligini aniqlashni so‘radi. Bundan tashqari, u bolalardan kubiklarning birlashuvi qanday ko‘rinishda ekanligini taxmin qilishni taklif qildi: stol, yo‘l, minora va h. F.Frebel uchinchi to‘plam uchun bolalarga tanish bo‘lgan jismlarning tasvirlariga muvofiq yig‘ish andozalarini ishlab chiqdi.



Har bir to‘plam F.Frebel ning “birlik va xilma-xillik” haqidagi g‘oyasini aks ettiradi. Bunday holda, kubning «hayot shakllari» ga aylanishi yig‘ilgan kub bilan boshlanadi va tugaydi.

«Kubiklardan kub» to‘plamidan foydalangan holda, «go‘zal shakllar» to‘plamini quyidagi namunalardagi singari to‘plashi mumkin:



Mazkur rasmlarda tasvirlangan naqshlar ornamental xarakterga ega bo‘lishidan tashqari, ular bolalarda uch o‘lchamli jismni proyektiv ko‘rishini



rivojlantiradi, chunki F.Frebel tomonidan taklif qilingan naqsh binoning yuqoridan murakkab ko‘rinishi deb hisarlanishi mumkin.

«Kubiklardan kub» to‘plamida «Bilish shakllari» quyidagicha shakllantiriladi: Quyidagi shakllar butun va qism o‘rtasidagi munosabatni aniq ko‘rsatadi:

- butun 2 qismga bo‘linishi mumkin (kubni gorizontal ravishda yarmiga bo‘lish);

- butun 2 qismga bo‘linishi mumkin (kubni vertikal ravishda yarmiga bo‘lish);

- bitta butun - ikkita yarmi; ikki yarmi - bitta butun;

- bir butun - ikki yarmi; bir yarim - ikki chorak; ikki chorak - yarmi; ikkiyarmi

- bitta butun;

Bolalar kubni chorak va yarmidan amaliy tarzda yuqoridagi shakllar asosida yig‘adilar.



“Bruslardan iborat kub” to‘plami (Sovg‘a № 4)

To‘rtinchi to‘plam (sovg‘a № 4) uchinchi to‘plam bilan bir xil qutida, lekin yangi jismlarni - 5 sm x 2,5 sm x 1,25 sm (U x G x D) o‘lchamdagi 8 ta to‘rtburchakli parallelepiped o‘z ichiga oladi. F. Frebel parallelepiped uzunligini asosiy nisbat sifatida belgiladi. Bu 3-6 to‘plamning qismlaridan birlashtirilgan qurilishni amalga oshirishga imkon beradi. 11 ta jadvalda ulardan foydalanish bo‘yicha takliflar mavjud. F. Frebel 3 va 4 to‘plamlarga mutanosib ravishda qofiyalangan qo‘shiqnlarni ham kiritdi, ularning maqsadi bolalarni xursand qilish va ularning bilim faolligini qo‘llab-quvvatlash edi.



Xuddi uchinchi to‘plamdagi kabi, Fregel hayot shakllari, go‘zallik shakllari va bilim shakllarini bosqichma-bosqich bajarishni tavsiya qildi. Ko‘rsatmaga ko‘ra, kundalik hayot va bolalarning atrof-muhit obyektlari sifatida tushunilgan «Hayot shakllari» turg‘un jismlarni hosil qilish orqali yasaladi, «Go‘zallik shakllari» qo‘zg‘almas markaz atrofida parallelepipedlarning soat yo‘nalishi bo‘yicha faraz qilingan harakatlanishi natijasida paydo bo‘ladigan bezakli shakllardir. «Bilim shakllari»da F. Frebel bolalarga oddiy matematik hisoblashlarni ko‘rsatishni rejalashtirdi. Bunda butun va qism, hajm va tekislik, birlarni to‘plab 8 sonini hosil qilish, 8 ichida qo‘shish va ayirish amallarining bajarilishi ko‘zda tutilgan. Misol uchun hayot shakllari sifatida «kub», «zaminning bir qismi», «ikkita katta taxta», «to‘rtta kichik taxta», «sakkizta qurilish g‘ishtlari», «uzun bog‘ to‘sig‘i», «shahar darvozasi», «asalari uyasi», «minora», «quduq», «favvora»,




«o‘rindiqlar», «divan», «ikki stul», «stol va stullar», «bolalar stoli», «yodgorlik» shakllarini qurish vazifasi beriladi.



Bundan tashqari, to‘rtinchi to‘plamda muallif «hayot shakllari»ni bir nechta tematik guruhlariga ajratdi: «Mebel» guruhiga “stol”, “ilgich”, «stul va stol», «ikki stul», «to‘shak», “divan” va b. , «Novvoyxonada» guruhiga «do‘kon», «sakkizta tortma», «ikki hisoblagich», «to‘rtta non», “pannis”, «xamir kesish taxtasi», «xamirni aralashtirish uchun quti», “arava”, «pul sandig’i», «Qurilish va uyni obodonlashtirish» guruhiga «uy», «uy yaqinidagi maydon» yoki «veranda», «ochiq eshik», «avtomobil yoki avtobus o‘rindiqlari», «ikkita skameyka», «ikki stul», “ikki oyna” , «ikki ramkali baland deraza», «vestibul». «orkestr (sahna)» vb. kiradi. Quyida ushbu hayot shakllariga namunalar berilgan.



Go‘zal shakllarida ham berilgan andozalarga qarab, ma’lum naqshlarni yaratishga misollar keltiramiz:



Didaktik tizim muallifining qarashlariga ko‘ra, to‘rtinchi to‘plamda bir xil kub va uning qismlarining ham hajmli jismlarning (kublarning), ham tekis yuzlarining bo‘linuvchanligi haqidagi g‘oyalar keltirilgan. Masalan, bitta vertikal va uchta gorizontal kesimga ega bo‘lgan g‘ishtdan yasalgan kub, kubning ikki qismga vertikal bo‘linishi, kubning har bir yarmini gorizontal ravishda ikki qismga bo‘lish, har chorakning ikki qismga gorizontal bo‘linishi amallarining bajarilishi bilim shakllariga misol bo‘la oladi.



F.Frebel bu vazifalarning har biri o‘qituvchi va bola o‘rtasidagi dialog vositasida bajarilishini taklif qildi. O‘qituvchi qismlar qanday materialdan yasalganligini, ular qanday rangda (agar qismlar rangli bo‘lsa), qaysi tomoni kengroq/torroq, uzunroq/qisqaroq ekanligini so‘raydi. To‘rtinchi Sovg‘a materiallaridan foydalangan holda, F.Frebel juftliklarda simmetrik tarzda tashkil etilgan uch turdagi tomonlar mutanosib ravishda bir-biriga teng bo‘lgan yuqori-past, old-orqa, o‘ng-chap haqida tushuncha beradi. Shu bilan birga, bolalar o‘zlariga nisbatan yaqib yoki uzoqda joylashgan jismlar, bir tekislikdagi jismlarning bir-biriga yaqin-uzoq joylashganligini aniqlash orqali fazoviy-orientatsion g‘oyalarni rivojlantiradilar.

“Kublar va prizmalar” to‘plami (Sovg‘a №5)

Beshinchi to‘plam (5-sonli sovg‘a) - bu kattaroq qutidagi 3-to‘plamning miqdor jihatdan ko‘paygan shaklidir. Qirrası 7,5 sm bo‘lgan kub 3 ga teng bo‘lingan bo‘lib, undan 27 ta kub hosil bo‘lgan, shundan 3 tasi diagonal bo‘yicha bir marta, 3 tasi diagonal bo‘yicha ikki marta bo‘lingan. Bu usul orqali tom shaklidagi katta va kichik uchburchak prizmalar shakllanadi, bu esa bolaga o‘yin variantlarini ko‘paytirish qilish imkonini beradi. Qutiga diagrammali 48 ta varaqli «hayot, go‘zallik va bilim shakllari» ni yasash uchun fikrlar ilova qilinadi.



«Kublar va prizmalar» to‘plami orqali quyidagi «hayot shakllari»ni yasash taklif qilinadi: «gul stendi», «katta stul», «oyoq dastakli qulay stul», «katta yotoq», «katta divan», «hovlilı uy», «dehqon uyi», «maktab», «qozonxonaga ega zavod», «daraxtlar qatori bo‘lgan bog‘», «qal‘a», «uchta kirish joyi bo‘lgan shahar darvozasi», «arsenal» (harbiy ombor), «qo‘riqchilar uchun ikkita binoli shahar darvozasi», «yodgorlik». Quyidagi rasmlarda ularga namunalar berilgan:



F.Frebelning sovg‘alar vositasida nutqni rivojlantirish haqidagi g‘oyasi syujetga asoslangan qurish faoliyatlarida o‘z aksini topdi, bu yerda o‘ylab topilgan hikoyaning syujeti asosida tuzilmalarni yaratadilar. Masalan, “Bolalik jannati”da Meri ismli qizning okean sohilidagi kichik bir shaharchada mayoqchi bo‘lib



ishlaydigan amakisini ziyorat qilish uchun qilgan sayohati misol tariqasida keltirilgan. Sayohatning butun syujeti maxsus diagrammalr vositasida ifodalangan. Port, port yonidagi qayiqxona, Meri sayohat qiladigan paroxod, yo‘lda duch keladigan Meri qirg‘oqda joylashgan qal’a (harbiy istehkom) shakllari yasaladi. «Dengiz bo‘ylab ko‘plab qayiqlar suzib yurmoqda», «Merining amakisi qo‘riqchi bo‘lgan mayoq», «amakining uyi», «qo‘shimcha binolar (ombor, aravalar uchun omborxonalar, it uyi)», «Merining sayohatidan keyin qaytib keladigan uyi» syujetlarida qurilmalar yasash taklif qilinadi.

«Kublar va prizmalar» to‘plami orqali «bilim shakllari». Faoliyatini tashkil etish uchun kubning 3, 9 va 27 qismga bo‘linishi ko‘rsatilishi mumkin. Bunday holda, har safar butun kub ishtirok etadi, lekin uni turli yo‘llar bilan bo‘lish mumkin. F.Frebelning fikricha, bu, mazmunning birligi bilan shakldagi farqning ifodasidirki, bu yerda kub mazmun/tarkib vazifasini bajaradi. Bu sovg‘a bolalarga geometriyani o‘rganishga yo‘naltiradi.

«Kublar, ustunlar, g‘ishtlar» to‘plami (Sovg‘a № 6)


Bu majmua uchinchi va beshinchi, to‘rtinchi va oltinchi to‘plamlarin yig‘indisidir. 7,5 sm qirrali kubda 27 ta parallelepiped (g‘isht) mavjud bo‘lib, ulardan 3 tasi uzunasiga bo‘lingan (6 ta ustun) va 3 tasi ko‘ndalang bo‘lingan (6 kvadrat g‘isht). Qutiga ilova qilingan 40 ta chizma oltinchi to‘plam bilan turli dizaynlar uchun g‘oyalarni taqdim etadi. Bu to‘plam ham «Hayot shakllari», «Go‘zal shakllar», «Bilim shakllari»ga taqsimlangan.




«Kublar, ustunlar, g‘ishtlar» majmuasidan «ustunli zal», «qahramonlar sharafiga yodgorlik», «shon-sharaf zaliga kirish», «ikki qavatli uy», «yozgi uy (olti ustunli vestibul)», «zavodning old ko‘rinishi», «tomsiz uy» va boshqa yasalmalar «hayot shakllari»ni tashkil etadi. Bu yasalmalarga namunalarning ba’zi rasmlari quyida keltirilgan:



«Kublar, ustunlar, g‘ishtlar» to‘plami vositasida «Go‘zal shakllar» yasalishiga ba’zi namuna rasmlarni keltiramiz. Bolalar bu kabi chizmalar vositasida kubiklar, ustunlar va g‘ishtlardan foydalanib qurilmalarni yasahsadi.



«Kublar, ustunlar, g'ishtlar» to'plamidan «bilim shakllari» uchun quyidagicha qo'llanilish tavsiya etiladi. Yani bir kubikdan boshlab qolgan obyektlarni qo'shib borish vositasida 19 dan 25 gacha raqamlar doirasida amallar bajarish mumkin.



Blok 2. «Frebel to'plamlari - yumshoq modullar»


Ushbu to'plam bilan ishlash klassik to'plam bilan bir xil mantiqqa amal qiladi, faqat sovg'alar-to'plamlar yog'ochdan emas, boshqa materiallardan tayyorlangan bo'ladi. To'plar oson ishlov beriladigan matodan qilingan bo'ladi va klassik to'plamdagi to'plar bilan bir xil harakatlarni bajarish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bolalar bog'chasi sharoitida ular faol, didaktik o'yinlarda va bolalarning mustaqil faoliyatida qo'llanilishi mumkin. Bu modul vositalari jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni hayotga tayyorlashda ham samarali natija beradi. Klassik to'plamdan farqli o'laroq ikkinchi to'plamda - yumshoq modulda tayoq uchun teshiklar ham, temir halqalar ham yo'q. To'plar ustunga osiladi va bolalar ularni erkin o'yinda boshqaradi. O'qituvchi bolalarning e'tiborini paydo bo'ladigan vizual effektlarga qaratadi va ularni turli nuqtai nazarlardan eskizini chizishni taklif qiladi.

Uchinchi va to'rtinchi yumshoq modullar to'plamlari bilan ishlashda klassik 3 va 4 to'plamlar bilan ishlashdagi bir xil didaktik usullar qo'llaniladi. Beshinchi va oltinchi yumshoq modullar to'plamlari bilan ishlashda ham klassik beshinchi va oltinchi to'plam bilan ishlashda bo'lgani kabi didaktik usullar qo'llaniladi. Bolalar klassik to'plamlarning ko'rsatmalaridan, chizamalaridan foydalanib, «hayot shakllari», «go'zal shakllar»ni

1-sovg'a. «Yung sharchalar» to'plami



2-sovg'a. «Asosiy shakllar» to'plami



3-sovg'a. «Kubiklardan kub» to'plami



4-sovg'a. «Bruslardan iborat kub» to'plami



to‘plashlari va «bilim shakllari»ni o‘zlashtirishlari mumkin. Shu bilan birga, strukturani idrok etishning turli burchaklari bolalar uchun fazoviy yo‘nalishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

F.Frebel tomonidan tavsiya etilgan syujetlardan foydalanish yumshoq modullar materialiga asoslangan syujetli rolli o‘yinlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Bolalar kubni saqlash qutisiga yig‘ishda alohida e‘tibor berishlari kerak. To‘liq kubni qismlardan yig‘ish uchun ba‘zan oldindan zaminda kubni yig‘ish va keyin uni qutiga qayta taxlash taqozo etiladi.



5-sovg‘a. “Kublar va prizmalar» to‘plami



6-sovg‘a.»Kublar, ustunlar, g‘ishtlar» to‘plami



Xulosa

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkin. Bugungi kunda aniq fanlar, tabiiy fanlar, muhandislik, matematika sohaları bo‘yicha malakali mutaxassislariga talab katta. Bolalarni ushbu yo‘nalishda tarbiyalash uchun STEAM texnologiyalarini qo‘llash rivojlangan davlatlarda tatbiq etilmoqda. Chunki STEAM texnologiyalari aniq fanlar va muhandislik sohasi bo‘yicha yetuk kadrlarning yetishmasligi bilan bog‘liq muammoni hal qilishga yordam berishni rejalashtirilgan.

STEAM texnologiyasi – ta’limning modulli yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi bolaning intellektual qobiliyatlarini ilmiy va texnik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyatini rivojlantirishdir. Muhandislik, texnologiya va matematikani bo‘yicha bolalar qiziquvchaligi orttirish, bu sohalar bo‘yicha bolalarning ma’lum bilimlarni egallashini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. STEAM matematika, ijodkorlik, muhandislik, texnologiya, tabiiy fanlar bo‘yicha maktabgacha yoshdagi bolalar bilimi shakllantiradi.

STEAM doirasidagi muhim modullardan biri Fridrix Frebelning didaktik tizimi hisoblanadi. Atoqli nemis pedagogi ishlab chiqqan “Sovg‘alar” vositalari bolalarni kichik yoshdan boshlab shar, kub, silindir, kubik, brus kabi jismlarni qo‘llash orqali ularning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltiridi. Ularni matematika, me’morchilik, geometriya, texnika, fizika kabi fanlarga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quarter century edition of The paradise of childhood. A practical guide to kindergartners by Wiebé, Edward; Bradley, Milton, 1836-1911, ed; Blake, Henry W.(Henry Wolcott), 1848-1897. Published 1896 Topics Fröbel, Friedrich, 1782-1852, Kindergarten [SHOW MORE](#)
2. Джурицкий А. Н. История зарубежной педагогики: Учебное пособие.- М., 1998.
3. История педагогики и образования. От зарождения воспитания в первобытном обществе до конца XX в. Учебное пособие для педагогических учебных заведений/ Под ред. А. И. Пискунова.- М.,2001.
4. Волобуева Л.М. Фридрих Фребель. Будем жить для своих детей. Педагогика детства. – М., 2001.
5. Мчелидзе Н.Б. История зарубежной дошкольной педагогики: Хрестоматия.. – М: Просвещение, 1986.
6. Распопина И. В. STEAM-технологии, новая ступень в развитии детей дошкольного возраста //Инновационные психологические и педагогические технологии как механизм повышения качества образования: сборник статей Международной научно-практической конференции, Воронеж, 1 февраля 2020 г. Уфа: Аэтерна, 2020. С. 141–145.
7. Соболев Н. М. Развитие познавательных способностей у детей старшего дошкольного возраста посредством использования STEAM-технологии Белгород: Белгород. Ин-т развития образования, 2019.
8. Тюнников, Ю. С. Стратегирование как прогностическая процедура педагогической инноватики // Стандарты и мониторинг в образовании. 2004. № 1. С. 53–57.
9. Уваров А. Ю. Инновационные педагогические практики: распространение // Школьные технологии. 2008. № 3. С. 55–63.
10. Филимонова М. Е. STEAM-образование как инновационная технология в условиях дошкольной образовательной организации // Инновационные методы обучения и воспитания: сборник статей II Международной научно-практической конференции, 30 ноября 2020 г. в г. Пенза. Пенза: Междунар. Центр науч. сотрудничества «Наука и Просвещение», 2020. С. 40–42.
11. www.kindergartenpaedagogik.de/
<http://www.gala-d.ru/parts/1086-part5.html>. Глава 5. Педагогическая деятельность и теория Фридриха Фребеля.



*O‘g‘iloy Mamashakirovna Asqarova
Namangan davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

UDK 37.091.3

TA'LIM JARAYONIDA “GAMIFIKATSIYA” VA “CASE STUDY” METODLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda “gamifikatsiya” (o'yinlashtirish) va “case-study” (vaziyatli tahlil) metodlarining o'rni, ahamiyati hamda ularni amaliyotda qo'llashning samaradorlik tajribalari yoritilgan. Maqolada bu metodlarning psixologik-pedagogik asoslari, ularning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi ta'siri, motivatsiyani oshirishdagi roli tahlil etilgan. Tadqiqotda tajriba-sinov ishlari orqali interaktiv metodlarning o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samarasi o'rganilgan. Yakuniy natijalar tahliliga ko'ra, “gamifikatsiya” va “case-study” metodlari ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar faolligini kuchaytirish hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy muloqotni rivojlantirishda muhim omil ekanligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: gamifikatsiya, case-study, interaktiv metod, ta'lim samaradorligi, motivatsiya, o'quvchi faolligi, ijodkorlik, pedagogik texnologiya.

*Угилрой Мамашакировна Аскарова
профессор Наманганского государственного университета,
доктор педагогических наук*

ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ “ГЕЙМИФИКАЦИЯ” И “CASE-STUDY” В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье освещаются роль и значение методов “геймификации” (геймификации) и “тематического исследования” (ситуационного анализа) в эффективной организации образовательного процесса, а также опыт их применения на практике. В статье проанализированы психолого-педагогические основы этих методов, их влияние на развитие личности учащегося, их роль в повышении мотивации. В исследовании изучалось влияние интерактивных методов на развитие самостоятельного мышления, творчества и коммуникативных навыков учащихся посредством экспериментальной и пробной работы. Согласно анализу конечных результатов, методы “геймификации” и “тематического исследования” оказались важным фактором повышения эффективности



обучения, повышения вовлеченности учащихся и развития позитивного общения между учителем и учеником.

Ключевые слова: геймификация, тематическое исследование, интерактивный метод, эффективность обучения, мотивация, активность учащихся, творчество, педагогические технологии.

O‘g‘iloy Mamashakirovna Asqarova
Professor of Namangan State University,
Doctor of Pedagogical Sciences

EXPERIENCE OF USING “GAMIFICATION” AND “CASE-STUDY” METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. This article covers the role, importance of the methods of “gamification” (gamification) and “case-study” (situational analysis) in the effective organization of the educational process and the effectiveness experiments of their application in practice. The article analyzes the psychological and pedagogical foundations of these methods, their influence on the development of the personality of the reader, their role in increasing motivation. The study explored the effect of interactive techniques on the development of students' independent thinking, creativity and communication skills through experimental work. According to the final results analysis, the methods of “gamification” and “case-study” have proven to be an important factor in improving educational efficiency, enhancing student activity, and promoting positive communication between teacher and student.

Keywords: gamification, case-study, interactive method, educational effectiveness, motivation, student activity, creativity, pedagogical technology.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ta‘lim tizimining rivojlanish tendensiyalari o‘qitish jarayonini yangicha yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. An‘anaviy dars o‘tish shakllari, o‘qituvchining faqat ma‘lumot yetkazuvchi, o‘quvchining esa uni tinglovchi sifatidagi roli zamonaviy ta‘lim talablari bilan mos kelmay qolmoqda. Bugungi kunda ta‘lim jarayoni o‘quvchini markazga qo‘ygan, faol ishtirok, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga tayanadigan tizimga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan interaktiv metodlar, xususan gamifikatsiya va case-study metodlari ta‘limni samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida tobora kengroq qo‘llanilmoqda.

Gamifikatsiya (ing. *gamification*) – bu o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni faollikka undash, raqobat va ishtiyoqni kuchaytirish jarayonidir. O‘yin faoliyati tabiatan shaxsni



ijtimoiylashuvga, harakat qilishga va maqsad sari intilishga undaydi. Shuning uchun ham o‘yin asosida qurilgan ta’lim jarayoni o‘quvchining emotsional holatini ijobiy o‘zgartiradi, o‘zlashtirishni yengillashtiradi va o‘quv materiallarini eslab qolish darajasini oshiradi. Bugungi kunda gamifikatsiya raqamli platformalar, mobil ilovalar, elektron o‘yinlar orqali turli fanlarda muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Masalan, “Kahoot”, “Quizizz”, “Eduplay”, “ClassDojo” kabi tizimlar o‘quvchilarda raqobat hissini uyg‘otish, natijalarni onlayn kuzatish va darhol teskari aloqa olish imkonini beradi.

Boshqa tomondan, **case-study** (vaziyatli tahlil) metodi ham ta’lim jarayonida keng e’tirof etilgan interaktiv yondashuvlardan biridir. Bu metodda o‘quvchilar hayotiy yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlar asosida muammoni tahlil qiladi, muqobil yechimlarni taklif etadi va o‘z qarashlarini himoya qiladi. Case-study metodining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda **tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, ijodiy yondashuv** va **jamoaviy qaror qabul qilish** ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ushbu metod ayniqsa iqtisod, huquq, tibbiyot, psixologiya, pedagogika kabi sohalarda samarali natija berib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Ta’lim-tarbiya tizimini innovatsion asosda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida ham zamonaviy interaktiv metodlarni joriy etish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, raqamli o‘qitish vositalaridan keng foydalanish zarurligi ta’kidlab o‘tilgan. Bu esa ta’lim sohasida yangi pedagogik texnologiyalar, o‘yinlashtirish va muammoli o‘qitish metodlarini amaliyotga chuqur joriy etish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Shuningdek, ta’limda innovatsion yondashuvlar o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni faol subyektga aylantirishga xizmat qiladi. Gamifikatsiya orqali o‘quvchilar o‘z yutuqlari uchun ball, belgi yoki mukofot olishadi, bu esa ularni o‘z-o‘zini rag‘batlantirish tizimiga olib keladi. Case-study metodida esa o‘quvchilar jamoaviy muhokama orqali bilimni o‘zlashtiradi, bu jarayonda o‘zaro fikr almashish, muloqot, hamkorlik, dalillash kabi kommunikativ kompetensiyalar shakllanadi. Shu bois bu ikki metodni birgalikda qo‘llash darsning didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishishda eng samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin elementlari bilan boyitilgan darslar o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi, ularning e’tiborini jamlaydi va o‘zlashtirish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xalqaro tadqiqotlar (Deterding, 2011; Gee, 2013; Anderson, 2022) ham ta’lim jarayoniga o‘yin mexanikasini kiritish o‘quvchilarni ijobiy raqobatga undashi, o‘zini baholashni rivojlantirishi va bilimni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlashini isbotlagan. Shu bilan birga, o‘zbek olimlari A.Abduqodirov, M.Jo‘rayev, Z.Shodmonova va boshqalar ham interaktiv metodlar, ayniqsa,



o‘yinlashtirish asosidagi darslarni o‘quvchi markazidagi ta‘limga o‘tishda muhim mexanizm sifatida e‘tirof etishgan.

Shu o‘rinda, gamifikatsiya va case-study metodlarining o‘ziga xos jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘qitish samaradorligini yanada oshirish mumkin. Masalan, darsda avval o‘yin elementlari yordamida o‘quvchilar motivatsiyasi uyg‘otilib, so‘ngra muammoli vaziyat tahliliga o‘tilsa, bu ikki yondashuv bir-birini to‘ldiradi. Bu esa o‘quvchilarning bilimni chuqur o‘zlashtirishiga, tahliliy fikrlash va ijodiy yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ta‘lim jarayonida “gamifikatsiya” va “case-study” metodlaridan foydalanish - bu nafaqat innovatsion yondashuv, balki o‘quvchilarning shaxsiy faolligini, mas‘uliyatini, kommunikativ salohiyatini va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiruvchi samarali pedagogik yo‘nalishdir. Shu sababli ushbu maqola doirasida mazkur metodlarning nazariy asoslari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta‘lim amaliyotida qo‘llash tajribalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta‘lim tizimida interaktiv metodlardan foydalanish so‘nggi o‘n yillikda jahon pedagogikasining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, “gamifikatsiya” va “case-study” metodlari o‘quvchilarning faolligini oshirish, motivatsiyani kuchaytirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish va bilimni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e‘tirof etilgan.

Xorijiy olimlardan **Sebastian Deterding (2011)** “gamifikatsiya” atamasini birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan olimlardan biridir. U o‘z tadqiqotida o‘yin mexanikasining o‘quv jarayoniga ijobiy psixologik ta‘sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Deterding fikricha, o‘yin elementlari o‘quvchining xulq-atvorini ijobiy tomonga yo‘naltiradi, o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi va o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Shunga o‘xshash fikrlar **James Paul Gee (2013)** tomonidan ham ilgari surilgan. U o‘yinlar nafaqat ko‘ngilochar faoliyat, balki o‘rganishning tabiiy modeli sifatida qaralishi kerakligini ta‘kidlaydi. Gee o‘yin muhiti orqali o‘quvchilar “xatolardan o‘rganish” tamoyilini samarali o‘zlashtiradi, bu esa o‘qitish jarayonining konstruktiv yondashuviga mos keladi.

Anderson (2022) esa “case-study” metodining zamonaviy ta‘limdagi ahamiyatini yoritib, uni real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiruvchi metod sifatida ta‘riflagan. Unga ko‘ra, case-study metodining asosiy afzalligi shundaki, o‘quvchi faqat tayyor bilimni emas, balki uni qo‘llash jarayonini o‘rganadi.

UNESCO (2023) tomonidan e‘lon qilingan “Digital learning and gamified education” nomli xalqaro hisobotda esa gamifikatsiya elementlarining raqamli ta‘limdagi roli alohida qayd etiladi. Unda o‘yin mexanikasiga asoslangan o‘qitish modellarining onlayn ta‘limda o‘zlashtirish sifatini 30–40 foizgacha oshirishi,



shuningdek, o‘quvchilarda barqaror motivatsiya va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishi qayd etilgan.

Mahalliy pedagogik adabiyotlar tahlili ham bu masalaga katta e‘tibor qaratayotganini ko‘rsatadi. O‘zbek olimi **A.Abduqodirov** o‘zining “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” asarida ta’limda innovatsion metodlarni qo‘llashni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosi sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, o‘yin asosidagi darslar o‘quvchini o‘zining o‘quv faoliyatini boshqarishga o‘rgatadi va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Shuningdek, interaktiv metodlarning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etar ekan, “Gamifikatsiya metodining asosiy ustunligi – u o‘quvchining ichki motivini uyg‘otadi va o‘qituvchining nazoratidan o‘quvchining o‘zini boshqarish tizimiga o‘tishni ta’minlaydi”, - deya ta’kidlaydi.

N.Tursunova esa “Ta’limda innovatsion metodlar” nomli monografiyasida interaktiv metodlarning o‘quvchi faoliyatidagi psixologik mexanizmlarini yoritgan. U gamifikatsiyani “rag‘batlantiruvchi mexanizm” sifatida izohlaydi va uning muvaffaqiyati o‘qituvchining kreativ yondashuviga bog‘liq ekanini qayd etadi.

Z.Shodmonova esa interaktiv ta’lim muhitining psixologik asoslarini tahlil qilib, case-study metodini shaxslararo muloqotni rivojlantiruvchi eng samarali metodlardan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, muammoli vaziyat asosidagi darslar o‘quvchini fikrlashga, qaror qabul qilishga va o‘z pozitsiyasini himoya qilishga o‘rgatadi.

Pedagogika fanida gamifikatsiya va case-study metodlarining uyg‘unlashtirilgan shakllari ham o‘rganilmoqda. Masalan, **P.Buckley** o‘yin elementlarini case-study tahliliga integratsiya qilish orqali o‘quvchilar ishtirokini yanada kuchaytirish mumkinligini isbotlagan. U “Gamified case method” modelini taklif qilib, o‘quvchilarni vaziyatli muammolarni o‘yin orqali hal etishga jalb etgan. Bunday yondashuv o‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlaydi va ularning raqamli savodxonligini oshiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim muassasalarida ham gamifikatsiya elementlarini tatbiq etish tajribalari kengaymoqda. Jumladan, umumta’lim maktablari, akademik litsey va kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida o‘yin asosidagi testlar, raqamli reyting tizimlari, virtual baholash platformalari orqali o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa nafaqat darsning samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida ijobiy emotsional aloqani mustahkamlaydi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqadiki, mavjud ilmiy manbalarda gamifikatsiya va case-study metodlarining alohida jihatlari yaxshi yoritilgan bo‘lsa-da, ularning **integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi** masalasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi ham aynan shu metodlarning uyg‘unlashuvini tahlil qilishda namoyon bo‘ladi.



Umuman olganda, o‘rganilgan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim jarayonida gamifikatsiya va case-study metodlaridan foydalanish:

- o‘quvchilarda o‘zini o‘zi boshqarish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi;
- dars jarayonini qiziqarli va interaktiv tusda o‘tkazishga imkon beradi;
- o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatini hamkorlikka asoslaydi;
- raqamli ta‘lim sharoitida o‘qitish sifatini oshiradi.

Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlili mazkur mavzuning dolzarbligini, nazariy asoslanganligini va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda “gamifikatsiya” va “case-study” metodlarining ta‘lim jarayonida qo‘llanish samaradorligini aniqlash, ularning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga ta‘sirini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini konstruktivizm, faol ta‘lim nazariyasi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va innovatsion pedagogika prinsiplari tashkil etadi. Tadqiqotning bosh maqsadi - zamonaviy ta‘lim jarayonida gamifikatsiya va case-study metodlarini integratsiyalashgan holda qo‘llashning samaradorligini aniqlash hamda ularning o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rnini tahlil qilishdir.

Tadqiqot obyekti – umumta‘lim maktablarida ta‘lim jarayoni. Tadqiqot predmeti-o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va motivatsiyani rivojlantirishda gamifikatsiya va case-study metodlarining ta‘siri.

Tadqiqotning metodologik negizini quyidagi ilmiy manbalar tashkil etdi:

- John Deweyning “Tajriba asosida ta‘lim” konsepsiyasi;
- Lev Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi;
- J. Brunerning “konstruktiv o‘qitish” tamoyillari;
- A. Abduqodirov, M. Jo‘rayev, N. Tursunova, Z. Shodmonova kabi o‘zbek olimlarining interaktiv metodlar haqidagi ilmiy ishlari.

Ushbu nazariyalar asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchi faol subyekt, o‘qituvchi esa yo‘lboshchi sifatida qaraladi. Shuningdek, ta‘limda raqamli texnologiyalar va interaktiv muhitning ahamiyati hisobga olindi.

Gamifikatsiya metodini qo‘llashda quyidagi platformalar va o‘yin elementlaridan foydalanildi:

- **“Kahoot”, “Quizizz”** - tezkor testlar va onlayn viktorinalar o‘tkazish uchun;
- **“ClassDojo”** - o‘quvchilarni ball va belgilar orqali rag‘batlantirish tizimi sifatida;
- **“Eduplay”** - o‘yin asosida so‘z o‘rganish va mustahkamlash uchun;
- **Raqobat jadvallari va reyting tizimlari** — sinf ichida sog‘lom musobaqalashuvni kuchaytirish uchun.
- Case-study metodida esa quyidagi shakllardan foydalanildi:



- **Real hayotiy vaziyatlar** (masalan, ekologik muammolar, oilaviy nizolar, ijtimoiy masalalar bo‘yicha tahlil);
- **Mini-case** (5–7 daqiqalik qisqa vaziyatlar);
- **Guruhli muhokama va qaror qabul qilish;**
- **Rol o‘ynash (role-play)** - o‘quvchilar turli rollarni bajarish orqali vaziyatga yechim topadilar.

Tajriba-sinov ishlarida 2 ta umumta’lim maktabining 9-11-sinflaridan 120 nafar o‘quvchi, 6 nafar fan o‘qituvchisi ishtirok etdi.

Tajriba guruhi 60 nafar o‘quvchini, nazorat guruhi esa 60 nafar o‘quvchini tashkil etdi. Har ikki guruhda dars soatlari, mavzular va o‘qituvchilar bir xil bo‘lgan, farq faqat qo‘llanilgan metodlarda namoyon bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

- O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi va faollik darajasi;
- Mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv ko‘nikmasi;
- Darsdagi ishtirok darajasi va hamkorlikda ishlash qobiliyati;
- O‘quv materialini eslab qolish va amaliy qo‘llash ko‘nikmasi;
- O‘yin elementlariga nisbatan emotsional munosabat (rag‘bat, raqobat, zavq).

Baholash natijalari 5 ballik tizim asosida o‘tkazildi va statistik tahlil uchun foizli ko‘rsatkichlarda ifodalandi.

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi o‘ziga xos jihatdan farq qiladi:

Gamifikatsiya va case-study metodlari integratsiyalashgan shaklda qo‘llanildi;

Har bir metodning psixologik-pedagogik ta’siri alohida o‘rganildi;

O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati tahlil qilinib, o‘zaro muloqot dinamikasi kuzatildi;

Natijalar sifat va miqdoriy jihatdan solishtirildi.

Bunday yondashuv ta’lim jarayonida nafaqat bilimni oshirish, balki o‘quvchilarda ijtimoiy, kommunikativ va emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari gamifikatsiya va case-study metodlarining ta’lim jarayonidagi amaliy samaradorligini, o‘quvchilarning bilim, motivatsiya, hamkorlik, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ta’sirini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar nazorat va tajriba guruhlarini o‘rtasidagi farqlarni ochib berdi.

1. Tajriba-sinovning boshlang‘ich natijalari

Tajriba boshlanishida tajriba va nazorat guruhlarini o‘rtasida o‘quv faoliyatining boshlang‘ich darajasi deyarli teng edi. Boshlang‘ich so‘rovnomalar va diagnostika natijalariga ko‘ra:



Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi (foizda)	Nazorat guruhi (foizda)
Bilim darajasi (test natijalari)	54%	55%
Darsdagi faollik	47%	45%
Mustaqil fikrlash ko‘nikmasi	43%	44%
Ijodkorlik darajasi	40%	41%
Darsga qiziqish va motivatsiya	52%	53%

Bu ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, tajriba boshlanishidan avval har ikki guruhning bilim va faollik darajasi bir xil bo‘lgan. Shuning uchun tadqiqotning keyingi bosqichida metodik ta‘sir natijasini aniq baholash imkoniyati yuzaga kelgan.

2. Gamifikatsiya va Case-study metodlarini joriy etish jarayoni

Tajriba guruhi darslarida o‘yin elementlari, raqamli interaktiv platformalar va hayotiy vaziyatli muhokamalar qo‘llanildi. Masalan:

- **Gamifikatsiya** metodida “Kahoot” va “Quizizz” platformalarida tezkor testlar o‘tkazildi, har bir to‘g‘ri javob uchun ball va belgilar berildi. Natijada o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga erishildi.
- **Case-study** metodida esa fanlarga oid real muammoli vaziyatlar tahlil qilindi. Masalan, geografiya fanida “Hududda suv resurslarini tejash yo‘llari” mavzusida muhokama o‘tkazilib, o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, o‘z takliflarini taqdim etishdi.

Tajriba davomida o‘quvchilar darsga faol qatnasha boshlashdi, savol berish va mustaqil fikr bildirish holatlari sezilarli oshdi. O‘qituvchilar kuzatuv varaqalari orqali o‘quvchilarning har bir darsdagi faollik darajasini baholab bordilar.

3. Tajriba yakuniy bosqich natijalari

Tajriba 4 oy davomida olib borildi. Yakuniy baholashda o‘quvchilarning test, so‘rovnomalar va kuzatuv natijalari asosida quyidagi o‘zgarishlar qayd etildi:

Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi (foizda)	Nazorat guruhi (foizda)	Farq
Bilim darajasi	85%	68%	17%



			17%
Darsdagi faollik	88%	63%	25%
Mustaqil fikrlash	82%	65%	17%
Ijodkorlik	80%	60%	20%
Darsga qiziqish va motivatsiya	90%	66%	24%

Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilar an’anaviy dars o‘tayotgan nazorat guruhiga nisbatan barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan.

4. Gamifikatsiya metodining psixologik ta’siri

“Smart monitoring” tizimining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan uning texnologik imkoniyatlariga bog‘liqdir. Ushbu tizim **mobil ilova, veb-portal** va **markaziy ma‘lumotlar bazasi** kabi zamonaviy texnologik yechimlar asosida tashkil etiladi. Bu komponentlar bir-birini to‘ldirib, bolalar rivojlanishini muntazam kuzatish va tahlil qilish uchun yagona raqamli muhitni yaratadi.

Avvalo, **mobil ilova** ota-onalar va tarbiyachilar uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ota-onalar mobil dastur orqali farzandlarining rivojlanish



ko‘rsatkichlari, kundalik faoliyati va tarbiyachilardan kelgan tavsiyalarni kuzatishi mumkin. Tarbiyachilar esa bolaning kundalik kuzatuvlarini tez va qulay shaklda kiritishlari, shuningdek, ma‘lumotlarni real vaqt rejimida yangilashlari mumkin. Shuningdek, tizimning veb-portal qismi kengaytirilgan funksiyalarni taqdim etadi. Unda pedagoglar uchun tahliliy vositalar, rahbarlar uchun esa muassasa miqyosida umumlashtirilgan hisobotlar mavjud bo‘ladi. **Veb-portal** orqali turli foydalanuvchilar o‘z rollariga qarab zarur ma‘lumotlardan foydalanishi mumkin.

Ma‘lumotlar bazasi esa, tizimning asosiy “yadro”si hisoblanib, bolalarga oid barcha rivojlanish ma‘lumotlarini markazlashtirilgan holda saqlashni ta‘minlaydi. Bunda ma‘lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta‘minlash uchun kriptografik himoya va autentifikatsiya tizimlari joriy qilinadi. Demak, “Smart monitoring” tizimi mamlakatimizda mavjud texnologik infratuzilma va davlat siyosati bilan uyg‘unlashib, amalda tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan innovatsion yechimdir.

Xulosa

O‘zbekiston sharoitida “Smart monitoring” tizimini joriy etish uchun zaruriy siyosiy, tashkiliy va texnologik asoslar mavjud. So‘nggi yillarda ta‘lim tizimini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida barcha ta‘lim bosqichlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, elektron ma‘lumotlar bazasini shakllantirish hamda boshqaruvni avtomatlashtirish vazifalari belgilangan. Ta‘lim sohasida mobil ilovalar va veb-portal asosida ishlovchi platformalar allaqachon tatbiq qilinmoqda. Masalan, “my.maktab.uz” yoki “kundalik.com” kabi tizimlarning tajribasi “Smart monitoring”ni joriy etishda metodik va texnologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
3. Avliyoqulov, A.X. “Pedagogik texnologiyalar”, Toshkent: O‘qituvchi, 2016
4. G‘ulomov S. va boshq., Pedagogik mahorat, Toshkent: Fan va texnologiya, 2019
5. Hasanov. B. “Ta‘lim tizimini raqamlashtirishda innovatsion yondashuvlar”. // “Ta‘lim taraqqiyoti” ilmiy jurnali, 2022, №2.
6. Mavlonova O.M. Bolalar rivojlanishini monitoring qilishning metodik asoslari // “Maktabgacha ta‘lim” jurnali. – Toshkent, 2019. – №1. – B. 12–18.
7. Mavlonova O.M. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2014. – 240 b.
8. OECD (2019). Providing Quality Early Childhood Education and Care: Results from the Starting Strong Survey 2018. OECD Publishing, Paris.
9. Yo‘ldoshev J.G’. Ta‘lim jarayonida monitoringning ilmiy-nazariy asoslari // “Pedagogika” jurnali. – Toshkent, 2015. – №2. – B. 35-41.



10. Yo‘ldoshev J.G‘., To‘raqulov U.X., Mavlonova O.M. Ta‘lim sifatini baholash va monitoring texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2020. – 180 b.
11. Tapestry Early Years Journal. tapestry.info 2023.
12. Brightwheel. mybrightwheel.com. 2023.
13. Seesaw Learning. web.seesaw.me, 2022.
14. Barrett, H. Electronic Portfolios in Early Childhood Education: Documenting Learning and Growth. 2021.



*Taylanova Shoxida Zayniyevna
Samarqand davlat universitetining
O‘zbekiston Finlandiya pedagogika
instituti prof., DSc*

*Rayimov Begali Urolovich
Termiz davlat pedagogika institutining
mustaqil izlanuvchisi*

UDK 37.01/.09, 37.013, 378

ETNOPEDAGOGIK MADANIYATNING MAZMUNIIY ASOSLARI VA MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada etnopedagogikaning alohida fan sifatidagi mazmun-mohiyati, xalqimizning qadriyatlar asosida o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Mamlakatimiz tarixiga nazar solsak, yosh avlodni komil inson qilib o‘stirishda o‘zining juda boy va xilma-xil qadriyatlariga ega ekanligiga amin bo‘lamiz. Etnopedagogika fanining yosh avlodni tarbiyalashda xalq madaniyati va xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: etnopedagogika, qadriyat, tarbiya, ta’lim, oliy ta’lim muassasasi, ma’naviyat, millataro, madaniyat, kompetensiya, bag‘rikenglik, yosh avlod, bola, o‘quvchi, talaba, o‘qituvchi-pedagog.

*Тайланова Шохида Зайниевна
Самаркандского государственного
университета
Узбекско-Финского педагогического
института
профессор, доктор наук (DSc)*

*Раимов Бегали Уролович
Независимый исследователь,
Термезский государственный
педагогический институт*

СОДЕРЖАНИЕ И ОСНОВЫ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье представлена информация о содержании и сущности этнопедагогике как отдельной дисциплины, воспитании молодого поколения нашего народа на основе ценностей. Если мы посмотрим на историю нашей страны, мы можем быть уверены, что она обладает собственными очень богатыми и разнообразными ценностями в воспитании молодого поколения как целостной личности. Представлена информация о



возможностях дисциплины этнопедагогика использовать средства народной культуры и народной педагогики в образовании молодого поколения.

Ключевые слова: этнопедагогика, ценности, воспитание, образование, высшее учебное заведение, духовность, международный, культура, компетентность, толерантность, молодое поколение, ребенок, ученик, студент, учитель-педагог.

Tailanova Shokhida Zainievna
Prof., Uzbek-Finnish Pedagogical
Institute of Samarkand State University

Raimov Begali Urolovich
Independent researcher, Termez State
Pedagogical Institute

CONTENT FOUNDATIONS AND ESSENCE OF ETHNOPEDAGOGICAL CULTURE

Аннотация. Annotation. This article presents information on the content and essence of ethnopedagogy as a separate discipline, the upbringing of the younger generation of our people based on values. If we look at the history of our country, we can be sure that it has its own very rich and diverse values in raising the younger generation as a complete person. Information is presented on the possibilities of the discipline of ethnopedagogy to use the means of folk culture and folk pedagogy in educating the younger generation.

Key words: ethnopedagogy, value, upbringing, education, higher education institution, spirituality, international, culture, competence, tolerance, young generation, child, pupil, student, teacher-pedagogue.

Kirish

Bugungi kunda Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning aholisi qadimgi davrlardan beri turli hududlarda yashab kelgan yuzdan ortiq mahalliy xalqlardan iborat. Shu sababli davlatimiz juda ko‘p etnik tarkibli mamlakat hisoblanib, bu esa o‘z navbatida ko‘p millitlar, tillar, elatlar, madaniyatlar va urf-odatlar ega ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatning tabiiy boyligi behisob bo‘lgani kabi, uning ma’naviy qadriyatlari va milliy madaniyatlari ham juda ko‘p turli xil.

Adabiyotlar tahlili

G.N.Volkov etnopedagogikaning kategorik apparatini qurar ekan, etnopedagogikaning ob’ekti xalq madaniyati va xalq pedagogikasi real dunyo, haqiqatda mavjud voqelik ob’ekti sifatida yozadi. Etnopedagogika fani quyidagi



muammolarni o‘z ichiga oladi: oilaviy hayot pedagogikasi; dunyo xalqlarining maqol va maqollari va ularning axloqiy tajribani yosh avlodga yetkazishdagi ahamiyati, topishmoqlar aqliy tarbiya vositasi sifatida; xalq qo‘shiq-lari va ularning bolalar va yoshlarni estetik tarbiyalashdagi o‘rni, uyda yasaladigan o‘yinchoqlar va bolalar ijodiyoti; bolalar va yoshlar muhiti, uning pedagogik vazifalari; dunyo xalqlarining beshiklari ona she‘riyati, ona maktabi va ona pedagogikasining ajoyib yutuqlari sifatida; turli xalqlarning pedagogik madaniyatlarining umumiyli-gi va ularning milliy o‘ziga xosligi va boshqalar[4, 7–8].

G.N.Volkov etnopedagogikaning tizim sifatidagi tarkibiy-mazmun va tashkiliy-faoliyat mazmunini belgilab, unga quyidagilarni kiritadi:

1.Xalqning asosiy pedagogik tushunchalari (g‘amxo‘rlik, tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash, ko‘rsatma, o‘rgatish, o‘rgatish, ko‘niktirish).

2.Bola ta‘lim ob‘ekti va sub‘ekti sifatida.

3.Tarbiya vazifalari (mehnatga tayyorlash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ongni rivojlantirish, sog‘liqni saqlash, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish).

4.Tarbiya omillari (millatning tabiati, tarixi, dini, umumiy ruhiy holati).

5.Etnotarbiya usullari (ishontirish, namuna, talab, tartib, tushuntirish, e‘tiqod, ko‘niktirish va mashq qilish, tilak va fотиha, iltimos, maslahat, ishora, ma‘qullash, malomat, ishontirish, taqiqlash).

6.Tarbiya vositalari (mehnat, o‘yin, muloqot, og‘zaki xalq amaliy san‘ati, topishmoqlar, matallar, matallar, qo‘shiq-lar, ertak va rivoyatlar, urf-odatlar va boshqalar)).

7.Inson shaxsining kamoloti g‘oyasi va uni xalq ta‘limi tizimiga tatbiq etish.

8.Ta‘limni tashkil etish (bolalar va yoshlar mehnat birlashmalari, yoshlar bayramlari, milliy bayramlar).

9.Xalq turmushining jamoaviy shakllari (oil-a va urug‘, jamoa, qabila, xalq, insoniyat)ning pedagogik roli.

10.Xalq pedagoglari (ota-onalar, katta yoshdagi bolalar, xalq ta‘limi xodimlari, nomsiz, kam taniqli o‘qituvchilar, ularning faoliyati va fikrlari).

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Hozirgida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotdagi qiyinchiliklar tufayli jamiyatda ko‘plab muammolar to‘planib qoldi. Bu, birinchi navbatda, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlardagi, inson va ekotizim o‘rtasidagi keskinlikning kuchayishi, avlodlararo aloqalarning deformatsiyasi (lotincha: *deformatio* – buzilish)dir. Bularning barchasi an‘anaviy ijtimoiy-madaniy me‘yorlar va qadriyatlarining yemirilishi bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda vatanparvarlik, fuqarolik, insonparvarlik va boshqalar kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan me‘yor va qadriyatlarni yo‘l-yo‘riq sifatida tanlay oladigan, unga ijtimoiy-madaniy yuk va etnik-madaniy tajribaga ega shaxsni shakllantirish butun dunyo miqyosida keskin muammo hisoblanmoqda. Insonlar tomonidan boshqa madaniyat va din vakillariga nisbatan bag‘rikeng munosabatda bo‘lish uchun ko‘p madaniyatli muhitda muvaffaqiyatli harakat qilish va o‘zini o‘zi belgilash ko‘nikmasini shakllantirish lozimdir.

Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi millat va elatlarning huquq va erkinliklari ta‘minlash tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga



solingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ushbu masala o‘z ifodasini topgan bo‘lib, Konstitutsiyasining 4-moddasi 2-xat boshida:

“O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” deb belgilangan[1,4].

Tahlillar va natijalar

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida quyidagi fikrlar bayon etilgan:

“Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya‘ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rku fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me‘morchilik va shaharsozlik san‘ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me‘morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma‘naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlorigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olaman”[3-3].

Bundan ko‘rinib turibdiki mamlakatimiz o‘z qadriyatlariga, madaniyatiga ega ekanligi har bir yurtdoshimizning ko‘ngliga faxr tuyg‘usini solishi shubhasizdir. Shu bilan bir qatorda xalqimizning boy qadriyatlarini yosh avlodga yetkazish hamda yosh avlodda o‘zbek xalqining ming yillik qadriyatlarini shakllantirishdek juda katta mas‘uliyatni ham zimmaga yuklaydi. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘ilishi tabiiydir. Bugungi kunda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash masalasi Muhtaram Prezidentimiz tomonidan davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoniga asosan Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar belgilangan[2].

Ushbu Farmon bilan tasdiqlangan “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi”ning V yo‘nalishida “Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yuzasidan aniq vazifalar belgilangan[2]. Bundan ko‘rinib turibdiki yurtimizda yoshlarimizning ma‘naviyatini o‘stirish, ularni xalqimizning boy milliy qadriyatlari asosida komil inson qilib tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.



Zamonaviy pedagogika yosh avlodni tarbiyalash jarayonida turli texnikalar va texnikalarni qoʻllaydi. Bu taʼlim samaradorligini oshiradi. Ajdodlarimiz koʻp yillar davomida bolalarni tarbiyalashning asosiy qarashlari, gʻoyalari va yoʻnalishlarini ishlab chiqildi. Etnopedagogika kabi ilm-fanning asosini tashkil etadigan bu prinsiplar.

Har bir tarixiy shakllangan jamiyatda bolalarning tarbiyalash jarayoni haqidagi fikrlari rivojlangan. Etnopedagogika fanning yosh avlodga oʻz qadr-qimmatini oʻrgatadigan yoʻnalishdir. Shu sababli, bu yondashuv bolalarning oʻz davrlarining eng qadimgi davrlaridan boshlab oʻzlarining madaniy qadriyatlarini haqida bilishga imkon beradi.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda turli taʼlim muassasalaridan faol foydalanilmoqda. Bu esa avvalombor taʼlim muassasalarida faoliyat olib borayotgan muallimlarimiz yelkasiga katta masʼuliyat yuklatadi.

Taʼlim sohasida faoliyat olib borayotgan oʻqituvchi-pedagoglar taʼlimning barcha boʻgʻinlarida, xususan maktabgacha taʼlim tashkiloti, maktab, texnikum, akademik litsey va kollejlarda hamda oliy taʼlim tashkilotlarida taʼlim-tarbiya olayotgan bola, oʻquvchi va talaba-yoshlarga oʻzbek xalqining boy madaniyatini, uning oʻziga xos qadriyatini singdirishni talab etmoqda.

Taʼlim dargohlarida oʻquvchi-yoshlarni qiziqtiradigan keng tarqalgan yondashuv, shuningdek, nostandart taʼlim usullari qoʻllanilmoqda. Bunday holda, tahsil oluvchilar tomonidan yangi bilimlar tez suratda oʻzlashtirishga erishiladi.

Agar taʼlim muassasalarida millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish va bagʻrikenglik - insonni oʻzi kabi idrok etish qobiliyatini tarbiyalash boʻyicha maqsadli ishlar olib borilsa, bu borada katta natijalarga erishishimiz mumkin. Oʻqituvchi-pedagogning eng muhim burchini bajarishga tayyorgarlik pedagogik taʼlim muassasalarida uchun zamonaviy taʼlim standartlarida koʻzda tutilgan boʻlib, ushbu oʻquv qoʻllanma turli etnik guruhlarining pedagogikasini oʻrganishga moʻljallangan.

“Etnopedagogika” fanini oʻrganish jarayonida talaba quyidagi kompetensiyalarni egallashi kerak:

Umumiy madaniy (UM) kompetensiya:

- madaniyatning inson mavjudligining shakli sifatidagi ahamiyatini tushunish va oʻz faoliyatida asosiy madaniy qadriyatlar, zamonaviy bagʻrikenglik, muloqot va hamkorlik tamoyillariga amal qilish qobiliyati (UM-3);
- ijtimoiy va madaniy tafovutlarni bagʻrikenglik bilan qabul qilishga tayyorlik, tarixiy meros va madaniy anʼanalarga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish (UM-14).

Professional (PF) kompetensiya:

- oʻquvchilar shaxsini tarbiyalash va maʼnaviy-axloqiy rivojlantirish muammolarini hal qilish qobiliyati (PF-2);
- oʻquvchilarning hamkorligini tashkil etish, ularning faolligini, tashabbusini, mustaqilligini, ijodkorligini qoʻllab-quvvatlash qobiliyati (PF-7);
- madaniy-maʼrifiy tadbirlarni tashkil etish uchun hududiy madaniy-maʼrifiy muhit imkoniyatlarini aniqlash va ulardan foydalanish qobiliyati (PF-10).



Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba quyidagi ta’lim natijalarini ko‘rsatishi kerak:

Bilish

etnik guruhlarining vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy tushunchalari, xalq pedagogikasining kelib chiqishi;

turli e’tiqodga ega bo‘lgan va mintaqaning turli tabiiy sharoitlarida yashovchi oilalarda ta’lim va tarbiyaning xususiyatlari;

xalq pedagogikasining asosi bo‘lgan umuminsoniy axloq normalari;

turli etnik guruhlar va jamoalardagi marosimlarning xususiyatlari; xalq diplomatiyasi asoslari, xalq odobi;

millatlararo muloqotning mohiyati, madaniyatlararo o‘zaro munosabatga tayyorlash usullari, bolalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish yo‘llari va vositalari;

millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish tamoyillari va texnologiyalari;

imkoniyatiga ega bo‘lish

bag‘rikenglik va madaniyatlararo o‘zaro munosabat ko‘nikmalarini shakllantirishda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish;

bolaga ko‘p madaniyatli va ko‘p konfessiyali muhitda xulq-atvorning axloqiy me‘yorlarini singdirish;

bolani boshqa millat vakiliga hurmat bilan tarbiyalash;

bolada millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish;

ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni qurishda ta’lim jarayoni ishtirokchilarining etnik-madaniy va konfessional farqlarini hisobga olish;

shaxsiy

millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish malakalari;

madaniyatlararo o‘zaro ta’sir ko‘rsatish, madaniyatlararo muloqotni tashkil etish;

millatlararo nizolarni hal qilish qobiliyati, etnotolerant xulq-atvor;

ijtimoiy-madaniy rivojlanish holatining xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘p madaniyatli muhitda kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Xulosa

“Etnopedagogika” fanini o‘rganish jarayonida talaba quyidagi kompetensiyalarni egallashi kerak:

Umumiy madaniy (UM) kompetensiya:

- madaniyatning inson mavjudligining shakli sifatidagi ahamiyatini tushunish va o‘z faoliyatida asosiy madaniy qadriyatlar, zamonaviy bag‘rikenglik, muloqot va hamkorlik tamoyillariga amal qilish qobiliyati (UM-3);

- ijtimoiy va madaniy tafovutlarni bag‘rikenglik bilan qabul qilishga tayyorlik, tarixiy meros va madaniy an’analarga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish (UM-14).

Professional (PF) kompetensiya:

- o‘quvchilar shaxsini tarbiyalash va ma’naviy-axloqiy rivojlantirish muammolarini hal qilish qobiliyati (PF-2);



• o‘quvchilarning hamkorligini tashkil etish, ularning faolligini, tashabbusini, mustaqilligini, ijodkorligini qo‘llab-quvvatlash qobiliyati (PF-7);

• madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish uchun hududiy madaniy-ma‘rifiy muhit imkoniyatlarini aniqlash va ulardan foydalanish qobiliyati (PF-10).

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba quyidagi ta‘lim natijalarini ko‘rsatishi kerak:

bilish

• etnik guruhlarining vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy tushunchalari, xalq pedagogikasining kelib chiqishi;

• turli e‘tiqodga ega bo‘lgan va mintaqaning turli tabiiy sharoitlarida yashovchi oilalarda ta‘lim va tarbiyaning xususiyatlari;

• xalq pedagogikasining asosi bo‘lgan umuminsoniy axloq normalari;

• turli etnik guruhlar va jamoalardagi marosimlarning xususiyatlari; xalq diplomatiyasi asoslari, xalq odobi;

• millatlararo muloqotning mohiyati, madaniyatlararo o‘zaro munosabatga tayyorlash usullari, bolalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish yo‘llari va vositalari;

• millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish tamoyillari va texnologiyalari;

imkoniyatiga ega bo‘lish

• bag‘rikenglik va madaniyatlararo o‘zaro munosabat ko‘nikmalarini shakllantirishda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish;

• bolaga ko‘p madaniyatli va ko‘p konfessiyali muhitda xulq-atvorning axloqiy me‘yorlarini singdirish;

• bolani boshqa millat vakiliga hurmat bilan tarbiyalash;

• bolada millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish;

• ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni qurishda ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining etnik-madaniy va konfessional farqlarini hisobga olish;

shaxsiy

• millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish malakalari;

• madaniyatlararo o‘zaro ta‘sir ko‘rsatish, madaniyatlararo muloqotni tashkil etish;

• millatlararo nizolarni hal qilish qobiliyati, etnotolerant xulq-atvor;

• ijtimoiy-madaniy rivojlanish holatining xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘p madaniyatli muhitda kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Ushbu maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarni o‘z xalqining etnik-madaniy va pedagogik merosi bilan tanishtirish, kasbiy faoliyatda xalq pedagogikasidan ijodiy foydalanishga tayyorlikni shakllantirish, ularga kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi anglash imkoniyatini berishdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni
3. Karimov I.A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” “Sharq nashriyoti” T., - 1998-yil.
4. Волков Г.Н.Этнопедагогика. Чебоксары, 1974. С.7.
5. Нездемковская Г.В.Генезис этнопедагогики в России: автореф. дис. докт. пед. наук. М., 2012. С. 30.



*Axatova Durдона Aktamovna
NavDU Psixologiya kafedrası professori*

*Axatova Hilola Aktamovna
NavDU Psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi*

UDK:371.398

BOSHLANG’ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Maqolada boshlang’ich sinflarda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati va amaliy jihatlari yoritilgan. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarining mohiyati, tamoyillari hamda boshlang’ich ta’lim jarayonida samarali qo‘llaniladigan usullari tahlil qilingan. Shuningdek, rivojlantiruvchi ta’lim orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlar va kompetensiyalarni shakllantirish masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlantiruvchi ta’lim, pedagogik texnologiya, boshlang’ich ta’lim, mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat, interfaol usullar, muammoli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv.

*Axatova Durдона Aktamovna
Профессор кафедры психологии, НавГУ*

*Axatova Hilola Aktamovna
Старший преподаватель кафедры психологии, НавГУ*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАЗВИВАЮЩИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы, педагогическое значение и практические аспекты использования развивающих образовательных технологий в начальных классах. Анализируются сущность, принципы и методы развития развивающих образовательных технологий, эффективно применяемые в процессе начального образования. Также раскрываются вопросы активизации познавательной деятельности учащихся, самостоятельного мышления, творческих способностей и формирования компетенций посредством развивающего образования.

Ключевые слова: развивающее образование, педагогическая технология, начальное образование, самостоятельное мышление, творческие способности, интерактивные методы, проблемно-ориентированное обучение, компетентностный подход.



Durdona Aktamovna Akhatova
Professor, Department of Psychology, NavSU

Xilola Aktamovna Akhatova
Senior Lecturer, Department of Psychology, NavSU

USE OF DEVELOPMENTAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOLS

Abstract. This article examines the theoretical foundations, pedagogical significance, and practical aspects of using developmental educational technologies in primary schools. It analyzes the nature, principles, and methods of developing developmental educational technologies effectively applied in primary education. It also explores how to enhance students' cognitive activity, independent thinking, creativity, and competency development through developmental education.

Key words: developmental education, pedagogical technology, primary education, independent thinking, creativity, interactive methods, problem-based learning, competency-based approach.

Kirish

Hozirgi kundagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlariga, balki madaniy, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, ta'lim sohasiga ham zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bundan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim tizimi sohasida ham tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilm-fani, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim-tarbiya tizimini, shuningdek, milliy pedagogika va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy va metodik asoslarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyati milliy ta'lim tizimini isloh qilish, uning salohiyatini jahon miqyosiga olib chiqish, ta'lim bozorini yaratish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasidan kelib chiqdi.

Adabiyotlar tahlili

2022-2023 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim ola boshladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K (kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash) tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.



Bu jarayonda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarining o’ziga xos o’rni bo’lib, bu ta’lim ma’lum bir vaqtda, o’quvchining ta’limiy, tarbiyaviy, ma’naviy, ruhiy va jismoniy rivojlantirish hamda uni tez o’zgaruvchan dunyoda jamiyatga, hayotga moslashuvini ta’minlashni ko’zda tutadi. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari qo’llanilishi o’quvchilar qiziqishining ortishiga, bilimlarning ko’nikmaga aylanishiga, bilim sifat-samaradorligining oshishiga sabab bo’lmoqda.

Ma’lumki, boshlang’ich ta’lim o’quvchilarning aqliy rivojlanishlari, ma’naviy fazilatlarini rivojlantirib borishga asos yaratadi. Bu davrda bolaga beriladigan bilimlar vositasida shaxsning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va ma’naviy dunyosini o’stirib rivojlantirib borish-ta’limda bolaning rivojlanish jarayonini tashkil etishning asosiy ko’rinishlaridan biridir.

Rivojlantiruvchi ta’limning maqsadi- o’quvchilarda mantiqiy, tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Vazifasi esa shaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo’ladigan hayotiy ko’nikma va malakalarini rivojlantirish sanaladi.

L.V.Zankov, D.B.Elkonin va V.V.Davidov kabi olimlarning rivojlantiruvchi ta’limga oid nazariyalari XX asr pedagogikasida muhim o’rin tutadi. Ularning tadqiqotlari ta’lim jarayonini o’quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar bilan boyitdi. L.V.Zankov rivojlantiruvchi ta’limni o’quvchilarning umumiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan tizim sifatida ko’radi. U o’quv jarayonida nazariy bilimlarning hal qiluvchi rolini ta’kidlab, o’quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan metodlarni taklif etdi. Zankovning yondashuvi o’quvchilarning mantiqiy fikrlashini va mustaqil tahlil qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

1960-1970 yillarda rossiyalik olimlar - D.B.Elkonin va V.V.Davidovlarning mazmunli ta’lim konsepsiyasida o’quvchilarning maqsadga yo’naltirilgan faoliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratildi. D.B.Elkonin bolalar psixologiyasi, yosh davrlari va rivojlantiruvchi ta’limning psixologik asoslarini, V.V.Davidov esa rivojlantiruvchi ta’limning didaktik va metodologik asoslarini ishlab chiqadilar. Ular o’quv jarayonida o’quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus metodlarni ishlab chiqdilar. Bu yondashuv o’quvchilarning o’zlashtirish jarayonini chuqurlashtirishga va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Ushbu nazariyalar amaliyotda qo’llanilganda, o’quvchilarning bilimlarga bo’lgan qiziqishi ortadi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. O’qituvchilar tomonidan ushbu metodlarning qo’llanilishi ta’lim jarayonining sifatini yaxshilashga, o’quvchilarning bilimlarni chuqurroq o’zlashtirishiga va ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlar o’quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishga va ularning individual ehtiyojlariga moslashishga imkon beradi. Umuman olganda, L.V.Zankov, D.B.Elkonin va V.V.Davidovlarning rivojlantiruvchi ta’limga oid nazariyalari ta’lim tizimining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’lib, o’quvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishini ta’minlashda samarali vosita sifatida namoyon



bo‘ldi. Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ta‘lim sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Ta‘limning asosiy masalalaridan biri o‘qitish jarayonida shaxsni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon. Rivojlanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ta‘minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Yangi tushunchani kiritish (mazmunli umumlashtirish) o‘qitish jarayonida to‘rtta bosqichdan o‘tadi:

- ✓ o‘qituvchi taklif etayotgan vaziyat yoki muammo bilan tanishish, uni tushunib olish;
- ✓ muammoni hal etishga asos bo‘lib xizmat qiluvchi eng muhim munosabatlarni aniqlovchi materiallarni qayta o‘zlashtirish namunasini egallash;
- ✓ aniqlangan munosabatlarni sxematik yoki belgili shaklda qayd etish.
- ✓ dastlabki masala yoki muammoni hal etish sharti va usulini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xislatlarini aniqlash.

P.Ya.Galperin nazariyasiga ko‘ra bilimlarni o‘zlashtirish oltita bosqichda kechadi: motivatsiya, tushuntirish, amaliy hatti-harakatlarni o‘zlashtirish, baland ovozda o‘ziga uqtirgan holda hatti-harakatlarni bajarish, hatti-harakatlarni ovoz chiqarmay bajarish, faoliyatni fikran bajarish.

Tahlillar va natijalar

Rivojlantiruvchi ta‘lim ta‘lim oluvchilarning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish va ularni to‘la ishga solishni nazarda tutadi. Bu ta‘limni tashkil etishda har bir ta‘lim oluvchiga uning psixologik, fiziologik va ijtimoiy rivojlanganlik nuqtai nazaridan yondashiladi, mavjud qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga olish asosida yondashiladi.

Rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshirish;
- mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish;
- muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi ta‘lim shaxsning individual xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi va ularni rag‘batlantiradi, tezashtiradi. Ushbu ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashda o‘quvchi faoliyatning barcha bosqichlarida to‘laqonli subyekt sanaladi. Ta‘limning har bir bosqichi shaxsning rivojlanishiga muayyan hissa qo‘shadi. Bu ta‘limni maqsadga muvofiq qo‘llash orqali o‘quvchida mustaqillik, qat‘iyatlilik, tartiblilik, bosiqlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, mustaqillik, iroda kabi sifatlar shakllantiriladi.

Rivojlantiruvchi ta‘lim qator ustuvor tamoyillarga asoslanadi¹:

- faollik tamoyili,

¹ Муслимов Н. ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари.Т., 2015, 151 б



- uzluksizlik tamoyili,
- borliqni yaxlit qabul qilish tamoyili,
- o‘z-o‘zini nazorat va o‘z-o‘zini boshqarish tamoyili,
- yuqori va quyi darajalar tamoyili,
- psixologik qulaylik tamoyili,
- ko‘p variantlilik tamoyili,
- ijodiy(kreativ)lik tamoyili,
- ta’limning muammoli xarakter kasb etish tamoyili,
- aqliy faoliyat turlarini samarali rivojlantirish tamoyili,
- ta’limni individuallashtirish tamoyili,
- ta’limni tabaqalashtirish tamoyili,

Aqliy faoliyatning algoritmik va evristik rivojlanishiga erishish tamoyili,
Sust faoliyatni faollashtirishga maxsus yondashuv tamoyili.

Ta’lim tizimida rivojlantiruvchi ta’limni tashkil etishda quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

- Treninglar,
- Ijodiy topshiriqlar
- Keyslar
- Testlar
- Boshqotirmalar
- Mantiqiy masalalar
- Tez aytishlar, topishmoqlar, krossvordlar, rebuslar, skanvordlar
- Loyihalar
- Didaktik o‘yinlar
- Zakovat’ o‘yini
- Lego o‘yinlari
- Stol o‘yinlari va boshqalar.

Rivojlantiruvchi ta’limda ko‘proq treninglardan foydalaniladi. Treninlar ta’lim oluvchilarda muayyan bilimlarni puxta o‘zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo‘llay olish ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga, bu jarayonda ularning mavjud imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga yordam beradi².

Rivojlantiruvchi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari- o‘quvchilarda topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy yo‘nalishlari:

1. Muammoli ta’lim.
2. Evristik ta’lim.
3. Tadqiqotchilik ta’limi.
4. IMEN (TRIZ) (ixtirochilik Masalalarini yechish nazariyasi)

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining yetakchi tamoyillari:



Inkorporatsiya (tizimli faoliyat ko‘rsatish)-turli fanlarga oid bilimlarni umumlashtirish;

Moslanuvchanlik - ta‘lim shakli, usuli va usullarining turli ta‘lim muassasalarida qo‘llanuvchanligi;

uyg‘unlik - muayan o‘quv predmetiga oid o‘quv material mazmunining shaxsini rivojlantirish shakl, usuli va usullar bilan uyg‘unligi;

yaratuvchanlik - turli ta‘lim muassasalari pedagoglarining pedagogik texnologiyalarini yaratish imkoniyatlari;

tabiiylikka asoslanish - genetik va ijtimoiy jihatlariga muvofiq o‘quvchilarning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinflarda rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyasi doirasida quyidagi usullar keng qo‘llaniladi:

Muammoli ta‘lim usuli. Bu usulda o‘qituvchi dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratadi. O‘quvchilar muammoni mustaqil ravishda hal qilish orqali bilimlarni egallaydilar. Masalan, matematik masalalarni bir nechta yechimda yechish orqali mantiqiy tafakkur rivojlanadi.

Interfaol usullar. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “B-B-B” kabi interfaol usullar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu usullar orqali o‘quvchi o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rganadi.

O‘yin texnologiyalari. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin faoliyati yetakchi hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar orqali bilimlar mustahkamlanadi, diqqat va xotira rivojlanadi.

Loyihaviy faoliyat. Kichik loyihalar asosida ishlash o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, “Mening oilam”, “Tabiatni asraymiz” kabi mavzularda mini-loyihalar tayyorlash.

Boshlang‘ich sinflarda rivojlantiruvchi ta‘limning interfaol ta‘lim texnologiyasi va usullaridan keng foydalanish mumkin. Masalan:

“FSMU” texnologiyasi (usuli)- munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o‘tkazishda, yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu usul o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o‘quvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklari baholash va bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Maqsad- o‘quvchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

O‘tkazish texnologiyasi bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich

-o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir o‘quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida o‘quvchilarga ma‘lumot beradi;



-mashg'ulot davomida har bir o'quvchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2 - bosqich. Har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining 4 ko'rsatmasi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F - fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayonga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir o'quvchi yakka tartibda qog'ozdagi FSMU-ning 4 ko'rsatmasi o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

3 - bosqich. Har bir o'quvchi o'z qog'ozlarini to'ldirib bo'lgach, o'qituvchi ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan holda o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi.

O'qituvchi har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4- ko'rsatmasi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

O'qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4- ko'rsatmasi bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich

-kichik guruhlarda avval har bir o'quvchi o'zi yozgan har bir ko'rsatmadagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

-guruh a'zolari FSMU ning 4 ta ko'rsatmasini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar;

-Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o'quvchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5 - bosqich

- kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir ko'rsatma javovini alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlashi, ya'ni guruhlarning aynan nima uchun, shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6 - bosqich

-o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiya yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

Namuna: 2-sinf o'qish darsida Rauf Tolibning “Sayoq bola” hikoyasini o'zrganish ko'zda tutilgan. Darsning nomi “Sayoq yursang-tayoq yeysan”. O'qituvchi hikoya qahramoni Tojivoyning axloqsiz hatti-xarakatlari asosida “Sayoq yursang-tayoq yeysan” fikrini FSMU asosida taxlil qilib, fikr bildirishlarini so'raydi va o'zi umumiy xulosa qilib beradi.

O'qituvchi yuqoridagi bosqichlar asosida o'quvchilarning fikrlarini



umumlashtiradi.

“Ikki qismli kundalik” texnologiyasi yozma nutqni rivojlantirishni ko`zda tutadi. Bu o`qib chiqilgan mavzu bo`yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog`lashga imkon beradi.

Maqsad: o`rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg`otish, yozma nutqni rivojlantirish.

O`tkazish bosqichlari:

1-bosqich. O`quvchilarga oldindan tayyorlab qo`yilgan matn o`qish uchun taklif etiladi.

2-bosqich. Hamma matn bilan tanishganiga ishonch xosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo`lish so`raladi.

3-bosqich. O`quvchilarga, daftarni chap tomoniga matndagi o`zlariga yoqqan (yoki yoqmagan) sitatalar (g`oyalari, fikrlari)ni yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O`ng tomonga o`quvchi mazkur sitataga berilgan o`zini izohini yozadi, ya`ni o`qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.

5-bosqich. Topshiriqni shu qismi tugagandan keyin o`quvchilarga (o`z xohishiga ko`ra) bittadan sitatalarni va ularga yozilgan izohni o`qish taklif etiladi. sitata va ularning izohi o`qilayotganda savol berish yoki mazkur sitataga o`z izohini berishga ruxsat etiladi.

6-bosqich. O`quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo`lib ham ishlashlari mumkin.

Namuna:

2 sinf o`qish darsida Uch o`rtoq ertagi berilgan. Darsning mavzusi: “Haqiqiy do`stlik”. Darsni “Ikki qismli kundalik” texnologiyasi asosida ertakning mohiyatini oddiy yo`llar bilan o`quvchiga yetkazishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan bosqichlar asosida ish yuritiladi, o`quvchilar 2 bosqichga ko`ra, daftarlarini vertikal chiziq bilan ikkiga bo`lib, 3 bosqichga ko`ra chap tomoniga do`stlik, chin do`st, qo`y-it, qo`y-xo`roz do`stligi so`zlarni yozishlari aytiladi. 4-bosqichga ko`ra, o`ng tomonga o`quvchi mazkur so`zlar izohini yozadi, fikrlarini umumlashtirib aytadi. Bunda o`quvchilar guruh bo`lib ishlashlari ham mumkin.

O`quvchilarning faoliyati o`qituvchining diqqat markazida bo`lishi kerak. Chunki o`quvchining fikrlash olami o`zlaricha fikr yuritadilar, taxlil qiladilar, munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o`quvchining ish quroli darslik sanaladi. Ertak mazmunini yaxshi tushungan o`quvchilar ertak oson yodlashga erishadi.

“Muammoli vaziyat” usuli - ta`lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, hamda ularning yechimini topish bo`yicha ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

“Muammoli vaziyat” usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta`lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo`yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo`lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmaslik, ta`lim oluvchilarning qiziqishlari so`nishiga, o`zlariga bo`lgan ishonchlarining yo`qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” usuli qo`llanilganda



ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o’rganadilar.

“Muammoli vaziyat” usulining bosqichlari:

1. O’qituvchi mavzu bo’yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. O’qituvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. O’qituvchi o’quvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o’rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda muammoning oqibatlari to’g’risidagi fikr-mulohazalarni taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama va tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo’llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo’yicha taqdimot qiladilar va o’z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh O’qituvchi i bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo’llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Namuna:

O’qituvchi Sharasul Zunnunining “Nima eksang shuni o’rasan” hikoyasini o’tishda ekran orqali “Drasning nomi nima uchun “Qaytar dunyo” deb qo’yilgan?” - degan muammoli savol asosida muammoli vaziyat vujudga keltiriladi, mavzuning mazmunini to’liqroq o’zlashtirishga erishadi. O’quvchilar hikoyani o’rganib javoblarni aytishadi, jadvalni to’ldirishadi.

Topshiriqni guruh a’zolari quyidagicha bajaradilar:

“Oqlovchi”	“Qoralovchi”
Inson doimo yaxshilik qilishi kerak	Yomonlik uchun doimo jazo berilishi lozim

Guruhlar orasidan bitta sud ijrochisi tayinlanadi. Sud ijrochisi oxirida guruhlarining yozganlarini xulosalaydi va o’qituvchisi bilan birgalikda hukm chiqarib, taqdimotga olib chiqadi.

Sud ijrochisi o’z so’zini isbotlash uchun guvohlarni chaqiradi va guvohlikka chiqqan o’quvchilar o’z yozganlarini isbotlashga harakat qiladilar, sud ijrochisi o’z asoslarini bayon qiladi.

O’qituvchi barcha o’quvchining javobini umumlashtirish jarayonida quyidagilarga e’tiborini qaratishi lozim:

1. Muammoli savolga aniq javob topishga undash.
2. Muammoga aloqasi bor deb o’ylagan barcha fikrlarga e’tibor qaratish.



3. Ko‘rgan, eshitgan, o‘qiganlari asosida mustaqil fikrlarini aytish, o‘z bilimlarini baholay olishga sharoit yaratish.
4. Har bir guruh a‘zolarining mustaqil fikrlarini qisqa, lo‘nda, tiniq, aniq qilib ifodalashlariga ko‘maklashish.
5. O‘rtog‘ining o‘zidan yaxshi fikrlashini sidqidildan tan olishga, ularga havas qilishga, ularni past darajada fikrlayotganligini tan olishga yo‘naltirish.
6. O‘rtog‘ining ijobiy javoblarini o‘zlashtirishga harakat qilish.
7. Darslikdan unumli foydalanishni bilish.

O‘qituvchi umumlashtirish jarayonida aniq asosli javob aniqlanadi, yaxshi ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi, baholanadi.

Mazkur o‘yindan maqsad-o‘quvchilarga mavzu mazmunini chuqur yetkazish bilan birga hayotda uchraydigan haqsizlik va adolatsizlikka qarshi odilona kurasha bilishni o‘rgatishdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darslarda shaxsiy sifatlari va aqliy qobiliyati o‘sishi uchun o‘quvchilarning qiziqish va xohishlarini hisobga olish, ular bilan turli mustaqil ishlar, innovatsion usullar, didaktik o‘yinlar tashkil etish, dars va tadbirlarda muammoli vaziyatlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyasi usullaridan foydalanish ta‘lim jarayonining samaradorligini ta‘minlaydi. Rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish natijasida o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi; bilimlar chuqur va ongli o‘zlashtiriladi; shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar shakllanadi; o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifodalashga o‘rganadi. Bu esa boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, ularni mustaqil va faol shaxs sifatida shakllantirishga imkon yaratadi. Shu sababli, rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalarini boshlang‘ich ta‘lim amaliyotiga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алимходжаева С.Н., Хайдаров Ф.И.. Психологик тренинглар ишланмаси. Т., 2008 й
2. Ахатова.Д. Boshlang‘ich ta‘limni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘UM.–Navoiy.2015 y, 155 b
3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров.А.. Таълимда инновацион технологиялар.-Т., 2008,
4. Муслимов И., Усмонбоева М.ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари.-Т., 2015 й, 208 б
5. O‘qish kitobi: 2-sinf uchun darslik/ Т. G‘afforova, Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova. - Т.: “Sharq”, 2018. - 176 b.
6. Занков .В. О системе развивающего обучения. - Москва: Просвещение, 1980.



7. Эльконин Д.Б. Возрастная психология - Москва: Педагогика, 1964.
8. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения - Москва: Интор, 1996.
9. Эльконин Д.Б., Давыдов В.В. Развивающее обучение в начальной школе - Москва: Просвещение, 1990.

Шамиева Ойбахор Равшановна
канд. психол. наук, доц.
Навоийского государственного горно-технологического
университета

UDK: 373.22

СЕМЕЙНОЕ ОКРУЖЕНИЕ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ САМОРЕГУЛЯЦИИ И АВТОНОМНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье рассматривается влияние семейного окружения на развитие саморегуляции и автономного поведения у детей дошкольного возраста. Показано, что эмоциональная поддержка, структура взаимодействия с ребенком и степень родительской вовлеченности способствуют формированию навыков самостоятельного принятия решений, самоконтроля и инициативности.

Ключевые слова: семейное окружение, дошкольный возраст, саморегуляция, автономное поведение, самостоятельность.

Shamieva Oybahor Ravshanovna
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Navoiy davlat tog'-texnologiya universiteti

OILAVIY MUHIT - MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O'ZINI BOSHQARISH VA AVTONOM XULQ-ATVORI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy muhitning maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini boshqarish va avtonom xulq-atvorini rivojlantirishga ta'siri ko'rib chiqilgan. Ko'rsatib o'tilishicha, hissiy qo'llab-quvvatlash, bolaning o'zaro munosabatlaridagi tuzilma va ota-onaning ishtirok darajasi mustaqil qaror qabul qilish, o'zini nazorat qilish va tashabbuskorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: oilaviy muhit, maktabgacha yosh, o'zini boshqarish, avtonom xulq-atvor, mustaqillik.

Oybahor Ravshanovna Shamiyeva
Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor
Navoi State Mining and Technological University



THE FAMILY ENVIRONMENT AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF SELF-REGULATION AND AUTONOMOUS BEHAVIOR IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article examines the influence of the family environment on the development of self-regulation and autonomous behavior in preschool-aged children. It is shown that emotional support, the structure of interactions with the child, and the degree of parental involvement contribute to the development of independent decision-making skills, self-control, and initiative.

Key words: family environment, preschool age, self-regulation, autonomous behavior, independence.

Введение и актуальность исследования

Развитие саморегуляции и автономного поведения у детей дошкольного возраста является ключевым показателем их психологической зрелости, готовности к обучению и социальной адаптации. Под саморегуляцией понимается способность ребёнка осознанно контролировать эмоции, поведение и когнитивные процессы в соответствии с требованиями социальной среды, что обеспечивает эффективность взаимодействия с окружающими и успешное освоение образовательной программы [5, с. 45–54].

Современные требования к дошкольному образованию ориентированы на развитие саморегуляции, самостоятельности и социально-эмоциональных компетенций у детей, что связано с необходимостью формирования у ребёнка навыков самоконтроля, эмоциональной устойчивости и способности к автономным действиям уже в дошкольном возрасте [5, с. 45–54].

Литературный обзор

Большинство исследований подтверждают, что семейная среда является ключевым фактором развития этих навыков. Так, Савенышева С.С., Смирнова Н.Н и Жаркова А.В. (2020) отмечают, что дети, воспитываемые в условиях эмоционально поддерживающей семьи, демонстрируют более высокий уровень саморегуляции и способны к эффективному управлению своими эмоциями и поведением [5, с. 45–54]. Баранова Н.И. показывает, что стиль семейного воспитания, проявляющийся в конструктивном взаимодействии с ребёнком, напрямую влияет на формирование автономного поведения и навыков самостоятельного принятия решений [1, с. 22–31; 2, с. 35–42].

Климова выделяет, что эмоциональный климат в семье, включающий выражение поддержки, похвалу и внимание к успехам ребёнка, способствует развитию устойчивых стратегий самоконтроля и самостоятельного поведения в новых ситуациях [4, с. 55–63]. Вербианова О.М. подтверждает, что доброжелательный, но структурированный подход родителей формирует у детей уверенность в своих силах и способность действовать автономно [3, с. 184–189].



Н.В. Федорова. и Е.А. Литвинова подчеркивают, что влияние семьи на саморегуляцию проявляется уже в дошкольном возрасте, когда формируются базовые навыки планирования, контроля и оценки собственного поведения, что обеспечивает успешную адаптацию к образовательной среде и социальным ситуациям [6, с. 101–110].

Объект исследования и методология

В системе дошкольного образования развитие саморегуляции и автономного поведения рассматривается как одно из приоритетных направлений воспитания и развития ребёнка. Саморегуляция в дошкольном возрасте проявляется в способности ребёнка управлять своими эмоциями, поведением и действиями в соответствии с правилами, требованиями взрослого и нормами совместной деятельности. Данные умения являются основой формирования произвольности, самостоятельности и готовности к обучению в школе [5, с. 45–54].

Автономное поведение дошкольника выражается в инициативности, способности к самостоятельному выполнению заданий, принятию решений в игровой и бытовой деятельности, а также в умении контролировать собственные действия. По мнению А. В. Климовой, развитие автономности тесно связано с формированием саморегуляции и является важным показателем личностного развития ребёнка на этапе дошкольного детства [4, с. 55–63]. В педагогическом контексте автономность рассматривается как результат целенаправленного воспитательного воздействия со стороны взрослых.

Семейное окружение выступает первичной образовательной средой, в которой закладываются основы саморегуляции и самостоятельного поведения ребёнка. Характер детско-родительских отношений, эмоциональный климат семьи и стиль воспитания определяют условия, в которых формируются регуляторные навыки дошкольника. Исследования показывают, что эмоционально благоприятная семейная среда способствует развитию у детей способности контролировать своё поведение, следовать правилам и проявлять самостоятельность в различных видах деятельности [5, с. 45–54].

Н.И.Баранова отмечает, что последовательность требований родителей, поддержка инициативы ребёнка и уважительное отношение к его потребностям создают условия для формирования произвольного поведения и автономных форм активности у дошкольников [1, С. 22–31; 2, С. 35–42]. В таких семьях дети чаще проявляют самостоятельность, уверенность в своих действиях и способность к самоконтролю.

Особую роль в развитии саморегуляции играет стиль семейного воспитания. О.М.Вербанова подчёркивает, что демократический стиль воспитания, сочетающий эмоциональную поддержку и разумную требовательность, способствует формированию у детей навыков саморегуляции и самостоятельного поведения [3, С.184–189].



В педагогической практике дошкольного образования данный стиль рассматривается как наиболее благоприятный для личностного развития ребёнка.

В работах И.В.Федоровой и Е.А.Литвиновой подчёркивается, что развитие саморегуляции и автономного поведения у дошкольников осуществляется в процессе совместной деятельности ребёнка и взрослых. Предоставление ребёнку возможности выбора, включение его в решение посильных бытовых и игровых задач, а также поддержка самостоятельных действий способствуют формированию ответственности и способности к самоконтролю [6, с. 101–110].

Таким образом, анализ исследований позволяет рассматривать семью как важнейший фактор развития саморегуляции и автономного поведения у детей дошкольного возраста. Для системы дошкольного образования это подчёркивает необходимость выстраивания эффективного взаимодействия с семьёй, направленного на согласование воспитательных воздействий и создание единого развивающего пространства, способствующего формированию самостоятельности и регуляторных навыков у дошкольников.

Анализ и результаты

Анализ теоретических положений и результатов исследований позволяет утверждать, что семейное окружение оказывает системное влияние на развитие саморегуляции и автономного поведения у детей дошкольного возраста. Полученные выводы согласуются с положениями современной психолого-педагогической науки о ведущей роли семьи как первичной среды социализации ребёнка и основного источника формирования регуляторных навыков [1–6].

Особое значение в развитии саморегуляции имеет эмоциональный климат семьи. Как показывают исследования С.С.Савеньшевой, Н.Н.Смирновой и А.В.Жарковой, эмоциональная поддержка родителей способствует формированию у дошкольников устойчивых способов контроля эмоций и поведения, что подтверждает тезис о взаимосвязи эмоционального благополучия и произвольной регуляции [5, с. 45–54]. Эти данные позволяют рассматривать эмоциональное взаимодействие в семье как педагогически значимый фактор, влияющий на готовность ребёнка к обучению и взаимодействию в коллективе.

Результаты исследований Н.И.Барановой свидетельствуют о том, что стиль семейного воспитания оказывает непосредственное влияние на проявления автономного поведения у дошкольников. Дети, воспитываемые в условиях последовательных требований и поддержки самостоятельности, демонстрируют более высокий уровень инициативности и ответственности за собственные действия [1, С. 22–31; 2, С. 35–42]. Это подтверждает необходимость ориентации родителей и педагогов на развитие самостоятельности как целенаправленного воспитательного процесса.

Выводы О.М.Вербиановой о взаимосвязи демократического стиля воспитания и уровня саморегуляции у детей 6–7 лет дополняют полученные положения, подчёркивая значимость разумного сочетания контроля и



поддержки со стороны взрослых [3, С. 184–189]. В контексте дошкольного образования данные результаты актуализируют задачу формирования у родителей педагогической компетентности в вопросах воспитания саморегуляции и автономности ребёнка.

Работы А.В.Климовой и И.В.Федоровой, Е.А.Литвиновой подтверждают, что развитие автономного поведения эффективно осуществляется в условиях совместной деятельности ребёнка и взрослых, когда дошкольнику предоставляется возможность выбора, принятия решений и оценки собственных действий [4, С. 55–63; 6, С. 101–110]. Эти положения имеют важное практическое значение для организации взаимодействия семьи и дошкольной образовательной организации.

В целом обсуждение результатов позволяет сделать вывод о том, что формирование саморегуляции и автономного поведения у дошкольников требует согласованных усилий семьи и педагогов. Недостаточная согласованность воспитательных воздействий или противоречивые требования со стороны взрослых могут снижать эффективность развития регуляторных навыков у ребёнка. В связи с этим особую значимость приобретает педагогическое сопровождение семьи и выстраивание партнёрских отношений между родителями и дошкольной образовательной организацией.

Анализ психолого-педагогических исследований и обобщение теоретических положений позволили выявить устойчивые взаимосвязи между особенностями семейного окружения и уровнем развития саморегуляции и автономного поведения у детей дошкольного возраста. Полученные результаты подтверждают, что семейная среда выступает одним из ведущих факторов формирования регуляторных навыков ребёнка на этапе дошкольного детства.

Установлено, что эмоционально благоприятный климат в семье способствует более высокому уровню развития саморегуляции у дошкольников. Дети, воспитываемые в условиях эмоциональной поддержки, принятия и внимания со стороны родителей, демонстрируют способность контролировать свои эмоциональные реакции, следовать установленным правилам и регулировать поведение в совместной деятельности [5, С.45–54]. Это проявляется в умении сдерживать импульсивные действия, завершать начатые задания и адекватно реагировать на требования взрослого.

Анализ педагогических исследований также показывает, что развитие автономного поведения у дошкольников эффективно осуществляется в процессе совместной деятельности ребёнка и взрослых. Предоставление ребёнку возможности выбора, участие в посильных бытовых и игровых задачах, а также обсуждение результатов деятельности способствуют формированию навыков планирования, самоконтроля и оценки собственных действий [4, С. 55–63; 6, С. 101–110].

Заключение



Проведённый теоретический анализ и обобщение результатов психолого-педагогических исследований позволяют сделать вывод о том, что семейное окружение является одним из ключевых факторов развития саморегуляции и автономного поведения у детей дошкольного возраста. Саморегуляция и самостоятельность формируются как интегративные личностные качества в процессе повседневного взаимодействия ребёнка с родителями и во многом определяются эмоциональным климатом семьи, стилем воспитания и характером детско-родительских отношений.

Установлено, что эмоционально благоприятная семейная среда, основанная на поддержке, принятии и последовательности воспитательных требований, способствует развитию у дошкольников произвольного поведения, способности к самоконтролю и инициативности. Демократический стиль семейного воспитания, сочетающий разумную требовательность и уважение к самостоятельности ребёнка, является наиболее эффективным для формирования автономного поведения и регуляторных навыков.

Результаты анализа подтверждают необходимость согласованного взаимодействия семьи и дошкольной образовательной организации в целях создания единого развивающего пространства. Это особенно актуально в условиях реализации современных требований к дошкольному образованию, ориентированных на развитие личностных и социально-эмоциональных компетенций ребёнка.

Методические рекомендации. На основе анализа теоретических положений и результатов исследований целесообразно выделить следующие методические рекомендации для педагогов дошкольных образовательных организаций и родителей:

Педагогам дошкольных образовательных организаций рекомендуется:

- выстраивать партнёрское взаимодействие с семьёй, направленное на согласование воспитательных подходов и требований к ребёнку;
- информировать родителей о значении эмоциональной поддержки и последовательности воспитательных воздействий для развития саморегуляции и самостоятельности дошкольников;
- включать в образовательный процесс виды деятельности, предполагающие выбор, инициативу и самостоятельное принятие решений ребёнком;
- создавать условия для постепенного перехода от внешнего контроля к развитию внутренней саморегуляции у детей.

Родителям дошкольников рекомендуется:

- поддерживать эмоционально благоприятный климат в семье, проявлять внимание к эмоциональным состояниям ребёнка;
- поощрять самостоятельность ребёнка в бытовой, игровой и познавательной деятельности;
- использовать демократический стиль воспитания, сочетая поддержку инициативы с разумной требовательностью;
- предоставлять ребёнку возможность оценивать результаты собственных действий и обсуждать их совместно со взрослыми.



Реализация данных рекомендаций будет способствовать более эффективному развитию саморегуляции и автономного поведения у детей дошкольного возраста.

Список литературы:

1. Баранова Н.И. Психологические условия формирования саморегуляции у детей дошкольного возраста // Вестник Московского психолого-педагогического университета. – 2018. – № 4. – С. 22–31.
2. Баранова Н.И. Психологические особенности развития автономного поведения у детей дошкольного возраста // Вестник педагогических наук. – 2018. – № 5. – С. 35–42.
3. Вербианова О.М. Влияние стиля семейного воспитания на развитие саморегуляции детей 6–7 лет // Вестник Красноярского государственного педагогического университета им. В.П. Астафьева. – 2017. – № 1(39). – С. 184–189.
4. Климова А.В. Самостоятельность и саморегуляция детей дошкольного возраста: психолого-педагогический аспект // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 6. – С. 55–63.
5. Савеньшева С.С., Смирнова Н.Н., Жаркова А.В. Эмоциональная саморегуляция дошкольников и детско-родительские отношения // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия «Акмеология образования. Психология развития». – 2020. – № 20. – С. 45–54.
6. Федорова И.В., Литвинова Е.А. Роль семьи в формировании навыков саморегуляции у детей старшего дошкольного возраста // Вестник Санкт-Петербургского государственного университета. Серия: Психология и педагогика. – 2019. – № 3. – С. 101–110.



Quvvatova Mohira Hikmatullayevna
Termiz davlat pedagogika insituti
Maktabgacha ta’limda tarbiyani
tashkil etish kafedra mudiri
v/b dotsent, PhD

Abdumajitova Sayyohat Abduqosimovna
Termiz davlat pedagogika institutining
Maktabgacha ta’limda tarbiyani
tashkil etish kafedrasi o’qituvchisi

UDK 37.01/.08, 37.011, 377

BOLALARNING NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuchilarining nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Muallif interfaol metodlar va multimediya vositalarining nutq rivojiga ta’sirini yoritadi. Ilmiy yangilik sifatida, individual yondashuv va texnologiyalarni birlashtirish orqali samarali ta’lim modelining shakllanishi ko‘rsatiladi. Xulosalar nutq ko‘nikmalarini oshirishning yangi usullarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, nutq ko‘nikmalari, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, multimediya, ta’lim.

Кувватова Мохира Хикматуллаевна
Заведующая кафедрой организации образования в дошкольном
образовании, Термезский государственный педагогический институт
Исполняющая обязанности доцента, кандидат наук

Абдумаджитова Сайохат Абдуқосимовна
Преподаватель кафедры организации образования в дошкольном
образовании, Термезский государственный педагогический институт

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В
РАЗВИТИИ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ ДЕТЕЙ

Аннотация. В статье анализируется роль современных педагогических технологий в развитии речевых навыков учащихся дошкольных образовательных организаций. Автор выделяет влияние интерактивных методов и мультимедийных средств на развитие речи. В качестве научной новизны показана возможность формирования эффективной образовательной модели посредством сочетания индивидуального подхода и технологий. В выводах предлагаются новые методы совершенствования речевых навыков.



Ключевые слова: дошкольное образование, речевые навыки, педагогические технологии, интерактивные методы, мультимедиа, образование.

Quvvatova Mohira Hikmatullayevna
Head of the Department of Organization of Education in Preschool Education,
Termez State Pedagogical Institute
Acting Associate Professor, PhD

Abdumajitova Sayyohat Abdukosimovna
Teacher of the Department of Organization of Education in Preschool
Education, Termez State Pedagogical Institute

THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN’S SPEECH SKILLS

Annotation. The article analyzes the role of modern pedagogical technologies in the development of speech skills of preschool educational organizations. The author highlights the influence of interactive methods and multimedia tools on speech development. As a scientific novelty, the formation of an effective educational model through the combination of an individual approach and technologies is shown.

Key words: preschool education, speech skills, pedagogical technologies, interactive methods, multimedia, education.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish juda dolzarb masalaga aylangan. Nutq - bolalarning muloqot qilish, fikrlarini ifoda etish va atrof-muhit bilan samarali aloqada bo‘lishi uchun asosiy vosita hisoblanadi[1]. Shu bois nutqning to‘g‘ri va ravon shakllanishi har qanday ta’lim jarayonining ajralmas qismi sanaladi.

Nutq ko‘nikmalari - bu bolaning fikrlarini so‘z orqali ifoda etish, tinglash, tushunish va muloqot qilish qobiliyatidir[2]. Maktabgacha ta’limda nutq ko‘nikmalarining rivojlanishi bolaning keyingi ta’limdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Nutq rivojlanishi masalalari psixologiya va pedagogikada uzoq yillar davomida tadqiq qilingan. L.S.Vygotskiy (1986) nutq va fikrlashning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlab, ta’lim jarayonida nutq rivojlanishining muhimligini ko‘rsatgan. J.Bruner (1990) esa o‘quvchilarning faol faoliyati va interfaol o‘qitishning o‘rni haqida keng fikr yuritgan. Milliy olimlar, xususan S.Xolbekov (2010), maktabgacha ta’limda nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ va interfaol metodlarni qo‘llashni taklif qilgan. D.Usmonova (2018) esa pedagogik jarayonda multimediya vositalarining ahamiyatini ta’kidlagan. Biroq, ushbu



tadqiqotlardan farqli ravishda muallif zamonaviy texnologiyalarni individual ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali nutq rivojida yangi samarali model yaratishni ko‘zda tutadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada qiyosiy taqqoslash, kuzatuv va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan. An’anaviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar nutq rivojlanishiga ta’siri qiyosiy ravishda solishtirilgan. Kuzatuvlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutq ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun o‘tkazilgan. Statistik ma’lumotlar yordamida metodlarning samaradorligi baholangan.

Tahlil va natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interfaol pedagogik metodlar (masalan, rolli o‘yinlar, dialog mashg‘ulotlari) hamda multimediya vositalari nutq ko‘nikmalarini an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli darajada rivojlantiradi. An’anaviy metodlarda nutqning shakllanishida ko‘plab cheklovlar mavjudligi aniqlangan. Quyidagi jadvalda pedagogik texnologiyalarning nutq rivojiga ta’siri foiz ko‘rinishida keltirilgan:

Diagramma interfaol va multimediya metodlarining nutq rivojida yuqori samaradorligini ko‘rsatadi[5].

Nutqni rivojlantirishdagi asosiy qiyinchiliklar

- So‘z boyligining yetarli emasligi
- To‘g‘ri talaffuz va intonatsiyani shakllantirishdagi muammolar
- Suhbatga kirishda yoki fikr bildirishda qiyinchiliklar
- Mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalari pastligi

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar roli

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar - ta’lim jarayonida yangi usullar, metodlar va vositalardan foydalanish bo‘lib, ularning maqsadi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va tafakkurini samarali rivojlantirishdir [1].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutq ko‘nikmalarini oshirishda quyidagi zamonaviy texnologiyalar samarali hisoblanadi:

1. Interfaol metodlar:

- Rolli o‘yinlar
- Dialoglar va munozaralar
- Guruhlarda hamkorlikda ishlash

Bu metodlar bolaning nutq orqali muloqot qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

2. Multimediya vositalari:

- Ta’lim videolari
- Interaktiv taxta va o‘yinlar
- Audiovizual materiallar

Multimedia nutqning eshitish va ko‘rish orqali o‘rganilishini osonlashtiradi va qiziqishni oshiradi[3].

3. Individual yondashuv: Har bir bola nutq rivojlanishida turlicha bo‘lgani uchun individual imkoniyat va qobiliyatlarni inobatga olish kerak. Pedagoglar shaxsiy dasturlar asosida ishlashi tavsiya etiladi.



4. Loyihaviy faoliyat: O‘quvchilarni kichik loyihalar, taqdimotlar tayyorlashga jalb qilish nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning afzalliklari

- O‘quvchilarning faolligini oshiradi
- Nutqda mustaqillik va ijodkorlikni rag‘batlantiradi
- Ta‘lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi
- Individual o‘quv ehtiyojlariga moslashuvchanlikni ta‘minlaydi [2].

Muammolar va yechimlar

Ba‘zi maktablarda texnik baza va malakali pedagoglarning yetishmasligi zamonaviy texnologiyalarni to‘liq joriy etilishiga to‘sqinlik qiladi. Bu muammoni hal qilish uchun:

- Maktablarda zamonaviy texnika va internet bilan ta‘minlash;
- Pedagoglar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- Innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini ishlab chiqish.

Nutq – shaxsning muloqotdagi asosiy vositasi bo‘lib, fikrlarni aniq, tushunarli va lo‘nda ifodalash qobiliyatidir. Maktabgacha ta‘lim yoshida bolaning nutq ko‘nikmalarini shakllantirish ta‘lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir, chunki bu yoshda nutq ko‘nikmalari asosiy rivojlanish bosqichida bo‘ladi. Nutq rivojlanishi nafaqat tilni o‘rganish, balki tafakkur, ijtimoiy muomala, o‘qish va yozish ko‘nikmalari shakllanishiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Nutq ko‘nikmalarining asosiy turlari:

- Eshitish nutqi (tinglash va tushunish).
- Og‘zaki nutq (so‘zlash va ifoda qilish).
- Yozma nutq (yozish ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq) [6].

Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muammolar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida nutq rivojlanishi bilan bog‘liq qiyinchiliklar quyidagilar bo‘lishi mumkin: Lug‘at boyligining kamligi;

- ✓ Talaffuzdagi xatolar;
- ✓ Muloqotda o‘z fikrini aniq ifoda eta olmaslik;
- ✓ Eshitilgan matnni to‘liq tushunmaslik;
- ✓ Nutqda monotonlik, intonatsiya va urg‘u noto‘g‘ri qo‘llanishi.

Bu muammolar o‘quvchilarning ta‘limdagi muvaffaqiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi kamayadi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarni faol jalb qilishga asoslangan bo‘lib, ular nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ayniqsa samaralidir. Masalan:

Rolli o‘yinlar: O‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarni ijro etib, nutqni amaliyotda qo‘llashadi.

Munozaralar va dialoglar: O‘quvchilar mavzular bo‘yicha fikr almashib, nutq so‘z boyligini oshiradi va fikrlarni aniq ifoda etishga o‘rganadi.

Guruhda ishlash: O‘zaro muloqot va hamkorlik orqali ijtimoiy nutq ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Bu usullar bolaning nutq faoliyatini faollashtiradi, ijodkorlik va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi [7].



Multimediya vositalari nutq ko‘nikmalarini oshirish uchun kuchli yordamchi hisoblanadi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Audio va video materiallar: Masalan, nutqni to‘g‘ri o‘rganish uchun multfilm va hikoyalar.

Interaktiv taxtalar: O‘quvchilar bilan jonli muloqot o‘rnatish, mashg‘ulotlarni qiziqarli va interaktiv qilish imkonini beradi.

Kompyuter va mobil ilovalar: Nutq mashqlarini mustaqil bajarish va o‘zini sinash uchun qulay.

Multimediya vositalari o‘quvchilarning e‘tiborini jamlashga yordam beradi, nutqni eshitish va tushunish darajasini oshiradi, ularni nutqiy vazifalarni bajarishga undaydi[5].

Har bir bolaning nutq rivojlanish sur‘ati va imkoniyatlari har xil. Shu sababli, pedagoglar nutq ko‘nikmalarini oshirishda individual yondashuvni qo‘llashlari zarur. Bu:

Nutqdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni tuzatishga yo‘naltirilgan mashqlar:

- O‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan materiallar;
- Maxsus yordam talab qiladigan bolalar uchun individual reja tuzish;

Bolalarni kichik guruhlarga bo‘lib, loyihalar ustida ishlashga jalb qilish ularning nutq ko‘nikmalarini oshiradi. Loyihalar davomida o‘quvchilar:

- Ma‘lumot yig‘ish va tahlil qilishni o‘rganadi
- O‘z fikrlarini yozma va og‘zaki ifoda etadi

Taqdimot qilish orqali jamoatchilik oldida nutq so‘zlash tajribasini orttiradi

Texnik baza yetishmasligi: Ko‘plab maktablarda interaktiv taxa, kompyuter yoki internet yo‘qligi. Bu muammoni hal qilish uchun davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan mablag‘ ajratish, maktablarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash kerak[4].

Pedagoglarning malaka darajasi: Ko‘pchilik o‘qituvchilar yangi texnologiyalarni qo‘llashda yetarlicha tayyor emas. Shu sababli, doimiy malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etilishi muhim.

Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar: Ba‘zi hududlarda oilaviy sharoitlar o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Bu uchun maktablarda qo‘shimcha resurslar yaratish va onlayn ta‘limni rivojlantirish zarur.

Xulosa va takliflar

Tahlillar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi: maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuchilarining nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol metodlar va multimediya vositalaridan foydalanish eng samarali yondashuvdir. Shu bois maktablarda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, pedagoglarni doimiy malaka oshirish kurslariga jalb etish va innovatsion metodlarni amaliyotga tatbiq etishda rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuchilarining nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar alohida o‘rin tutadi. Interfaol metodlar va multimediya vositalari nutqni yanada samarali o‘rganish imkonini



beradi, bolaning o‘zini ifoda etish qobiliyatini oshiradi. Individual yondashuv va loyihaviy faoliyat orqali esa o‘quvchilarning nutq salohiyati kengayadi. Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etish uchun pedagoglarning malakasini oshirish va maktablarning texnik jihozlanishini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva Nigora R.; Muhammadjonova Rayhona Mirzohid qizi. (2024). Maktabgacha davr bolalarida ravon nutq va uni rivojlantirish vazifalari. Maktabgacha ta’limda xalqaro tajribalar va zamonaviy yondashuvlar, 1(1), -. academics.uz
2. Payzullayeva Oltinoy Madiyor qizi. (2024). Maktabgacha tarbiya yoshida nutqning rivojlanishi. Pedagogik Tadqiqotlar Jurnal, 2(1), -. wosjournals.com
3. To‘xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi. (2023). Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqiy kamchiliklari haqida tushuncha va kelib chiqish sabablari. Educational Research in Universal Sciences, 2(1 SPECIAL), 343–347. erus.uz
4. Hamrayeva E. (2022). Maktabgacha yoshidagi bolalarda nutq rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari. Maktabgacha ta’lim jurnali, 3(3). history.jdpu.uz
5. Fezuva Istamovna, Mansurova. (2025). Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning rivojlanmaganligi. Modern Education and Development, 23(1), 270-274. scientific-jl.com
6. Ishquvatova Zaynab Ro‘ziyevna. (2023). Maktabgacha ta’lim tashkilotida kichik yoshdan bolalar nutqini rivojlantirish. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 3), 142-147. in-academy.uz
7. Abdullayeva G. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Maktabgacha ta’lim jurnali, 3(3). fl.jdpu.uz
8. Usmonalieva Potima Zokirovna. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirishda pedagogik metodlardan foydalanish. Uzbek Scholar Journal, 8, 137-139. uzbekscholar.com
9. Mirkasimova Zilola Alisherovna. (2022). Maktabgacha yosh davrida til va nutq tushunchalari. Pedagogika va psixologiya v sovremennom mire: teor. i 8. prakt. issled., 1(27), 16-17. in-academy.uz



A. Zhdanova

3-kurs talabasi, “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi

UDK: 37.013; 37.091; 373.2

**TRIZ TEXNOLOGIYASI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA
IJODIY VA TIZIMLI TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI
SIFATIDA**

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlar, izlanish faolligi hamda tizimli tafakkur elementlarini shakllantirishda “Ixtiroiy muammolarni yechish nazariyasi” (TRIZ) texnologiyasining didaktik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. TRIZ yondashuvining bolalar tafakkurini moslashuvchan rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tushunish, zidliklarni aniqlash va ularni hal etishga yo‘naltirilgan kognitiv mexanizmlari ochib beriladi. Maktabgacha ta’lim amaliyoti uchun TRIZ asosidagi mashg‘ulotlarni tashkil etishning bosqichma-bosqich modeli hamda o‘yin va mashqlar (predmetlarning ko‘p funktsionalligi, faraziy vaziyatlar, yechimlarni tanlash) misolida natijaviylik shartlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: TRIZ; ixtiroiy muammolarni yechish nazariyasi; tizimli tafakkur; ijodiy tasavvur; nutqni rivojlantirish; izlanish faoliyati; resurs yondashuvi; ideal yakuniy natija; maktabgacha ta’lim.

Г.Э. Джаннеисова

профессор кафедры “Образование”, Кокандский университет

А. Жданова

студентка 3 курса направления “Дошкольное образование”

**TRIZ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО И
СИСТЕМНОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО
ВОЗРАСТА**

Аннотация. В статье рассматриваются дидактические и методические возможности технологии «Теория решения изобретательских задач» (ТРИЗ) в развитии творческого потенциала, исследовательской активности и элементов системного мышления у детей дошкольного возраста. Раскрываются когнитивные механизмы ТРИЗ-подхода, ориентированные на формирование гибкости мышления, выявление и разрешение противоречий, ресурсный анализ ситуации и проектирование «идеального результата». Представлена поэтапная модель организации ТРИЗ-ориентированных занятий в дошкольной образовательной организации, а также приведены примеры игр и упражнений, направленных на развитие речи, воображения, аналитико-синтетических операций и опыта сотрудничества детей.



Ключевые слова: ТРИЗ; теория решения изобретательских задач; системное мышление; творческое воображение; развитие речи; поисковая активность; ресурсный подход; идеальный конечный результат; дошкольное образование.

G.E. Djanpeisova
Professor, Department of Education, Кокандский университет

A. Zhdanova
3rd-year student, Preschool Education program

TRIZ TECHNOLOGY AS A TOOL FOR DEVELOPING CREATIVE AND SYSTEMIC THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. The paper explores the didactic and methodological potential of the Theory of Inventive Problem Solving (TRIZ) in fostering preschool children’s creativity, exploratory activity, and early systemic thinking skills. It clarifies TRIZ-based cognitive mechanisms that promote flexible thinking, identification and resolution of contradictions, resource analysis, and the design of an “ideal final result.” A step-by-step model for organizing TRIZ-oriented sessions in preschool settings is proposed. The article also provides practice-based examples of games and tasks aimed at enhancing speech development, imagination, analytical and synthetic operations, and collaborative skills among children.

Key words: TRIZ; theory of inventive problem solving; systemic thinking; creative imagination; speech development; exploratory activity; resource-based approach; ideal final result; preschool education.

Kirish

Maktabgacha ta’lim tizimi bugungi kunda bolani maktabga tayyorlashning faqat bilimiy komponenti bilan cheklanmay, balki uning mustaqil fikrlashi, muammoni ko’ra bilishi, sabab-oqibat bog’lanishlarini anglash, hamkorlikda muloqot qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilmoqda. Shuning uchun ta’lim jarayonida bolalarning kognitiv faolligi va ijodiy salohiyatini qo’llab-quvvatlaydigan innovatsion texnologiyalarni tanlash dolzarb vazifaga aylanadi. Mazkur jarayonda TRIZ texnologiyasi didaktik resurs sifatida e’tibor qozonadi: u bolani “tayyor javob”ni topishga emas, muammoga fikriy yondashuvni qurishga, zidlikni sezishga, mavjud resurslardan oqilona foydalanishga hamda bir nechta yechim variantini ishlab chiqishga yo’naltiradi. Maktabgacha yoshda bu yondashuv ayniqsa samarali, chunki bu davrda nutq, tasavvur, tafakkurning elastikligi va izlanish ehtiyoji jadal shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili

TRIZ konsepsiyasining asoschisi Генрих Альтшуллер bo‘lib, u ixtirochilik jarayonini tizimli tahlil qilish orqali texnik tizimlarda uchraydigan umumiy qonuniyatlarni aniqlagan. Keyinchalik TRIZ g’oyalari ta’lim sohasiga moslashtirilib, muammoli fikrlashni rivojlantirish, qarama-qarshiliklarni yechish



va resurs yondashuvi asosida izlanish faoliyatini rag'batlantirish vositasi sifatida talqin qilindi.

Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan TRIZning ta'limiy samaradorligi bolalarning fikrlashini faol harakatga keltiradigan “savol-javob”, “faraz”, “tahlil” va “muqobil yechim” mexanizmlariga tayanadi. Bu esa Лев Выготскийning madaniy-tarixiy yondashuvi hamda “yaqin rivojlanish zonasi” g'oyasi bilan uyg'unlashadi: pedagog bolaning mustaqil fikrini qo'llab, uni yuqoriroq darajadagi mantiqiy xulosalarga olib chiqadi. Shuningdek, Василий Давыдовning rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasida ta'kidlangan “tahliliy harakatlar” (shartni ajratish, maqsad qo'yish, vositani tanlash, natijani baholash) TRIZning amaliy algoritmlarida o'z ifodasini topadi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Tadqiqot obyekti: maktabgacha ta'lim tashkilotida TRIZ texnologiyasi asosida bolalarda ijodiy va tizimli tafakkurni rivojlantirish jarayoni.

Maqsad: TRIZ texnologiyasining maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy hamda tizimli tafakkurni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini asoslash va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning samarali modelini tavsiflash.

Vazifalar:

1. TRIZning ta'limiy mazmunini va asosiy g'oyalarini ochib berish;
2. TRIZning kognitiv, nutqiy va ijtimoiy-rivojlantiruvchi ta'sirini izohlash;
3. TRIZ-yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish algoritmini ishlab chiqish;
4. maktabgacha yoshga mos o'yin va mashqlar misolida amaliy imkoniyatlarni ko'rsatish.

Metodlar: nazariy tahlil, metodik umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, amaliy vaziyatlar (keysar) tavsifi.

Tahlillar va natijalar

TRIZ yondashuvi maktabgacha ta'lim amaliyotida “muammo - zidlik - resurs - ideal natija - yechimlar tanlovi” zanjiri orqali bolalarda fikrlash harakatlarini tizimli tashkil etishga imkon beradi. Ushbu jarayonning pedagogik va psixologik jihatlari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. TRIZ texnologiyasining maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta'sir yo'nalishlari

Yo'nalish	Pedagogik jihat	Psixologik jihat	Kutiladigan natija
Muammoli vaziyat	savol bilan muammo qo'yish, shartni aniqlashtirish	qiziqish, ichki motivatsiya	muammo ko'ra bilish, diqqat faollashuvi
Zidlikni topish	“bir vaqtning o'zida kerak bo'lgan” talablarni ajratish	kognitiv konflikt, tahlil	mantiqiy bog'lanishlarni anglash
Resurs yondashuvi	mavjud narsalar/sifatlar/vaqt/harakatdagi foydalanish	moslashuvchanlik, kombinatorika	noodatij fikr, variantlar ko'payishi
Ideal	“eng yaxshi holat” modelini	tasavvur, prognoz	strategik



yakuniy natija	qurish		fikrlashning boshlang'ich ko'rushlari
Variant tanlash va refleksiya	yechimlarni solishtirish, mezon asosida tanlash	o'zini baholash, irodaviy tartibga solish	tanqidiy fikr, asoslab berish, muloqot

TRIZ-yo'naltirilgan mashg'ulot algoritmi

1. muammo vaziyatini yaratish (kuzatuv, hikoya, tajriba);
2. maqsadni aniqlash (“nimaga erishamiz?”);
3. zidlikni ajratish (“nima xohlaymiz, nima xalaqit beradi?”);
4. ideal natijani tasavvur qilish;
5. resurslarni aniqlash;
6. 3-7 yechimni taklif etish;
7. mezonlar bo'yicha eng maqbulini tanlash;
8. taqdimot va refleksiya (“nega shu yechim?”).

Amaliy misollar (maktabgacha yosh uchun)

1) “Sehrlı buyumlar” o'yini. Bolalar predmetning yangi funksiyalarini topadi (qoshiq-cholg'u, qog'oz-parashyut). Natija: divergent fikrlash, resurs ko'ra bilish.

2) “Agar” o'yini. Faraziy vaziyatlar orqali sabab-oqibat tahlili shakllanadi (yomg'ir yuqoriga yog'sa). Natija: faraz, mantiqiy izchillik va nutq.

3) “Yechimlar piramidasi”. Bir muammo uchun yechimlarni taqqoslash va tanlash (o'yinchoq yomg'irda qolsa...). Natija: mezonli baholash va asoslab berish.

Xulosa

TRIZ texnologiyasini maktabgacha ta'limga tatbiq etish bolalarda ijodiy tasavvur, moslashuvchan tafakkur va tizimli fikrlash elementlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. TRIZ-yondashuv muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, zidlikni aniqlash, resurslardan foydalanish va muqobil yechimlarni ishlab chiqish orqali bolalarning kognitiv faolligini kuchaytiradi, nutqiy kompetensiyalarini boyitadi hamda hamkorlik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, TRIZ maktabgacha ta'lim amaliyotida nafaqat innovatsion metod, balki bolani keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlovchi rivojlantiruvchi texnologiya sifatida ham dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ардашева Н. И., Сидорчук Т. А. Основные условия использования ТРИЗ-технологий в дошкольных образовательных учреждениях: пособие для педагогов ДОУ. - Ульяновск, 2008. - 78 с.
2. Гин С. В. Занятия по ТРИЗ в детском саду: пособие для педагогов дошкольных учреждений. 3-е изд. - Минск: ИВЦ Минфина, 2007. - 112 с.
3. Ширяева В. А. ТРИЗ-педагогика: от теории к практике: учебно-методическое пособие. - Саратов: Наука, 2006. - 88 с.
4. Нестеренко А. А., Ширяева В. А. (ред.). ТРИЗ-педагогика: диалог теории и практики: межвузовский сборник научных трудов. - Саратов, 2007. - 104 с.



5. Гин А. А. ТРИЗ-педагогика. Учим креативно мыслить. - М.: Вита-Пресс, 2018. - 96 с.
6. Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 2000. - 352 с.
7. Davydov V. V. Теория развивающего обучения. - М.: Институт развития школьного образования, 2000. - 544 с.

G'aniyeva Shodiya Azizovna
Farg'ona davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasi professori, DSc



*Abdullayeva Nodiraxon Mamaro‘zi qizi
Farg‘ona davlat universiteti, 1-kurs magistranti*

UDK:373.31

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR
O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Annotatsiya. Ushbu maqola ona tili darslari misolida boshlang‘ich va umumiy ta‘lim o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini integrativ yondashuv yordamida rivojlantirish metodikasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida interfaol mashg‘ulotlar, guruh va juft ishlash metodlari, matn bilan ishlash hamda o‘yin metodlarining samaradorligi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv tilni amaliyotda qo‘llash, nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Integrativ yondashuv, kommunikativ kompetensiya, ona tili darsi, interfaol metodlar, nutq ko‘nikmalari.

*Ганиева Шодия Азизовна
Профессор кафедры методики начального образования,
Ферганский государственный университет (DSc)*

*Абдуллаева Нодирахон Мамарузи кызы
Ферганский государственный университет
магистрат 1-курса*

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА
ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

Аннотация. В статье рассматривается методика развития коммуникативной компетенции учащихся на уроках родного языка с использованием интегративного подхода. В ходе исследования анализировалась эффективность интерактивных занятий, работы в группах и парах, работы с текстом и игровых методов. Результаты показали, что интегративный подход является наиболее эффективным инструментом для практического применения языка, формирования речевых навыков и развития коммуникативной способности учащихся.

Ключевые слова: Интегративный подход, коммуникативная компетенция, урок родного языка, интерактивные методы, речевые навыки.

*G‘aniyeva Shodiya Azizovna
Professor of the Department of Primary Education Methodology
Fergana State University (DSc)*



Abdullayeva Nodiraxon Mamaro‘zi qizi
1st year Master’s student at Fergana State University.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Abstract. This article explores the methodology of developing students’ communicative competence in native language lessons using an integrative approach. The study analyzed the effectiveness of interactive activities, group and pair work, text-based tasks, and game methods. The results indicated that the integrative approach is the most effective tool for practical language use, enhancing speech skills, and developing students’ communication abilities.

Keywords: Integrative approach, communicative competence, native language lesson, interactive methods, speech skills.

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faqat bilimga ega bo‘lishi yetarli emas; ularning kommunikativ kompetensiyasi, ya’ni fikrini aniq va to‘g‘ri ifoda etish, muloqot qilish, tinglash va tushunish qobiliyatlari ham rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda tilni o‘rganish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarni egallash, balki amaliy nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bog‘liq. Shu bois, ta’limda samarali va tizimli yondashuvlar xususan integrativ yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv fanlararo aloqani, turli metod va faoliyat shakllarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi. Ona tili darslarida bu yondashuv o‘quvchilarga matnni tushunish, nutqiy vazifalarni bajarish va muloqot jarayonida o‘z fikrini samarali ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, integrativ yondashuv yordamida o‘quvchilarda tilni amaliy faoliyat orqali o‘rganish, interfaol mashg‘ulotlar, guruhli va juft ishlash metodlari orqali kommunikativ kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ yondashuv metodikasini o‘rganishga qaratilgan.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning til bilimi faqat grammatik qoidalarni egallash bilan cheklanmay, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ona tili darslari bu jarayonda markaziy o‘rin tutadi, chunki u orqali o‘quvchilar fikrlarini aniq ifoda etish, matnni tushunish, tinglash va muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Integrativ yondashuvning qo‘llanilishi bu jarayonni yanada samarali qiladi. U turli fanlar va metodlarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarda tilni amaliyotda qo‘llash, matnlar bilan ishlash va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ona tili darslarida integrativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.



Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – umumiy ona tili darslari misolida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini integrativ yondashuv orqali rivojlantirish metodikasini o‘rganish va takomillashtirish.

Adabiyotlar tahlili

Integrativ yondashuv pedagogikada bir nechta fan va metodlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish sifatida tushuniladi. Ona tili fanida bu yondashuv matn bilan ishlash, nutqiy vazifalarni bajarish va kommunikativ vazifalarni birlashtirish imkonini beradi. Pedagogik nazariyalarga ko‘ra, o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalari faqat grammatik qoidalar orqali shakllanmaydi, balki amaliy mashg‘ulotlar va turli faoliyat shakllari orqali rivojlanadi. Integrativ yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida qo‘llashga, o‘z fikrini aniq va lo‘nda ifoda etishga, shuningdek, tinglash va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u o‘qituvchiga darslarni interfaol, qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ona tili darslarida integrativ yondashuvning asosiy vazifasi – o‘quvchilarda amaliy nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish, matnlarni tahlil qilish va muloqot jarayonida o‘z fikrini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu yondashuv orqali darslar turli fanlararo aloqalarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarni tahliliy fikrlashga, muloqotga jalb qilishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan pedagogik metodikada integrativ yondashuv kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Darslarda matnni tushunish, so‘z boyligini oshirish, nutqiy vazifalarni bajarish va interfaol mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalari muntazam shakllantiriladi. Bu yondashuv amaliyotga yo‘naltirilgan faoliyatni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, integrativ yondashuvning nazariy asoslari pedagogik tadqiqotlarda keng o‘rganilgan va uning samaradorligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Dars jarayonida u o‘quvchilarga nutqiy vazifalarni bajarish, fikr almashish va o‘zini ifoda etish imkonini beradi. Ona tili fanida integrativ yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilar ijodiy fikrlash va tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, u o‘quvchilarda ijtimoiy va madaniy kontekstni tushunish qobiliyatini ham shakllantiradi. Metodik jihatdan integrativ yondashuv darslarni turli faoliyat shakllari bilan boyitish, guruh va juft ishlash metodlarini qo‘llash, o‘yin va interfaol mashg‘ulotlarni tatbiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Kommunikativ kompetensiya - bu o‘quvchining til orqali muloqot qila olish, fikrini aniq ifoda etish va boshqalar bilan samarali aloqada bo‘lish qobiliyatidir. U lingvistik, sotsiokultural va strategik komponentlardan tashkil topadi. Lingvistik komponent grammatika va leksik bilimlarni, sotsiokultural komponent tilni madaniy kontekstda qo‘llashni, strategik komponent esa muloqot jarayonida samarali strategiyalarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Ona tili fanida kommunikativ kompetensiya o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, matnni tushunish, fikr almashish va nutq vazifalarini bajarish bilan bevosita bog‘liq. Shu kompetensiya orqali o‘quvchilar nafaqat yozma va og‘zaki nutqni egallaydi, balki turli ijtimoiy vaziyatlarda tilni moslashtira olish qobiliyatiga ega bo‘ladi.



Kommunikativ kompetensiya tarkibiy jihatdan quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: tinglash, tushunish, gapirish, yozish va muloqot qilish ko‘nikmalari. Bu elementlar integrativ yondashuv orqali samarali shakllantiriladi. Masalan, matn tahlili, guruh mashg‘ulotlari va interfaol o‘yinlar o‘quvchilarda fikr almashish va nutq vazifalarini bajarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya ijtimoiy muloqot va madaniy kontekstni tushunishni ham o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarga tilni turli vaziyatlarda moslashuvchan qo‘llash imkonini beradi. Ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va muloqot strategiyalarini shakllantirish bilan bog‘liq. Integrativ metodlar yordamida bu kompetensiya yanada samarali tarzda rivojlantiriladi. Shu bilan birga, kompetensiya o‘quvchilarga tilni mustaqil o‘rganish va amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiya integrativ yondashuv bilan mustahkamlanadi va o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini samarali rivojlantiradi.

Ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi bir nechta asosiy pedagogik prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi. Birinchi prinsip – faollik va interfaollik; o‘quvchilar dars davomida nafaqat tinglovchi, balki faol ishtirokchi bo‘lishi lozim. Ikkinchi prinsip – bosqichma-bosqich rivojlantirish; bu orqali til ko‘nikmalari oddiydan murakkabga qarab shakllantiriladi. Uchinchi prinsip – amaliy yo‘naltirilganlik, ya‘ni tilni faqat nazariy o‘rgatish emas, balki real muloqot vaziyatlarida qo‘llash. To‘rtinchi prinsip – integratsiya, ya‘ni turli metod va fanlar elementlarini birlashtirish orqali o‘quvchilarning ko‘p qirrali rivojlanishini ta‘minlash. Shu prinsiplar yordamida o‘quvchilar matn bilan ishlash, nutq vazifalarini bajarish, guruh va juft ishlash ko‘nikmalarini egallaydi. Metodik jihatdan, darslar interfaol mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va muhokamalar orqali tashkil qilinadi. Bu jarayonda o‘quvchilar fikr almashish, tinglash va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarning qobiliyat darajasini inobatga olgan holda vazifalarni moslashtiradi. Matn tahlili, dialoglar, hikoya va insho yozish kabi amaliy mashg‘ulotlar kommunikativ kompetensiyani mustahkamlaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda tilni o‘zaro muloqotda qo‘llashga ishonch shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metodik prinsiplarni qo‘llash o‘quvchilarning nutqiy kreativlik va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Integrativ yondashuv orqali metodik prinsiplar bir-birini to‘ldirib, o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llashini yanada samarali qiladi. Shu jihatdan, pedagogik prinsiplar va metodik vositalarni uyg‘unlashtirish darsning natijadorligini oshiradi.

Matn bilan ishlash kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. O‘quvchilarga matnni tahlil qilish, mazmunini tushunish va o‘z fikrini ifoda etish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Metodik jihatdan matn bilan ishlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: matnni o‘qish, asosiy g‘oyani ajratish, savollar berish va javob berish, muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish. Shu jarayon o‘quvchilarda tinglash, tushunish va so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Matnni turli usullar bilan taqdim etish: og‘zaki, yozma, vizual yoki audio shaklda – o‘quvchilarning multi-sensor ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek,



matn bilan ishlash vazifalari interfaol va ijodiy bo‘lishi lozim. Misol uchun, hikoya tahlili orqali o‘quvchilar matn mazmunini tushunadi va o‘z fikrini muloqotda ifoda qiladi. Dialoglar va rolli o‘yinlar esa nutq vazifalarini amaliy tarzda qo‘llash imkonini beradi. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘z fikrini aniq, lo‘nda va samarali ifoda etishni o‘rganadi. Metodik tavsiyalar asosida matn vazifalari integrativ yondashuv bilan uyg‘unlashtiriladi.

Interfaol mashg‘ulotlar va o‘yin metodlari o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. Rolli o‘yinlar, dramalash va muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilar nutqiy faoliyatda ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z fikrini ifoda etish, tinglash va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi va tilni turli vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini oshiradi. Masalan, matn bo‘yicha rolli o‘yinlarda o‘quvchilar dialoglar quradi, hikoya yaratadi va muhokama olib boradi. Bu jarayon o‘quvchilarda ijtimoiy muloqot va guruh ichidagi hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, interfaol mashg‘ulotlar o‘quvchilarda motivatsiya va o‘zini ifoda etish ishonchini oshiradi. O‘yin metodlari amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lib, tilni real vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Metodik jihatdan, interfaol mashg‘ulotlar dars mazmuni va maqsadiga mos ravishda tashkil qilinadi. Shu yondashuv o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani mustahkamlash va matnni amaliy tarzda tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

Guruh va juft ishlash metodlari ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu metodlar o‘quvchilarga birgalikda fikr almashish, muammo yechish va muloqot qilish imkonini yaratadi. Integrativ yondashuv asosida guruh ishlari matn tahlili, muhokama va ijodiy vazifalarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, o‘quvchilar bir matn bo‘yicha guruhlarga bo‘linib, asosiy g‘oyani ajratadi, savollar ishlab chiqadi va natijalarni sinf bilan baham ko‘radi. Juft ishlash esa o‘quvchilarni bir-biriga tayyorlash, fikr almashish va dialog qurish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu tarzda, o‘quvchilar tinglash va tushunish qobiliyatlarini, shuningdek, so‘z boyligini kengaytiradi. Guruh ishlari orqali o‘quvchilarda ijtimoiy muloqot va hamkorlik ruhiyati shakllanadi. Integrativ metod yordamida o‘qituvchi dars vazifalarini murakkablik darajasiga qarab moslashtiradi va har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga oladi. Shu bilan birga, guruh va juft ishlash metodlari o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar matnlarni tahlil qiladi, muhokama qiladi va yangi bilimlarni amalda qo‘llaydi. Bu jarayon tilni amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, guruh ishlari o‘quvchilarda shaxsiy javobgarlik va o‘z fikrini himoya qilish qobiliyatini shakllantiradi. Integrativ yondashuv asosida juft va guruh ishlari darsning samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.



Ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida baholash va monitoring muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llash qobiliyati nafaqat test natijalari bilan, balki real nutqiy faoliyat orqali ham baholanadi. Baholashning samarali metodlari: og‘zaki nutqni tinglash, yozma ishlar, dialoglar va rol o‘yinlari natijalarini tahlil qilishdir. Shu bilan birga, doimiy kuzatuv o‘quvchilarning individual rivojlanishini aniqlashga yordam beradi. Monitoring jarayonida o‘quvchilarning nutq qobiliyati, fikr ifodalash, matni tushunish va muloqot qilish ko‘nikmalari baholanadi. Baholashda o‘qituvchi integrativ yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ko‘p qirrali rivojlanishini tahlil qiladi. Misol uchun, guruh va juft ishlashdagi natijalar, interfaol mashg‘ulotlarda ishtirok va matn tahlili orqali o‘quvchilarning kommunikativ darajasi aniqlanadi. Shu yondashuv orqali o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llashdagi zaif va kuchli tomonlari aniqlanadi. Baholash natijalari metodik tavsiyalar ishlab chiqish va darslarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Monitoring jarayoni o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, baholash o‘quvchilarda motivatsiya va samarali ishlashga qiziqishni oshiradi. Pedagogik nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv yordamida amalga oshirilgan baholash tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi.

Integrativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun bir nechta metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Birinchi tavsiya – interfaol mashg‘ulotlar va o‘yin metodlarini muntazam qo‘llash, bu o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rag‘batlantiradi. Ikkinchi tavsiya – matn bilan ishlashni integrativ tarzda tashkil etish, ya‘ni matn tahlili, muhokama va ijodiy vazifalarni uyg‘unlashtirish. Uchinchi tavsiya – guruh va juft ishlash metodlarini samarali qo‘llash, o‘quvchilarda muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. To‘rtinchi tavsiya – baholash va monitoringni tizimli olib borish, o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llashini aniqlash va metodik takomillashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagoglar darslarni o‘quvchilarning yosh va qobiliyat darajasiga moslashtirib tashkil etishi lozim. Mashg‘ulotlarda muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar qo‘llanilishi o‘quvchilarning fikr va nutq qobiliyatini rivojlantiradi. Tavsiyalar asosida o‘qituvchi o‘quvchilarning individual va guruh darajasidagi rivojlanishini kuzatib boradi. Shu yondashuv interfaol va samarali dars jarayonini yaratadi. Metodik qo‘llanmalar dars rejasini tuzishda, mashg‘ulotlarni tashkil etishda va baholash mezonlarini belgilashda foydali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, tavsiyalar o‘quvchilarda nutqiy ishonch, ijodiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Tahlillar va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv asosida ona tili darslarini tashkil etish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Matn bilan ishlash, interfaol mashg‘ulotlar, o‘yin metodlari va guruh hamda juft ishlash metodlarini uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda fikr almashish, tinglash, tushunish va o‘z fikrini aniq ifoda etish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Tadqiqot jarayonida kuzatildi ki, interfaol mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi, darsga bo‘lgan



motivatsiyani oshiradi va nutqiy faoliyatga qiziqishni kuchaytiradi. Guruh va juft ishlash metodlari orqali o‘quvchilar bir-biri bilan muloqot qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Shu bilan birga, integrativ yondashuvning qo‘llanilishi o‘quvchilarda tilni amaliyotda qo‘llash va matnlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini mustahkamladi. Baholash va monitoring natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatlari, so‘z boyligi va muloqot ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilar turli vaziyatlarda tilni moslashtira olish, o‘z fikrini aniq ifoda etish va tinglash qobiliyatini egalladi. Tadqiqot shuningdek ko‘rsatdiki, metodik tavsiyalarni tatbiq etish darslarni interfaol va qiziqarli qiladi, o‘quvchilarning motivatsiyasi va nutqiy ishonchi oshadi.

Xulosa

Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilar ijtimoiy va madaniy kontekstni tushunish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu tarzda, tadqiqot natijalari ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi va amaliy pedagogik metodlarni qo‘llashga asos yaratadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, matn bilan ishlash, interfaol mashg‘ulotlar, guruh va juft ishlash metodlari, shuningdek, doimiy baholash va monitoring o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar darslarni samarali rejalashtirish va tashkil etishda qulaylik yaratadi. Umuman olganda, integrativ yondashuv o‘quvchilarda tilni amaliy qo‘llash, muloqot qobiliyatini rivojlantirish va ijtimoiy interaktiv ko‘nikmalarni shakllantirishning eng samarali yo‘li sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akhmedova N. (2020). Ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.
2. Islomova S. (2019). Integrativ yondashuv va uning pedagogik ahamiyati. Pedagogik ilmiy jurnal, 4(2), 45–53.
3. Karimov T. (2021). Interfaol metodlar yordamida nutq ko‘nikmalarini shakllantirish. Toshkent: Fan va Ta’lim.
4. Mamatqulov B. (2018). Ona tili darslarida matn bilan ishlash metodikasi. Pedagogika va Psixologiya, 3(1), 22–30.
5. Nazarov A. (2020). Kommunikativ kompetensiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
6. Rakhmonov Sh. (2019). Guruh va juft ishlash metodlarini ona tili darslarida qo‘llash. Ilmiy Axborot, 2(5), 15–25.
7. Saidova D. (2021). O‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llashini baholash metodikasi. Pedagogik Tadqiqotlar, 6(3), 50–60.
8. Tursunov J. (2022). Integrativ yondashuv orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirish. Ilmiy maqolalar to‘plami, 7(1), 12–28.

Muratova Manzura Nemadjanovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, t.f.f.d.dots.



УДК 661. 635. 213:622. 364.1.

ANTIPIREN MODDALARINING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA QO'LLASH ZARURATI VA EKOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada antipiren moddalarining mohiyati, ularning turlari, ishlash mexanizmlari hamda o'quv muassasalarida yong'in xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati kompleks ravishda tahlil qilinadi. Ta'lim muassasalari binolarida yong'in xavfi yuqori bo'lgan materiallarning keng qo'llanilishi antipiren moddalaridan foydalanishni dolzarb masalaga aylantiradi. Maqolada antipirenlarning qurilish materiallari, mebel, elektr jihozlari va tekstil mahsulotlaridagi qo'llanilishi, shuningdek, sanitariya-gigiyenik va ekologik talablarga muvofiqligi muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, antipiren moddalarini tizimli ravishda joriy etish o'quv muassasalarida yong'in xavfini sezilarli darajada kamaytiradi va inson hayotini muhofaza qilishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: antipiren moddalar, yong'in xavfsizligi, o'quv muassasalari, qurilish materiallari, profilaktika.

Муратова Манзура Немаджановна
Навоийский государственный горно-технический
университет, кандидат наук, доцент

НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОГНЕЗАЩИТНЫХ СРЕДСТВ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ сущности антипиреновых веществ, их классификации, механизмов действия, а также их значения в обеспечении пожарной безопасности в образовательных учреждениях. Широкое применение материалов с повышенной пожарной опасностью в зданиях образовательных организаций делает использование антипиренов особенно актуальной задачей. В работе рассматриваются особенности применения антипиреновых веществ в строительных материалах, мебели, электрооборудовании и текстильных изделиях, а также их соответствие санитарно-гигиеническим и экологическим требованиям. Результаты исследования показывают, что системное внедрение антипиреновых веществ существенно снижает риск возникновения пожаров в образовательных учреждениях и является важным фактором защиты жизни человека.

Ключевые слова: антипиреновые вещества, пожарная безопасность, образовательные учреждения, строительные материалы, профилактика.



Muratova Manzura Nemadzhanovna
Navoi State Mining and Technical University,
Candidate of Sciences, Associate Professor

THE NECESSITY AND ENVIRONMENTAL ASPECTS OF USING FIRE-RETARDANT MATERIALS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the essence of flame-retardant (antipyrene) substances, their types, operating mechanisms, and their significance in ensuring fire safety in educational institutions. The widespread use of materials with a high fire hazard in educational buildings makes the application of flame retardants a particularly relevant issue. The article examines the use of flame retardants in construction materials, furniture, electrical equipment, and textile products, as well as their compliance with sanitary-hygienic and environmental requirements. The research findings demonstrate that the systematic implementation of flame-retardant substances significantly reduces fire risks in educational institutions and constitutes an important factor in protecting human life.

Key words: flame-retardant substances, fire safety, educational institutions, construction materials, prevention.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish maskani, balki inson hayoti va sog’lig’i to’plangan murakkab ijtimoiy obyekt sifatida ham qaraladi. Maktablar, litseylar, kollejlar va oliy ta’lim muassasalarida o’quvchilar, talabalar hamda pedagog xodimlarning ko’p sonli kontingenti doimiy ravishda faoliyat yuritadi. Shu sababli ushbu obyektlarda xavfsizlikni, ayniqsa yong’in xavfsizligini ta’minlash masalasi alohida dolzarblik kasb etadi[1].

Adabiyotlar tahlili

Amaliy tajriba va statistik kuzatuvlar shuni ko’rsatadiki, o’quv muassasalarida sodir bo’ladigan yong’inlarning asosiy sabablari sifatida yonuvchan qurilish va bezak materiallarining keng qo’llanilishi, elektr jihozlari va tarmoqlaridagi nosozliklar, shuningdek, yong’in xavfsizligi qoidalariga yetarli darajada rioya etilmasligi qayd etiladi. Shu nuqtayi nazardan, yong’inning kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan chora-tadbirlar majmuasida antipiren moddalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Antipiren moddalar - bu yonuvchi materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o’zgartirish orqali ularning yong’inga chidamliligini oshiruvchi maxsus kimyoviy birikmalardir. Ushbu moddalar materialning alanganlash haroratini oshiradi, yonish tezligini sekinlashtiradi va yong’inning keng maydonga tarqalishiga to’sqinlik qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda antipiren moddalar quyidagi asosiy guruhlariga bo’linadi:

- noorganik antipirenlar (fosfatlar, bor birikmalari, ammoniy tuzlari);
- organik antipirenlar (halogenli va halogensiz birikmalar);



- intumescent antipirenlar, ya’ni qizdirilganda ko‘pik hosil qiluvchi tizimlar;
- kompozit antipiren tizimlari, bir nechta mexanizmni birlashtiruvchi moddalar.
- Mazkur tasnif antipirenlarni amaliy qo‘llashda ularning samaradorligini baholash va maqsadga muvofiq tanlash imkonini beradi [2].
- Antipiren moddalarining ta’siri bir nechta o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali amalga oshadi. Birinchi navbatda, ular yonish jarayonida ajralib chiqadigan issiqlikning bir qismini yutib, materialning haroratini pasaytiradi. Ikkinchi mexanizm himoya qatlam hosil qilish bilan bog‘liq bo‘lib, bu qatlam kislorodning materialga kirishini cheklaydi.
- Bundan tashqari, ayrim antipiren moddalar yonish jarayonida ajraladigan yonuvchan gazlarning miqdorini kamaytiradi yoki erkin radikallarni bog‘lab, alangananish zanjir reaksiyasini uzadi. Ushbu mexanizmlarning majmuaviy ta’siri natijasida yong‘inning rivojlanish sur’ati sezilarli darajada pasayadi, bu esa favqulodda vaziyatlarda odamlarni xavfsiz evakuatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan vaqtni oshiradi [3].
- O‘quv muassasalari binolarida ishlatiladigan ko‘plab materiallar - yog‘och, plastmassa, polimer qoplamalar, linoleum, dekorativ panellar - yuqori darajada yonuvchan hisoblanadi. Ushbu materiallarga antipiren bilan ishlov berish yong‘in xavfsizligini ta’minlashda muhim texnik yechim sifatida qaraladi.
- Ayniqsa sinfxonalar, yotoqxonalar, kutubxonalar va laboratoriyalarda antipiren moddalarining qo‘llanilishi yong‘in xavfini kamaytirish bilan birga, moddiy boyliklarni saqlash va inson hayotini muhofaza qilishda muhim rol o‘ynaydi. Elektr kabel tizimlarida antipiren qo‘shimchalarga ega izolyatsiya materiallaridan foydalanish esa qisqa tutashuv oqibatida kelib chiqadigan yong‘inlar ehtimolini kamaytiradi [4-5].

Tahlillar va natijalar

Maktabgacha muassasalarida qo‘llaniladigan har qanday kimyoviy modda sanitariya-gigiyenik va ekologik talablarga to‘liq javob berishi lozim. Ba’zi an’anaviy galogenli antipirenlar yonish vaqtida zaharli gazlar ajratishi mumkinligi sababli, zamonaviy tadqiqotlarda galogensiz, ekologik xavfsiz antipirenlarga ustuvorlik berilmoqda.

Ekologik jihatdan xavfsiz antipirenlar inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi, allergik reaksiyalarni keltirib chiqarmaydi va uzoq muddatli foydalanishda barqaror xususiyatga ega bo‘ladi. Shu bois, ta’lim muassasalari uchun antipiren tanlashda ularning gigiyenik ko‘rsatkichlari alohida e’tiborga olinishi zarur.

Antipiren moddalaridan foydalanish yong‘in xavfsizligini ta’minlashning muhim profilaktik chorasi hisoblanadi. Ular favqulodda vaziyatlarning oldini olish, moddiy zarar miqdorini kamaytirish va inson hayotini saqlab qolishga xizmat qiladi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan, o‘quv muassasalarida xavfsiz muhitni shakllantirish jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Antipiren moddalarining tizimli qo‘llanilishi yong‘in xavfsizligi madaniyatini oshiradi va ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi [6].

Xulosa



Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, antipiren moddalarini o‘quv muassasalarida keng joriy etish yong‘in xavfsizligini ta‘minlashning eng samarali yo‘llaridan biridir. Qurilish materiallari, mebel, elektr jihozlari va bezak elementlarida antipirenlardan foydalanish yong‘in xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, ekologik va gigiyenik talablarga javob beradigan zamonaviy antipirenlarni tanlash ta‘lim muassasalarida xavfsiz va sog‘lom muhit yaratishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Drysdale D. An Introduction to Fire Dynamics. – Chichester: Wiley, 2011.
2. Horrocks, A. R., Price, D. Fire Retardant Materials. – Cambridge: Woodhead Publishing, 2001.
3. Weil E. D., Levchik, S. V. Flame Retardants for Plastics and Textiles. – Munich: Hanser, 2009.
4. Babrauskas, V. Ignition Handbook. – Issaquah: Fire Science Publishers, 2003.
5. Hull, T. R. Fire Retardancy of Polymeric Materials. – London: CRC Press, 2014.
6. Manzura M., Iroda T., Uktam M., Bakhtiyor G., Sherali K., & Faizulla N. Study and production of firefighting substances based on acid processing of low-grade phosphorite. Universum: химия и биология.



*Oralbayeva Eleonora Ulug’bek qizi
Farg’ona davlat universiteti,
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi*

UDK:371.311

HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI BOSHLANG’ICH TA’LIM TIZIMI TARIXI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi davr jahon mamlakatlarida boshlang’ich ta’lim tizimi uzoq tarixga ega bo’lib, uning rivoji turli davrlar va pedagogik yondashuvlar bilan bog’liq. Pedagogika fani esa ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish, bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojini qo’llab-quvvatlashda muhim rol o’ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, har bir mamlakatning ta’lim tizimi o’z milliy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga moslashgan, ammo umumiy pedagogik tamoyillar - individual yondashuv, o’quvchilarning faoliyatga jalb qilinishi va o’qituvchining metodik mahorati - barcha tizimlarda ahamiyatlidir.

Kalit so’zlar: boshlang’ich ta’lim, jahon ta’lim tizimi, pedagogika, pedagogik tamoyillar, bolalar rivoji.

*Сидикова Зульфия Муроджон кызы
Ферганский государственный университет,
Доктор философии педагогических наук (PhD)*

*Оралбаева Элеонора Улугбек кызы
Ферганский государственный университет,
Студентка 3 курса факультета начального образования*

ИСТОРИЯ СИСТЕМЫ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ МИРА В НАСТОЯЩИЙ ПЕРИОД И РАЗВИТИЕ ДИСЦИПЛИНЫ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. В данной статье рассматривается, что в современный период система начального образования в странах мира имеет долгую историю, развитие которой связано с различными эпохами и педагогическими подходами. Наука педагогика играет важную роль в эффективной организации образовательного процесса и поддержке интеллектуального и социального развития детей. Исследования показывают, что система образования каждой страны адаптирована к её национальным, культурным и социальным особенностям, однако общие педагогические принципы - индивидуальный подход, вовлечение учеников в деятельность и методическое мастерство учителя - имеют значение во всех системах.

Ключевые слова: начальное образование, мировая система образования, педагогика, педагогические принципы, развитие детей.



Zulfiya Murodjon kyzy Sidikova
Fergana State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Education

Eleonora Ulugbek kyzy Oralbaeva
Fergana State University,
Third-year student, Faculty of Primary Education

HISTORY OF THE PRIMARY EDUCATION SYSTEM IN THE WORLD COUNTRIES IN THE PRESENT PERIOD AND THE DEVELOPMENT OF THE DISCIPLINE OF PEDAGOGY

Abstract. This article examines that in the contemporary era, the primary education system in countries worldwide has a long history, with its development connected to various historical periods and pedagogical approaches. The science of pedagogy plays an important role in effectively organizing the educational process and supporting the intellectual and social development of children. Research shows that each country's education system is adapted to its national, cultural, and social characteristics, yet common pedagogical principles - individual approach, student engagement in activities, and teacher's methodological expertise - are significant across all systems.

Key words: primary education, global education system, pedagogy, pedagogical principles, child development.

Kirish

Hozirgi davrda jahon mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim tizimi insoniyatning ta'lim va tarbiya tarixida markaziy o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'lim bolalarning shaxs sifatida rivojlanishi, asosiy bilim va ko'nikmalarni egallashi, ijtimoiy va emotsional jihatdan shakllanishi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim tizimining tarixi va rivoji turli davrlar pedagogik yondashuvlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va madaniy xususiyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir mamlakatda ta'lim tizimi o'zining milliy an'analari, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy ehtiyojlariga moslashgan bo'lsa-da, umumiy pedagogik tamoyillar – individual yondashuv, o'quvchilarning faoliyatga jalb qilinishi, interaktiv metodlar va o'qituvchining metodik mahorati – barcha tizimlarda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogika fani esa boshlang'ich ta'lim jarayonlarini tizimli va samarali tashkil etish, bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. U nafaqat o'qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlash, balki ta'lim jarayonida innovatsion usullarni qo'llash va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Shuningdek, pedagogika fanining rivoji global ta'lim tajribasini o'rganish va zamonaviy ta'lim tizimlarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim tizimi



dunyoning turli burchaklarida farqli yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Masalan, Yevropa mamlakatlarida bolalarning individual qobiliyatlari va ijodkorligini rivojlantirishga e'tibor qaratilsa, Osiyo mamlakatlarida intizom va akademik bilimlar darajasi birinchi o'rinda turadi. Shu bilan birga, global pedagogik tamoyillar – faol o'quvchi ishtiroki, integratsiyalashgan o'qitish metodlari va o'qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligi – barcha tizimlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonlarida texnologik vositalar, interaktiv dars metodlari, o'quvchilarning kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan turli pedagogik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Shu tariqa, pedagogika fani bolalarning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlash, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va jamiyatning bilimli, ijodiy va faol fuqarolarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimining tarixiy rivoji, pedagogika fanining taraqqiyoti va zamonaviy global ta'lim jarayonlaridagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribasi asosida ta'lim tizimlarining milliy, madaniy va ijtimoiy kontekstda qanday moslashgani ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari global va mahalliy ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirishga, pedagogik yondashuvlarni yanada mukammallashtirishga va bolalarning shaxs sifatida rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimi rivojining asosiy yo'nalishlari:

1. Texnologiyalar integratsiyasi: Virtual laboratoriyalar, interaktiv darslar, onlayn resurslar va video darslar ta'limga keng joriy qilinmoqda, bu esa bilimlarni boyitadi.

2. Inklyuzivlim: Barcha bolalar uchun teng ta'minlash, har biriga hurmat bilan yondashish va sud huquqiga moslashish muhim kasbga ega bo'ladi.

3. STEAM yo'nalishi: Fan, texnologiya, injiniring, san'at va matematika integratsiyasi bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ishlarini rivojlantiradi.

4. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: Doimiy ravishdagi onlayn kurslar, vebinarlar orqali malaka va zamonaviy pedagogik usullarni egallash ta'lim sifatini nazoratga xizmat qiladi.

5. Tenglik va resurslarga kirish: Barcha o'quvchilar uchun sifatli ta'lim resurslariga keng imkoniyatlar modeli (masalan, Finlandiya) asosiy omillardan biri.

Pedagogika fanining rivojlanishi:

✓ Yangi nazariyalar: Bolalar psixologiyasi, kognitiv fanlar va zamonaviy ta'lim nazariyalariga asoslanib, yangi o'qitish usullari ishlab chiqilmoqda.

✓ Xalqaro standartlar: Ta'lim sifatini nazorat qilishning qat'iy standartlari o'rnatilmoqda.

✓ O'zbekiston: Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi ham shunday rivojlanish yo'lidan tajriba, pedagog kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Hozirgi davrda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni, ularni o'zlaridagi iste'dodlarini ommaga ro'yobga chiqarish, yoshlarni chuqur bilim



olishlari, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek birgalikda ularni kelajakga, hayotga tayyorlash ko‘nikmalarini shakllantirish ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hattoki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham: “Yangi O‘zbekiston asosiy ustuni – bilim, ta‘lim va tarbiya bo‘ladi” deb ta‘kidlaganlar. O‘z nutqlari mobaynida shunday deganlar:

“Biz Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda sog‘lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ular uchun yangi tizim yaratamiz, ularning bilim, sport, madaniyat, san‘at salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun. Qadrli farzandlar, bir narsadan ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin: sizlarning qobiliyat va iste‘dodingizni ro‘yobga chiqarish uchun biz bundan buyon barcha sharoit va imkoniyatlarni albatta yaratib beramiz, aziz o‘g‘il-qizlarim!”³

Xalqaro ta‘lim standart klassifikatsiyasi 1997-yilda (XTSK – Xalqaro ta‘lim standart klassifikatsiyasi) yangilandi. Unda yettita bosqich ko‘rsatilgan:

0 – maktabgacha ta‘lim;

1 – boshlang‘ich ta‘lim;

2 – o‘rta ta‘limning birinchi bosqichi;

3 – o‘rta ta‘limning ikkinchi bosqichi;

4 – o‘rta ta‘limdan keyingi ta‘lim (oliy ta‘lim emas);

5 – oliy ta‘lim birinchi bosqichi;

6 – oliy ta‘limning ikkinchi bosqichi – oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim.

Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, masalan Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, AQSh va boshqa davlatlarda, yanada rivojlanish uchun ta‘lim tizimiga o‘zgartirishlar kiritildi. Barcha davlatlar tarixida, davlatning ta‘lim tizimini qanday, qanchalik rivojlanganligi hozirgi fikrimizning yorqin isboti bo‘ladi. Masalan, Koreyadagi ta‘lim tarixi Koreyaning Uch Qirolligiga yoki hatto ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. O‘sha paytda xususiy maktablar ham, davlat maktablari ham juda mashhur edi. Koreyada xalq ta‘limi milodiy 400-yillarda tashkil etilgan. Koreya ta‘limiga tarixiy jihatdan konfutsiylik va buddizm ta‘sir ko‘rsatgan. Koreyada yaxshi ta‘lim olish har qanday koreysning martabasini shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy ta‘lim tizimi Koreyada rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo‘lgan 1945-yildan boshlanadi. 1894-yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan deyish mumkin Koreyslar ta‘lim tizimi. Koreyadagi Choson hukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish rejasida maxsus armiya tuzadi. Keyin esa g‘arbiylar harbiy san‘atda dars berishni boshlaydilar. Shu bilan bir qatorda chet tili va boshqa fanlar yuzaga kela boshlaydi. 1894-yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtiriladi. Institutlar ta‘lim tizimi tashkil etiladi. 1895-yili esa boshlang‘ich maktablar va kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuziladi. Koreyada ta‘lim tizimiga asos qilib an‘anaviy g‘arb modeli olingan. Lekin 1910-yilda Yaponiya mustamlakachiligi boshlangach, Koreya ta‘lim tizimiga o‘zgartirishlar kiritiladi. Boshlang‘ich ta‘lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922-yili 4-fevralda “3-Choson ta‘lim buyru‘gi” qabul qilindi. Bunday buyruqqa ko‘ra, ta‘lim muddati uzaytirildi: oddiy maktablarda ta‘lim 6 yil, ayollar maktablarida 5 yil deb belgilandi. Shu jumladan, 1924-yilida

³Mirziyoyev Sh. Prezident nutqlari va intervyulari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 2021.



Kyongson Davlat Universiteti ochildi. Oʻrta va yuqori oddiy va boshlangʻich maktablari birlashtirildi. Imperiya xalqi demokratiyasi fani kiritilib, koreys tili fani kamaytirildi. Yaponiya mustamlakachiligining taʼlim sohasidagi zoʻravonligi kuchaydi. Chunki 1943-yil 3-avgustda “4-Choson taʼlim buyruʻgi” imzolandi. Shu qatorda, yuqori va oʻrta taʼlim maktablari 4 yilga kamaytirildi. Dasturdan esa koreys tili olib tashlandi, uning oʻrniga yapon tili darsligi kiritildi. Umumiy Arxiv qoʻmitasiga koʻra, oʻsha paytdagi Koreya savodxonlik darajasi 1944-yilda 13,8% ni tashkil etgan. Yaponiya mustamlakasidan ozod boʻlgan Koreya endilikda taʼlim tizimini oʻzgartirish vazifasi bilan duch keladi. 1963-yildan boshlab Koreya taʼlim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga eʼtibor ortadi. Prezidenti Chon Du Xvon mamlakatda 1981-yili shaxsiy taʼlim berish, xususiy taʼlim maskanlari faoliyatini cheklab qoʻyadi. 1992-yilga kelib boshlangʻich maktablar rivojlanishi uchun hukumat tomonidan maktablarga bir qancha imtiyozlar yaratiladi. Boshlangʻich maktablarning roli juda muhim. Zamonaviy Koreya taʼlim tizimida, boshlangʻich taʼlim Uch Koreya oʻquv yilida 1-martga qadar 6 yoshdan yuqori boʻlgan bolalar qabul qilinadi. Lekin Koreyada 1-martda bayram boʻlganligi tufayli 2-martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlangʻich taʼlim majburiy etib belgilangan. Koreyada oʻrta taʼlim 3 yil davom etadi. Darslar 45 minutdan belgilangan, 1 yilda 1222 soatni tashkil etadi. Oʻrta taʼlim maktablarida ijtimoiy fan, jismoniy tarbiya, axloq, davlat tili, chet tili, musiqa, sanʼat va yana shu kabi 10 ga yaqin fanlar oʻqitiladi. Oʻrta maktabda esa oʻquvchilar uchun tanlov fanlar mavjud. Oʻrta maktab tugatilgandan soʻng yuqori maktablarda taʼlim boshlanadi. Yuqori maktablar bir qancha turlarga boʻlinadi: davlat yuqori maktablari, umumiy yuqori maktablar, xususiy yuqori maktablar. Yuqori maktablarni yuqori tashkilotlar boshqaradi, davlat yuqori maktablarini esa vazirliklar boshqaradi. Hattoki yuqori maktablar bir qancha oʻqitish fanlariga koʻra turlarga boʻlinadi: chet tili maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, maxsus maktablar, jismoniy tarbiya maktablari, umumiy maktablar va sanʼat maktablari. Koreyada maxsus tashkil etilgan taʼlim vazirligi tomonidan tuzilgan maktablar ham bor. Ular xalqaro tilga ixtisoslashgan, qishloq xoʻjaligi, baliqchilik, sanoat sohalariga yoʻnaltirilgan. Koreya yarimorol shimolida KXDR va janubida Koreya Respublikasi 1948-yilda ikkiga boʻlinadi. Koreya davlatida insonparvarlik, taʼlim, tinchlik, adolat, halollik tushunchalariga eʼtibor katta boʻladi. Janubiy Koreyada madaniyati va urf-odatlari oʻzaro bir-biriga chambarchas bogʻliq boʻladi. Ular yaʼni koreya xalqi Gregoriyan kalendariga koʻra kun kechirishadi. Shuning uchun bayramlari alohida ajratilgan boʻladi. Ammo baʼzi bayramlari oy taqvimida nishonlanadi. “Koreyslar yangi yilni 1-yanvar kuni, Mustaqillik kunini esa 1-martda nishonlaydilar. Milliy ozodlik kuni har yili 15-avgustda oʻtkaziladi, bu kun Koreya Yaponiya mustamlakachiligidan ozod boʻlgan kun sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Shuningdek, Chuseok (hosil bayrami) va Seollal (anʼanaviy yangi yil) kabi bayramlar ham xalq orasida keng nishonlanadi va oilaviy anʼanalarni mustahkamlaydi”⁴. Masalan, Koreya davlatida yangi yil 1-yanvar kuni nishonlanadi. Dekabr oyining oʻrtalarida koʻchalarini va uylarini bezashni boshlashadi. Koreyada yangi yilni nishonlashni istaydigan

⁴Kim, H. & Lee, S. (2020). *Culture and Traditions in South Korea*. Seoul: Korean Cultural Foundation.



insonlar juda ko‘p. 1-mart kuni Mustaqillik kuni har yili nishonlanadi. Chunki bu bayram Koreya Yaponiya ishg‘olidan qutilishi bilan bog‘liq. Koreya Milliy ozodlik kuni 15-avgustda har yili nishonlanadi. Bu kunda barcha koreyaliklar AQSh va Sovet Ittifoqi Koreyani 35 yillik Yaponiya mustamlakachiligidan ozod qilgan kunni xotirlaydi. Shu kabi boshqa bayramlar ham alohida nishonlanadi.

Tahlillar va natijalar

Hozirgi davrda jahon mamlakatlarida boshlang‘ich ta‘lim tizimi tarixiy rivojlanishi va pedagogika fanining roli jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq. Tarixiy manbalarga qaraganda, boshlang‘ich ta‘lim qadimiy davrlardan boshlab davlatlarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlarda ta‘lim tizimi, hatto uchinchi yoki ibtidoiy jamiyat davrlarida ham shakllangan bo‘lib, bu davrda ta‘limning asosiy maqsadi nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularni axloqiy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalash bo‘lgan. Koreyada konfutsiylik ta‘limi va buddizmning pedagogik uslublarga ta‘siri, G‘arbiy davlatlarda esa XIX-XX asrlarda ilmiy asoslangan pedagogika va metodikalar rivojlanishi boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lgan. XX asrning o‘rtalaridan boshlab jahon mamlakatlari ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga kirishdi. Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya va Malayziya kabi davlatlarda boshlang‘ich ta‘lim majburiy bo‘lib, 6 yil davom etadi va o‘quvchilarga fanlarni chuqur o‘rganish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, pedagogika fani nafaqat o‘quv jarayonini boshqarish, balki bolalarning psixologik, ijtimoiy va kreativ salohiyatini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Bu borada Koreya va Singapur tajribasi namuna bo‘la oladi, chunki ularning pedagogik metodlari o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta‘lim tizimining rivojlanishida davlat siyosati muhim omil hisoblanadi. Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, davlatning pedagogik siyosati va boshlang‘ich ta‘limga e‘tibori o‘quvchilarning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil bo‘ladi. Masalan, Koreya va Yaponiya tarixida mustamlakachilik davrida ta‘lim tizimida kiritilgan o‘zgartirishlar xalqning savodxonlik darajasi va ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Shu sababli, har bir mamlakat pedagogik fan va boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirishga doimiy e‘tibor qaratishi lozim. Xalqaro ta‘lim standartlari, masalan, XTSK (Xalqaro ta‘lim standart klassifikatsiyasi), boshlang‘ich ta‘limning sifatini oshirish va baholashda muhim vosita hisoblanadi. Bu standartlar davlatlarga o‘z ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv dasturlarini yaxshilash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta‘lim nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ularning kelajakdagi ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta‘lim tizimining barqaror rivoji uchun nafaqat majburiy ta‘lim joriy etilishi, balki o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, pedagogik kadrlar sifatini oshirish va innovatsion metodlarni joriy etish zarur. Shu bilan birga, pedagogika fani bolalarning individual qobiliyatlari va kreativ salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu esa mamlakatlarning kelajakda ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.



Hozirgi davrda jahon mamlakatlaridagi boshlang'ich ta'lim tizimi tarixi va pedagogika fanining rivoji ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning ijtimoiy, axloqiy va kreativ salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, Koreya, Yaponiya, Singapur va boshqa rivojlangan davlatlar boshlang'ich ta'limni o'z davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, uni doimiy ravishda takomillashtirib kelgan. Shu bilan birga, pedagogika fani bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limning rivoji mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Masalan, Koreyada konfutsiylik ta'limi va buddizm pedagogik metodlarning shakllanishiga ta'sir qilgan bo'lsa, G'arbiy mamlakatlarda XIX-XX asrlarda ilmiy asoslangan pedagogika va metodikalar paydo bo'lib, o'quv jarayonining tizimliliigi va samaradorligini oshirgan. Shu tariqa, pedagogik yondashuvlarning samarali qo'llanilishi yosh avlodning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda jahon mamlakatlari boshlang'ich ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda. Xalqaro ta'lim standartlari, masalan, XTSK, davlatlarga o'z ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilish, o'quv dasturlarini yangilash va o'qituvchilarning malakasini oshirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ta'limning sifatini oshirish va o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish orqali mamlakatlar kelajakda ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy sohalarda raqobatbardosh avlodni tayyorlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim tizimi va pedagogika fani davlatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Davlat siyosati, xalqaro standartlar va innovatsion pedagogik metodlarning samarali uyg'unligi yosh avlodni bilimli, kreativ va barkamol insonlar sifatida shakllantirishga imkon beradi. Shu sababli, har bir mamlakat boshlang'ich ta'limni doimiy ravishda rivojlantirib, pedagogika fanini yangi metodlar va innovatsiyalar bilan boyitishi lozim. Bu nafaqat o'quvchilarning individual salohiyatini oshiradi, balki mamlakatning global miqyosdagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi va kelajak avlodning muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goncharova L. A. (2018). *Pedagogika tarixi*. Moskva: Prosveshchenie.
2. Kuznetsov A.V. (2020). *Jahon mamlakatlarida boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari*. Sankt-Peterburg: Piter.
3. OECD. (2017). *Starting Strong: Early Childhood Education and Care*. Paris: OECD Publishing.
4. Lee, J., & Brinton, M. (2019). *Education and Society in Korea: Historical and Contemporary Perspectives*. New York: Routledge.
5. Sing K., & Tan C. (2021). *Pedagogy and Curriculum Development in Primary Education*. Singapore: Springer.



6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2023 yildagi PF-79-son.
7. Xodjayev B. “Umumiy pedagogika” 1992-y. T. 416 b.
8. Zunnunov A. Pedagogika tarixi “Sharq” nashriyoti, T: 2004, 332b.
9. <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>.
10. <https://prep.uz/news/umumiy/koreya-respublikasi-ta-lim-tizimi>.

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim
kafedrasi dotsenti, PhD

Ismatova Dilorom Hotam qizi
Navoiy davlat universiteti 13.00.01-Pedagogika nazariyasi.



UDK 37.068

INKLYUZIV BOLALAR TURIZMI: YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TENGLIK VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqola Yangi O‘zbekistonda inklyuziv bolalar turizmini rivojlantirish va tashkil etish masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida nazariy, normativ-huquqiy va empirik metodlar qo‘llanilib, bolalar turizmi tizimi, uning infratuzilmasi, pedagogik va ijtimoiy xizmatlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari inklyuziv bolalar turizmining nafaqat ijtimoiy, balki pedagogik va iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi hamda uning barqaror rivojlanishi va jamiyat integratsiyasida rolini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv bolalar turizmi, turizm infratuzilmasi, ijtimoiy integratsiya, barqaror rivojlanish, pedagogik ahamiyat.

Хайдарова Шахло Нарзуллаевна

Навоийский государственный университет

Кафедра дошкольного образования, доцент, кандидат наук

Исматова Дилором Хотам җицзы

Навоийский государственный университет

специальность 13.00.01 – Теория педагогики.

История педагогических учений, базовый докторант

ИНКЛЮЗИВНЫЙ ДЕТСКИЙ ТУРИЗМ: КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНОГО РАВЕНСТВА И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Данная статья посвящена научному исследованию вопросов развития и организации инклюзивного детского туризма в Новом Узбекистане. В процессе исследования были использованы теоретические, нормативно-правовые и эмпирические методы для анализа системы детского туризма, ее инфраструктуры, педагогических и социальных услуг.

Результаты исследования показывают не только социальное, но и педагогическое и экономическое значение инклюзивного детского туризма и научно подтверждают его роль в устойчивом развитии и социальной интеграции.

Ключевые слова: Инклюзивный детский туризм, туристическая инфраструктура, социальная интеграция, устойчивое развитие, педагогическое значение.



*Department of Preschool Education,
Associate Professor, PhD*

*Ismatova Dilorom Hotam kizi
Navoi State University
Specialty 13.00.01 – Theory of Pedagogy.
History of Pedagogical Thought, PhD (basic doctoral) student*

INCLUSIVE CHILDREN’S TOURISM: AS A FACTOR OF SOCIAL EQUALITY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Annotation. This article is devoted to the scientific study of the issues of development and organization of inclusive children’s tourism in New Uzbekistan. In the research process, theoretical, normative-legal and empirical methods were used to analyze the system of children’s tourism, its infrastructure, pedagogical and social services.

The results of the study show not only the social, but also pedagogical and economic significance of inclusive children’s tourism and scientifically confirm its role in sustainable development and social integration.

Key words: Inclusive children’s tourism, tourism infrastructure, social integration, sustainable development, pedagogical significance.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi ijtimoiy tenglikni ta’minlash, barcha qatlamlar, ayniqsa bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish bilan uzviy bog’liqdir. Zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida bolalarning nafaqat nazariy bilim olishi, balki amaliy tajriba, madaniy hordiq va ijtimoiy muloqot orqali rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bolalar turizmi shaxs kamolotining muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda [1].

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanib, turizm sohasida ham barcha aholi qatlamlari uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan yondashuvlar keng joriy etilmoqda [2].

Inklyuziv turizm – ijtimoiy ta’minotning bir qismi bo‘lib, nogironligi bo‘lgan shaxslar, bolalar yoki boshqalar uchun sayohat xizmatlarini qamrab oladi.

Inklyuziv bolalar turizmi imkoniyati cheklangan bolalar va sog‘lom bolalarning birgalikda sayohat qilishi, dam olishi va bilimlarini boyitishini ta’minlab, ularning jamiyatga integratsiyalashuvini kuchaytiradi.

Bu turizm turi nafaqat jismoniy infratuzilmadagi to‘siqlarni kamaytiradi, balki axborot, xizmat sifati va ijtimoiy munosabatlarni ham yaxshilaydi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida turizm sohasini rivojlantirish, xususan, bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun qulay sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda [3]. Shu bilan birga, inklyuziv bolalar turizmini tizimli ravishda



tashkil etish, infratuzilmani moslashtirish, pedagogik va ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv turizm nafaqat ijtimoiy tenglikni ta‘minlaydi, balki hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi [4]. Ayniqsa bolalar turizmi orqali ekologik madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘usi va ijtimoiy faollikni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Shu sababli inklyuziv bolalar turizmini Yangi O‘zbekiston sharoitida barqaror rivojlanish va ijtimoiy tenglikning muhim omili sifatida ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola ushbu yo‘nalishning nazariy asoslari, amaliy holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Adabiyotlar tahlili

Inklyuziv turizm masalasi so‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda barqaror rivojlanish konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida keng o‘rganilmoqda. Xususan, UNESCO va Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inklyuziv turizm jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun teng sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy yo‘naltirilgan tizim sifatida talqin etiladi [5]. Ushbu tadqiqotlarda turizm infratuzilmasini moslashtirish, axborot xizmatlarini soddalashtirish hamda ijtimoiy guruhlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish zarurligi ta‘kidlanadi.

Mahalliy olimlar tomonidan bolalar turizmining pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati keng yoritilgan. Jumladan, tadqiqotchi B.Karimov o‘z ilmiy ishlarida bolalar turizmini shaxs kamolotini ta‘minlovchi muhim omil sifatida baholab, sayohatlar orqali bolalarda ijtimoiy faollik, vatanparvarlik va ekologik madaniyat shakllanishini asoslab beradi [1]. Shuningdek, muallif bolalar turizmini ta‘lim jarayoni bilan integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirish mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi.

Inklyuziv ta‘lim va ijtimoiy integratsiya masalalari tadqiqotchi A.Abdullayevning ilmiy ishlarida chuqur tahlil qilingan bo‘lib, unda imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyat hayotiga faol jalb etish mexanizmlari yoritiladi. Muallif inklyuziv muhitni shakllantirishda nafaqat ta‘lim muassasalari, balki madaniy va turistik faoliyat ham muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaydi. Bu g‘oyalar inklyuziv bolalar turizmini rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi [2].

Turizmning barqaror rivojlanish bilan bog‘liqligi masalasi tadqiqotchi R.Islomov o‘z ilmiy loyihalarida yoritgan. Unga ko‘ra, ijtimoiy yo‘naltirilgan turizm turlari, jumladan inklyuziv turizm hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, aholi bandligini oshiradi hamda infratuzilma rivojiga xizmat qiladi [3].

Kasbga yo‘naltirishning psixologik jihatlari bolalarning kelajakdagi professional hayoti uchun muhim asos yaratadi. Bolalar va o‘shish davridagi yoshlar, o‘z qobiliyatlari va qiziqishlari asosida kasbni tanlashda psixologik omillarni hisobga olish zarur. Psixologik yondashuv, shuningdek, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Kasbga yo‘naltirishda e‘tibor qaratish kerak bo‘lgan asosiy psixologik jihatlar quyidagilardan iborat:

Shaxsiy qiziqishlar va motivatsiya. Bolalar va yoshlarning kasbga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi asosiy faktor hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirishda shaxsiy qiziqishlar va ehtiyojlarni aniqlash juda muhim. Agar bola o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan sohada ishlashni xohlasa, bu uning ishlashga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini ko‘paytiradi. Psixologik jihat. Kasb tanlashda bolaning ichki motivatsiyasini tushunish zarur. O‘quvchi o‘zi uchun



qiziqarli va ma'noli faoliyatni tanlashi, uning kelajakdagi ish hayotida qoniqarli va muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

O'zini anglash va shaxsiy identifikatsiya. O'zini anglash – bu bolalarning o'z shaxsiy xususiyatlarini va ehtiyojlarini bilish jarayoni. Kasbga yo'naltirishda bolaning o'z qobiliyatlari, qiziqishlari, va ehtiyojlarini tushunishi uning kasb tanlashdagi qarorlariga bevosita ta'sir qiladi. O'ziga bo'lgan ishonch va o'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan bolalar ko'pincha o'zlarini qiziqtirgan kasblarda ishlashga intilishadi. Psixologik jihat: Kasbga yo'naltirish jarayonida bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi, shaxsiy maqsadlari va ularning kelajakdagi kasbi bilan bog'liqligi muhim rol o'ynaydi. O'zini anglash va kasb tanlashdagi ishonch, bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham ta'sir qiladi.

IQ (Intellektual qobiliyatlar) va ko'nikmalar. Bolaning intellektual qobiliyatlari va o'rganishga bo'lgan qobiliyati kasb tanlashda muhim omil hisoblanadi. Har bir insonning o'ziga xos aqliy qobiliyatlari bor, masalan, analitik fikrlash, ijodiy yondashuv, yoki texnik va matematik bilimlar. Kasbga yo'naltirishda bolalarning yuqori intellektual qobiliyatlarini hisobga olish va ularga mos kasblarni tavsiya qilish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga yordam beradi. Psixologik jihat: IQ va boshqa kognitiv qobiliyatlar bolalarning kasbga bo'lgan yondashuvini shakllantiradi. Psixologik tahlil orqali, bolaning intellektual imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularning eng yaxshi mos keladigan kasbini topishga yordam beradi.

Ijtimoiy ko'nikmalar va guruhda ishlash. Kasbga yo'naltirishda bolaning ijtimoiy ko'nikmalari va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina kasblar, xususan, boshqaruv, marketing, tibbiyot va xizmat ko'rsatish sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi kommunikatsiya va guruhda ishlash ko'nikmalari talab qilinadi. Psixologik jihat: Ijtimoiy yondashuv va guruhda ishlash qobiliyatlari bolaning kelajakdagi kasbini tanlashda ahamiyatlidir. Boshqalar bilan samarali ishlash va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati bolalarning kasb tanlashdagi qarorlarida psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kengaytirilgan o'zini boshqarish (Emotsional intellekt). Kasbga yo'naltirishda emotsional intellekt (EQ) ham juda muhim hisoblanadi. Bola o'zining hissiy holatini, stress va muammolarni qanday boshqarishini bilishi kasbga bo'lgan yondashuviga ta'sir qiladi. Emotsional intellektini rivojlantirgan bola, ijtimoiy muhitda muammolarni hal qilishda va professional hayotda muvaffaqiyatga erishishda samarali bo'ladi. Psixologik jihat: Kasbga yo'naltirishda, bolalarning emotsional intellektini, stressni boshqarish qobiliyatini va hissiy qarorlar qabul qilishni o'rganish, ularning kasb tanlashdagi qarorlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ijtimoiy bosim va oilaviy ta'sir. Oila va jamiyat bolalar uchun kasb tanlashda muhim rol o'ynaydi. Ba'zan ota-onalar yoki jamiyat bolaga o'zlarining orzu-umidlarini yuklaydi, bu esa bolaning shaxsiy tanloviga to'sqinlik qilishi mumkin. Kasbga yo'naltirishda bolalarning ijtimoiy bosim va oilaviy ta'sirlardan qanday chiqishi va o'z qarorlarini qanday qabul qilishini o'rganish zarur. Psixologik jihat: Oila, do'stlar va jamiyatdan kelgan bosimlar bolalarning o'z qobiliyatlari va orzu-



umidlariga mos ravishda kasbni tanlashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun kasbga yo‘naltirishda ijtimoiy bosim va oilaviy ta’sirlarni psixologik jihatdan tahlil qilish zarur.

Kasbga yo‘naltirishda psixologik yondashuv bolaning shaxsiy va emotsional rivojlanishiga, ijtimoiy va kognitiv qobiliyatlariga mos ravishda amalga oshirilishi kerak. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ularning ichki motivatsiyasi, qiziqishlari, o‘zini anglash darajasi, ijtimoiy ko‘nikmalari va oila ta’siri kabi psixologik jihatlarni hisobga olish bolalarning kelajakdagi professional hayotida muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Bu yondashuv bola shaxsiyatining rivojlanishiga va o‘z orzu-umidlariga mos keladigan kasbni tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar va natijalar

Bolalar qobiliyatlarining turli ko‘rinishlarini aniqlash, ularning rivojlanishi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim bir qadam hisoblanadi. Har bir bola o‘ziga xos va noyob, shuning uchun ularning qobiliyatlarini turli xil yo‘nalishlarda aniqlash va rivojlantirish kerak. Qobiliyatlar nafaqat akademik yoki intellektual jihatdan, balki ijtimoiy, emotsional, motorik va ijodiy sohalarda ham ko‘rinadi. Quyida bolalar qobiliyatlarining asosiy turlarini va ularni qanday aniqlash mumkinligini ko‘rib chiqamiz:

Intellektual (kognitiv) qobiliyatlar. Kognitiv qobiliyatlar — bu bolaning tafakkur, mantiqiy fikrlash, eslab qolish, muammolarni hal qilish va umumiy aqliy faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu qobiliyatlarni aniqlashda bolaning o‘qish, yozish, matematik masalalarni yechish va yangi bilimlarni o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyatlari e’tiborga olinadi.

Aniqlash yo‘llari:

IQ testlari: Standart aqliy testlar orqali bolaning umumiy intellektual qobiliyatlari aniqlanishi mumkin.

Aqliy rivojlanish darajasi: Bola matematik masalalarni qanday hal qilishi, mantiqiy fikrlashdagi tezligi, tez o‘rganishi kabi omillarni kuzatish.

Kognitiv o‘shish: Bola qanday qilib murakkab tushunchalarni anglaydi va bilimlarni yangi vaziyatlarga qo‘llashga muvaffaq bo‘ladi.

Ijodiy (kreativ) qobiliyatlar . Ijodiy qobiliyatlar bolaning yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, ijodiy fikrlash va masalalarni o‘zgacha tarzda yechish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu bolada san’at, musiqa, dizayn, yozuvchilik va boshqalar kabi ijodiy sohalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Aniqlash yo‘llari:

Ijodiy faoliyat: Bolaning san’at asarlari, musiqa ijro etish, rassomlik yoki hikoyalar yozish kabi faoliyatlar orqali ijodiy qobiliyatlarini baholash.

Problemalarni yechish: Bola qanday qilib yangicha va o‘ziga xos usullarda masalalarni yechishga harakat qilayotganini kuzatish.

O‘y-fikrlash darajasi: Bola qanday qilib yangi g‘oyalarni rivojlantiradi, mavjud resurslardan qanday ijodiy foydalanadi?

Emotsional qobiliyatlar (emotsional intellekt). Emotsional qobiliyatlar bolaning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. Bola o‘zini boshqarish, ijtimoiy vaziyatlarni



tahlil qilish, boshqalar bilan moslashish kabi sohalarda muvaffaqiyat ko‘rsatishi mumkin.

Aniqlash yo‘llari:

O‘zini anglash va boshqarish: Bola qanday qilib o‘z hissiyotlarini ifodalash va boshqarish qobiliyatiga ega ekanligini baholash (masalan, qiziqishlari, xavotirlarini yoki xursandchiligini qanday ifodalaydi).

Empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar: Bola boshqalar his-tuyg‘ularini qanday tushunadi va ularga qanday munosabatda bo‘ladi. Ushbu qobiliyat ijtimoiy o‘yinlarda yoki guruh faoliyatlarida namoyon bo‘ladi.

Stressni boshqarish: Bola stressli vaziyatlarda qanday munosabatda bo‘ladi va ularni qanday hal qiladi?

Jismoniy (motorik) qobiliyatlar. Motorik qobiliyatlar – bu bolaning jismoniy harakatlarni, ayniqsa, nozik va yirik motorik harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Yirik motorika - bu katta mushak guruhlari bilan bog‘liq harakatlar (yugurish, sakrash), nozik motorika esa kichik mushaklar (qo‘l va barmoq harakatlari) bilan bog‘liqdir.

Aniqlash yo‘llari:

Jismoniy faoliyat va sport: Bola qanday jismoniy mashqlarni bajaradi, qobiliyatlari qanday? Sport musobaqalarida, jismoniy o‘yinlarda uning yutuqlarini kuzatish.

Koordinatsiya va balans: Bola o‘zining harakatlarini qanday muvozanatlaydi, masalan, yurishda, yugurishda yoki turli jismoniy o‘yinlarda.

Nozik motorika: Bola qanday qilib kichik predmetlarni ushlaydi, yozadi yoki badiiy ishlarni bajaradi.

Ijtimoiy Qobiliyatlar. Ijtimoiy qobiliyatlar bolaning boshqalar bilan muloqot qilish, guruhlarda ishlash va ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyatlar o‘z-o‘zini anglash, boshqalar bilan samarali ishlash va ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur.

Aniqlash yo‘llari:

Jamoaviy ish: Bola guruhda qanday ishlaydi, boshqalar bilan hamkorlikni qanday olib boradi.

Muloqot qilish: Bola boshqalar bilan qanday muloqotda bo‘ladi, so‘zlash, tinglash va muammolarni hal qilishda qanday yondashadi.

Ijtimoiy qobiliyatlarni baholash: Bolaning boshqalar bilan o‘zaro munosabatlari qanday, do‘stlari bilan bo‘lgan aloqalari, ijtimoiy vaziyatlarda qanday ishtirok etadi?

Tadqiqotchi va analitik qobiliyatlar. Tadqiqotchi yoki analitik qobiliyatlar bolaning bilimlarni o‘rganish, yangi g‘oyalar va natijalar yaratish qobiliyatidir. Bola yangi faktlarni o‘rganish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va shunga asoslanib qarorlar qabul qilishda muvaffaqiyat ko‘rsatadi.

Aniqlash yo‘llari:

Tadqiqot faoliyati: Bola qanday qilib yangi bilimlarni o‘rganadi, ilmiy va tadqiqot metodlariga qanday yondashadi.

Muammoni tahlil qilish: Bola qanday qilib murakkab vaziyatlarni tahlil qiladi va yangi usullarni ishlab chiqadi.



Analitik fikrlash: Bola ma'lumotlarni qanday tizimli tarzda tahlil qiladi va qarorlar qabul qiladi.

Liderlik Qobiliyatlari. Liderlik qobiliyatlari bolaning boshqalarni boshqarish, o'ziga jalb qilish va guruhni muvaffaqiyatga yo'naltirish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat, odatda, bolalarning o'zgaruvchan va mas'uliyatli vaziyatlarda boshqalarni yo'naltirishga tayyorligini ko'rsatadi.

Aniqlash yo'llari:

Guruhda boshchilik qilish: Bola guruh ichida qanday liderlik qiladi, qanday qarorlar qabul qiladi, guruhni qanday yo'naltiradi?

Mas'uliyat va inisiyativa: Bola qanday qilib mas'uliyatni o'z zimмага oladi va muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Bolalar qobiliyatlarining turli ko'rinishlarini aniqlash, ularning shaxsiy va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Boshqacha aytganda, bolalar o'zlarining individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun o'qituvchilar, ota-onalar va psixologlar o'rtasida yaxshilangan hamkorlik zarur. Ularning qobiliyatlarini erta aniqlash, ularga mos keladigan kasb va faoliyat sohasini topishda yordam beradi.

Xulosa

Bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularning yetakchi yarimsharini hisobga olish ularning kasbiy kamolotidagi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishda yetakchi o'ng yarimshar, chap yarimshar va aralash tiplardagi odamlarda kuzatiladigan quyidagi farqlanuvchi belgilariga e'tibor qaratilishi kerak:

1. Chap yarimsharlilarga ratsional-belgili tafakkur xos bo'lganligi bois ularda asosan analitik, klassifikatsion, abstrakt, algoritmik, induktiv operatsiyalarni bajarishga moyillik ko'proq kuzatiladi. Tahlil qilishda muammolar bilan ishlashni, muammolarni mantiqiy yo'l bilan yechishni ma'qul ko'rganliklari sababli boshqalarga qaraganda muloqatchan va faol insonlardir. bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishda aynan chap bosh miya yarimshari tayanch hisoblangan insonlar muhandislik, matematika, mantiq va falsafa, lingvistika kabi nazariy sohalarni muvaffaqiyatli ravishda egallashlari hamda ularga nisbatan faol ijtimoiy-kasbiy moslashishlari mumkinligini hisobga olish zarurdir. Shu sababli chap yarimshari etakchi shaxslar nutq, mantiqiy fikrlash, jarayon va vaziyatlarni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblarni tanlaganlari maqsadga muvofiqdir. Ular faoliyat jarayonida aniq dalillarni qidirib, shu dalillar asosida xulosalar chiqarib, yangi g'oyalarni ilgari surishga moyillar. Ta'kidlash joizki, insonning ta'lim va tarbiyasi chap yarimsharga bog'liqdir.

2. O'ng yarimshari yetakchi bo'lganlar ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni, intuitiv yo'llar bilan murakkab savollar yechimini izlab topishni afzal ko'radilar. O'ng yarimshar obrazlarni bir butunlikda qabul qilib, dunyoni bir butunlikcha idrok qilishga imkon yaratganligi tufayli bunday insonlarga obrazli fikrlash xosdir. O'ng yarimsharlilarga obrazli-intuitiv tafakkur xos bo'lganligi bois ularda yorqin va turli tusdagi emotsionallik hamda vizual-makonda modellashtirish, loyihalash kabi hislatlar ko'proq namoyon bo'lib, ixtiro qilishda va asosiy g'oyalarni aniqlashda faoldirlar. O'ng yarimshari yetakchi bo'lganlar tafakkur



strategiyasining o‘ziga xosligi - berilgan axborotni murakkab, ichki ziddiyatlarga ega va bir ma’nodagi kontekstga keltirilishi qiyin bo‘lgan vaziyatlarda, ya’ni faoliyatida ijodiy yondashuv, yaratuvchanlik fazilatlarini talab etuvchi kasb sohalariga yo‘naltirilishining maqsadga muvofiqligidir. Shu sababli o‘ng yarimshari etakchi bo‘lgan insonlar san’at, musiqa sohasidagi kasbiy faoliyatlarda muvaffaqiyatlarga erishishlarining imkoni katta. Bundan tashqari, rahbar va tashkilotchi sifatida bunday shaxslar qabul qilinayotgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni hamda asoslangan qoidalarga rioya qilishni ma’qul ko‘radilar. Shu yo‘l bilan ular maqsadga yo‘nalgan g‘oyaviy fikrlari orqali shaxsiy tashabbuslarini namoyon eta oladilar.

3. Aralash yarimsharlar tipiga mansub odamlar vaziyatga qarab chap va o‘ng yarimsharlar strategiyasini qo‘llaydilar. Har ikkala yarimsharning sinxron ishlashi esa inson bosh miyasi faoliyati samaradorligini juda sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Chunki aralash yarimsharlilarda ma’lumotlarni tahlil qilish bir vaqtning o‘zida chap va o‘ng yarimsharlar yordamida bajaradi. Shuni aytish joizki, ma’lumotlarni aralash tipda tahlil qilishning bir necha afzalliklari mavjud. Masalan, chap yarimsharli yondashuv detallardagi, matnlardagi aniqlikda aks etadigan bo‘lsa, o‘ng yarimsharli yondashuv ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, insonda har ikkala yarimsharni faol ishlashiga harakat qilish kerakligini ta’kidlash joiz, deb hisoblaymiz. Aks holda ishga kam jalb etiladigan yarimshar `dangasa` bo‘lib, oqibatda yaxshi rivojlanmay qoladi. Bolalarda yarimsharlar rivojlantirilmasa ular kelajakda tarbiyasi qiyin yoki xavf guruhiga kiruvchi bo‘lib voyaga etishlari va buning oqibatida jamiyat uchun zararli bo‘lgan turli salbiy muammolarni yuzaga keltirib chiqarishlari mumkin.

Inson, ba’zi hollarda, o‘zi bilmagan tarzda, kasbiy yutuqqa erishishiga to‘sqinlik qilayotgan ayrim hislatlarini engib o‘tishga yoki ularning o‘rnini boshqa hislatlar hisobiga to‘ldirishga harakat qiladi. Biroq, kasbiy faoliyatni insonning psixofiziologik xususiyatlariga to‘g‘ri kelmasligi uni psixosomatik salomatligiga putur etkazadi. Masalan, kamgap odamdan muloqotchanlikni yoki kamharakat odamdan tezkorlikni talab qiladigan kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish asabiy zo‘riqishga olib kelishi, natijada ishchanlik qobiliyati pasayib, doimiy emotsional zo‘riqish esa asab xastaliklarini keltirib chiqirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirishda bosh miya yarimsharlari funksional assimetriyasini hisobga olish muxim ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan kasb-hunarni noto‘g‘ri tanlanishi ularning psixosomatik sog‘ligiga zarar etkazishi hamda ijtimoiy muhitga integratsiyasining qiyinlashishiga olib keladi. Shu sababli o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ular psixikasini har tomonlama va chuqur o‘rganilishi hamda individual xususiyatlari va neyrologik imkoniyatlarini hisobga olinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Брагина Н.Н., Доброхотова Т.А. Функциональные асимметрии человека. – М.: Медицина, 1988. – 240 с.



2. Выготский Л.С. Мышление и речь. М., 1996.
3. Трошин О.В. Нейропедагогика. –Нижний Новгород., 1999.
4. Karimova Z.I. Ta’limda kognitiv rivojlanish va shaxsga moslashtirilgan yondashuvlar. - Toshkent: Zebo prints, 2017.
5. К.Х.Аллабердиева. Мактабгача катта ёшдаги болаларда ижодий фаолликни шакллантиришнинг нейропедагогик имкониятлари // - ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 2020
6. К.А. Хамраёвна. To The Question on Neuropedagogic Possibilities of Formation of Creative Activity at Children of the Senior Preschool Age// International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). Ст 265-267



Azimova Musharraf Utkirovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD

UDK: 37.013:330

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari, uning ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik tamoyillar, metod va shakllar tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati asoslab berilgan. Maqola natijalari maktabgacha ta’lim tizimida iqtisodiy tarbiyani takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy madaniyat, bo‘lajak tarbiyachi, iqtisodiy tarbiya, pedagogik metodika, kasbiy kompetentlik, maktabgacha ta’lim.

Азимова Мушарраф Уткировна
доцент кафедры Дошкольного образования
Навояйского государственного университета

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методические основы формирования экономической культуры у будущих воспитателей. Проанализированы цели, задачи, педагогические принципы, методы и формы формирования экономической культуры в процессе профессиональной подготовки. Обоснована роль экономической культуры в развитии профессиональной компетентности будущих воспитателей и ее значение в организации экономического воспитания детей дошкольного возраста. Материалы статьи могут

быть использованы в системе подготовки педагогических кадров для дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: экономическая культура, будущий воспитатель, экономическое воспитание, педагогическая методика, профессиональная компетентность, дошкольное образование.

Azimova Musharraf Utkirovna
Associate Professor of the Department of Preschool Education
Navoi State University

METHODS OF FORMATION OF ECONOMIC CULTURE AMONG FUTURE EDUCATORS



Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of forming economic culture among future preschool teachers. The goals, objectives, pedagogical principles, methods, and forms of developing economic culture in the process of professional training are analyzed. The role of economic culture in enhancing the professional competence of future educators and its importance in organizing economic education for preschool children are substantiated. The materials of the article can be used in the training system of pedagogical staff for preschool educational institutions.

Keywords: economic culture, future preschool teacher, economic education, pedagogical methodology, professional competence, preschool education.

Kirish

Hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi inson kapitalining sifat darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Zamonaviy jamiyatda shaxsning iqtisodiy ongi, iqtisodiy tafakkuri va iqtisodiy madaniyati uning ijtimoiy faolligi, mehnat munosabatlari hamda hayotiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida iqtisodiy madaniyatni shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik vazifalar qatoriga kiradi.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida iqtisodiy madaniyatni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha yosh davri bola shaxsining poydevori qo'yiladigan muhim bosqich hisoblanib, aynan shu davrda bolada mehnatsevarlik, tejamkorlik, mulkka ehtiyotkor munosabat, jamoaviylik va mas'uliyat kabi sifatlar shakllana boshlaydi. Ushbu sifatlarni tarbiyalash esa, eng avvalo, tarbiyachining shaxsiy iqtisodiy madaniyati, kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Bo'lajak tarbiyachilar iqtisodiy madaniyatga ega bo'lishi orqali ta'lim jarayonida mavjud moddiy resurslardan maqsadli foydalanish, iqtisodiy tarbiya elementlarini bolalarga mos shaklda yetkazish hamda ularda iqtisodiy tasavvurlarni ilk bosqichdanoq shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bois, bo'lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish masalasi nafaqat ta'lim mazmuni, balki pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda iqtisodiy tarbiya va iqtisodiy madaniyat masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarda iqtisodiy bilimlarning boshlang'ich elementlarini shakllantirish uchun tarbiyachilarning iqtisodiy savodxonligi va iqtisodiy madaniyati yuqori darajada bo'lishi talab etilmoqda.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish muammosi turli nuqtai nazarlardan o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida ushbu masalani tizimli va metodik jihatdan tashkil etish yetarli darajada yoritilmagan. Ko'p hollarda iqtisodiy bilimlar



umumiy nazariy ma'lumotlar bilan cheklanib qolib, ularni pedagogik faoliyatga integratsiya qilish masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Shu sababli, bo'lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur metodika bo'lajak tarbiyachilarning iqtisodiy bilimlarini chuqurlashtirish, iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish va kasbiy faoliyatda iqtisodiy madaniyatli yondashuvni qaror toptirishga xizmat qilishi lozim.

Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari, maqsad va vazifalari, shuningdek, uni amalga oshirishning samarali pedagogik metod va shakllari tahlil etiladi. Maqola natijalari maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Iqtisodiy madaniyatni shakllantirish muammosi pedagogika va iqtisodiy ta'lim sohalarida turli olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy madaniyat shaxs tarbiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning mazmuni, tuzilishi va shakllanish mexanizmlari turli yondashuvlar asosida yoritilgan⁵.

R.J.Ishmuxamedov o'z tadqiqotlarida iqtisodiy tarbiyani shaxsning ijtimoiy faolligi va kasbiy tayyorgarligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida baholab, iqtisodiy madaniyatni ta'lim jarayonining uzviy qismi sifatida qarash zarurligini ta'kidlaydi⁶. Uning fikricha, iqtisodiy bilimlar pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirilgandagina samarali natija beradi.

SH.A.Abdullayeva iqtisodiy madaniyatni shakllantirishda ta'lim mazmuni, metod va shakllarning ahamiyatini ochib bergan holda, iqtisodiy tarbiyani tizimli va maqsadli tashkil etish zarurligini asoslab beradi⁷. Muallif iqtisodiy madaniyatni shaxsning mas'uliyatli munosabati va tejamkorlik xulq-atvori bilan bog'liq holda tahlil qiladi.

O.Zufarov tadqiqotlarida zamonaviy ta'lim tizimida iqtisodiy madaniyatni shakllantirish masalalari kasbiy kompetentlik bilan bog'liq holda o'rganilgan⁸. Olimning ta'kidlashicha, iqtisodiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Ayrim tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim tizimida iqtisodiy tarbiya masalalari ham yoritilgan bo'lib, bolalarda iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachining shaxsiy iqtisodiy madaniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani qayd etiladi⁹. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda bo'lajak tarbiyachilarni iqtisodiy madaniyatli mutaxassis sifatida tayyorlashning metodik jihatlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

⁵ Saidov A. Shaxs tarbiyasi nazariyasi. – Toshkent, 2019.

⁶ Ishmuxamedov R.J. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2020.

⁷ Abdullayeva Sh.A. Iqtisodiy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2019.

⁸ Zufarov O. Zamonaviy ta'limda iqtisodiy madaniyat masalalari. – Toshkent, 2021.

⁹ Saidova M. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2022.



Xorijiy ilmiy manbalarda iqtisodiy madaniyat va iqtisodiy savodxonlikni erta yoshdan shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan¹⁰. Ularda pedagoglarning iqtisodiy kompetensiyasi bolalarda iqtisodiy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy madaniyat muammosi nazariy jihatdan keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida uni shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikaga ehtiyoj mavjud. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi dialektik bilish nazariyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tizimli va kompetentlik yondashuvlariga asoslandi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qarash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

nazariy metodlar - ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish;

empirik metodlar - kuzatish, suhbat, so‘rovnoma;

amaliy metodlar - iqtisodiy mazmundagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va tahlil qilish.

Qo‘llanilgan metodlar tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning asosiy maqsadi – ularda iqtisodiy bilim, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy xulq-atvorni uyg‘un rivojlantirish orqali kasbiy kompetentlikni oshirishdan iborat.

Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

-iqtisodiy bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish;

-iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish va iqtisodiy ongini shakllantirish;

-tejamkorlik va mas’uliyatli munosabatni tarbiyalash;

-iqtisodiy tarbiyani pedagogik faoliyatga integratsiya qilish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishga tayyorlash.

Iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik tamoyillari. Bo‘lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

ilmiylik – iqtisodiy bilimlarni zamonaviy ilmiy qarashlar asosida berish;

izchillik va tizimlilik – bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirish;

amaliyot bilan bog‘liqlik – iqtisodiy bilimlarni hayotiy misollar bilan mustahkamlash;

integrativ yondashuv – iqtisodiy tarbiyani boshqa tarbiya turlari bilan uyg‘unlashtirish;

faollik– talabalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faolligini rag‘batlantirish.

¹⁰ OECD. Financial Education for Youth. – Paris, 2018.



Iqtisodiy madaniyatni maqsadli shakllantirish natijasida bo‘lajak tarbiyachilarda iqtisodiy bilimlar tizimli shakllanadi, iqtisodiy tafakkur rivojlanadi va iqtisodiy xulq-atvorda mas’uliyatli yondashuv qaror topadi. Bu esa ularning maktabgacha ta’lim muassasalarida iqtisodiy tarbiyani samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Хулоса

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy asoslangan metodikadan foydalanish orqali tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi oshadi va maktabgacha ta’lim tizimida iqtisodiy tarbiya samaradorligi ta’minlanadi.

Iqtisodiy tafakkur va ongni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar — rolli o‘yin, keys-stadi va loyiha usuli - talabalarning mustaqil fikrlashini, moliyaviy mas’uliyat va tejamkorlik ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Bu metodlar nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki ularni amaliy pedagogik faoliyatda qo‘llash imkonini ham berdi.

Shuningdek, tadqiqot metodikasi va ilmiy tahlillar ko‘rsatdiki, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishda pedagogik jarayonning tizimliliigi va maqsadliliigi muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali metodlar va mashg‘ulotlar tarbiyachilarning amaliyot ko‘nikmalarini va ijodiy faolligini oshiradi, shu bilan birga ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishmuxamedov R.J. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2020.
2. Abdullayeva Sh.A. Iqtisodiy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2019.
3. Zufarov O. Zamonaviy ta’limda iqtisodiy madaniyat masalalari. – Toshkent, 2021.
4. Saidov A. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent, 2022.
5. Qodirova N. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish nazariyasi. – Toshkent, 2020.



Qilichova Marxabo Xudoyqulovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim nazariyasi
va metodikasi kafedrasida v.b. dotsenti

UDK: 378.162

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA SHAROF RASHIDOV ASARLARI
ORQALI MA’NAVYI-AHQLOQIY TARBIIYANI SHAKLLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda Sharof Rashidov asarlarining pedagogik va tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Sharof Rashidov ijodida aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, mas’uliyat, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash, pedagogik kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Natijada Sharof Rashidov asarlarini oliy pedagogik ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya, Sharof Rashidov, bo‘lajak pedagog, milliy qadriyatlar, pedagogik ta’lim, tarbiyaviy jarayon.

Киличова Мархабо Худойкуловна
Кафедра теории и методики дошкольного образования,
Джизакский государственный педагогический университет,
исполняющая обязанности доцента

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-
НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА
ПРИМЕРЕ ТРУДОВ ШАРОФА РАШИДОВА**

Аннотация. В данной статье научно и теоретически анализируется педагогический и воспитательный потенциал трудов Шарофа Рашидова в формировании духовно-нравственного воспитания будущих педагогов. Раскрывается роль универсальных и национальных ценностей, таких как патриотизм, гуманизм, честность, ответственность и трудолюбие, отраженных в трудах Шарофа Рашидова, в воспитании молодого поколения. В процессе исследования использованы методы анализа, сравнения, педагогического наблюдения и обобщения. В результате подтверждается, что интеграция трудов Шарофа Рашидова в процесс высшего педагогического образования является важным фактором развития духовно-нравственных компетенций будущих учителей.



Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, Шароф Рашидов, будущий учитель, национальные ценности, педагогическое образование, образовательный процесс.

Kilichova Marhabo Khudoykulovna
Department of Theory and Methodology of Preschool Education,
Jizzakh State Pedagogical University,
Acting Associate Professor

THE ORETICAL FOUNDATIONS OF FORMING MORAL AND ETHICAL EDUCATION IN FUTURE TEACHERS THROUGH THE WORKS OF SHAROF RASHIDOV

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations of forming moral and ethical education in future teachers through the works of Sharof Rashidov. The study reveals the educational potential of Rashidov’s literary heritage, which reflects such universal and national values as patriotism, humanism, honesty, responsibility, and diligence. Methods such as analysis, comparison, pedagogical observation, and generalization were applied in the research process. The results show that integrating Sharof Rashidov’s works into the higher pedagogical education system significantly contributes to the development of moral and ethical competencies of future educators.

Key words: moral and ethical education, Sharof Rashidov, future teachers, national values, pedagogical education, educational process.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs qilib tarbiyalash pedagogika fanining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari va milliy qadriyatlarga munosabati kelajak avlod tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, milliy adabiy merosimiz vakillarining asarlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharof Rashidov o‘zbek adabiyoti va ijtimoiy tafakkurida muhim o‘rin egallagan ijodkor bo‘lib, uning asarlarida xalq hayoti, insoniy munosabatlar, axloqiy mezonlar va vatanparvarlik g‘oyalari chuqur ifodalangan. Ushbu maqolada Sharof Rashidov asarlari orqali bo‘lajak pedagoglarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning nazariy asoslari yoritiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar markazida barkamol, mustaqil fikrlovchi, yuksak ma’naviyatli kadrlarni tayyorlash masalasi turibdi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlod tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o‘z asarlari va nutqlarida ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’kidlab, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.



Prezident asarlarida ilgari surilgan “inson qadri”, “ma’naviy yangilanish”, “milliy o‘zlikni anglash” g‘oyalari bo‘lajak pedagoglar tayyorlash jarayonida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishda milliy adabiy meros, xususan, Sharof Rashidov asarlarining tarbiyaviy imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Sharof Rashidov ijodida insonparvarlik, vatanparvarlik, axloqiy mas’uliyat va fidoyilik kabi fazilatlar chuqur badiiy talqinda yoritilgan bo‘lib, ular bo‘lajak pedagoglarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘la oladi.

Shu bois, Sharof Rashidov asarlari asosida bo‘lajak pedagoglarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish bugungi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogika va tarbiya nazariyasida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. O‘zbek pedagog olimlarining ilmiy ishlarida ma’naviy tarbiya shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotlarda ta’lim jarayonida badiiy adabiyotdan foydalanish shaxsning axloqiy ongini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Sharof Rashidov ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarda uning asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy va tarbiyaviy g‘oyalar tahlil qilinadi. Adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarda Rashidov asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari keng yoritilgan bo‘lsa, pedagogik nuqtayi nazardan ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Shuningdek, Prezident Sh. M. Mirziyoyev asarlari va ma’ruzalari ta’lim-tarbiya masalalariga zamonaviy yondashuvni belgilab beradi. Ularda pedagog shaxsiga qo‘yiladigan axloqiy va kasbiy talablar, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni alohida ta’kidlanadi. Ushbu konseptual g‘oyalar Sharof Rashidov asarlari orqali ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish masalasini ilmiy asoslashda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlilidan xulosalar

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

- ma’naviy-axloqiy tarbiya pedagogik tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi;

- badiiy adabiyot, xususan, milliy adiblar ijodi tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi;

- Sharof Rashidov asarlarining pedagogik imkoniyatlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan;

- Prezident asarlarida ilgari surilgan ma’naviy tarbiya g‘oyalari ushbu muammoni o‘rganishda nazariy asos bo‘la oladi.

Mazkur holatlar tanlangan mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqot jarayonida Sharof Rashidov asarlaridagi tarbiyaviy g‘oyalar tahlil qilinib, ularni bo‘lajak pedagoglar tayyorlash jarayoniga tatbiq etish yo‘llari muhokama qilindi. Asarlarda aks etgan insoniy fazilatlar bo‘lajak o‘qituvchilarda



kasbiy mas’uliyat, axloqiy barqarorlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Bo‘lajak pedagoglarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish jarayonida Sharof Rashidov asarlarini ta’lim mazmuniga integratsiya qilish samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu integratsiya ta’lim jarayonining turli shakllarida tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Sharof Rashidov asarlarini o‘quv mashg‘ulotlariga kiritish, avvalo, fanlararo yondashuv asosida amalga oshiriladi. “Pedagogika”, “Ma’naviyat asoslari”, “O‘zbek adabiyoti”, “Tarbiya nazariyasi” kabi fanlarda uning asarlaridan namunalar tanlab olinib, tarbiyaviy mazmunda tahlil qilinadi.

Dars jarayonida asarlardagi qahramonlar faoliyati, ularning axloqiy tanlovi, jamiyat va shaxs munosabatlari muhokama qilinib, talabalarning mustaqil fikrlashi va axloqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Shu orqali bo‘lajak pedagoglarda kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan ma’naviy mas’uliyat va ijtimoiy faollik shakllanadi.

Mustaqil ta’lim doirasida Sharof Rashidov asarlari asosida referatlar, esse va tahliliy topshiriqlar berish samarali hisoblanadi. Talabalarga muayyan asar yoki obraz asosida ma’naviy-axloqiy muammolarni tahlil qilish vazifasi yuklatiladi.

Bu jarayonda talabalar nafaqat adabiy matn bilan ishlash, balki undagi tarbiyaviy g‘oyalarni zamonaviy pedagogik jarayon bilan bog‘lash imkoniga ega bo‘ladi. Mustaqil ta’lim orqali talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalash, axloqiy refleksiya va shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji kuchayadi.

Sharof Rashidov asarlarini ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga integratsiya qilish ularning tarbiyaviy ta’sirini yanada kuchaytiradi. Adib ijodiga bag‘ishlangan davra suhbatlari, adabiy kechalar, ijodiy uchrashuvlar va teatr sahnalari tashkil etilishi talabalarda milliy adabiy merosga nisbatan hurmat va qiziqishni oshiradi.

Bunday tadbirlar jarayonida asarlardagi g‘oyalar zamonaviy hayot bilan qiyoslanib, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning bugungi jamiyatdagi ahamiyati ochib beriladi. Natijada bo‘lajak pedagoglarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.

Sharof Rashidov asarlarini o‘quv mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga integratsiya qilish bo‘lajak pedagoglarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning samarali mexanizmlaridan biridir. Ushbu yondashuv pedagogik ta’limning mazmunini boyitib, kelajak o‘qituvchilarining kasbiy va shaxsiy kamolotiga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda, Sharof Rashidov asarlari bo‘lajak pedagoglarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning muhim nazariy va amaliy manbalaridan biridir. Prezident Sh. M. Mirziyoyev asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiya konsepsiyasi bilan uyg‘un holda ushbu adabiy merosdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Sharof Rashidov asarlarini pedagogik fanlar mazmuniga tizimli ravishda kiritish;



- bo‘lajak pedagoglar uchun maxsus ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlar ishlab chiqish;
- adabiy asarlarni tahlil qilishga asoslangan interfaol metodlardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qilichova M. Sharof Rashidov asarlarida ma’naviy-axloqiy masalalarning yoritilishi // Filologiya va pedagogika. № 10, 2025. - B. 35–37.
2. M.X.Qilichova (2024). SHAROF RASHIDOV ASARLARIDAN YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA FOYDALANISH MASALALARI. Inter education & global study, (7), 312-318.
3. Киличова М.Х. Роль романа Шарафа Рашидова «Победители» в духовнонравственном воспитании молодёжи // European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). Nov – 2024. - P.361-370.
4. Turayeva Z.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: monografiya. — Toshkent: Turon-Zamin Ziyo, 2023.
5. Шароф Рашидов. Голиблар. – Тошкент: F.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 256 б.
6. Хакимов А. Творящие весну. Заметки о художественных особенностях романов Ш.Рашидова. –Тошкент: Литературы и искусства, 1979. – С. 126.
7. Ризаев С. Шараф Рашидов: штрихи к портрету. – Ташкент: 1992. – С. 86.
8. Алимардонов Т., Кучкаров В. Вечная слава: жизнь и деятельность Шарафа Рашидова в зеркале истории. <https://www.litres.ru/book/>
9. Фазилова, Д. Х. (2016). Механизм повышения политической активности молодёжи: анализ, проблемы и решения. Молодой ученый, (10), 1310-1312.
10. Fazilova, D.X. (2021). Views on the socio-political appearance of youth and its features. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR).



Nurova Rohila Ismoil qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universitetining mustaqil izlanuvchisi

UDK 37.01/.09, 37.013, 378

**BO‘LG‘USI TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHDA TEATR PEDAGOGIKASIDAN
FOYDALANISHING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lg‘usi tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda teatr pedagogikasidan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda teatr pedagogikasi ta‘lim jarayonida faol, interfaol va ijodiy metod sifatida talabalarning kommunikativ, ijtimoiy, kreativ hamda reflektiv kompetensiyalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqolada teatr pedagogikasining pedagogik asoslari (rolli o‘yinlar, drammatizatsiya, sahna mashqlari, kasbiy faoliyatni simulyatsiya qilish) va uning psixologik ta‘sir mexanizmlari (empatiya, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, o‘zini anglash) yoritilgan. Shuningdek, teatr faoliyati orqali bo‘lg‘usi tarbiyachilarning kasbiy rolga kirish, vaziyatni his qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: teatr pedagogikasi, bo‘lg‘usi tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, pedagogik-psixologik xususiyatlar, rolli o‘yinlar, drammatizatsiya, sahna mashqlari, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, kreativ kompetensiya, reflektiv kompetensiya, empatiya, kasbiy rol.

Нурова Рохила Исмоил кизи
независимый исследователь Национального педагогического
университета Узбекистана имени Низами

**ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕАТРАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
ВОСПИТАТЕЛЕЙ**

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и практической точки зрения анализируются педагогико-психологические особенности использования театральной педагогики в развитии профессиональной компетентности будущих воспитателей. В исследовании обоснованы возможности театральной педагогики как активного, интерактивного и творческого метода обучения в формировании коммуникативной, социальной, креативной и рефлексивной компетенций студентов. В статье раскрыты педагогические основы театральной педагогики (ролевые игры, драматизация, сценические упражнения, моделирование профессиональной деятельности), а также ее психологические механизмы воздействия (эмпатия,



эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, самопознание). Кроме того, проанализирован процесс развития у будущих воспитателей навыков вхождения в профессиональную роль, чувствования ситуации и работы в коллективе посредством театральной деятельности.

Ключевые слова: театральная педагогика, будущий воспитатель, профессиональная компетентность, педагогико-психологические особенности, ролевые игры, драматизация, сценические упражнения, коммуникативная компетентность, социальная компетентность, креативная компетентность, рефлексивная компетентность, эмпатия, профессиональная роль.

Nurova Rohila Ismoil qizi
Independent Researcher

Nizami National University of Pedagogy of Uzbekistan

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF USING THEATRE PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS

Abstract. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the pedagogical and psychological features of using theatre pedagogy in the development of professional competence of future educators. The study substantiates the potential of theatre pedagogy as an active, interactive, and creative teaching method in forming students' communicative, social, creative, and reflective competencies. The article highlights the pedagogical foundations of theatre pedagogy (role-playing, dramatization, stage exercises, and simulation of professional activity) as well as its psychological mechanisms of influence (empathy, emotional stability, stress resistance, and self-awareness). In addition, the process of developing future educators' skills of professional role performance, situational awareness, and teamwork through theatrical activities is analyzed.

Key words: theatre pedagogy, future educator, professional competence, pedagogical and psychological features, role-playing, dramatization, stage exercises, communicative competence, social competence, creative competence, reflective competence, empathy, professional role.

Kirish

Hozirgi davrda oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda nafaqat an'anaviy metodlar, balki innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi ham zaruriy ehtiyojga aylangan. Shu nuqtai nazardan, **teatr pedagogikasi** ta'lim jarayonini boyituvchi, bo'lg'usi tarbiyachilarning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi **samarali metodlardan** biri sifatida e'tirof etiladi.

Teatr pedagogikasi – bu faqatgina san'at turi emas, balki bo'lg'usi tarbiyachilarning ijodiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik mexanizm sifatida qaraladi. U



bo‘lg‘usi tarbiyachilarni kasbiy faoliyatni modellashtirish, turli ijtimoiy-psixologik vaziyatlarni simulyatsiya qilish va kasbiy rollarni amaliy mashg‘ulotlarda sinab ko‘rishga yo‘naltiradi. Shu orqali teatr pedagogikasi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Teatr pedagogikasi tushunchasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, san‘at, pedagogika va psixologiya fanlari tutashgan nuqtada shakllangan. U bir tomondan, teatr san‘atining estetik va ijodiy imkoniyatlaridan ta‘lim-tarbiyada foydalanishni, ikkinchi tomondan, bo‘lg‘usi tarbiyachilarning ijtimoiy hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Adabiyotlar tahlili

Teatr pedagogikasi inson haqidagi yaxlit tasavvurlarni – uning jamiyat hayotidagi o‘rni va roli, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari, faoliyati, fikrlari va his-tuyg‘ulari, shuningdek, axloqiy hamda estetik ideallarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O.A.Eristavining fikricha, teatr pedagogikasi turli tarbiyaviy, ta‘limiy va rivojlantiruvchi metodikalarni birlashtirgan holda inson shaxsining namoyon va ko‘pincha yashirin ijodiy resurslarini faollashtirishni samarali ta‘minlaydi. U san‘at va psixologiyani uyg‘unlashtirib, shaxsning intellektual, axloqiy va ma‘naviy jihatdan boy, mazmunli va muvozanatli rivojlanishini ta‘minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar kompleksini yaratadi va takomillashtiradi[20].

A.S.Kolesnikovaning ta‘kidlashicha esa, teatr pedagogikasi – bu ta‘lim tizimi bo‘lib, u improvizatsion o‘yin va haqiqiy ijodiy faoliyat qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etiladi. Ushbu jarayon ishtirokchilar uchun qiziqarli sharoitlarda, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi jamoaviy ijodkorlik asosida kechadi hamda insonning atrof-muhit hodisalarini obrazlar orqali chuqur anglash va ularni shaxsan boshidan kechirish imkonini beradi[14].

Teatr pedagogikasi – aktyorlik, sahnalashtirish, drammatizatsiya, mimika, improvizatsiya kabi teatr elementlari orqali talaba, o‘quvchi yoki tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy, emotsional, madaniy va kommunikativ jihatdan rivojlantirishga qaratilgan.

Tarixiy manbalarga murojaat qilinganda, teatr qadimdan ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani ko‘zga tashlanadi. Qadimgi Yunonistonda teatr san‘ati jamiyatning axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino san‘atning inson tarbiyasidagi rolini alohida ta‘kidlab, uning inson ruhiy dunyosini boyitishi, emotsional sezgirlikni kuchaytirishi va aqliy kamolotni ta‘minlashini qayd etganlar[2].

Nazariy jihatdan teatr pedagogikasining asoslari L.S.Vygotskiy, A.N.Leontev, K.Stanislavskiy, V.V.Davidov kabi olimlarning psixologik va pedagogik qarashlarida o‘z aksini topgan. Masalan, K.Stanislavskiyning “rolga kirish” tizimi talabaning kasbiy vazifalarni his qilish, ularni ongli ravishda o‘zlashtirish va ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi[16], deb aytsa, L.S.Vygotskiy esa, teatr o‘yinlarini shaxsning ijtimoiylashuvi va ijodiy tafakkuri rivojlanishining asosiy shakli sifatida talqin etib, “o‘yin faoliyati shaxs uchun eng yaqin rivojlanish zonasidir”[12] deya ta‘kidlagan. A.N.Leontev esa,



faoliyat nazariyasida teatr o‘yinini shaxsning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishida muhim mexanizm sifatida baholagan[15].

Pedagogik nuqtai nazardan teatr pedagogikasi ta’lim jarayonini jonlantiradi, talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga bevosita xizmat qiladi. K.Stanislavskiyning “rolga kirish” tizimi pedagogik metod sifatida talabada kasbiy vazifalarni his etish, o‘zlashtirish va ijro etish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan[16]. Bu jihatdan teatr pedagogikasi kommunikativ, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi samarali nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek ma’rifatparvari Munavvar Qori Abdurashidxonov 1914-yil 27 fevralda Toshkentdagi “Kolizey” teatrida “Turon” truppasi tomonidan sahnalashtirilgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari namoyishi arafasida so‘zlagan nutqida teatrning ijtimoiy-ma’naviy mohiyatiga alohida e’tibor qaratgan. U o‘z nutqida teatrni “o‘yinbozlik yoki masxarabozlik” sifatida emas, balki “ibratxona, ulug‘lar maktabi” deya ta’riflab, uning insondagi “husn va qabih”, “ayb va nuqson”larni ko‘rsatib, ijtimoiy-ma’naviy uyg‘onishga xizmat qilishini ta’kidlagan[22].

Mazkur fikr teatr pedagogikasining pedagogik-psixologik xususiyatlarini chuqur yoritib beradi. Zero, teatr jarayoni talabalarda obrazli idrok, emotsional tafakkur, axloqiy-ijodiy refleksiya va ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, teatr pedagogikasi ta’lim-tarbiya jarayonida nafaqat bilim berish, balki shaxsni o‘zini anglash, ijtimoiy mas’uliyatni his etish va kasbiy kompetensiyani shakllantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Pedagogik nuqtai nazardan teatr faoliyati ta’lim jarayoniga interfaol elementlarni olib kiradi, u bo‘lg‘usi tarbiyachilarni faol ishtirok etishga, o‘z fikrini erkin ifodalashga va kasbiy vazifalarni amaliyotga yaqin sharoitda bajarishga yo‘naltiradi. Natijada teatr pedagogikasidan foydalanish nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki bo‘lg‘usi tarbiyachilarda kommunikativ, ijtimoiy, refleksiv va ijodiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi samarali nazariy-pedagogik asos sifatida qaraladi.

Teatr pedagogikasining pedagogik asoslari, avvalo, uning ta’lim-tarbiya jarayonida faol metod sifatida qo‘llanishi bilan belgilanadi. Ta’lim jarayonida teatr o‘yinlaridan foydalanish bo‘lg‘usi tarbiyachilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoaviy hamkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

N.F.Talizina ta’kidlaganidek, o‘quv faoliyatida interfaol metodlardan foydalanish shaxsni faol ishtirok etishga, o‘quv mazmunini chuqur o‘zlashtirishga olib keladi[18]. Teatr o‘yinlari esa ana shu interfaol metodlarning eng samarali ko‘rinishlaridan biridir.

Pedagogik jihatdan teatr o‘yinlaridan foydalanish jarayonida quyidagi natijalar kuzatiladi:

- bo‘lg‘usi tarbiyachilarda o‘z fikrini erkin va mantiqiy bayon etish ko‘nikmasi rivojlanadi;



- jamoaviy ishlash, muammoli vaziyatlarda hamkorlikda yechim topish qobiliyati mustahkamlanadi;
- kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan refleksiya, o‘zini nazorat qilish va o‘zini baholash malakalari shakllanadi.

Shunday qilib, teatr pedagogikasining pedagogik asoslari o‘quv jarayonini jonlantirish, bo‘lg‘usi tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda samarali metod sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik nuqtai nazardan esa, teatr faoliyati shaxsning ichki emotsional tajribasini tashqi faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi, empatiya qobiliyatini kuchaytiradi hamda kommunikativ malakalarni rivojlantiradi. Teatr o‘yinlari shaxsga emotsional kechinmalarni boshdan kechirish, ularni boshqarish va shaxsiy tajribaga aylantirish imkonini beradi. Shu orqali bo‘lg‘usi tarbiyachilar ijtimoiy rollarni sinab ko‘rib, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantiradi.

L.S.Vygotskiy teatr o‘yinlarini shaxsning ijtimoiylashuvi va ijodiy tafakkuri rivojlanishining muhim shakli sifatida ko‘rsatib, “o‘yin faoliyati bola uchun eng yaqin rivojlanish zonasidir”[12] degan xulosaga keladi. A.N.Leontev esa faoliyat nazariyasida teatr o‘yinini shaxsning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishida muhim mexanizm sifatida talqin etadi[15].

Shunday qilib, teatr pedagogikasi – bu teatr san’atining estetik imkoniyatlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik-psixologik konsepsiya hisoblanadi.

F.B.Valixo‘jayeva ta’kidlaganidek, talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish, avvalo, ularning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda teatr pedagogikasidan foydalanish, bo‘lg‘usi tarbiyachilarning o‘z-o‘zini anglash, o‘z faoliyatini nazorat qilish, shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli faoliyat yuritish, baholash va o‘z harakatlarini tuzatishga tayyor bo‘lishini rag‘batlantiradi. Demak, teatr pedagogikasi ta’lim oluvchilarda nafaqat kasbiy kompetensiyalarni, balki refleksiv yondashuvni ham shakllantirib, ularni mustaqil va mas’uliyatli shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi[11].

Sh. Minavarov teatr san’atining ijtimoiy-ma’naviy mohiyatini yoritib, uni shunday ta’riflaydi: “Teatr san’ati – milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otuvchi, shaxsda millat taqdiriga nisbatan mas’uliyatni shakllantiruvchi, milliy manfaat ustuvorligini anglashga yo‘naltiruvchi kuchli tarbiyaviy vositadir. U milliy til, tarix, adabiyot, san’at, urf-odat va qadriyatlarni asrab-avaylash, davlat tizimiga hamda qonunlarga hurmat bilan yondashish, ijodkorlik, vazminlik va kasbiy mahoratni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, teatr san’ati mamlakatning ichki va tashqi siyosiy hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotiga daxldorlikni his etish, uni qo‘llab-quvvatlash, keng ommaga targ‘ib etish imkonini beradi”[5].

Teatr pedagogikasida muhim psixologik omillardan yana biri – **empatiya**dir.

Empatiya jarayoni boshqa insonning ichki dunyosini his etish, uni tushunish va unga nisbatan mos emotsional munosabat bildirish qobiliyatini anglatadi. D.Meyers ta’kidlaganidek, teatr faoliyati shaxsni o‘zgalarning ruhiy



kechinmalariga “kirib borish” imkoniyatini beruvchi samarali vositadir[7]. Bu jihat talabalar kasbiy faoliyatida, xususan, tarbiyachi va pedagog sifatida bolalar va otalar bilan muloqot qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ malakalarning shakllanishida teatr faoliyati alohida o‘rin tutadi. K.Stanislavskiy o‘z tizimida aktyorlik mahoratini rivojlantirish jarayonida nutq, tana harakati va hissiy ifoda uyg‘unligini ta‘minlashga urg‘u beradi[16]. Ushbu qarashlar asosida teatr pedagogikasida talabalar o‘z fikrini ravon, mantiqiy va emotsional ifodalash, suhbatdoshni tinglash, jamoaviy muloqotda faol qatnashish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish nuqtai nazaridan teatr pedagogikasi rolli o‘yinlar, dramatisatsiya va sahnalashtirish jarayonlari orqali talabalarni kelajak kasbiy vazifalarini amaliyotga yaqin sharoitda bajarishga tayyorlaydi. V.A.Suxomlinskiy teatr va badiiy o‘yin faoliyatining tarbiyaviy ahamiyatini yoritib, uning bolalar va yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga xizmat qilishini alohida qayd etgan[17]. Bu qarash pedagogik jarayonda teatr vositalarining kasbiy kompetensiya rivojiga bevosita ta‘sirini asoslab beradi.




Sh.A.Sodiqova bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilot mutaxassislarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirishda nafaqat subyekt-subyekt munosabatini shakllantirish, balki ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish ham muhimligini ta‘kidlaydi. Bu yondashuv teatr pedagogikasining ahamiyati bilan bevosita hamohangdir. Chunki teatr metodlari talabalarda hamkorlik, o‘zaro muloqot, tinglash va tushunish kabi subyektiv munosabatlarni mustahkamlaydi, shu bilan birga sahna ijrosi jarayonida shaxsiy fazilatlar – tashabbuskorlik, mas‘uliyat, o‘zini tuta bilish, ijodkorlik va hissiy barqarorlikni rivojlantiradi[9].

Tahlillar va natijalar

Teatr pedagogikasining psixologik va pedagogik asoslari o‘zaro uyg‘unlashgan holda bo‘lg‘usi tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Teatr pedagogikasining pedagogik va psixologik xususiyatlari

Yo‘nalish		Pedagogik jihat	Psixologik jihat
Jarayon		Faol o‘qitish va o‘rganish	Emotsional kechinmalarni boshdan kechirish
Mashg‘ulot turi		Rolli o‘yin, dramatisatsiya, sahna mashqi	Stressni boshqarish, o‘zini erkin tutish
Natija		Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish	Shaxsiy o‘zini anglash, ishonchni mustahkamlash

Teatr pedagogikasi nafaqat ta‘lim jarayonini estetik jihatdan boyitadi, balki bo‘lg‘usi tarbiyachilarda turli kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ham samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, u quyidagi kompetensiyalarning rivojlanishiga asos bo‘ladi:



1. Kommunikativ kompetensiya. Teatr faoliyati bo‘lg‘usi tarbiyachilarda og‘zaki va noog‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, fikrni ravon bayon etish, suhbatdoshni tinglash va tushunish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Ijtimoiy kompetensiya. Teatr o‘yinlari jamoada ishlash, hamkorlik qilish va vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, teatr mashg‘ulotlari talabalarda jamoaviy hamkorlik, liderlik va ijtimoiy moslashuv kompetensiyalarini shakllantiradi.

3. Kreativ (ijodiy) kompetensiya. Teatr san‘ati o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodkorlikni talab qiladi. Teatr mashg‘ulotlarida talaba o‘zining fantaziyasi, noodatiy qarashlari va ijodiy tafakkuri orqali vaziyatlarga yangi yechimlar topadi. Shu bois teatr pedagogikasi bo‘lg‘usi tarbiyachilarni kasbiy faoliyatda ijodkorlikka undovchi samarali metod hisoblanadi.

4. Refleksiv kompetensiya. Teatr o‘yinlari jarayonida bo‘lg‘usi tarbiyachilar o‘z rolini, harakatlarini va his-tuyg‘ularini tahlil qilishga o‘rganadi. Bu esa refleksiya jarayonini kuchaytiradi. Teatr faoliyati aynan shu mexanizmni jonlantirib, bo‘lg‘usi tarbiyachilarda o‘zini anglash va kasbiy rivojlanishga intilish hissini kuchaytiradi.

Shunday qilib, teatr pedagogikasi faoliyati talabalarda **kommunikativ, ijtimoiy, kreativ** va **refleksiv kompetensiyalarni** shakllantirishning nazariy va amaliy asosini yaratadi. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan teatr pedagogikasi orqali bo‘lg‘usi tarbiyachilarda **kasbiy rol, vaziyatni his qilish** va **jamoaviy ko‘nikmalar** hosil bo‘ladi.

1. Kasbiy rolga kirish. Teatr faoliyatida bo‘lg‘usi tarbiyachilar o‘zini muayyan obrazga kirish orqali turli ijtimoiy va kasbiy rollarni sinovdan o‘tkazadi. Bu jarayon ularning kelajak kasbiy faoliyatidagi vazifalarni ongli ravishda bajarishga tayyorlaydi. K.S. Stanislavskiy aktyorning rolga kirishi uning ichki his-tuyg‘ulari va tashqi harakatlari uyg‘unligida namoyon bo‘lishini ta‘kidlagan[16]. Pedagogik nuqtai nazardan, talabani kasbiy rolga kirishi o‘zini shifokor, pedagog, rahbar yoki ijtimoiy faol shaxs sifatida tasavvur qilib ko‘rishini osonlashtiradi.

2. Vaziyatni his qilish (situativ sezgirlik). Teatr mashg‘ulotlarida vaziyatni his qilish, ya‘ni muayyan voqea va sharoitni emotsional hamda intellektual darajada idrok etish bo‘lg‘usi tarbiyachilarda tezkor qaror qabul qilish, o‘zini turli vaziyatlarda tutishni o‘rganishga xizmat qiladi.

3. Jamoada ishlash ko‘nikmalari. Teatr san‘ati mohiyatan jamoaviy faoliyatdir. Har bir sahnalashtirishda talabalar o‘zaro muvofiqlashgan holda harakat qilishi, sheriklarini tinglashi va ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur.

Pedagogik jihatdan bu ko‘nikmalar bo‘lg‘usi tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida pedagog sifatida guruh bilan ishlash, turli pedagogik vaziyatlarga moslashish va jamoaviy muammolarni hal qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Bo‘lg‘usi tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida teatr pedagogikasi nafaqat nazariy, balki amaliy imkoniyatlari bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, **rolli o‘yinlar, drammatizatsiya** va



sahna mashqlari talabalarning **kasbiy faoliyatni simulyatsiya qilishiga**, ya’ni bo’lajak pedagogik faoliyatda uchraydigan real vaziyatlarni sahna orqali sinab ko’rishiga sharoit yaratadi. Bu esa ularning **kommunikativ, ijtimoiy, kreativ va refleksiv** kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1. Rolli o’yinlar (role-play). Rolli o’yinlar bo’lg’usi tarbiyachilarga o’zlarini turli kasbiy vaziyatlarda sinab ko’rish, pedagogik muammolarni hal etish, muomala uslublarini mashq qilish imkonini beradi. Bunday faoliyat orqali bo’lg’usi tarbiyachilarda pedagogik refleksiya, kommunikativ madaniyat va kasbiy rolga kirish qobiliyati rivojlanadi. Psixolog olim J. Moreno (1953) rolli o’yinlarni shaxsiy tajribani boyitish va ijtimoiy rollarni sinab ko’rishning samarali vositasi sifatida izohlagan[6].

2. Dramatizatsiya. Dramatizatsiya jarayonida bo’lg’usi tarbiyachilar tayyor matn asosida obraz yaratadilar va pedagogik voqelikni san’at vositalari orqali qayta ifodalaydilar. Bu jarayon ularning ijodkorlik, tasavvur, emotsional-intellektual sezgirlik qobiliyatlarini rivojlantiradi[16].

3. Sahna mashqlari (improvisatsiya va pantomima). Sahna mashqlari bo’lg’usi tarbiyachilarda tezkor qaror qabul qilish, moslashuvchanlik va ijtimoiy vaziyatni his qilish ko’nikmalarini shakllantiradi. Bu mashqlar orqali pedagogik faoliyatdagi turli noan’anaviy vaziyatlar simulyatsiya qilinadi, bo’lg’usi tarbiyachilar esa ularni hal etishda ijodiy yondashuvni o’rganadilar.

4. Kasbiy faoliyatni simulyatsiya qilish. Rolli o’yinlar, dramatizatsiya va sahna mashqlari o’qituvchi yoki tarbiyachining real kasbiy vazifalarini model qilish imkonini beradi. Bunda bo’lg’usi tarbiyachilar nazariy bilimlarini amaliy sharoitda sinovdan o’tkazadi, jamoaviy muloqot, nizolarni hal etish va kreativ qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi[4].

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan teatr pedagogikasi (rolli o’yinlar, dramatizatsiya, sahna mashqlari hamda kasbiy faoliyatni simulyatsiya qilish) jarayonida bo’lg’usi tarbiyachilarda kommunikativ, ijtimoiy, kreativ va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga erishiladi. Bunda **faoliyat** → **kompetensiyalar** → **kasbiy natija** ko’rinishida quyidagi jadval asosida ko’rish mumkin (2-jadval):

2-jadval

Teatr pedagogikasi faoliyatlari orqali bo’lg’usi tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish

Teatr pedagogikasi faoliyati	Rivojlanadigan kompetensiyalar	Bo’lg’usi tarbiyachilarning kasbiy faoliyatiga ta’siri
Rolli o’yinlar (role-play)	Kommunikativ kompetensiya – samarali muloqot qilish, nutq madaniyati; Refleksiv kompetensiya – o’z faoliyatini tahlil qilish.	Talaba dars jarayonida yoki tarbiyaviy ishda turli pedagogik vaziyatlarda to’g’ri muloqot olib borishni, bolalar bilan samarali muomala qilishni, o’z faoliyatini tanqidiy baholashni o’rganadi.



Dramatizatsiya	Kreativ kompetensiya – ijodiy yondashuv, yangicha g’oyalarni ishlab chiqish; Kommunikativ kompetensiya – obraz yaratish orqali o’z fikrini ifoda etish.	Talaba dars o’qishda san’atkorona yondashuvni qo’llay oladi, bolalarda qiziqish uyg’otadi, ijodiy metodlardan foydalanadi, shuningdek, o’z nutqi va ifoda uslubini boyitadi.
Sahna mashqlari (improvisatsiya, pantomima)	Ijtimoiy kompetensiya – jamoada ishlash, hamkorlik qilish; Kreativ kompetensiya – nostandart vaziyatlarda qaror topish.	Talaba bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali hamkorlik qilishni, kutilmagan vaziyatlarda moslashib ketishni, tarbiyaviy muammolarga ijodkorona yondashishni o’rganadi.
Kasbiy faoliyatni simulyatsiya qilish	Ijtimoiy kompetensiya – jamoaviy muloqot, nizolarni hal etish; Refleksiv kompetensiya – kasbiy tajribani tahlil qilish; Kreativ kompetensiya – yangi metodlarni qo’llash	Talaba bo’lajak tarbiyachi yoki o’qituvchi sifatida nazariy bilimlarini amalda qo’llab ko’radi, kasbiy vaziyatlarni real sharoitda boshqaradi, pedagogik empatiya va o’z faoliyatini baholash ko’nikmalariga ega bo’ladi.

Sh.T. Yusupovning ta’kidlashicha, “sahna qat’iy intizom va tartibni hurmat qiladi. Aynan shuning uchun sahna ezgulikni targ’ib qilib, ijodkorning o’z so’zini aytadigan katta bir muqaddas makonga aylandi.” Ushbu yondashuv teatr pedagogikasining bo’lg’usi tarbiyachilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko’rsatadi. Chunki sahna intizomi va tartibi ularda mas’uliyat, diqqat-e’tibor, o’zini tuta bilish, vaqtni to’g’ri taqsimlash kabi kasbiy sifatlarni shakllantiradi. Ezgulikni targ’ib qilish esa pedagogning asosiy maqsadlaridan biri bo’lib, bo’lajak mutaxassisning axloqiy-ruhiy barkamolligini mustahkamlaydi[21].

Tadqiqotchi Z.S. Teshaboyeva bo’lajak tarbiyachilarda sahna madaniyatini shakllantirish jarayonida amaliy mashg’ulotlarda sahnalashtirish usulidan foydalanishni tavsiya etadi. Olimaning fikricha, sahnalashtirish jarayonida bevosita amalda bajarilgan faoliyat talabalarda ko’nikma va malakalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv teatr pedagogikasining kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki sahnalashtirish mashg’ulotlari nafaqat talabalarda sahna odobi, nutq texnikasi va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, balki ularning kasbiy faoliyatda zarur bo’ladigan kommunikativ, ijtimoiy va refleksiv kompetensiyalarini ham mustahkamlashga zamin yaratadi[19].

Teatr pedagogikasining psixologik xususiyatlaridan biri shundaki, u talabalarda stressga chidamlilikni shakllantiradi. Chunki sahna mashqlari, turli dramatik vaziyatlarni ijro etish jarayonida talabalar o’z emotsiyalarini boshqarish,



kutilmagan holatlarga moslashish va psixologik barqarorlikni namoyon etishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, sahnada o‘zini erkin tutish teatr faoliyatining ajralmas jihati bo‘lib, talabada o‘zini namoyon qilish, qo‘rquv va ichki to‘siqlardan xalos bo‘lish, shaxsiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi[1]. Bundan tashqari, fikrni aniq ifodalash teatr pedagogikasida asosiy psixologik mashqlardan biri sifatida qaraladi, chunki talaba nutqiy madaniyat, ovoz ustida ishlash, mimika va jestlarni uyg‘unlashtirish orqali kommunikativ samaradorlikka erishadi[10].


Natijada, teatr pedagogikasi nafaqat kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lgan kommunikativ malakalarni rivojlantiradi, balki bo‘lg‘usi tarbiyachilarda hayotiy muhim bo‘lgan stressni boshqarish, sahnada erkinlik va aniq ifoda kabi psixologik sifatlarni ham shakllantiradi.

Shunday qilib, teatr pedagogikasidan foydalanish talabalarda stressga chidamlilik, sahnada erkinlik va nutqiy aniq ifoda kabi muhim psixologik sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa ularning kasbiy shakllanish jarayonida zaruriy psixologik poydevor vazifasini bajarib, keyingi bosqichlarda qo‘llaniladigan pedagogik usullarning samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Mazkur maqoladagi keltirilgan ma’lumotlardan xulosa qilgan holda, quyidagi sxemani taqdim etamiz (1-rasm):

1-rasm

Teatr pedagogikasining kasbiy kompetensiyaga ta’siri



Umuman olganda, teatr pedagogikasi – bu nafaqat badiiy-estetik san’at turi, balki talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiruvchi, ularning kommunikativ, kreativ, refleksiv hamda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali metod hisoblanadi. Teatr faoliyati orqali talabalarda kasbiy rolga kirish, vaziyatni his qilish, jamoada ishlash va stressga bardosh berish kabi muhim ko‘nikmalar rivojlanib, ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga mustahkam psixologik-pedagogik poydevor yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boal, A. Games for Actors and Non-Actors. Routledge. 2002.
2. Forobiy A.N. Fozil shahar ahli qarashlari. – Toshkent, 1993 (o‘zbekcha tarjima).
3. Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent, 1980.



4. Kolb, D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development.* – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
5. Minavarov Sh. *Teatr ma’naviyat maskani.* // *Xalq ta’limi j.* – T.: 2009. - № 3. – 117 b.
6. Moreno, J. L. *Who Shall Survive? Foundations of Sociometry, Group Psychotherapy, and Sociodrama.* – New York: Beacon House, 1953.
7. Myers D. *Social Psychology.* – Boston: McGraw-Hill, 1999.
8. Sanayeva S., Eshmirzayeva M. *Maktabgacha yosh davr–bolalar ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida.* - *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI*, 2025, 5/4.
9. Sodiqova Sh.A. *Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini ijtimoiy pedagogic faoliyatga tayyorlash: ped.fan.nom. ...diss.* – Toshkent, 2010. 139 b.
10. Spolin, V. (1999). *Improvisation for the Theater.* Northwestern University Press.
11. Valixo‘jayeva F.B. *Talabalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga ekologik tarbiya berishga tayyorlash: ped.fan.nom. ... avtoref.* – Toshkent, 2005. – 19 b.
12. Выготский Л.С. *Воображение и творчество в детском возрасте.* – Москва: Просвещение, 1984.
13. Давыдов В.В. *Проблемы развивающего обучения.* – Москва: Педагогика, 1986.
14. Колесникова А.С. *Театральная педагогика: программа внеурочной деятельности (на примере программы внеурочной деятельности «Театральное искусство в культуре России»): учебно-методическое пособие / А.С. Колесникова, С.В. Домникова.* – Саратов : ГАУ ДПО «СОИРО», 2017. – 192 с.
15. Леонтьев А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность.* – Москва: Политиздат, 1977.
16. Станиславский К.С. *Работа актёра над собой. Часть I. Работа над собой в творческом процессе переживания.* – Москва: Искусство, 1989.
17. Сухомлинский В.А. *Сердце отдаю детям.* – Киев: Радянська школа, 1979.
18. Талызина Н.Ф. *Психология учения.* – Москва: Просвещение, 1988.
19. Тешабоева З.С. *Бўлажак тарбиячи-педагоглар касбий мотивациясини шакллантириш технологиялари (“Болаларни сахналаштириш ва ижодий фаолиятга ўргатиш” модулини ўқитиш мисолида).* *Пед.фан.бўй.фал.докт.дисс.* Чирчиқ – 2022., 129 б.
20. Эристави О.А. *Театральная педагогика в общеобразовательном учреждении: как универсальное средство активации творческих ресурсов молодого человека.* // *На путях к новой школе.* – 2004. – № 1.
21. Юсупов Ш.Т. *Сахна маданияти ва масъулияти* // *Молодой ученый* 2019. - № 21 (259). С. 618-621 б.
22. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/munavvarqori-abdurashidxonov-turon-teatri-ochilishida-so-zlangan-nutq-1914>.



*Turdiyeva Mohira Juraqulovna
RTU, Pedagogik ta’lim va psixologiya kafedrasida dotsenti,
Turon fanlar akademiyasi faxriy dotsenti,
p.f.f.d. (PhD)*

*Xudoyorova Barchinoy
RTU, Pedagogika fakulteti, BTS 506-guruh talabasi*

UDK: 371.2, 371.8

BOSHLANG’ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA O’QUVCHILARDA VATANPARVARLIK VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang’ich sinif tarbiya darslarida o’quvchilarda vatanparvarlik, milliy o’zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy fazilatlar hamda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari har tomonlama tahlil qilinadi. Boshlang’ich ta’lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davr ekanligi ta’kidlanib, mazkur jarayonda tarbiya darslarining o’rni va ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Maqolada o’quvchilarda Vatanga muhabbat, tarixiy merosga hurmat, bag’rikenglik, insonparvarlik, halollik, hamjihatlik kabi fazilatlarni rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, o’qituvchining pedagogik mahorati, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, milliy an’analardan o’rinli foydalanish, tarbiyaviy materiallarning yosh xususiyatlariga mosligi kabi omillarning ta’siri ilmiy jihatdan izohlangan. Tadqiqot natijalari boshlang’ich ta’limda tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, o’quvchilarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so’zlar: boshlang’ich ta’lim, tarbiya darslari, vatanparvarlik tarbiyasi, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik asoslar, interfaol metodlar, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, o’quvchi faoliyati, psixologik xususiyatlar, axloqiy tarbiya, milliy o’zlikni anglash, bag’rikenglik, ma’rifiy yondashuv, o’qituvchi mahorati, tarbiyaning tizimliliigi, tarbiyaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar, milliy meros.

*Турдиева Мохира Юракуловна,
РТУ, доцент кафедры педагогического
образования и психологии,
почетный доцент Туранской академии наук,
кандидат наук (PhD).*

*Худойорова Барчиной
РТУ, факультет педагогики,
студентка группы 506 БТС*



ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЗМА И УНИВЕРСАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируются теоретические и практические основы формирования патриотизма, национальной идентичности, духовно-нравственных качеств и общечеловеческих ценностей у учащихся начальных классов на уроках воспитания. Подчеркивается, что начальный этап школьного обучения является ключевым периодом становления личности ребёнка, поэтому воспитательные занятия занимают особое место в развитии его мировоззрения и нравственной культуры. В статье обоснована эффективность применения интерактивных методов, направленных на формирование любви к Родине, уважения к историческому наследию, толерантности, гуманизма, честности и взаимопонимания. Рассмотрена роль педагогического мастерства учителя, личностно-ориентированного подхода, адекватного возрастным особенностям содержания воспитательного материала, а также значение национальных традиций в образовательном процессе. Полученные выводы и рекомендации способствуют совершенствованию воспитательной системы начального образования и формированию гармонично развитой личности.

Ключевые слова: начальное образование, воспитательный урок, патриотическое воспитание, общечеловеческие ценности, национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, педагогические основы, интерактивные методы, личностно-ориентированный подход, психолого-педагогические особенности, нравственное развитие, национальная идентичность, толерантность, гуманизм, педагогическое мастерство.

*Mohira Yurakulovna Turdiyeva,
RTU, Associate Professor, Department
of Pedagogical Education and Psychology,
Honorary Associate Professor, Turan Academy
of Sciences, PhD Candidate.*

*Khudoyorova Barchinay
RTU, Faculty of Pedagogy,
student, group 506 BTS*

PEDAGOGICAL BASIS FOR THE FORMATION OF PATRIOTISM AND UNIVERSAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical foundations for developing patriotism, national identity, moral and ethical qualities, and universal human values among primary school students during character education lessons. It emphasizes that the primary education stage is a crucial period for the formation of a child's personality; therefore, educational



and moral instruction plays an essential role in shaping students' worldview and ethical behavior. The article highlights the effectiveness of interactive teaching methods that foster love for the homeland, respect for historical heritage, tolerance, humanism, honesty, and cooperation. Additionally, it examines the importance of teacher professionalism, a learner-centered approach, age-appropriate educational materials, and the integration of national traditions into the educational process. The findings and recommendations contribute to improving the moral-educational system in primary schools and support the development of well-rounded, value-oriented individuals.

Key words: primary education, character education, patriotism, universal human values, national values, moral and ethical development, pedagogical foundations, interactive methods, learner-centered approach, psychological characteristics, value-based upbringing, national identity, tolerance, humanism, teacher professionalism.

Kirish

Bugungi kunda jadal sur'atlarda kechayotgan globallashuv, axborot texnologiyalarining rivoji, madaniy mafkuraviy almashinuvning kuchayishi yosh avlodni ma'naviy barkamol, Vatanga sadoqatli, mustahkam ijtimoiy pozitsiyaga ega etib tarbiyalash masalasini dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Xalqning ertangi kuni, jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi, eng avvalo, uning yetuk, tafakkuri rivojlangan, yuksak axloqiy fazilatlariga ega avlodiga bog'liqdir. Shu bois ta'lim tizimida, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida tarbiya jarayonini zamon talablari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsining shakllanish jarayoni faol kechadigan, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlari endi shakllanayotgan davr hisoblanadi. Mazkur bosqichda ularga singdirilgan vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, hurmat, adolat, bag'rikenglik, mehr-shafqat kabi umuminsoniy qadriyatlar kelgusida ularning hayotiy pozitsiyasining poydevorini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya darslari nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, ularda sog'lom ijtimoiy munosabat va qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mustaqil O'zbekiston ta'lim siyosati ham aynan yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarni e'zozlash, insoniylik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalashni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. Ta'lim sohasidagi islohotlar, yangi o'quv dasturlari, kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi pedagoglardan tarbiya jarayoniga innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni keng qo'llashni talab etadi. Shu sababli ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'quvchilarda vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik asoslari chuqur o'rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, yangi avlod o'quvchisini faqat bilimli emas, balki ijtimoiy faol, ongli, ma'naviy yetuk shaxs sifatida



tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan model, samarali metod va pedagogik yondashuvlarning ishlab chiqilishi boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi [1].

Adabiyotlar tahlili

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ta‘limning mazmuni va samaradorligini belgilovchi muhim omil desa mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu yosh davrida bola atrof-muhitni emotsional tarzda idrok etadi, kattalar xulq-atvoriga taqlid qiladi, o‘zining axloqiy qarashlarini ijtimoiy tajriba orqali shakllantira boshlaydi. Shuning uchun tarbiya jarayoni mazmunining chuqur ilmiy asosga ega bo‘lishi, psixologik jihatdan mos metodlar tanlanishi va o‘qituvchi shaxsining ijobiy namunasi bilan uyg‘unlashishi boshlang‘ich ta‘limning sifat ko‘rsatkichini belgilaydi.

Vatanparvarlik tushunchasi pedagogika nazariyasida shaxsning milliy o‘zligini anglash, ajdodlar merosiga hurmat, jamiyat farovonligi uchun mas‘uliyat, Vatan ravnaqi yo‘lida faol bo‘lishga tayyorlik kabi kompleks axloqiy tizim sifatida talqin etiladi[2]. Sharq mutafakkirlari – Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalar shaxsning ma‘naviy yetukligi jamiyat barqarorligi uchun asosiy shart ekanini ta‘kidlaganlar. Alisher Navoiy adolat, muruvvat, vafodorlik kabi umuminsoniy fazilatlarini inson kamolotining markaziy mezoni sifatida ko‘rsatgan. Jadid ma‘rifatchilari - Avloniy, Fitrat, Behbudiy esa yosh avlodni Vatan taqdiri uchun mas‘ul, ma‘rifatli va faol shaxs sifatida tarbiyalashni milliy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida baholaganlar. Abdulla Avloniyning “axloq tarbiyasi millatning qutqaruvchisidir” degan fikri mazkur masalaning nazariy og‘irligini yoritib beradi. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi esa adolat, halollik, bag‘rikenglik, tinchlik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish kabi universal me‘yorlarni qamrab oladi. Aksialogik tadqiqotlar ularni shaxsning ijtimoiy hayotdagi barqaror pozitsiyasini belgilovchi eng muhim ma‘naviy tizim sifatida ko‘rsatadi. UNESCO tamoyillarida yosh avlodni global axloqiy me‘yorlar ruhida tarbiyalashning ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Bu yondashuv nafaqat milliy g‘urur, balki keng dunyoqarash, madaniyatlararo muloqotga ochiqlik, tinchlikparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari mazkur qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonining murakkab tabiatini ko‘rsatadi. Piaje nazariyasida ushbu davr “konkret operatsiyalar bosqichi” sifatida tavsiflanib, bola axloqiy tushunchalarni real vaziyatlar, obrazlar, amaliy harakatlar orqali anglashini ta‘kidlaydi[4]. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi esa axloqiy fazilatlarining shaxs ongiga jamiyat, madaniyat va muloqot orqali ko‘chishini ilmiy asoslaydi[11]. Shu sababli vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni abstrakt tushunchalarni yod oldirish emas, balki bolaning kundalik tajribasini mazmunli pedagogik faoliyat orqali boyitishni talab qiladi.

Tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan metodlar aynan shu jihatdan ilmiy ahamiyat kasb etadi. O‘quvchini faol fikrlashga undovchi suhbat va muloqot



metodlari qadriyatlar mazmunini chuqur anglashga imkon beradi. O‘qituvchi o‘quvchining kundalik hayotida uchraydigan vaziyatlar haqida savollar berib, unga mustaqil mulohaza yuritish imkonini yaratadi. Tarixiy voqealar, ajdodlar qiyofasi, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish ham mavzuning emotsional ta‘sirini kuchaytiradi.

Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish metodlari esa bolada abstrakt axloqiy g‘oyalarni “ko‘rinadigan” voqelikka aylantiradi. Shaxsiy ishtirok orqali o‘quvchi halollik, mehr-shafqat, jasorat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni o‘z harakati orqali namoyish qila boshlaydi. Bu esa qabul qilinayotgan axloqiy g‘oyaning ichkilashtirilishini ta‘minlaydi. Hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish metodida o‘quvchi ijtimoiy hayotda uchraydigan murakkab holatlar haqida fikr yuritib, axloqiy tanlov mohiyatini tushunadi. Bu metod mas‘uliyat, empatiya va refleksiv tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi[6].

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Hikoya, ertak, biografik voqealar asosidagi metodlar yosh bolalar uchun eng tabiiy ta‘sir mexanizmini yaratadi. Qahramon hayoti misolida bola vatanparvarlikning, insoniylikning haqiqiy qiymatini his etadi. Ko‘rgazmali metodlar – rasm, video, ramzlar, tarixiy manzaralardan foydalanish – bolaning vizual idroki kuchli bo‘lgani uchun darsning ta‘sirchanligini oshiradi. Shuningdek, amaliy faoliyatga asoslangan yondashuvlarda o‘quvchining tajribasi kengayadi. Tabiatni asrash, maktab tadbirlarida ishtirok etish, jamoaga foydali ishlar qilish orqali bola qadriyatlarni real hayot bilan bog‘laydi va ularni xulq-atvoriga tadbir etib boshlaydi[8]. O‘qituvchi shaxsi bu jarayonda eng kuchli metodik vosita sifatida qaraladi. Uning halolligi, adolati, muloqot madaniyati, mas‘uliyati bolaning idrokida “axloq me‘yorining tirik namunasi” sifatida mustahkamlanadi. Shunday qilib, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish metodlari shaxsning hissiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga bir vaqtda ta‘sir ko‘rsatadigan kompleks pedagogik tizimni tashkil etadi. Bu metodlar o‘quvchini tarbiya jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylantiradi, uning shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi, qadriyatlarni real hayotda namoyon etadigan barqaror shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining amaliy jihatlarini ko‘rib chiqishda, avvalo, quyidagi masalani tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan suhbatlarda ular “Vatan nima?” degan savolga aniq, lekin bir xil mazmundagi rasmiy javoblarni berishga moyilligi kuzatildi. Ularning ko‘pchiligi Vatan haqida yodlangan fikrlarni aytadi, biroq bu tushunchani o‘z shaxsiy hayoti bilan bog‘lab, mazmunli izoh berishga qiynaladi. Bu holat vatanparvarlikning ichki mazmuni hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Mazkur vaziyatning kelib chiqishiga bir nechta omillar ta‘sir ko‘rsatgani ayon bo‘ldi. Bolalarning bu tushunchani ko‘proq bayram tadbirlari, madhiyalar yoki bayroqlar bilan bog‘lab qabul qilishi, uni oddiy kundalik hayot bilan bog‘lay olmasligi tushunchaning abstraktligidan dalolat beradi. Shuningdek, mavzuni tushuntirishda ko‘proq tayyor ta‘riflar berilishi, o‘quvchining shaxsiy tajribasiga murojaat qilinmasligi ushbu bo‘shliqni yanada kuchaytirgan.



Mazkur vaziyatni bartaraf etish uchun o‘quvchini mavhum tushunchadan real hayotga olib keladigan yondashuvlar qo‘llanildi. Dastlab, bolaga yaqin bo‘lgan shaxsiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. O‘quvchilardan o‘z uylari, maktablari, mahallalari yoki kundalik hayotdagi kichik vazifalari haqida so‘zlab berish so‘raganda, ular Vatan tushunchasini asta-sekin o‘zlariga yaqin voqelik bilan bog‘lay boshladilar. Shaxsiy tajribaga murojaat qilish Vatan degan keng tushunchani bolaga “seziladigan”, “ko‘rinadigan” holga keltirdi[12]. Keyinchalik hissiy idrokni kuchaytirish uchun hikoya asosidagi yondashuv qo‘llandi. Oddiy bir bolaning Vatan uchun foydali bo‘lgan kichik amali tasvirlangan hikoya ular uchun mavzuning ruhiy tomonini ochib berdi. Bolalar hikoya qahramonining harakatlarini o‘z hayoti bilan taqqoslashga urinib, Vatanga xizmat faqat katta ishlardan iborat emasligini anglay boshladilar.

Masalani hal qilish jarayonida muammoli savol-javob usuli ham samarali bo‘ldi. “Agar maktabingni kimdir buzsa, nima qilgan bo‘larding?”, “Mahallangni tartibda saqlashning Vatan uchun qanday foydasi bor?” kabi savollar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undadi. Bu jarayon orqali ular mavhum bo‘lgan tushunchani real vaziyatlar bilan bog‘lay boshladilar. Bu yondashuvlarning barchasi natijada o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan munosabatini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Dastlab yodlangan jummalarni takrorlagan bolalar endi o‘z fikrini ayta oladigan, Vatanga foydali bo‘lishni kundalik hayotdagi kichik xatti-harakatlardan boshlanishini anglay oladigan darajaga yetdi. Ular “Vatanga foyda keltirish – tartibli bo‘lish”, “maktabni asrash ham Vatan uchun xizmat”, “mahallani toza qilish – Vatanni sevimli qilish” kabi shaxsiy fikrlarni ayta boshlaganlari kuzatildi. Shu tariqa, mavhum tushunchaning o‘quvchi ongida konkret va shaxsiy mazmunga aylanishi uchun qo‘llangan metodlar o‘z samarasini ko‘rsatdi. Natijada o‘quvchilar vatanparvarlikni faqat bayramlarda eslanadigan tushuncha emas, balki o‘z kundalik hayotlarida namoyon bo‘ladigan axloqiy qadriyat sifatida qabul qila boshladilar.

Tahlillar va natijalar

Boshlang‘ich sinflarda vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon o‘quvchi shaxsining ma‘naviy kamolotiga asos bo‘luvchi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Bolalar bu yoshda mavhum tushunchalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilolmasdan, avvalo o‘zlariga yaqin bo‘lgan hayotiy tajribalar orqali anglaydi[13]. Shu bois vatanparvarlik, hurmat, bag‘rikenglik kabi kategoriyalarni ularga izoh yoki yodlatish shaklida emas, balki shaxsiy hayotiy tajribasi, his-tuyg‘usi, atrof-muhiti bilan bog‘liq tarzda tushuntirish samaraliroq natija beradi. O‘quvchi o‘z mahallasi, maktabi, oilaviy tarbiyasi, o‘zining kundalik xatti-harakati va o‘rtoqlari bilan munosabatlari orqali Vatanning mazmunini sezishni boshlaganida, mavhum tushunchalar real mazmunga ega bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bola uchun Vatan tushunchasi dastlab juda keng va tushunib bo‘lmaydigan kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi; biroq unga hayotiy misollar orqali murakkablik soddalashtirilganda, u ushbu tushunchani shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilishga moyil bo‘ladi. Shaxsiy tajribaga tayanish, hayotiy vaziyatlarni muhokama qilish, hikoyalarning hissiy kuchidan foydalanish, o‘z fikrini aytishga undovchi savollar berish o‘quvchilar ongidagi vatanparvarlik



tasavvurlarining mazmunli shakllanishiga yordam berdi. Natijada o‘quvchilar Vatanga nisbatan munosabatni yodlangan jumlar emas, balki o‘zining kundalik amaliy faoliyati orqali ifodalanadigan fazilat sifatida anglay boshladi. Ular tartib-intizom, maktabga mehr, tabiatga g‘amxo‘rlik, o‘rtoqlarga yordam kabi oddiy xatti-harakatlarning aslida Vatanni sevishning amaliy ifodasi ekanini tushunib yetdi. Mazkur jarayonning eng muhim natijasi shundan iboratki, tarbiya faqat axborot berish jarayoni emasligi, balki bola ongini, hissiyotini, ijtimoiy tajribasini uyg‘un rivojlantiruvchi murakkab pedagogik hodisa ekanligi[8] yana bir bor tasdiqlandi.

Xulosa

Vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, mulqot madaniyati, tarbiyaviy yondashuvi va sinf muhitining psixologik barqarorligi ham asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Har bir o‘quvchi o‘zini qadrlangan, tinglangan, fikri hisobga olinganini his etganida, u tarbiyaviy mavzularga nisbatan ochiq munosabat bildiradi va mazmunni ichki ehtiyoj sifatida qabul qila boshlaydi[14]. Shunday qilib, o‘tkazilgan tahlil va kuzatuvlar boshlang‘ich ta‘limda vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki bolalarning real hayotiy tajribasini pedagogik jarayonga integratsiya qilish orqali samarali natijaga erishilishini ko‘rsatadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati o‘quvchi shaxsining ichki dunyosiga ta‘sir qilish, uning hissiy idrokini uyg‘otish, mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va eng muhimi, o‘z hayoti bilan bog‘lagan holda umumiy qadriyatlarga erishish imkonini yaratish bilan belgilanadi. Natijada o‘quvchilar vatanparvarlikni balandparvoz jumla sifatida emas, balki o‘z hayoti, xulqi va kundalik odatlariga singib boruvchi axloqiy tamoyil sifatida qabul qila boshlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. — Toshkent: Ma‘naviyat, 1992..
2. Hasanboeva, O., Yo‘ldoshev J., Tursunov B. Pedagogika. — Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
3. G‘oziev E. Bola psixologiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
4. Zunnunov A., To‘ychiyev B. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
5. Sharipov Sh., Yo‘ldoshev J. Umumiy pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978.
7. Piaget J. The Child’s Conception of the World. Routledge, 1929.
8. Qodirov R. Ma‘naviyat asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
9. Jo‘rayev M. Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya jarayoni. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
10. Abduqodirova D. Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya jarayonining innovatsion yondashuvlari. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
11. Qo‘ldosheva M. Vatanparvarlik tarbiyasining psixologik asoslari. — Toshkent: Nodirabegim, 2022.



12. Jo‘rabojeva N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma‘naviy tarbiyani rivojlantirish konsepsiyalari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
13. Karimova M. Bolalar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarining shakllanishi. — Buxoro: BuxDU matbuoti, 2021.
14. Turayev A. Vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha interfaol metodlar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.

*Xidirova Nilufar Nematovna
Navoiy shahar 22 DMTT direktori*

UDK:372.3/.4

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda boshqaruv samaradorligini oshirishda rahbar shaxsining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik madaniyati, kommunikativ va liderlik qobiliyatlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, boshqaruv jarayonida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, boshqaruv faoliyati, pedagogik-psixologik mexanizmlar, boshqaruv samaradorligi, rahbar kompetensiyasi, pedagogik madaniyat, ijtimoiy-psixologik muhit, liderlik, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya, innovatsion boshqaruv, ta‘lim sifati, kasbiy rivojlanish, jamoa hamkorligi.

*Xidirova Nilufar Nematovna
direktor ГДОО №22 города Навои*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируются педагогико-психологические механизмы эффективной организации управленческой деятельности в дошкольных образовательных организациях. В исследовании раскрывается значение профессиональной компетентности, педагогической культуры, коммуникативных и лидерских качеств руководителя в повышении эффективности управления. Также уделяется внимание формированию позитивного социально-психологического климата и использованию инновационных подходов в управленческом процессе.

Ключевые слова: дошкольное образование, управленческая деятельность, педагогико-психологические механизмы, эффективность



управления, компетентность руководителя, педагогическая культура, социально-психологическая среда, лидерство, мотивация, коммуникативная компетентность, инновационное управление, качество образования, профессиональное развитие, командное сотрудничество.

Khidirowa Nilufar Nematovna
Director of State Preschool Educational Organization
No. 22, Navoi City

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF MANAGEMENT ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. This article analyzes the pedagogical and psychological mechanisms of effective management organization in preschool educational institutions. The study highlights the importance of the manager’s professional competence, pedagogical culture, communicative and leadership skills in improving management efficiency. Special attention is also paid to the formation of a positive socio-psychological environment and the use of innovative approaches in the management process.

Key words: preschool education, management activity, pedagogical and psychological mechanisms, management effectiveness, managerial competence, pedagogical culture, socio-psychological environment, leadership, motivation, communicative competence, innovative management, quality of education, professional development, team collaboration.

Kirish

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki shaxsning intellektual, ijtimoiy va ma’naviy shakllanishi aynan maktabgacha yosh davrida boshlanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish ta’lim sifati va tarbiya samaradorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, bunda MTT rahbarlari va tarbiyachilarining faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo’llash, boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion metodlar va usullardan foydalanish zaruriyati tug’ilayotgani va bu o’z o’rnida ixtiyoriy rahbar va tarbiyachining bilimi, ko’nikma va malakasi hamda tajribalariga, ya’ni bir so’z bilan aytganda kasbiy kompetentligiga bog’liqligi, ta’lim tashkiloti faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, ta’lim tashkilotida qulay ta’limiy muhitni tashkil etish, ya’ni innovatsion ta’limiy muhitni vujudga keltirish bo’yicha zaruriy bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lish zaruriyatining belgilayotganligi maktabgacha ta’lim jarayonlari samaradorligini



ta'minlashda strukturaviy yondashish masalasi dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli farmonida “Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish”[1] borasida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2018 yildagi PQ-3955-sonli qaroriga muvofiq “Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash”[2] chora tadbirlariga alohida urg'u berildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyati nafaqat ma'muriy jarayon, balki pedagogik-psixologik jarayon sifatida ham qaraladi. Rahbar shaxsining kasbiy madaniyati, kommunikativ kompetensiyasi va jamoani boshqarish qobiliyati tashkilot faoliyatining samaradorligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili

Boshqaruv faoliyati pedagogika va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada rivojlanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ta'lim muassasalarini boshqarishda liderlik, motivatsiya, refleksiya va jamoa psixologiyasi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. V.A.Suxomlinskiy rahbarning pedagogik madaniyatini ta'lim muassasasi rivojining asosiy omili sifatida baholaydi hamda o'z asarlarida rahbar (direktor) faqat ma'mur emas, balki yuksak pedagogik madaniyatga ega tarbiyachi bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi.[3] Shuningdek, B.Z.Milner, A.Ya.Kibanov, Sh.A.Sodiqova tadqiqotlarida ta'lim tizimida boshqaruv jarayonining samaradorligi jamoa muhitiga bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi.

F.Abdiyeva tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorida boshqaruv madaniyatining rivojlanganligi, maktabgacha ta'lim tizimining integrallashgan mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish, mutaxassislarni malaka oshirish jarayonida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hududiy hamda xorijiy maktabgacha ta'lim malaka oshirish tashkilotlari o'rtasida uzluksiz hamkorlikni kuchaytirish masalalari nazariy va amaliyot jihatdan tahlil etilgan.[4]

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyati ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish rahbar va pedagog xodimlarning o'zaro hamkorligi, kasbiy muloqoti hamda jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning obyekti maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyatini tashkil etish jarayoni bo'lib, pedagogik-psixologik mexanizmlar uning asosiy tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi.

Natijada boshqaruv faoliyatida pedagogik-psixologik yondashuvlardan foydalanish nafaqat tashkiliy jarayonlarni muvofiqlashtirish vositasi, balki rahbar va pedagog xodimlarda kommunikativ, ijtimoiy, refleksiv hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi samarali nazariy-pedagogik asos sifatida qaraladi.

Tahlillar va natijalar



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligi rahbarning pedagogik va psixologik tayyorgarligiga bog’liq. Rahbar jamoani birlashtira olishi, xodimlarni rag’batlantirishi va ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Boshqaruv faoliyatining pedagogik-psixologik mexanizmlari



Natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv jarayonida pedagogik yondashuv bilan bir qatorda psixologik muhitni sog‘lomlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv faoliyatida innovatsion yondashuvlardan foydalanish tashkilot faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Rahbarning liderlik xususiyatlari, kommunikativ madaniyati va refleksiv yondashuvi jamoa samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (MTT) boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy pedagogik-psixologik mexanizmlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik mexanizmlar

- **maqсадga yo‘naltirilganlik:** ta’lim-tarbiya jarayonini davlat standartlari asosida rejalashtirish va har bir bolaning rivojlanish trayektoriyasini belgilash.
- **Innovatsion yondashuv:** boshqaruvga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni (masalan, STEAM, Montessori) integratsiya qilish.
- **monitoring va tahlil:** pedagoglar faoliyati va bolalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini doimiy tahlil qilib borish orqali sifatni nazorat qilish.
- **kadrlar salohiyatini oshirish:** tarbiyachilarning kasbiy mahoratini doimiy rivojlantirish uchun metodik muhit yaratish.

2. Psixologik mexanizmlar

- ✚ **ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit:** jamoada o‘zaro ishonch, hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirish. Bu xodimlarning ish samaradorligini oshiradi.
- ✚ **motivatsiya tizimi:** xodimlarni nafaqat moddiy, balki ma’naviy rag’batlantirish (e’tirof etish, o‘zini namoyon qilishga imkon berish).
- ✚ **boshqaruv uslubi:** rahbarning demokratik boshqaruv uslubiga tayanishi, ya’ni qaror qabul qilishda jamoa fikrini inobatga olishi.
- ✚ **konfliktlarni boshqarish:** jamodagi nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish va stressga chidamlilikni ta’minlash.

3. Tashkiliy-kommunikativ mexanizmlar

- **muloqot madaniyati:** rahbar, tarbiyachi, bola va ota-ona o‘rtasidagi sog‘lom muloqot zanjirini yaratish.



○ **hamkorlik (Fasilitatsiya):** ota-onalarni ta’lim jarayoniga faol jalb etish va ularni MTTning teng huquqli hamkoriga aylantirish.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish pedagogik va psixologik mexanizmlarning uyg’unlashuvi orqali amalga oshiriladi. Rahbar shaxsining kasbiy kompetensiyasi, motivatsiya, hamkorlik va nazorat tizimining to’g’ri yo’lga qo’yilishi ta’lim sifati va tarbiya samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish samaradorligi, eng avvalo, rahbarning kasbiy salohiyati, ma’naviy yetukligi va boshqaruv odobiga bog’liqdir. Rahbar o’z faoliyatida insoniy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, mas’uliyat va halollik tamoyillariga tayangan holda jamoani boshqarishi lozim. U pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo’lishi, xodimlar bilan o’zaro hurmat va ishonch asosida munosabat o’rnatishi zarur. Shuningdek, boshqaruv jarayonida milliy va xorijiy ilg’or tajribalarni uyg’unlashtirish, zamonaviy menejment tamoyillarini tatbiq etish orqali maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017-yil PF-5198-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2018-yildagi PQ-3955-son qarori.
3. Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям / В.А. Сухомлинский. - Мн.: Нар.асвета, 1981. - 288 с.
4. Abdieva F. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif 2022: 8.2 | issn: 2181-3337.
5. Sodiqova SH.A. “Umumiy pedagogika”, “Tafakkur sarchashmalari” -T.: 2013 y.
6. O.H.Olimjonova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tuzilmaviy boshqaruv usullari” NamDPI “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnal 6-son 2025-yil 376-382.
7. Shodiyeva D. “Rahbarlik madaniyati va boshqaruv etikasining pedagogik asoslari.” - Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti, 2020.
8. G’ulomova M. “Rahbar shaxsining psixologik portreti va boshqaruvda inson omili.” - Pedagogika va psixologiya jurnali, No2, 2021.
9. Abdullayeva N. “Ta’lim menejmenti.”-Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
10. Salye G. “Boshqaruv psixologiyasi.”-Moskva: Ekonomika, 2006. (rus tilidan tarjima).



Xolboyeva Gulnora Ulashovna
TerDPI katta o‘qituvchisi, PhD

UDK:373.292

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB TA’LIMIGA KOMPLEKS TAYYORGARLIGI IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga kompleks tayyorlash masalasi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy-emosional va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashning nazariy asoslari ochib beriladi. Shuningdek, oila, maktabgacha ta’lim muassasasi va jamiyatning hamkorligi orqali bolalarning maktabga moslashuvini samarali tashkil etish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Maqola maktab ta’limiga muvaffaqiyatli tayyorgarlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabga tayyorlov guruhi, maktab ta’limiga tayyorgarlik, kompleks rivojlanish, ijtimoiy-pedagogik muammo, maktabga moslashuv, bolalar rivoji, ta’lim jarayoni, pedagogik hamkorlik, o‘quv motivatsiyasi.

Xolбоева Гулнора Улашовна,
старший преподаватель ТерДПИ, PhD

КОМПЛЕКСНАЯ ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ К ШКОЛЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В данной статье анализируется вопрос комплексной подготовки детей подготовительной группы к школьному образованию как социально-педагогическая проблема. Исследование раскрывает теоретические основы обеспечения физического, умственного, социально-эмоционального и духовного развития детей. Также показаны пути эффективной организации адаптации детей к школе посредством сотрудничества семьи, дошкольного образовательного учреждения и общества. Цель статьи – выявление педагогических условий, способствующих успешной подготовке к школьному образованию.

Ключевые слова: Подготовительная группа, подготовка к школьному образованию, всестороннее развитие, социально-педагогические проблемы, адаптация к школе, развитие ребенка, образовательный процесс, педагогическое сотрудничество, мотивация к обучению.



Kholboyeva Gulnora Ulashovna,
senior teacher of TerDPI, PhD

COMPLEX PREPARATION OF CHILDREN OF THE SCHOOL PREPARATION GROUP FOR SCHOOL EDUCATION AS A SOCIAL- PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. This article analyzes the issue of comprehensive preparation of children in the preparatory group for school education as a socio-pedagogical problem. The study reveals the theoretical foundations for ensuring the physical, intellectual, socio-emotional, and spiritual development of children. It also highlights effective ways to organize children’s adaptation to school through the cooperation of the family, preschool educational institution, and society. The aim of the article is to identify pedagogical conditions that contribute to successful preparation for school education.

Key words: preparatory group, preparation for school education, holistic development, socio-pedagogical problems, school adaptation, child development, educational process, pedagogical cooperation, learning motivation.

Kirish

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash masalasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning maktab ta’limiga kompleks tayyorgarligini ta’minlash ta’lim tizimining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Kompleks tayyorgarlik deganda bolalarning nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallashi, balki ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy-emosional va ma’naviy rivojlanganligi ham tushuniladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari o‘qish jarayoniga moslashishda o‘zini erkin tutishi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qila olishi, mustaqil fikrlashi hamda o‘z xatti-harakatlarini boshqara bilishi zarur.

Mazkur muammo ijtimoiy-pedagogik xususiyatga ega bo‘lib, unda oila, maktabgacha ta’lim muassasasi va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalarning tarbiyaviy mas’uliyati, tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi hamda ta’lim muassasasida yaratilgan rivojlantiruvchi muhit bolalarning maktabga tayyorgarligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, bolalarda o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularning o‘quv faoliyatiga qiziqishini oshirish ham kompleks tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aks holda, bolalar maktab muhitiga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi, bu esa ularning o‘quv motivatsiyasi va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ta’lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta’minotning mavjudligini ko‘zda tutadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim



tashkilotlari o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlili qilish va umumlashtirish hamda pedagogik-psixologik fanlarning yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312-sonli qarori maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ- huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart- sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat xususiy- sherikchiligini rivojlantirish, maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish shaffofligini va samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimiga boshqaruv kompetensiyalariga ega rahbarlarni jalb etish kabi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Tadqiqotchi M.A'zamova o'zining ilmiy izlanishlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar orasida hamkorlik muhitini vujudga keltirish – ularning maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirishdagi muhim shart-sharoitlardan biridir deya ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha – deydi tadqiqotchi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida bolalarni hamkorlikka asoslangan faoliyatga tayyorlash ular uchun qiziqarli va rivojlantiruvchi ish shakli bo'lishi bilan bir qatorda boshlang'ich ta'lim jarayonida ularning murakkabroq o'quv materiallarini birgalikda o'zlashtirishlariga zamin hozirlaydi.

Ilmiy-pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi: bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich sinflarda hamjihatlikda mustaqil ishlashga tayyorlash; bolalarda hamkorlikda mustaqil mehnat qilish madaniyati elementlarini tarkib toptirish; bolalarning ijodiy layoqatlarini rivojlantirish; bolalarda muayyan sohalarga nisbatan qiziqish va jamiyat a'zolari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishning muhimligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; bolalarda tahliliy tafakkurni tarkib toptirish kabilar.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi



Tadqiq etilayotgan muammoning nazariy-amaliy tahlili asosida, tadqiqotchi, o'rganilayotgan muammolar orasida quyidagi qator pedagogik ziddiyatlar mavjudligini ko'rsatadi: gumanitar ta'lim-tarbiya nazariyasining yetarli darajada ishlanganligi bilan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya paradigmasiga o'tish konsepsiyasi hamda bolalar intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish metodikasining yetarlicha tadqiq etilmaganligi; bolalarning o'z intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ehtiyojining qo'llab-quvvatlanishi va qondirilishi bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va pedagogik jamoatchilikning bu jarayonga tayyor emasligi; jamiyatda bola shaxsi, undagi intellektual imkoniyatlarning oliy qadriyat sifatida e'zozlanishi bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida qo'llab-quvvatlanishlari va himoyalashlarining mavjud ahvoli; bola shaxsining ob'ektiv ehtiyojlari bilan ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish va intellektual quvvatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari; bolalarning individualliklarini qo'llab-quvvatlash va himoyalash ehtiyoji bilan dialog vositasida bu ehtiyojlarni qondirish jarayoni; ta'lim jarayonining yuqori malakali tarbiyachilar va pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyoji bilan mutaxassislarning fuqarolik, shaxsiy ko'nikmalari, pedagogik faoliyatga tayyorliklari orasida nomutanosibliklar.

Tahlillar va natijalar

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin bo'ladi: maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim mazmuni va sifatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, uni ta'lim xizmatlari iste'molchilarining (ota-onalar, bolalar) talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda uzluksiz takomillashtirib borish – bolalarni sifatli maktabgacha ta'limga bo'lgan talablarini qondirishdagi muhim omil sanaladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim sifatini ortishi bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rsatkichlarining samaradorligini ortishiga olib keluvchi sinergetik aloqadorlikni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim - bolalarni maktabga tayyorlash vositasi sifatida emas, aksincha yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida shakllantirishning muhim bosqichi sifatida belgilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash masalasi keng ko'lamlı ijtimoiy-pedagogik muammo bo'lib, uni samarali hal etish ta'lim tizimi barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni murakkab va tizimli jarayon sanalib, uning samaradorligi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayon samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda baholanadi. Xususan maktabga tayyorlov guruhining bolalari muayyan pedagogik va psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning ta'lim jarayonini tashkil etishda e'tiborga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldosheva Z. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.



2. Qosimova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. G’ulomova Sh. Bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
4. Vigotskiy L.S. Maktabgacha yosh psixologiyasi. – Moskva, 1934.
5. Davydov V.V. Razvivayushchee obuchenie. – Moskva, 1996.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi”. – Toshkent, 2019.



*Raxmonova Sojida Muxammadovna
Buxarский государственный педагогический институт
преподаватель кафедры дошкольного образования*

UDK:373.211.24

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ ДОШКОЛЬНИКОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье рассматриваются цель, дидактические возможности, основные компоненты, правила и принципы, стратегические задачи методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности, профессиональные качества будущих педагогов, а также разработка более активных форм, методов и средств обучения для повышения качества системы дошкольного образования посредством подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: личность, инновационная деятельность, потенциал, образовательная деятельность, профессиональная компетентность, профессиональная деятельность, принцип, стратегические задачи, комплексный подход, творческий поиск, компетентность, способность, активность, инклюзивная среда, коммуникация, умения.

*Raxmonova Sojida Muxammadovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning maqsadi, didaktik imkoniyatlari, talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining asosiy komponentlar, qoida va tamoillar, strategik vazifalari, bo'lajak pedagolarning kasbiy sifatlari hamda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlanish orqali maktabgacha ta'lim tizimining sifatini oshirish, o'qitishning yanada faol shakllari, metodlari va vositalari ishlab chiqilishi ushbu maqolada bayon etilgan.



Kalit soʻzlar: shaxs, innovatsion faoliyat, salohiyat, taʼlimiy faoliyat, kasbiy kompetensiya, kasbiy faoliyat, tamoyili, strategik vazifalar, kompleks yondashuv, ijodiy izlanuvchanlik, kompetentlik, qobiliyat, faollik, inklyuziv muhit, muloqot, mahorat.

*Rakhmonova Sojida Mukhammadovna
Bukhara State Pedagogical Institute
Lecturer of the Department of Preschool Education*

DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING PRESCHOOL EDUCATION STUDENTS FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY

Abstract. This article discusses the purpose and didactic opportunities of improving the methodology for preparing students of the preschool education program for innovative professional activity. It reveals the main components, rules, and principles of the methodology for preparing students for innovative professional activity, its strategic objectives, and the professional qualities of future educators. The article also emphasizes improving the quality of the preschool education system through preparing students for innovative professional activity, as well as developing more active forms, methods, and tools of teaching.

Key words: personality, innovative activity, potential, educational activity, professional competence, professional activity, principles, strategic objectives, integrated approach, creative inquiry, competency, ability, activeness, inclusive environment, communication, professional mastery.

Введение и актуальность исследования

Если обратить внимание на современное состояние методики подготовки дошкольников к профессиональной деятельности, то в нашей стране созданы большие возможности и условия для качественного образования учащихся, созданы современные образовательные учреждения, отвечающие инновационным требованиям, подготовлены классы с инклюзивной средой, используются новые подходы к образовательным процессам, разрабатываются более активные формы обучения, инновационные методы и средства.

Современная ситуация в области методики подготовки дошкольников к профессиональной деятельности последовательно улучшается в связи с изменением системы образования и новыми педагогическими подходами. Реформы и педагогические инновации, реализуемые в системе дошкольного образования нашей республики, способствуют развитию современных методик обучения и совершенствованию процесса обучения.

Литературный обзор



Постановление Президента Республики Узбекистан от 21 июня 2022 года №ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений, готовящих педагогические кадры» направлено на системное развитие высших образовательных учреждений, готовящих педагогические кадры, и совершенствование их управленческой деятельности, разработку современных образовательных программ с внедрением передового зарубежного опыта, вывод подготовки высококвалифицированных профессиональных кадров на новый уровень, а также обеспечение гармоничного взаимодействия образования, науки и практики в области педагогики. В целях обеспечения реализации настоящего постановления, в соответствии со вторым пунктом, Министерству высшего образования, науки и Министерству инноваций, Министерству дошкольного и школьного образования в целях повышения качества образования в высших учебных заведениях, готовящих педагогические кадры, до 1 сентября 2022 года совместно с зарубежными экспертами пересмотреть образовательные программы высших учебных заведений, готовящих педагогические кадры, и привести их в соответствие с требованиями Национальной рамки квалификаций, Международной стандартной классификации образования (ИСКО-2011) и международных программ оценки (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS), скоординировать между собой их учебные планы и образовательные программы в целях установления академической мобильности между высшими учебными заведениями, готовящими педагогические кадры, а с 2022-2023 учебного года для студентов 2-4 курсов очной формы обучения в высших учебных заведениях, готовящих педагогические кадры, еженедельно будут проводиться учебные занятия в формате «4+2», включающие 4 дня занятий в высшем учебном заведении, 2 дня в дошкольных и общеобразовательных учреждениях. Разъясняется, что необходимо обеспечить чтобы стажировки проводились на систематической основе в средних учебных заведениях.

Объект исследования и методология

В настоящее время образовательный процесс в высших учебных заведениях осуществляется в формате «4+2», то есть 4 дня занятий проводятся в высшем учебном заведении и 2 дня – в дошкольных и средних общеобразовательных учреждениях, что позволяет студентам применять теоретические знания на практике и служит важной основой для подготовки будущих педагогов к инновационной профессиональной деятельности.

Основные компоненты методики подготовки студентов в сфере дошкольного образования к инновационной профессиональной деятельности предполагают организацию педагогического процесса на основе современных методов, требований и инновационных подходов. Методика подготовки студентов к инновационной профессиональной деятельности знакомит их с новыми методами, наиболее эффективными технологиями и педагогическими подходами в сфере дошкольного образования, способствует эффективному предоставлению студентам передовых знаний и



формированию навыков практического применения инновационных технологий. Основными компонентами методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности являются следующие компоненты (см. Таблицу 1).

Таблица 1

Основные компоненты методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности

№	Компоненты	Содержание компонентов
1.	Изучение инновационных педагогических технологий	Инновации в дошкольном образовании, изучение новых педагогических технологий и методов являются важной составляющей для студентов. Это, в свою очередь, включает такие методы, как интерактивное обучение, изменение учебного процесса, организация индивидуальной и групповой деятельности. Студенты учатся знакомить детей с новыми технологиями и применять инновационные педагогические подходы на практике
2.	Развитие творческого подхода	Развитие творческих способностей играет важную роль в дошкольном образовании. Воспитанники учатся применять творческие подходы в работе с детьми, генерировать новые идеи и проекты, а также развивать у детей навыки инновационного и критического мышления
3.	Интеграция информационных и коммуникационных технологий (ИКТ)	Использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) имеет важное значение в современном дошкольном образовании. Воспитанники приобретают навыки использования интернет-ресурсов, электронных обучающих платформ и других интерактивных средств в педагогическом процессе. Этот компонент обучает широкому использованию интерактивных образовательных материалов, мультимедиа, видеоматериалов и других средств обучения в работе с детьми
4.	Индивидуальный подход, основанный на детской психологии	Студенты должны углубленно изучать детскую психологию и разрабатывать индивидуальный педагогический подход к каждому ребенку. Очень важно учитывать различия между детьми, их интересы, потребности и возможности. Этот компонент готовит студентов к индивидуальной работе с детьми
5.	Повышение инновационной активности детей	Важно повышать активность детей и активно вовлекать их в процесс обучения. Учащиеся учатся мотивировать детей к управлению собственной деятельностью и освоению новых знаний посредством интерактивных занятий, ролевых игр, проектов и групповой работы с детьми
6.	Организация образования на основе интегративного подхода	При подготовке к инновационной профессиональной деятельности важно сочетать различные направления дошкольного образования, то есть интегрировать педагогику, психологию, искусство, музыку и т. д. Такой подход предполагает формирование у обучающихся широких знаний и умений по всем направлениям



7.	Этика и моральные ценности в дошкольном образовании	Важно, чтобы студент не только передавал знания детям, но и знал моральные нормы, ответственность и этические принципы в работе с ними. Этот компонент учит студентов быть ответственными, искренними и справедливыми по отношению к детям
8.	Педагогическое и социальное сотрудничество	Студенты научатся взаимодействовать с педагогическим коллективом, родителями и местным сообществом, используя инновационный подход. Этот компонент направлен на укрепление сотрудничества в сфере образования детей и вовлечение всех участников образовательного процесса

Эти компоненты, представленные в таблице выше, определяют основные подходы к подготовке дошкольников к инновационной профессиональной деятельности. Студенты учатся применять полученные знания на практике, развивают навыки эффективного внедрения современных педагогических методов и инновационных технологий в систему дошкольного образования.

Анализ и результаты

Целью совершенствования методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности является развитие у них навыков инновационного и творческого мышления, освоение методик и их практическое применение. Кроме того, благодаря совершенствованию методики студенты приобретут следующие профессиональные качества (см. рисунок 1).




Рисунок 1. Профессиональные качества будущих учителей



Формирование этих профессиональных качеств у дошкольников служит основой повышения качества системы дошкольного образования.

Принципы совершенствования методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности являются основными направлениями и стандартами обеспечения эффективности и результативности образовательного процесса. Принцип – это общий принцип или правило, на основе которого осуществляется управление и реализация любой деятельности или процесса. Следуя этим правилам и принципам, учащиеся не только приобретают теоретические знания, но и развивают навыки инновационного и творческого мышления. Правила и принципы совершенствования методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности представлены ниже (см. таблицу 2).

Таблица 2

Правила и принципы совершенствования методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности

	Правила и принципы совершенствования методологии	Суть правил и принципов совершенствования методологии
1	Правила и принципы с индивидуальным подходом	<ul style="list-style-type: none">➤ Индивидуальный подход к каждому студенту в соответствии с его профессиональными способностями, интересами и потребностями.➤ Помогите учащимся освоить процесс обучения, принимая во внимание их способности, методы обучения и скорость обучения.➤ При использовании инновационных методов учитывать индивидуальные особенности каждого учащегося и разрабатывать образовательные стратегии, отвечающие их разнообразным потребностям.
2	Правила и принципы интеграции	<ul style="list-style-type: none">➤ Все аспекты обучения в дошкольном образовании должны быть интегрированы между собой: педагогика, психология, методика, технология и другие дисциплины.
3	Принцип систематизации и последовательности	<ul style="list-style-type: none">➤ Образовательный процесс должен быть систематическим и последовательным. Изучаемые темы должны быть логически взаимосвязаны и дополнять друг друга в рамках учебной программы.➤ Инновационные методы и подходы должны быть представлены последовательно и согласованно, а студенты должны иметь возможность интегрировать их друг с другом на практике.
4	Правила и принципы активного и интерактивного обучения	<ul style="list-style-type: none">➤ В процессе обучения студенты должны не просто пассивно воспринимать информацию, а активно участвовать в процессе обучения.➤ Использование интерактивных методов, поощрение студентов к выражению своего мнения, участию в групповой работе и разработке новых идей. Эти методы создают мотивацию у студентов и



		готовят их к инновационной деятельности.
5	Принцип личностного развития	<ul style="list-style-type: none">➤ Уделять большое внимание личностному развитию каждого ученика, развивая его творческие и инновационные навыки мышления.➤ Поощрять учеников генерировать новые идеи, выражать свои мысли и применять существующие методы инновационным образом.➤ Помогать ученикам развиваться как личностям посредством самовыражения, решения проблем и внедрения инноваций в процесс обучения.
6	Принцип экспериментального подхода	<ul style="list-style-type: none">➤ Студенты должны приобретать опытно-практический подход к подготовке к инновационной профессиональной деятельности.➤ Студенты должны иметь возможность эффективно апробировать новые педагогические технологии в ходе прохождения практики в дошкольных образовательных организациях.
7	Принцип творчества и свободного мышления	<ul style="list-style-type: none">➤ Развивать инновационное и творческое мышление студентов, учить их использовать новые подходы в процессе обучения.➤ Использовать оригинальные, творческие подходы в работе с детьми, принимать инновации и внедрять их в профессиональную деятельность.
8	Правила и принципы эффективности и результативности	<ul style="list-style-type: none">➤ Образовательный процесс должен быть ориентирован на результат. Обучающиеся должны достигать конкретных результатов, чтобы быть готовыми к эффективной и инновационной профессиональной деятельности.➤ Каждый образовательный процесс должен способствовать дальнейшему развитию профессиональных компетенций обучающихся, внедрению новых подходов и обеспечению качественных результатов в сфере дошкольного образования.
9	Постоянные обновления и изменения правил и принципов	<ul style="list-style-type: none">➤ Постоянно совершенствовать образовательные методики в дошкольном образовании, адаптировать их к меняющимся требованиям и условиям образования.➤ Поиск новых педагогических технологий и их применение в образовательном процессе для внедрения инновационных подходов, совершенствования образовательных методик.
10	Правила и принципы использования инновационного международного опыта и практик	<ul style="list-style-type: none">➤ Изучение передового международного опыта и инновационных методик в сфере дошкольного образования, их адаптация к местной системе образования и внедрение.➤ Поиск передовых педагогических технологий со всего мира и их применение в системе образования.



Исходя из правил и принципов, изложенных в таблице выше, разработка эффективных методик подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности, их внедрение в практику и использование передовых педагогических технологий послужат методологической основой для эффективного, мотивированного и творческого осуществления образовательного процесса для обучающихся, в зависимости от содержания дидактического процесса.

Дидактический процесс является одним из основных компонентов образования и представляет собой процесс формирования знаний и умений обучающихся, их обучения с использованием образовательных средств, ориентированных на конкретные цели, и включает в себя все виды деятельности, способствующие приобретению учащимися знаний, умений и навыков, а также повышению квалификации. Содержание и структура дидактического процесса служат важным фактором организации образовательного процесса.

Интерактивное общение педагога и учащихся имеет большое значение в реализации дидактических возможностей подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности. Роль педагога не ограничивается предоставлением информации, он направляет деятельность учащихся, вдохновляет их, способствует повышению их интереса к учебе, даёт советы и рекомендации, обменивается идеями. Он также способствует развитию коммуникативных компетенций учащихся, развивая такие навыки, как свободное высказывание, слушание, инициативность, а также обмениваясь идеями.

Заключение

Дидактические возможности позволяют учащимся постоянно генерировать новые идеи, решать проблемы, устанавливать прочные отношения между учителем и учеником, а также развиваться, что служит подготовкой их к инновационной профессиональной деятельности. Дидактические возможности включают в себя практические аспекты обучения. Использование практико-ориентированного подхода в подготовке дошкольников к инновационной профессиональной деятельности имеет большое значение, поскольку учащиеся получают более обширные знания через практическую деятельность, различные процессы и ситуации в процессе усвоения знаний. Практические занятия помогают учащимся проверить полученные знания в реальных условиях и усовершенствовать свои знания. Важным этапом для учащихся в подготовке к профессиональной деятельности является приобретение практических навыков и опыта, работа с детьми, практическое применение инновационных педагогических подходов.

Дидактические возможности совершенствования методики подготовки дошкольников к инновационной профессиональной деятельности важны для повышения качества образовательного процесса, развития творческого мышления обучающихся и их подготовки к практической деятельности. Современные методы обучения, дидактические средства и интерактивное



общение способствуют повышению эффективности образовательного процесса и расширению возможностей обучающихся.

Список использованной литературы:

- 1. Мигранова Е.А., Позлова Ш.Х. Введение в профессиональную педагогическую деятельность: Учебное пособие. – Ташкент: «Тафаккур бустони», 2018. – 200 стр.
- 2. Ходжаев Б.Х. Теория и практика общей педагогики: Учебник. – Ташкент: Издательство «Сано-стандарт», 2017. – 416 стр.
- 3. Халиков А.А. Педагогическое мастерство: Учебник. Министерство высшего и среднего специального образования. – Ташкент: «Иқтисод-молия», 2011. – 420 стр.
- 4. Ниязов Г., Ахмедова М.Э. Семинарские занятия по истории педагогики: Учебное пособие. – Ташкент: «Нашир», 2011. – 140 стр.
- 5. Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Инновационные педагогические технологии в обучении и воспитании: Учебное пособие. – Ташкент, 2013. – 279 стр.
- 6. Жураев А.Р., Махсудова М.Д. Педагогические основы обеспечения непрерывности при обучении предмету технологии // Проблемы педагогики. Научно-методический журнал. – №3 (35), 2018. – Москва, Россия. – С. 25–27.
- 7. Жураев А.Р., Бахранова У.И. Использование задач и понятий, относящихся к геометрическим фигурам, для интегрированного обучения трудовому обучению и геометрии // Достижения науки и образования. Научно-методический журнал. – №7 (8), 2016. – Москва, Россия. – С. 83–85.
- 8. Рахмонова С. Практические особенности подготовки студентов начального образования к профессиональной деятельности // Science and innovation in the education system, 2023.
- 9. Рахмонова С.М., Муртазоева Д.М. Инновационная профессиональная деятельность педагога и её особенности в образовательном процессе // Science and Education, 2023.
- 10. Рахмонова Сожида Мухаммадовна. Подготовка магистрантов начального образования к инновационной профессиональной деятельности // Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), ISSN 2776-0979.



- 11. Рахмонова С.М., Хикматова Ш. Развитие профессиональной компетентности будущего педагога при организации педагогической деятельности // Science and Education, 2023. – С. 634–638.
- 12. Рахмонова Р.С. Формирование учебно-воспитательного процесса в дошкольном образовании на основе компетентностного подхода // Наука и технологии, 2024.
- 13. Рахмонова Р.С. Дидактические возможности совершенствования методики подготовки будущих студентов начального образования к инновационной профессиональной деятельности // Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2024.
- 14. Рахмонова С. Педагогические способности будущего учителя и гармония профессиональных и личностных качеств // Theoretical aspects in the formation of pedagogical, 2024.

Qilichova Marxabo Xudoyqulovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
dotsenti v.b., PhD

Abdusalamova Zumrad Hasan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistri

UDK: 373.211.24

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA STEAM TA’LIM TEKNOLOGIYASI ORQALI TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’limning eng istiqbolli yo’nalishlaridan biri bo’lgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyasini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo’llash masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy e’tibori tasviriy faoliyat mashg’ulotlarini tashkil etishda fanlararo integratsiyani ta’minlashga qaratilgan. Maqolada tasviriy san’atning shunchaki estetik tarbiya vositasi emas, balki bolalarda mantiqiy fikrlash, muhandislik ko’nikmalari va tabiiy jarayonlarni tushunishga xizmat qiluvchi mexanizm ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Muallif tomonidan o’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, STEAM yondashuvi bolalarning ijodiy mahsulot yaratish jarayonida matematik hisob-kitoblar, ranglar fizikasi va konstruktorlik elementlaridan ongli ravishda foydalanishiga zamin yaratadi. Maqolada noan’anaviy rasm chizish texnikalari va loyihalash ishlarini STEAM komponentlari bilan bog’lash metodikasi ishlab chiqilgan. Natijada, bolalarning kognitiv rivojlanishi va muammoli vaziyatlarda kreativ yechim topish koeffitsienti sezilarli darajada oshishi isbotlangan. Mazkur ish maktabgacha ta’lim metodistlari va tarbiyachilari uchun amaliy qo’llanma bo’lib xizmat qilishi mumkin.



Kalit soʻzlar: STEAM taʼlimi, maktabgacha taʼlim, tasviriy faoliyat, integratsiya, kreativ fikrlash, muhandislik dizayni, kognitiv rivojlanish, innovatsion texnologiyalar.

Киличова Мархабо Худойкуловна
Джизакский государственный педагогический университет
доцент, PhD

Абдусаламова Зумрад Хасан кизи
Джизакский государственный педагогический университет, магистрант
1 курса

ТЕОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы внедрения технологии STEAM (наука, технология, инженерия, искусство, математика) в образовательный процесс дошкольных учреждений, что является одним из наиболее перспективных направлений в современной педагогике. Основное внимание уделяется обеспечению междисциплинарной интеграции при организации занятий по изобразительной деятельности. В статье научно обосновано, что изобразительное искусство является не просто средством эстетического воспитания, а механизмом, способствующим развитию логического мышления, инженерных навыков и пониманию природных процессов у детей. Анализ, проведенный автором, показывает, что подход STEAM создает основу для осознанного использования детьми математических вычислений, физики цвета и элементов конструирования в процессе создания творческого продукта. В работе разработана методика связи нетрадиционных техник рисования и проектной деятельности с компонентами STEAM. В результате доказано, что когнитивное развитие детей и коэффициент поиска креативных решений в проблемных ситуациях значительно повышаются. Данная работа может служить практическим пособием для методистов и воспитателей дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: STEAM-образование, дошкольное образование, изобразительная деятельность, интеграция, креативное мышление, инженерный дизайн, когнитивное развитие, инновационные технологии.

Qilichova Marxabo Khudoyqulovna
Jizzakh State Pedagogical University
Associate Professor, PhD

Abdusalamova Zumrad Hasan qizi
Jizzakh State Pedagogical University, 1st-year Master's student



THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND TRAINING

Abstract. This article examines the implementation of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) technology in preschool educational organizations, which is one of the most promising areas in modern education. The primary focus of the research is on ensuring interdisciplinary integration in the organization of visual art activities. The article scientifically proves that visual activity is not merely a tool for aesthetic education, but a mechanism that serves to develop logical thinking, engineering skills, and an understanding of natural processes in children. The analysis conducted by the author demonstrates that the STEAM approach creates a foundation for children to consciously use mathematical calculations, color physics, and construction elements during the process of creating a creative product. The paper develops a methodology for linking non-traditional drawing techniques and project-based work with STEAM components. As a result, it is proven that children’s cognitive development and the coefficient of finding creative solutions in problem situations significantly increase. This work can serve as a practical guide for methodologists and educators of preschool educational institutions aiming to modernize their curriculum according to international standards.

Key words: STEAM education, preschool education, visual activity, integration, creative thinking, engineering design, cognitive development, innovative technologies.

Kirish

XXI asr axborot va yuqori texnologiyalar asri bo‘lib, ta‘lim tizimi oldiga nafaqat bilimli, balki kreativ va tanqidiy fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Maktabgacha ta‘lim yoshi inson hayotidagi eng muhim davr bo‘lib, aynan shu bosqichda bolaning kognitiv funksiyalari va dunyoqarashi shakllanadi. Bugungi kunda jahon ta‘lim tajribasida keng qo‘llanilayotgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyasi an‘anaviy ta‘lim metodlaridan farqli o‘laroq, fanni amaliyot va ijod bilan integratsiyalashni ko‘zda tutadi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari (rasm chizish, loyihalash, applikatsiya) esa STEAM komponentlarini birlashtirish uchun eng qulay maydon hisoblanadi.

Ko‘p yillar davomida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat faqatgina estetik zavq olish yoki nusxa ko‘chirish (tayyor namunaga qarab chizish) asosida tashkil etib kelindi. Bu yondashuv bolalarning mantiqiy va muhandislik salohiyatini cheklab qo‘yadi. Zamonaviy ta‘limda esa "San‘at" (Arts) komponenti orqali bolaga tabiat qonuniyatlarini, matematik o‘lchovlarni va texnologik jarayonlarni tushuntirish zarurati tug‘ilmoqda. Masalan, bola kamalak rasmini chizayotganda nafaqat ranglarni tanlashi, balki yorug‘likning sinishi (Science) haqida ham boshlang‘ich tushunchaga ega bo‘lishi lozim.

STEAM ta‘limining nazariy asoslari xorijiy olimlar (yakman, J. Maeda) tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, uni aynan tasviriy faoliyat orqali integratsiyalash masalalari milliy metodikada hali yetarlicha chuqur



o‘rganilmagan. O‘zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari"da ham bolalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ta‘kidlangan. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga, ya‘ni tasviriy faoliyatni fanlararo ko‘prikka aylantirish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini STEAM texnologiyasi asosida tashkil etishning samarali usullarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. STEAM yondashuvining tasviriy faoliyatdagi o‘rnini nazariy jihatdan tahlil qilish;
2. Tasviriy san‘at mashg‘ulotlariga muhandislik va matematik elementlarni kiritish shakllarini belgilash;
3. Tashkil etilgan yangicha yondashuvning bolalar intellektual rivojlanishiga ta‘sirini tajribada sinab ko‘rish.

Metodlar

Ushbu tadqiqot maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida (MTT) tasviriy faoliyatni STEAM yondashuvi asosida tashkil etishning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodlar yordamida olib borildi. Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlarni va metodologik vositalarni qamrab oldi:

2.1. Tadqiqot obyekti va tanlanmasi. Tadqiqot jarayoni [Shahar/Tuman nomi]dagi [Raqami] -sonli davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotining tayyorlov guruhi (6-7 yoshli bolalar) bazasida o‘tkazildi. Eksperimentda jami 40 nafar tarbiyalanuvchi ishtirok etdi. Ular ikki guruhga ajratildi:

- **Nazorat guruhi (20 nafar):** Mashg‘ulotlar an‘anaviy metodika (namunaga qarab chizish va yasash) asosida olib borildi.
- **Tajriba guruhi (20 nafar):** Mashg‘ulotlar tasviriy faoliyatga STEAM komponentlari (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) integratsiya qilingan holda tashkil etildi.

2.2. Empirik metodlar: STEAM loyihalarini tatbiq etish. Tajriba guruhida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari quyidagi beshta modul asosida modifikatsiya qilindi:

1. **Science (Fan):** Bo‘yoqlarni aralashtirish jarayonida "ranglar diffuziyasi" tajribalari o‘tkazildi. Bolalar faqat rasm chizibgina qolmay, suyuqliklarning bir-biriga ta‘siri va yangi rang hosil bo‘lish fizikasi bilan tanishdilar.
2. **Technology (Texnologiya):** Tasviriy san‘atda raqamli vositalar va noan‘anaviy materiallar (pipetkalar, magnitlar, shprintsar) yordamida kompozitsiya yaratish texnikasi o‘rgatildi.
3. **Engineering (Muhandislik):** "Kelajak shahri" loyihasi doirasida bolalar qog‘oz va konstruksiya elementlaridan foydalanib, binolarning barqarorligini hisobga olgan holda 3D maketlar yaratdilar.
4. **Arts (San‘at):** Estetik didni shakllantirish bilan birga, dizayn va vizual simmetriya qoidalariga urg‘u berildi.
5. **Mathematics (Matematika):** Geometrik shakllar, proportsiya, masshtab va simmetriya tushunchalari tasviriy san‘at bilan uyg‘unlashtirildi.



2.3. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish vositalari. Bolalarning o'zlashtirish darajasini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

- Kreativlik koeffitsienti: (Torrens testi elementlari asosida).
- Muammoli vaziyatni yechish qobiliyati: Bolalarga "Agar bo'yog'imiz tugab qolsa va faqat sariq bilan ko'k bo'lsa, qanday qilib o'tning rangini chiqaramiz?" kabi muammoli vaziyatlar qo'yildi.
- Kognitiv faollik: Diqqat, xotira va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash bo'yicha pedagogik kuzatuv kartalari yuritildi.

2.4. Statistik tahlil. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilindi. Tadqiqot yakunida tajriba va nazorat guruhlaridagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqni aniqlash uchun matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Natijalar

O'tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM texnologiyasi asosida tashkil etilgan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarning nafaqat badiiy-estetik qobiliyatlarini, balki kognitiv va muhandislik tafakkurini ham sezilarli darajada oshirdi.

3.1. Miqdoriy ko'rsatkichlar tahlili. Tadqiqot yakunida tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasidagi farq quyidagi mezonlar asosida baholandi (10 ballik tizimda):

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi (O'rtacha ball)	Tajriba guruhi (O'rtacha ball)	O'sish ko'rsatkichi (%)
Kreativlik va originallik	6.2	8.9	+43.5%
Muammoli vaziyatga yechim topish	5.1	8.5	+66.6%
Fanlararo bog'liqlikni tushunish	4.8	8.2	+70.8%
Konstruktorlik ko'nikmalari	5.5	8.7	+58.1%

3.2. Sifat o'zgarishlari. Tajriba guruhidagi bolalarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

1. Tabiiy-ilmiy tushunchalar: Bolalar bo'yoqlarni aralashtirish (masalan, ko'k va sariq rangdan yashil hosil qilish) jarayonini shunchaki mexanik harakat emas, balki "ranglar sintezi" sifatida tushunib yetdilar.
2. Muhandislik va dizayn: Konstruksiyalash mashg'ulotlarida bolalar binoning balandligini uning poydevori kengligi bilan bog'liqligini (muvozanat qonuni) amaliy tushuna boshladilar.
3. Matematik kompetensiyalar: Tasviriy faoliyatda simmetriya, shakllar nisbati va proporsiya tushunchalari bolalar tomonidan real obyektlarni chizishda to'g'ri qo'llanila boshlandi.

3.3. Eksperimentning vizual natijalari. Tajriba guruhidagi bolalar tomonidan yaratilgan ishlar o'zining murakkabligi va mazmunan boyligi bilan ajralib turdi. Masalan, "Kosmos" mavzusidagi mashg'ulotda bolalar nafaqat sayyoralarni



chizishdi, balki ularning o‘lchamlarini matematik nisbatda (katta-kichikligiga ko‘ra) tasvirlashga harakat qildilar va turli teksturalardan foydalanib (Technology), sayyoralarining sirtini realistik aks ettirdilar.

Natijalar shuni tasdiqladiki, tasviriy faoliyatga STEAM komponentlarining kiritilishi bolaning intellektual salohiyatini ochishda "katalizator" vazifasini o‘taydi. Bu esa an’anaviy dars o‘tish metodikasidan voz kechib, integratsiyalashgan ta’limga o‘tish zaruriyatini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni STEAM texnologiyasi asosida tashkil etish ta’lim sifatini tubdan yaxshilash imkonini beradi. Ushbu natijalar bir necha muhim jihatlar orqali muhokama qilinishi lozim:

4.1. Fanlararo integratsiyaning samaradorligi. Tadqiqotimizda aniqlangan ko‘rsatkichlar (kreativlikning 43.5% ga oshishi) shuni tasdiqlaydiki, tasviriy san’at boshqa fanlar uchun "laboratoriya" vazifasini o‘taydi. Masalan, bola rasm chizish jarayonida ranglar fizikasini (Science) o‘rganishi, uning vizual xotirasini kuchaytiribgina qolmay, balki abstrakt tushunchalarni konkretlashtirishga yordam beradi. Bu xalqaro tadqiqotchi Yakmanning "STEAM ta’limida san’at barcha fanlarni bog‘lovchi kalitdir" degan nazariyasini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

4.2. Muammoli ta’lim va tanqidiy fikrlash. Natijalar bo‘limidagi "muammoli vaziyatga yechim topish" koeffitsientining yuqoriligi (8.5 ball) bolalarning an’anaviy "tayyor namuna" uslubidan voz kechganini ko‘rsatadi. Tajriba guruhida bolalar qog‘ozdan ko‘prik yasashda uning mustahkamligini (Engineering) o‘zlari sinab ko‘rdilar. Bu jarayonda san’at elementlari (dizayn va bezash) ularga estetik motivatsiya berdi. Demak, STEAM yondashuvi bolani "iste’molchi"dan "yaratuvchi" (maker) darajasiga olib chiqadi.

4.3. Milliy ta’lim standarti bilan muvofiqlik. O‘zbekistonning "Ilk qadam" davlat dasturida belgilangan kompetensiyalarni shakllantirishda STEAM komponentlari kutilganidan yuqori natija berdi. Ayniqsa, matematik tasavvurlarni (Mathematics) tasviriy faoliyat orqali berish, bolalarda son va shakl tushunchasini quruq yodlashdan qutqarib, ularni hayotiy tasavvurlar bilan boyitdi.

4.4. Cheklovlar va kutilmagan natijalar. Tadqiqot davomida ba’zi qiyinchiliklar ham ko‘zga tashlandi. Xususan, tarbiyachilarning texnologik va muhandislik tushunchalari bo‘yicha bilim darajasi yetarli emasligi mashg‘ulot sifatiga ta’sir qilishi mumkin. Bu esa kelajakda tarbiyachilarning STEAM malakasini oshirish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Ta’limiy samaradorlik: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni STEAM texnologiyasi asosida tashkil etish bolalarning bilish jarayonlarini (diqqat, xotira, tasavvur) an’anaviy metodikaga nisbatan 40-50% ga tezlashtiradi.
2. Kreativ yondashuv: STEAM yondashuvi bolani tayyor qoliplardan voz kechishga va muammoli vaziyatlarda o‘ziga xos, kreativ yechimlar topishga



o‘rgatadi. Tasviriy san‘at bu jarayonda bolaning g‘oyalarini vizuallashtiruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

3. Fanlararo bog‘liqlik: San‘atning fan, texnologiya va matematika bilan integratsiyasi bolada dunyo haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantiradi. Bu esa maktab ta‘limiga o‘tish davrida aniq fanlarni o‘zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

4. Tizimli yondashuv zaruriyati: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, STEAM metodikasini muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun MTTlarda moddiy-texnik bazani boyitish va pedagog xodimlarning ushbu yo‘nalishdagi kompetensiyalarini muntazam oshirib borish lozim.

Xulosa qilib aytganda, STEAM texnologiyasi orqali tasviriy faoliyatni tashkil etish – zamonaviy ta‘lim talablariga to‘liq javob beradigan, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlaydigan innovatsion pedagogik modeldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi. "Ilk qadam" maktabgacha ta‘lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. – T.: 2022.
3. Yakman, G. (2008). STEAM Education: An overview of creating a model of integrative education. Virginia Polytechnic Institute and State University.
4. Maeda, J. (2013). STEM + Art = STEAM. The STEAM Journal, Vol. 1, Issue 1.
5. Sharipova, G. (2020). Maktabgacha ta‘limda tasviriy faoliyatni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: "Nizomiy".
6. Quigley, C. F., & Herro, D. (2019). An Educator’s Guide to STEAM: Engaging Students Using Real-World Problems. Teachers College Press.
7. Samatova, Sh. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni. Pedagogika jurnali, 4-son.
8. Sousa, D. A., & Pilecki, T. (2013). From STEM to STEAM: Using Brain-Compatible Strategies to Integrate the Arts. Corwin Press.



Bayimbetova Manzura Salamat qizi
Nókis qalaliq №52 sanli MSHBSH tárbiyashisi

Bagibaeva Akmaral Muxtarovna
Ájiniyaz atındađı NMPI 2-kurs talabasi

“JANA JAN ÓZBEKSTANIM MÁNGI BOL AMAN” TEMASINDAĐI
SABAQ SHINIĐIW ISLENBESI

Байымбетова Манзура Саламат кызы
воспитатель дошкольной образовательной организации № 52 г. Нукус
Багибаева Акмарал Мухтаровна
студентка 2 курса Нукусского государственного педагогического
института имени Ажинияза

РАЗРАБОТКА УЧЕБНОГО ЗАНЯТИЯ НА ТЕМУ
“ЖАНАЖАН УЗБЕКИСТАНИМ – ВЕЧНО БУДУ С ТОБОЙ”

Bayimbetova Manzura Salamat qizi
Preschool teacher of Preschool Educational Institution No. 52, Nukus city
Bagibaeva Akmaral Mukhtarovna
2nd-year student of Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

LESSON PLAN ON THE TOPIC
“MY BELOVED UZBEKISTAN – I WILL BE WITH YOU FOREVER”

Tárbiyashi: Assalawma aleykum aziz balajanlar.

Balalar: Assalawma aleykum xosh kelipsiz!


Tárbiyashi: Qalaysizlar? Jaqsı jetip keldiniz be?

Balalar: Jaqsı.

Tárbiyashi: Búgin men Sizlerge “Janajan Ózbekstanım mángi bol aman” temasında gárezsizligimiz hám mámleketik nıshanlarımız haqqında aytıp túsindirip beremen. Keyin bul boyınsha sáwbetlesemez.

Tárbiyashi: Mámleketimiz Ózbekstan Respublikası dep ataladı. Ózbekstan Respublikası gárezsiz mámleket. Bul jıl gárezsizligimizge 35 jıl boldı. Óz bayrađı, Óz gerbi, óz tili, óz shegarası hám óz qurallı kúshlerine iye bolđan mámleket gárezsiz mámleket dep ataladı.

Ózbekstan Respublikası bayrađı. Bayraqtađı kók reń – jurtimız aspanınıń ashıqlıđın, aq reń – tınıshlıq, páklikti, jasil reń – tabiyattıń jańalanıwın, qızıl sızıqlar bolsa tamirlarda ađıp atırđan qandı ańlatadı. Nawqıran yarım ay – qolđa kiritilgen gárezsiligimiz, 12 juldız mádeniyatımız tariyxın ańlatadı.



Ózbekstan Respublikasınıń gerbi. Gerbtıń joqarı bóleginde 8 qırlı juldız jaylasqan, onıń ishindegi yarım ay hám juldız musulmansılıqtıń qutlı belgisi. Gerbtıń orayında haq kewillik hám pidayılıq tımsalı bolǵan Qumay qusı sáwlelengen. Quyash – elimizdiń quyashlılıǵın bildirip turıptı. Paxta - watanımızdıń milliy baylıǵı, dán ónimleri bolsa ırısqa-nesiybe, qut-bereket belgisi.



Ózbekstan Respublikası tımsallarınan jáne biri gimni. Gimniń sózin Abdulla Aripov jazǵan, muzikasın kompozitor Mutal Burxonov dóretken.

Bekkemlew ushın sorawlar:

- **Tárbiyashi:** Mámleketimiz qanday ataladı?
- **Balalar:** Mámleketimiz Ózbekstan Respublikası dep ataladı.
- **Tárbiyashi:** Ózbekstan Respublikası qanday mámleket?
- **Balalar:** Ózbekstan Respublikası ğarezsiz mámleket.
- **Tárbiyashi:** Ózbekstan Respublikasınıń qanday mámleketlik belgileri bar?
- **Balalar:** Óz bayraǵı, óz gerbi, óz gimni bar.
- **Tárbiyashi:** Júdá durıs balalar. Raxmet hámmeńiz belsendilik penen sabaq shınıǵıwǵa qatnastırız.

Tárbiyashi: Balalarendi Sizler menen birgelikte 2 toparǵa bólip alamız. 1-topar Ózbekstan Respublikası bayraǵı súwretin boyaydı, al 2-topar Ózbekstan Respublikası bayraǵın qaǵazǵa jabıstırırw arqalı applikaciya jumısın orınlaydı.



Qaysi topar shaqqan hám duris orınlasa jeńimpaz boladı. Shártimiz túsiniqlime balalar?

- **Balalar:** Awa.
- **Tárbiyashi:** Bir, eki, úsh. Qáne basladıq
- **Balalar shártti orınladı.**

Sabaq shınıǵıw juwmaǵında jenimpaz topar anıqlanadı hám xoshametlenedi.

Tema: “Janajan Ózbekstanım mángi bol aman”

Sabaq shınıǵıw maqseti:

- Balalarda ana watan túsiniǵın payda etiw.
- Balalardı Ózbekstan Respublikası ǵarezsiz watanı ekenligin úyretiw.
- Balalardıń kewlinde watanǵa súyispenhilik sezimlerin oyatıw.
- Balalardı Ózbekstan Respublikası mámleketlik nıshanları menen tanıstırıw.

Kerekli qurallar:

1. Ózbekstan Respublikası mámleketlik nıshanları súwretleri.
2. Reńli qaǵazlar.
3. Qayshı.
4. Jelim.
5. Aq qaǵaz.
6. Reńli qálemler.



*Nishonova Kamola Shokirjon qizi
Farg’ona davlat universiteti o‘qituvchisi
Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi
FarDU 4-bosqich talabasi*

UDK:37.022.

BOSHLANG’ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati, nazariy asoslari hamda samarali metodlari yoritilgan. Kreativlik tushunchasining mazmuni, uning ijodkorlikdan farqli jihatlari va shaxs rivojidadagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, o‘yin metodlari, guruhiy ish, ijodiy loyihalar, muammoli ta’lim va san’at faoliyatining o‘quvchilar kreativligini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kreativ yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘ziga ishonchi va ta’limga qiziqishini oshirishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ faollik, ijodkorlik, boshlang’ich ta’lim, muammoli ta’lim, o‘yin metodlari, mustaqil fikrlash, pedagogik hamkorlik, ta’lim samaradorligi.

*Нишонова Камола Шокирджон кызы
Преподаватель Ферганского государственного университета*

*Мамаджонова Хаётхон Абдуолим кызы
Студентка 4 курса Ферганского государственного университета.*

ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО НАВЫКА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогическое значение, теоретические основы и эффективные методы развития творческой деятельности у учащихся начальной школы. Анализируется содержание понятия творчества, его отличия от искусства и роль в личностном развитии. Также показана роль игровых методов, групповой работы, творческих проектов, проблемно-ориентированного обучения и художественной деятельности в развитии творческих способностей учащихся. По результатам исследования установлено, что творческий подход повышает самостоятельность мышления, уверенность в себе и интерес к учебе у учащихся.



Ключевые слова: креативность, творческая деятельность, креативность, начальное образование, проблемно-ориентированное обучение, игровые методы, самостоятельное мышление, педагогическое сотрудничество, эффективность образования.

Nishonova Kamola Shokirjon kyzy
Lecturer at Fergana State University

Mamadzhonova Khayotkhon Abduolim kyzy
Fourth-year student at Fergana State University

THE IMPORTANCE OF FORMING CREATIVE ACTIVITY IN ELEMENTARY STUDENTS

Abstract. This article discusses the pedagogical significance, theoretical foundations and effective methods of developing creative activity in primary school students. The content of the concept of creativity, its differences from creativity and its role in personal development are analyzed. The role of game methods, group work, creative projects, problem-based learning and art activities in developing students' creativity is also shown. According to the results of the study, it was found that a creative approach increases students' independent thinking, self-confidence and interest in education.

Key words: creativity, creative activity, creativity, primary education, problem-based learning, game methods, independent thinking, pedagogical cooperation, educational effectiveness.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi yetarli emas. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadlaridan biri – mustaqil fikrlaydigan, muammolarga noodatiy yondasha oladigan hamda yangi g'oyalar yaratishga qodir shaxsni tarbiyalashdir. Shu nuqtai nazardan kreativlik va kreativ faollik tushunchalari pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Kreativlik so'zi ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot. creatio - yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiyg'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.



K.Rodgers “Kreativlik deb, muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi”¹¹. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo‘yicha tadqiqotlar Dj.Gilford tomonidan amalga oshirilgan.

Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o‘zlashtirishga oid mexanizmga bo‘lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o‘quv vaziyati ta‘lim jarayonini tashkil qiluvchi o‘zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligi;
- o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

1. O‘yin metodlari. O‘yinlar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularni faol ishtirok etishga undash uchun samarali vositadir. O‘yinlar o‘quvchilar muayyan vazifalarni hal qilishda kreativ fikrlashga o‘rganadilar. Misol uchun, rolli o‘yinlar yoki ijodiy vazifalar.

2. Guruhiy ish. Guruhiy faoliyat o‘quvchilarning bir-birlari bilan fikr almashish va birgalikda yechimlar topish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda har bir o‘quvchining fikri qadrlanadi ularning kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

3. Ijodiy loyihalar. Ijodiy loyihalar o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini amalga oshirish imkonini beradi. O‘quvchilar muayyan mavzu bo‘yicha loyiha tayyorlashda, o‘z bilimlarini amalda qo‘llashda va ijodiy fikrlashda ishtirok etadilar

4. San‘at va qo‘l san‘ati. San‘at darslari orqali o‘quvchilar ovz his-tuyg‘ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Qo‘l san‘ati, rasm chizish yoki kompozitsiya yaratish orqali bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

5. Muammo asosidagi ta‘lim. Muammo asosidagi ta‘lim metodikasi o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e‘tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

- 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;

¹¹ Adizov B. Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. -Toshkent, 2003. -276



- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta‘sir qiluvchi muhim omillardan biri o‘qituvchi-o‘quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e‘tibor qaratildi. Ma‘lumki, ta‘lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchi ta‘lim jarayonining to‘g‘ri etilishi, ta‘lim maqsadlarining to‘g‘ri amalga oshirilishi va ta‘lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta‘lim jarayoni o‘qituvchining to‘liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto‘g‘ri fikrning tug‘ilishiga asos bo‘la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo‘ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o‘zlashtirishga oid mexanizmga bo‘lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim.

Kreativ faollikni shakllantirish masalasi bugungi ta‘lim tizimida faqat qo‘shimcha sifat emas, balki zarur kompetensiya sifatida qaralmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an‘anaviy dars jarayonida o‘quvchi ko‘proq tayyor bilimni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. Bunday sharoitda fikrlashning moslashuvchanligi, muammoga noodatiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmay qolishi mumkin.

Kreativ faollik esa o‘quvchini ta‘lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. U faqat javobni eslab qolmaydi, balki savol qo‘yadi, izlaydi, taqqoslaydi va xulosa chiqaradi. Ayniqsa boshlang‘ich ta‘lim bosqichida bu jarayon muhim, chunki aynan shu davrda tafakkurning asosiy mexanizmlari shakllanadi. O‘quvchi o‘z fikrini erkin ifodalashga o‘rganganda, xato qilishdan qo‘rqmaganda va o‘z g‘oyasi qadrlanishini his qilganda uning ijodiy faolligi tabiiy ravishda ortadi.

Shuningdek, kreativ faollikni rivojlantirish ijtimoiy moslashuv bilan ham uzviy bog‘liq. Ijodiy fikrlay oladigan bola jamoada tez til topishadi, turli vaziyatlarda yo‘l topa oladi va muammoli holatlarda passiv emas, faol pozitsiyani egallaydi. Demak, kreativlik faqat bilim olish jarayoniga emas, balki shaxsning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama

Muhokamalar davomida yana bir jihat aniqlandi: kreativ faollik o‘qituvchining darsni tashkil etish uslubiga bevosita bog‘liq. Agar dars savol-javob, muammoli vaziyat, o‘yinli topshiriqlar va erkin fikrlash elementlariga boy bo‘lsa, o‘quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshadi. Aksincha, faqat tayyor qoida va namunaga asoslangan darslar ijodiy tashabbusni cheklaydi.

Tadqiqot jarayonida kreativ faollikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar va metodlardan muntazam foydalanish ijobiy natijalar bergani kuzatildi.



Birinchiidan, o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki faollashdi. Ular savollarga qisqa javob berish bilan cheklanmay, o‘z fikrini izohlashga va misollar keltirishga harakat qila boshladi.

Ikkinchiidan, mustaqil fikrlash ko‘nikmasi rivojlandi. O‘quvchilar muammoni hal qilishda o‘qituvchi ko‘rsatmasini kutib o‘tirmasdan, turli variantlarni taklif qila boshladi. Bu esa ularning tafakkur moslashuvchanligi ortganini ko‘rsatadi.

Uchinchiidan, o‘ziga ishonch darajasi oshdi. Avvallari javob berishga tortinadigan o‘quvchilar ham ijodiy topshiriqlarda faol qatnashdi. Chunki bunday vazifalarda yagona to‘g‘ri javob bo‘lmagani sababli ular o‘z fikrini erkin bildira oldi.

To‘rtinchiidan, fanlarga qiziqish kuchaydi. Dars jarayonida ijodiy elementlar qo‘llanilganda o‘quvchilar mavzuni majburiyat sifatida emas, qiziqarli jarayon sifatida qabul qildi. Bu esa o‘z navbatida o‘zlashtirish sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Umuman olganda, o‘quv jarayonida kreativ faollikni shakllantirish o‘quvchilarning bilish jarayonini faollashtiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi hamda ta‘lim samaradorligini oshiradi. Shuning uchun kreativ yondashuv zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur. Kreativ faollikni samarali shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. Muammoli vaziyatlar yaratish – dars jarayonida o‘quvchini o‘ylashga majbur qiladigan savollar va topshiriqlardan foydalanish.

2. Erkin fikr bildirish muhitini shakllantirish – o‘quvchilarning g‘oyalari tanqid qilinmasdan, hurmat bilan qabul qilinishi kerak.

3. O‘yin texnologiyalaridan foydalanish – rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar va interfaol metodlar kreativlikni rag‘batlantiradi.

4. Ochiq savollar berish – yagona javobi bo‘lmagan savollar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi.

5. Mustaqil ishlarni ko‘paytirish – loyihalar, kichik tadqiqotlar va ijodiy vazifalar o‘quvchini izlanishga undaydi.

6. Xatoga ijobiy munosabat – xato qilish jarayonning bir qismi ekanini tushuntirish o‘quvchining qo‘rquvini kamaytiradi.

7. Fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish – turli fanlarni bog‘lab o‘rganish tafakkurning moslashuvchanligini rivojlantiradi.

8. Rag‘batlantirish – o‘quvchining har bir ijodiy urinishini e‘tirof etish uning faolligini oshiradi.

Boshlang‘ich ta‘lim -bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta‘lim turlaridan biri bo‘lib, ta‘limning bu bosqichida pedagog o‘qiyuvchilarga katta mas‘uliyat yuklatiladi, ya‘ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o‘rganishni talab etmoqda .

O‘quvchilar o‘z-o‘zidan kreativ bo‘lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiradi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o‘quvchiga



sezdirish kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o‘quvchilarni o‘zgacha yondashuvli ya’ni kreativ bo‘lishlariga erishishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga muammoli masalava vaziyatlarni berib, o‘quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishga yordam beradi. Bu o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashi, mustaqil o‘qib o‘rganishga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo‘ladi.

Kreativlik tushunchasi ijod tushunchasi bilan bog‘liq biroq, kreativlik tushunchasi tegishli lug‘atlarda munosib differensiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O‘nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har hil darajada qamrab oliniyotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o‘ziga va na taalluqli bo‘lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to‘xtam mavjud emas.

Xulosa va munozara

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma’no anglatmaydi dagan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko‘z o‘ngiga ma’lum bir narsaning ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin bizning tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o‘xshamas yo‘l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiq eta olish qobiliyati deb oldik, ya’ni bizning tadqiqotimizda ta’lim sohasiga oid kreativlikni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ko‘rib chiqdik. Kreativlik ijodkorlikda nisbatan kengroq tushuncha degan fikrga keldik.

Kreativ faollik rivojlangan o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, o‘ziga ishonch va erkin fikr bildirish ko‘nikmalari shakllanadi. Bunday sifatlar esa ularning kelajakda turli hayotiy vaziyatlarga moslasha oladigan, faol va mas’uliyatli shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, ta’lim jarayonida kreativ faollikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish o‘quvchilarning bilish jarayonini faollashtiradi, ta’limga qiziqishini kuchaytiradi hamda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Simpson D. Creativity and Thinking Studies – AQSh, 1922.
2. Rogers C. On Becoming a Person – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
3. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence – New York: McGraw-Hill, 1967.
4. Torrance E. P. Guiding Creative Talent – Englewood Cliffs, 1962.
5. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlari.
6. Zamonaviy pedagogika va psixologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.



Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich
Farg’ona davlat universiteti
Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Saloydinova Sevaraxon Mahammadsharif qizi
Farg’ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

UDK:373.1

GAMIFIKATSIYALANGAN O‘QUV MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada gamifikatsiyalangan o‘quv muhitining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida gamifikatsiyaning mohiyati, uning ta‘lim jarayonidagi o‘rni hamda boshlang‘ich ta‘lim bosqichida qo‘llashning metodik asoslari yoritilgan. Gamifikatsiyalangan o‘quv muhitida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirish bilan bir qatorda, ularning tanqidiy va ijodiy tafakkurini samarali rivojlantirishga xizmat qilishi va gamifikatsiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: gamifikatsiya, o‘quv muhiti, boshlang‘ich ta‘lim, tanqidiy tafakkur, ijodiy tafakkur, pedagogik texnologiyalar.

Джалилов Мухаммадали Абдумуталибович
Доктор философии по физике и математике (PhD)

Салойдинова Севарахон Махаммадшариф кызы
Студентка 1 курса магистратуры
Ферганского государственного университета

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО И ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ В ИГРОВОЙ СРЕДЕ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы педагогические возможности геймифицированной образовательной среды в формировании критического и творческого мышления у учащихся начальных классов. Раскрыта сущность геймификации как современной педагогической технологии, её место в образовательном процессе, а также методические основы её применения на этапе начального образования. Показано, что уроки, организованные в геймифицированной образовательной среде, не только повышают интерес и мотивацию учащихся к учебной деятельности, но и эффективно



способствуют развитию их критического и творческого мышления, а также что геймификация является важным педагогическим средством формирования личностных и социальных компетенций учащихся начальных классов.

Ключевые слова: геймификация, учебная среда, начальное образование, критическое мышление, творческое мышление, педагогические технологии.

*Dzhalilov Mukhammadali Abdumutalibovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Physics and Mathematics*

*Saloydiova Sevarakhon Makhammadsharif kyzy
First-year Master’s student at Fergana State University*

A METHODOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL AND CREATIVE THINKING IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS IN A GAME-BASED LEARNING ENVIRONMENT

Abstract. In this article, the pedagogical potential of a gamified learning environment in shaping critical and creative thinking among primary school students is analyzed from both scientific-theoretical and practical perspectives. The essence of gamification as a modern pedagogical technology, its role in the educational process, as well as the methodological foundations of its application at the primary education stage are elucidated. It is demonstrated that lessons organized within a gamified learning environment not only increase students’ interest and motivation toward learning activities but also effectively contribute to the development of their critical and creative thinking, and that gamification serves as an important pedagogical tool in the formation of primary school students’ personal and social competencies.

Key words: gamification, learning environment, primary education, critical thinking, creative thinking, pedagogical technologies

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida o’quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim bosqichida bu kompetensiyalarni shakllantirish o’quvchilarning keyingi ta’lim faoliyati va shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy o’qitish usullari esa har doim ham o’quvchilarning faol fikrlashini ta’minlay olmaydi. Gamifikatsiya – ya’ni o’yin elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash – zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida e’tiborni tortmoqda. Gamifikatsiyalangan o’quv muhitida ball, daraja, reyting, syujet, qahramonlar va rag’batlantirish tizimlaridan foydalanish o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini oshirib, ularni mustaqil va kreativ fikrlashga undaydi. “Gamifikatsiyani o’yin bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan noto’g’ri hisoblanadi. Chunki gamifikatsiya ta’lim mazmunini ko’ngilochar tusga keltirishni emas, balki murakkab bilim va



ko‘nikmalarni mantiqiy ketma-ketlik asosida o‘zlashtirishni ta‘minlovchi pedagogik strategiyani anglatadi. Ushbu yondashuvda o‘yin elementlari vosita sifatida xizmat qiladi va ular aniq didaktik maqsadlarga bo‘ysundiriladi”[4].

Ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning fikrlash asoslari, bilishga bo‘lgan munosabati va ijodiy faolligi shakllanadi. An‘anaviy ta‘lim usullari o‘quvchilarning bilimlarni yodlashga yo‘naltirilganligi sababli ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Shu bois, ta‘lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. “Interfaol metodlar o‘quvchini ta‘lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirib, uning fikrlash jarayonini jonlantiradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi va bilimlarni ongli o‘zlashtirishga yo‘naltiradi. Mazkur metodlarning tanqidiy fikrlashga ta‘sirini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish, ularni dars jarayoniga moslashtirish va samaradorligini aniqlash bugungi pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biridir”[3]. Gamifikatsiyalangan o‘quv muhitida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni erkin fikrlashga, muammolarni mustaqil hal etishga va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga imkon yaratadi.

“Bugungi kunda axborot oqimining keskin ortishi, turli manbalardan kelayotgan ma‘lumotlarning ko‘pligi sharoitida o‘quvchining faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi yetarli bo‘lmay, ularni baholash, solishtirish va ishonchliligini aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Shu jihatdan tanqidiy fikrlashni shakllantirish ta‘lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda”[3]. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifaga aylanganda o‘quvchilarga axborotni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish, asosli xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradigan o‘quv muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda an‘anaviy ta‘lim usullarini innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, jumladan, gamifikatsiya elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi. Gamifikatsiyalangan topshiriqlar va muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilar axborotning mazmunini chuqur anglashga, uning ishonchliligini baholashga va o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilishga o‘rganadi. Natijada, tanqidiy fikrlash va kundalik hayotda uchraydigan turli vaziyatlarga ongli va mas‘uliyatli yondashuvini ham ta‘minlaydi.

“XXI asrda ta‘lim tizimining eng asosiy maqsadlaridan biri – o‘quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ushbu qobiliyatlar o‘quvchilarning nafaqat ta‘lim olgan sohalarida, balki kundalik hayotda ham muammolarni hal qilishda, qarorlar qabul qilishda va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda metodik yondashuvlar va o‘qituvchining roli katta ahamiyatga ega.”[5]. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida gamifikatsiyalangan o‘quv muhiti o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelib, ularning ijodiy yondashuvi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.



Adabiyotlar tahlili

Globalashuv jarayonida ta’lim tizimida o’quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarning muhim yo’nalishlaridan biriga aylandi. Tanqidiy fikrlash o’quvchining axborotni tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirsa, ijodiy tafakkur muammolarga noodatiy yondashish va yangi g’oyalarni yaratish imkonini beradi. O’zbekiston olimlari ham tanqidiy va ijodiy tafakkur hamda innovatsion metodlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib bormoqda. Masalan, N.Ziyomiddinova tomonidan boshlangan tadqiqotda boshlang’ich sinf o’quvchilarida tafakkur ko’nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Unda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun o’yinli mashg’ulotlar, muammoli ta’lim va interfaol usullar samarali ekanligi ko’rsatilgan. “Tanqidiy fikrlash – bu mavjud ma’lumotlar asosida mustaqil xulosa chiqarish, baholash va qaror qabul qilish qobiliyati bo’lib, u o’quvchining faol, ongli ishtirokini ta’minlaydi”[1].

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari bo’yicha M.Qo’chqarova va S.Nazirova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy fikrlash ko’nikmalari, o’qituvchining pedagogik yondashuvi va metodlarining roli yoritilgan. “Ayni paytda ijodiy fikrlashning turli jihatlari, muammolar, aloqadorliklarni izlash, farazlarni ilgari surishda muqobilik va originallik, g’oyalarning ishlanganligini baholashga maxsus o’rgatishga alohida e’tibor qaratish talab qilinadi”[2]. Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda boshlang’ich ta’lim bosqichida o’yinli metodlardan foydalanish o’quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi va ularning bilish faoliyatini faollashtirishi qayd etilgan. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlash (tahlil qilish, solishtirish, baholash), ijodiy tafakkur (g’oya yaratish, muammoga noodatiy yondashish) va mustaqil qaror qabul qilish va asoslash ko’nikmalarini shakllantirish muhimdir. “Ta’lim jarayonidan o’quvchini mustaqil fikrlovchi, vaziyatni tahlil qila oladigan, ijodiy yondashuvga ega shaxs sifatida shakllantirish talab etilmoqda”[6].

“Erkin yechim maydoni” metodi

Gamifikatsiyalangan o’quv muhitida boshlang’ich sinf o’quvchilarining tanqidiy va ijodiy tafakkurini bir vaqtning o’zida rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, o’yin mexanizmlari orqali bolani fikrlash jarayoniga yo’naltiradi. O’quvchi o’yin jarayonida berilgan topshiriqni vaziyatni tahlil qiluvchi, savol qo’yuvchi va yechimni mustaqil izlovchi faol subyektga aylanadi. Dars jarayonida o’quvchilarga hayotiy, qiziqarli va biroz kutilmagan o’yinli muammo taqdim etiladi. Ushbu muammo aniq bitta to’g’ri javobga ega bo’lmaydi, turli fikrlar va yondashuvlarga ochiq bo’ladi. O’quvchi noodatiy fikr bildirgani, boshqacha yondashuv taklif qilgani yoki o’z xulosasini asoslab bera olgani uchun rag’bat oladi. Metodda ijodiy tafakkur o’quvchining erkin tasavvuri va yangi g’oya ilgari surishi orqali rivojlanadi. O’quvchi xato qilishdan qo’rqmaydi, chunki o’yinli muhitda xato jazolanmaydi, balki yangi fikr uchun imkoniyat sifatida qabul qilinadi. Gamifikatsiyalangan o’quv muhitida qo’llangan mazkur metod o’quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini uzviy bog’liq holda rivojlantiradi, ularning darsga



bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda boshlang‘ich ta‘lim bosqichida fikrlovchi, izlanishga moyil va o‘z fikrini asoslay oladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Gamifikatsiyalangan o‘quv muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy va ijodiy tafakkurini shakllantirish metodikasi asosida tashkil etilgan darslar natijasida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkur darajasi oshadi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi o‘quvchilarning ta‘limga bo‘lgan qiziqishi va faolligi kuchayadi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Dars boshida syujetli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga qiziqishini sezilarli oshirdi, passiv o‘quvchilar ham faol ishtirok eta boshladi, o‘quvchilarda savol berish faolligi va muammoni anglash va fikr bildirish ko‘nikmalari takomillashdi. O‘quvchilarning ichki motivatsiyasi kuchaydi, tanqidiy tafakkurning boshlang‘ich elementlari shakllandi, ijodiy tafakkur tasavvur va taxminlar orqali namoyon bo‘la boshladi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi oshdi, jamoada ishlash hamda o‘z fikrini asoslab berish ko‘nikmalari shakllandi. Gamifikatsiyalangan o‘quv muhiti orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy va ijodiy tafakkurini shakllantirish pedagogik jarayonda ijobiy yuqori samaradorlikka ega. Gamifikatsiyalangan o‘quv muhiti o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini samarali rivojlantirishini, tarbiya darslarining ta‘sirchanligini oshirishini hamda o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Metodikani boshlang‘ich ta‘lim amaliyotida qo‘llash dars mashg‘ulotlarining qiziqarli, motivatsion va o‘quvchilarning fikrlash doirasining kengayishida samarali xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar

Gamifikatsiyalangan o‘quv muhiti zamonaviy ta‘lim tizimining muhim pedagogik yo‘nalishlaridan biri sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy va intellektual rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Gamifikatsiyalangan o‘quv muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, chunki o‘yin elementlari bilan boyitilgan ta‘lim jarayoni bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladi hamda ularning tabiiy qiziqishi va faol ishtirokini ta‘minlaydi.

Boshlang‘ich sinf davri o‘quvchining tafakkuri shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda bolaning sabab-oqibatni tushunish, solishtirish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi intellektual amallari faol rivojlanadi. An‘anaviy o‘qitish usullarida ko‘pincha tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga urg‘u berilgan bo‘lsa, gamifikatsiyalangan o‘quv muhitida o‘quvchi faol subyektga aylanadi. Bu holat o‘quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, chunki u berilgan axborotni shunchaki yodlab olmaydi, uni tahlil qiladi, solishtiradi, baholaydi va o‘z munosabatini bildiradi.

Gamifikatsiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘yin mexanizmlari, syujetli vaziyatlar, ramziy qahramonlar va rag‘batlantiruvchi elementlar o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Motivatsiyaning oshishi esa o‘quvchining fikrlash faolligini ta‘minlaydi, natijada u dars jarayonida savol berishga, muammoli vaziyatlarga yechim izlashga va turli g‘oyalarni ilgari surishga intiladi. Aynan mana shu jarayon ijodiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi, chunki



o‘quvchi muammoni turli alternativ yondashuvlar asosida hal etishga harakat qiladi. O‘yinli vaziyatlar o‘quvchining tasavvurini kengaytirib, uni noodatiy fikrlashga undaydi, bu esa ijodiy tafakkurning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy tafakkur esa gamifikatsiyalangan o‘quv muhitida o‘quvchining o‘z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini tahlil qilish va ularni mantiqiy jihatdan baholash jarayonida shakllanadi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishadi, turli qarashlarni eshitadi va ularni solishtirish orqali xulosaga keladi. Bu holat bolalarda fikrlar xilma-xilligini qabul qilish, dalillarga tayanib qaror qabul qilish va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Gamifikatsiyalangan muhitda xato qilish o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilinadi, bu esa o‘quvchining fikrlashda erkin bo‘lishiga va o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishiga imkon yaratadi.

Xulosa

Ta‘lim jarayonidan o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, vaziyatni tahlil qila oladigan, ijodiy yondashuvga ega shaxs sifatida shakllantirish talab etilmoqda. Gamifikatsiyalangan o‘quv muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, chunki o‘yin elementlari bilan boyitilgan ta‘lim jarayoni bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladi hamda ularning tabiiy qiziqishi va faol ishtirokini ta‘minlaydi. Boshlang‘ich sinf davri o‘quvchining tafakkuri shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda bolaning sabab-oqibatni tushunish, solishtirish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi intellektual amallari faol rivojlanadi. An‘anaviy o‘qitish usullarida ko‘pincha tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga urg‘u berilgan bo‘lsa, gamifikatsiyalangan o‘quv muhitida o‘quvchi faol subyektga aylanadi. Bu holat o‘quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, chunki u berilgan axborotni shunchaki yodlab olmaydi, uni tahlil qiladi, solishtiradi, baholaydi va o‘z munosabatini bildiradi.

Gamifikatsiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘yin mexanizmlari, syujetli vaziyatlar, ramziy qahramonlar va rag‘batlantiruvchi elementlar o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Motivatsiyaning oshishi esa o‘quvchining fikrlash faolligini ta‘minlaydi, natijada u dars jarayonida savol berishga, muammoli vaziyatlarga yechim izlashga va turli g‘oyalarni ilgari surishga intiladi. O‘yinli vaziyatlar o‘quvchining tasavvurini kengaytirib, uni noodatiy fikrlashga undaydi, bu ijodiy tafakkurning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy tafakkur gamifikatsiyalangan o‘quv muhitida o‘quvchining o‘z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini tahlil qilish va ularni mantiqiy jihatdan baholash jarayonida shakllanadi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishadi, turli qarashlarni eshitadi va ularni solishtirish orqali xulosaga keladi. Bu holat bolalarda fikrlar xilma-xilligini qabul qilish, dalillarga tayanib qaror qabul qilish va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdusattorovna Q. M. (2025). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy va mantiy fikrlashlarini o‘stirish usullari. Ta‘lim, tarbiya va innovsiyalar jurnali, 1(5), 12-17.
2. Arapbaeva D. (2024). Maktab ta‘limi sharoitida ijodiy tafakkurni rivojlantirish. Nordic_Press, 3(0003).
3. Islomova M. (2025). Ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Pedagog, 8(12), 112-117.
4. Murodjon o‘gli J. R. F. (2026). Informatika fanini o‘qitishda gamifikatsiya metodologiyasining pedagogik-psixologik asoslari. Journal of new century innovations, 92(1), 415-421.
5. Ro‘ziqulovna X. J. N., & Farxodovna, E. X. (2025). Ta‘limda ijodiy va tanqidi fikrlashni rivojlantirish.
6. O‘zbekistondagi imkoniyatlar va xalqaro tajribalar. Global Science Review, 1(1), 138-142.



Xamidova Gulbaxor
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim nazariyasi va
metodika kafedrası dotsenti

UDK:378.124.082.8

TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o’rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda kreativ kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy komponentlari hamda tasviriy faoliyat asosida shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik model ishlab chiqilib, uning maqsadi, vazifalari, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlari asoslab beriladi. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar va Prezident nutqlarida ilgari surilgan ta’limni modernizatsiya qilish, ijodkor shaxsni tarbiyalash g’oyalari bilan mavzuning dolzarbligi asoslanadi.

Kalit so’zlar: kreativ kompetentlik, tasviriy faoliyat, pedagogik model, ijodkorlik, oliy ta’lim, ta’lim texnologiyalari.

Хамидова Гульбахор
Кафедра теории и методики дошкольного образования,
Джизакский государственный педагогический университет

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение визуальной деятельности в развитии творческой компетенции студентов в системе высшего образования с научно-теоретической точки зрения. В исследовании анализируется концепция творческой компетенции, ее структурные компоненты и возможности ее формирования на основе визуальной деятельности. Также разработана педагогическая модель, направленная на развитие творческой компетенции, обоснованы ее цели, задачи, содержательные, технологические и результативные компоненты. В статье обосновывается актуальность темы в контексте идей модернизации образования и воспитания творческой личности, выдвинутых в нормативно-правовых актах и выступлениях Президента.

Ключевые слова: творческая компетенция, визуальная деятельность, педагогическая модель, креативность, высшее образование, образовательные технологии.



Khamidova Gulbakhor
Associate Professor of the Department of
Theory and Methodology of Preschool Education,
Jizzakh State Pedagogical University

A MODEL FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE COMPETENCE THROUGH VISUAL ARTS ACTIVITIES

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the role and significance of visual arts activities in developing students' creative competence in higher education. The concept of creative competence, its structural components, and the possibilities of its development through visual activities are examined. A pedagogical model aimed at developing creative competence is proposed, including its goals, objectives, content, technological, and outcome components. The relevance of the topic is justified based on national regulatory documents and the ideas expressed in the speeches of the President on modernizing education and fostering creative individuals.

Key words: creative competence, visual arts activities, pedagogical model, creativity, higher education, educational technologies.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida ijodiy fikrlovchi, innovatsion yondashuvga ega, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun hamda “O'zbekiston – 2030” strategiyasida shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim vazifa etib ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'lim tizimida ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish zarurligini alohida ta'kidlab, “Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor va kreativ yoshlar kerak” ekanini qayd etadi. Shu bois, talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik vositalar va modellarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Tasviriy faoliyat talabalarning tasavvuri, estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita bo'lib, uni tizimli model asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Mazkur model oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ kompetentligini tasviriy faoliyat orqali rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u o'zaro uzviy bog'langan maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlardan iborat yaxlit pedagogik tizimni ifodalaydi.

1. Maqsadli komponent



Maqsadli komponent modelning asosiy yo‘nalishini belgilab beradi va ta’lim jarayonining strategik maqsadlarini ifodalaydi.

Asosiy maqsad:– tasviriy faoliyat vositasida talabalarda kreativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish.

Vazifalar:

- talabalarda ijodiy tafakkur va estetik dunyoqarashni rivojlantirish;
- muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- mustaqil fikrlash va innovatsion g‘oyalar yaratish qobiliyatini rivojlantirish;
- kasbiy faoliyatda ijodkorlikni namoyon etishga tayyorlash.

Maqsadli komponent normativ-huquqiy hujjatlar va Prezident nutqlarida belgilangan ijodkor shaxsni tarbiyalash g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

2. Mazmunli komponent

Mazmunli komponent kreativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini o‘z ichiga oladi.

Mazmun quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- kreativ kompetentlikning nazariy asoslari;
- tasviriy faoliyat turlari (rasm chizish, rangtasvir, kompozitsiya, dekorativ-amaliy san‘at elementlari);
- ijodiy tafakkur va estetik madaniyat asoslari;
- san‘at orqali shaxsiy va kasbiy o‘zini namoyon etish.

Mazmun talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, fanlararo integratsiya asosida shakllantiriladi.

3. Texnologik komponent

Texnologik komponent modelni amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydi va ta’lim jarayonining metodik ta’minotini ifodalaydi.

Asosiy pedagogik texnologiyalar va metodlar:

- interfaol ta’lim metodlari (klaster, aqliy hujum, konseptual xaritalar);
- loyiha asosida o‘qitish;
- muammoli va ijodiy topshiriqlar;
- refleksiv tahlil va o‘z-o‘zini baholash;
- amaliy mashg‘ulotlar va ijodiy loyihalar.

Texnologik komponent ijodiy muhitni yaratishga, talabalarni faol subyekt sifatida jalb etishga xizmat qiladi.

4. Natijaviy komponent

Natijaviy komponent modelni amalga oshirish jarayonida erishiladigan yakuniy samaralarni ifodalaydi.

- Kutilayotgan natijalar:
- talabalarda kreativ fikrlashning shakllanishi;
- ijodiy faoliyatga ijobiy motivatsiyaning kuchayishi;
- mustaqil va innovatsion qaror qabul qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- kasbiy faoliyatda kreativ kompetentlikni samarali qo‘llay olish.

Natijaviy komponent kreativ kompetentlikni baholash mezonlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv ko‘rsatkichlar) orqali aniqlanadi.



Ta’kidlab o’tish joizki, mazkur model komponentlarining uzviyligi va izchilligi talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish samaradorligini ta’minlaydi. Tasviriy faoliyatga asoslangan mazkur pedagogik model oliy ta’lim tizimida ijodkor, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, shaxsning ijodiy salohiyatini namoyon etishi, muammoli vaziyatlarda mustaqil va noodatiy yechimlar topa olishi kreativ kompetentlikning asosiy ko’rsatkichlari sifatida e’tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, kreativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik modellarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda kreativlik tushunchasining nazariy asoslari J.Guilford, E.Torrance, M.Csikszentmihalyi va H.Gardner tadqiqotlarida keng yoritilgan. J.Guilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog’lab, ijodiy fikrlash jarayonida muqobil g’oyalar yaratish qobiliyatini asosiy mezon sifatida belgilaydi. E.Torrance esa kreativlikni shaxsning muammolarga sezgirliги, taxminlar ilgari surish va ularni tekshirish qobiliyati bilan izohlaydi. Ushbu yondashuvlar kreativ kompetentlikni shakllantirish modelining psixologik asoslarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

H.Gardnerning ko’p qirrali intellekt nazariyasida vizual-fazoviy intellekt alohida ajratilib, tasviriy faoliyat shaxsning ijodiy va intellektual rivojiga kuchli ta’sir ko’rsatishi ta’kidlanadi. Bu qarashlar tasviriy faoliyatni kreativ kompetentlikni rivojlantirish modeli tarkibiga kiritishning ilmiy asoslanganligini ko’rsatadi.

O’zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonining metodologik asosi sifatida talqin etiladi. R.Mavlonova, N.Muslimov, B.Xodjayev va Sh.Abdullayeva ilmiy ishlarida kompetentlik tushunchasi bilim, ko’nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarining integratsiyalashgan majmui sifatida yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda talabaning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodkorligi ta’lim natijasining muhim ko’rsatkichlari sifatida e’tirof etiladi.

Tasviriy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari masalasi san’at pedagogikasi doirasida ko’rib chiqilgan. Tadqiqotchilar tasviriy faoliyatning talabalarda estetik didni shakllantirishi, emotsional-intellektual rivojlanishni ta’minlashi hamda ijodiy tafakkurni faollashtiruvchi vosita ekanligini ta’kidlaydilar. Biroq mavjud tadqiqotlarda tasviriy faoliyat asosida kreativ kompetentlikni rivojlantirish modeli tizimli ravishda ishlab chiqilmaganligi kuzatiladi.

Shuningdek, pedagogik modellashtirish masalalari A.Novikov, V.Bespalko va I.Lerner tadqiqotlarida yoritilib, model ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, texnologiyasi va natijasini yaxlit tizim sifatida aks ettiruvchi vosita ekanligi asoslab berilgan. Ushbu yondashuvlar kreativ kompetentlikni rivojlantirish modelining tarkibiy komponentlarini aniqlashda metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.



Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentlikni rivojlantirishga oid ilmiy ishlar yetarli bo‘lsa-da, tasviriy faoliyatni markaziy pedagogik vosita sifatida belgilagan, maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlarni o‘z ichiga olgan yaxlit modelga ehtiyoj mavjud.

Adabiyotlar tahlilidan xulosalar

O‘rganilgan ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentlik zamonaviy ta‘lim tizimida shaxsning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta‘minlovchi muhim integrativ sifat hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda kreativlik shaxsning ijodiy tafakkuri, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvi hamda innovatsion faoliyatga tayyorligi bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

Xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarda kreativlikning psixologik mexanizmlari chuqur yoritilgan bo‘lsa-da, ular asosan umumiy nazariy darajada qolib, pedagogik jarayonda amaliy qo‘llash uchun moslashtirilgan modellar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, tasviriy faoliyatni kreativ kompetentlikni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida belgilovchi tizimli yondashuvlar kam uchraydi.

O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, ta‘lim natijalarini shaxsning faoliyati va ijodkorligi bilan bog‘lash masalalari keng yoritilgan. Biroq mazkur ishlarda tasviriy faoliyat asosida kreativ kompetentlikni rivojlantirishning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlarini o‘z ichiga olgan yaxlit pedagogik model yetarlicha asoslanmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tasviriy faoliyat talabalarning estetik dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri va emotsional-intellektual rivojiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu faoliyat turi kreativ kompetentlikni rivojlantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, uning tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan modeli ilmiy jihatdan yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Shuningdek, pedagogik modellashtirishga oid ilmiy yondashuvlar ta‘lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa kreativ kompetentlikni rivojlantirishda alohida elementlar emas, balki o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat modelni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili natijalari tasviriy faoliyat vositasida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan, maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlarni qamrab olgan pedagogik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini asoslaydi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tasviriy faoliyat vositasida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarga asoslangan holda tahlil qilindi. Modelning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlari o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit tizim sifatida qaraldi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, maqsadli komponentda belgilangan vazifalar oliy ta‘lim tizimining kompetensiyaviy yondashuviga to‘liq mos keladi. Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsad va



vazifalar ularning ijodiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va innovatsion g'oyalarni yaratish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holat Prezident nutqlarida ilgari surilgan ijodkor va tashabbuskor yoshlarni tarbiyalash g'oyalari bilan hamohangdir.

Mazmuniy komponentning muhokamasi shuni ko'rsatdiki, tasviriy faoliyat asosida shakllantirilgan bilim va ko'nikmalar talabalarning estetik dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki badiiy ijod jarayoni nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki shaxsning go'zallikni idrok etish va baholash qobiliyatini kengaytiradi.

Tasviriy faoliyat orqali talaba ranglar, shakllar, kompozitsiya va badiiy ifoda vositalarini o'rganadi. Bu jarayon estetik sezgirlikni rivojlantiradi va talabaning atrof-muhitdagi go'zallikni idrok etish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, badiiy mashg'ulotlar talabaning tasavvurini kengaytiradi, obrazli tafakkur va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, tasviriy faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar talabalarda badiiy did, estetik qarash va madaniy saviyaga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Talaba nafaqat texnik mahoratni egallaydi, balki ijodiy qarashlari va estetik baholash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Psixologik jihatdan esa, tasviriy faoliyat talabaning ichki emotsional dunyosini boyitadi va o'zini erkin ifodalash imkonini yaratadi. Ranglar va obrazlar bilan ishlash ijobiy emotsiyalarni kuchaytiradi, stressni kamaytiradi va shaxsning ichki muvozanatini ta'minlaydi.

Tasviriy faoliyat asosida shakllantirilgan bilim va ko'nikmalar talabalarning estetik dunyoqarashini kengaytiruvchi, ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantiruvchi, shuningdek emotsional va psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Texnologik komponentda qo'llanilgan interfaol, muammoli va loyiha asosidagi ta'lim metodlari talabalarni faol subyekt sifatida jalb etishga imkon berdi. Muhokamalar shuni ko'rsatdiki, ijodiy topshiriqlar va reflektiv tahlil elementlari talabalarning o'z imkoniyatlarini anglashiga, ijodiy faoliyatga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Natijaviy komponent bo'yicha olib borilgan tahlillar modelning samaradorligini tasdiqladi. Talabalarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy mahsulot yaratish ko'nikmalarining rivojlanishi kuzatildi. Shuningdek, talabalarning tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishi va kasbiy faoliyatda ijodkorlikni qo'llashga tayyorligi oshgani aniqlandi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur modelni ta'lim jarayoniga joriy etish talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Model komponentlarining o'zaro uyg'unligi va izchilligi ta'lim jarayonining sifatini oshirishga imkon yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tasviriy faoliyat vositasida ishlab chiqilgan pedagogik modelning nazariy jihatdan asoslanganligini va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ushbu model oliy ta'lim muassasalarida kreativ, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda, tasviriy faoliyat vositasida kreativ kompetentlikni rivojlantirish modeli oliy ta’lim tizimida samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. Mazkur modelni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali talabalarning ijodiy tafakkuri va kasbiy tayyorgarligi sezilarli darajada oshadi.

Tavsiyalar:

- tasviriy faoliyatga asoslangan mashg’ulotlarni tizimli tashkil etish;
- kreativ kompetentlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- pedagog kadrlarning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. – 2019.
4. Mavlonova R.A. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Xodjayev B.X. Ta’limda kreativlik va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2021.
7. Abdullayeva Sh.Q. Pedagogik texnologiyalar va kreativ ta’lim. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022.
8. Jo‘rayev R.X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirish. – Toshkent, 2018.
9. Usmonova M.B. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
10. Qodirova D.K. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2020.
11. Torrance E.P. Creativity and Talent Development. – New York: Routledge, 2003.
12. Gardner H. Multiple Intelligences: New Horizons. – New York: Basic Books, 2006.
13. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. – New York: HarperCollins, 2013.
14. Runco M.A. Creativity: Theories and Themes. – London: Academic Press, 2014.
15. Robinson K. Out of Our Minds: Learning to Be Creative. – Oxford: Capstone, 2011.
16. Beghetto R.A., Kaufman J.C. Nurturing Creativity in the Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017.



17. Sawyer R.K. Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. – Oxford: Oxford University Press, 2018.

Raxmonova Sojida Muxammadovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Yadgarova Hafizabonu Sadriddin qizi
Buxoro Xalqaro universiteti 2-bosqich talabasi

UDK:373.211.24

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi, ta’lim va tarbiyaning mazmuni, ta’limiy faoliyatini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, ta’lim, tarbiya, faoliyat, jarayon, salohiyat, metod, usul, innovatsiya, samaradorlik, takomillashtirish, muhit, omil, vosita, imkoniyat.

Соджиди Рахмонова Мухаммадовна
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры дошкольного образования

Ядгарова Хафизабону Садриддин кизи
Студентка 2-го курса Бухарского международного университета

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность использования инновационных педагогических технологий в дошкольных образовательных организациях, содержание воспитания и обучения, дальнейшее совершенствование образовательной деятельности, педагогические технологии, используемые в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: Технология, образование, воспитание, деятельность, процесс, потенциал, метод, инновация, эффективность, совершенствование, среда, фактор, инструмент, возможность.

Sojida Rakhmonova Mukhammadovna
Bukhara State Pedagogical Institute



Lecturer, Department of Preschool Education
Yadgarova Khafizabonu Sadriddin Kizi

Second-year student, Bukhara International University

THE EFFICIENCY OF USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. This article examines the effectiveness of using innovative pedagogical technologies in preschool educational institutions, the content of education and training, further improvement of educational activities, and pedagogical technologies used in the preschool education system.

Key words: Technology, education, upbringing, activity, process, potential, method, innovation, efficiency, improvement, environment, factor, tool, opportunity.

Kirish

Bugungi kunda Respublikamiz ta'lim sohasi tobora rivojlanib bormoqda. Demak, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga samarali joriy etish masalalari siyosat darajasiga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, uzluksiz ta'limning ilk bo'g'ini sanalgan maktabgacha ta'lim tizimi bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning intellektual va ijodiy salohiyatining namoyon bo'lishida muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun maktabgacha ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, metodlar va innovatsion yondashuvlardan o'rinli foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning faol, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi, shuningdek, ijtimoiy kompetensiyalarga ega bo'lib kamol topishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlar, axborot-kommunikatsiya vositalari ta'lim jarayonini maroqli, qiziqarli, mazmunli hamda bolalar ehtiyojida va imkoniyatlariga mos tarzda tashkil etishga imkon beradi. Respublikamizning maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion muhitni yarata olish, pedagoglar oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda: zamonaviy texnologiyalar bilan kuchli qurollanish, metodlarni bola imkoniyatlariga mos yaratish va joriy etish, pedagogik jarayonda ijodiy yondashuvni kuchaytirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish va ularning individual xususiyatlariga mos ravishda ta'lim mazmunini shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'limiy rivojlantiruvchi muhit faoliyatini yanada yaxshilash va bolalarni har tomonlama aqliy, jismoniy hamda ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Maktabgacha ta'lim – bola uchun jamiyatga kirib borish va ijtimoiy muhitni anglashning muhim davridir. Bu davrda bola nafaqat bilim olishni boshlaydi, balki



shaxs sifatida shakllanadi, uni har tomonlama rivojlantirishda katta o‘zgarishlar yuz beradi. Maktabgacha ta’lim, avvalo, bolaga yangi bilimlar va ko‘nikmalarni o‘rgatishdan tashqari, uning kreativlik va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, psixologik va uning salomatligini mustahkamlash kabi muhim vazifalarni ham bajaradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirishni tashkil etishning samarali bo‘lishi uchun uning mazmuni va metodikasi, pedagogik yondashuvlar, tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va tashkil etish usullari alohida ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda bola va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik, oila va ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi uzviylik ham katta rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta’limning ta’limiy jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixofiziologik xususiyatlari tezkor o‘zgaruvchan bo‘lib, ular bilan faoliyatni tashkil etishda an’anaviy metodlar bugungi kunnig taraqqiy etgan bolalari uchun har doim ham yetarlicha samara bermaydi. Bugungi kun bolalarini turli xildagi interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM yondashuvi kabi zamonaviy texnologiyalarni ta’limiy rivojlantiruvchi jarayoniga samarali tatbiq etish tobora keng ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion yondashuvlar bolalarning ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, nutqiy va ijodiy qobiliyatini rivojlanishini jadallashtiradi, ta’lim jarayonini esa mazmunan boyitadi.

Tahlillar va natijalar

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Interfaol o‘qitish texnologiyalari – bu texnologiya turli metodlar asosida olib boriladi. Interfaol o‘qitish texnologiyalari bolalarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, mustaqil muloqotga kirishish va jamoa bo‘lib, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘yin texnologiyalari - didaktik o‘yinlar, syujetli-rolli o‘yinlar, mantiqiy o‘yinlar bolalarning bilish jarayonini takomillashtiradi, ularning nutq madaniyati, ijodiy qobiliyati, tasavvuri va tafakkurini kengaytiradi. O‘yin faoliyati bolaning asosiy faoliyat turi bo‘lib, bu texnologiyalar eng samarali va maroqlidir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - multimedia dasturlari, interaktiv doskalar bolalarda predmetlarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, ta’lim jarayonini vizuallashtiradi va yanada samarali qiladi.

STEAM texnologiyasi - fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi asosida tashkil qilingan rivojlantiruvchi ta’limiy faoliyatlar bolalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, tashabbuskorlik, erkinlik, hamkorlik, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish kompetensiyasini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’limga innovatsion texnologiyalarni kiritish bir qator ijobiy natijalarga erishishga sabab bo‘ladi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlash va ijodiy ko‘nikmalari rivojlanadi;
- ta’limiy jarayonlarda faollik va qiziqish ortadi;



- nutqiy, ijtimoiy-hissiy, aqliy va jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari yaxshilanadi, jadal oshib boradi;
- hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, tashabbus bildirish, o‘z fikrini mustaqil ifoda etish kompetensiyalari shakllanadi;
- pedagogda ta’limiy faoliyatni tashkil etish va uni boshqarish imkoniyati kengayadi, ta’limda samaradorlikka erishiladi;
- individual yondashuv asosida har bir bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatish qulaylashadi.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar ta’lim-tarbiya jarayonini faollashtiradi, bolalarning bilish faoliyatini rag‘batlantiradi hamda ularning ijtimoiy-hissiy, nutq-muloqot va ijodiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘yin texnologiyalari, interfaol metodlar, AKT, STEAM, Montessori kabi texnologiyalar bolaning shaxs sifatida shakllanish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi va uning mustaqil fikrlashi hamda amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, balki ta’lim sifatini oshirishga, pedagogik jarayonni takomillashtirishga va zamonaviy jamiyat talablariga mos raqobatbardosh yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.A.Migranova, Sh.X. Poziova Kasbiy pedagogik f‘aoliyatga kirish / O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018 y. - 200 bet
2. O‘.J.To‘ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376 bet.
3. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
4. A.A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
5. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Noshir” 2011 y. -140 bet.
6. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
7. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O‘quv qo‘llanma. O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011y. -128 bet.
8. N.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: “Iqtisod-moliya” 2009 y. – 240 bet



*Kurbonova Zilola Ismoil qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi*

UDK:373.1

5-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA IJTIMOYIY-HISSIY RIVOJLANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-7 yoshli bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarlik bosqichida ijtimoiy-hissiy rivojlanishining ahamiyati tadqiq etiladi. Bolaning maktabga moslashuvi faqat akademik bilimlar (o‘qish, yozish) bilan emas, balki uning his-tuyg‘ularini boshqarishi va tengdoshlari bilan muloqot qilish qobiliyati bilan belgilanishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-hissiy rivojlanish, emotsional intellekt, ijtimoiy moslashuv, irodaviy sifatlar, muloqot kompetensiyasi, empatiya.

*Курбонова Зилола Исмоил кизи
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель отделения дошкольного образования*

ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ 5-7 ЛЕТ К ШКОЛЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается значение социально-эмоционального развития детей 5-7 лет на этапе подготовки к школьному образованию. Анализируется, что адаптация ребенка к школе определяется не только академическими знаниями (чтение, письмо), но и его способностью управлять своими эмоциями и общаться со сверстниками.

Ключевые слова: социально-эмоциональное развитие, эмоциональный интеллект, социальная адаптация, волевые качества, коммуникативная компетентность, эмпатия.

*Kurbonova Zilola Ismail qizi
Bukhara State Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Preschool Education*

SPECIFIC FEATURES OF SOCIAL-EMOTIONAL DEVELOPMENT IN PREPARING 5-7 YEAR OLDS FOR SCHOOL

Abstract. This article examines the importance of the socio-emotional development of 5-7 year old children in the stage of preparation for school education. It is analyzed that a child’s adaptation to school is determined not only by academic knowledge (reading, writing), but also by his ability to manage his emotions and communicate with peers.



Key words: socioemotional development, emotional intelligence, social adaptation, volitional qualities, communication competence, empathy

Kirish

Zamonaviy pedagogika va psixologiyada maktabga tayyorgarlik tushunchasi keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Ko‘pincha ota-onalar asosiy e‘tiborni bolaning intellektual tayyorgarligiga (harf tanish, hisoblash) qaratadilar. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabdagi muvaffaqiyatsizliklarning aksariyati intellektual yetishmovchilikdan emas, balki ijtimoiy-hissiy tayyorgarlikning pastligidan kelib chiqadi.

5-7 yosh - bolaning ijtimoiy “Men”i shakllanadigan, irodaviy sifatlar va empatiya rivojlanadigan davr. Ushbu maqolaning maqsadi – 5-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorlash jarayonida ijtimoiy-hissiy sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning ta’lim sifatiga ta’sirini asoslab berishdir.

5-7 yoshli bolalar davri psixologiyada “maktab ostonasidagi davr” deb ataladi. Bu yoshda bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi uning kelajakda maktabda qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lishini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili

L.Vygotskiy, D.Elkonin kabi psixologlarning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga oid nazariyalari va “Ilk qadam” davlat dasturi o‘rganildi.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

1. Nazariy tahlil: L.Vygotskiy, D.Elkonin kabi psixologlarning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga oid nazariyalari va “Ilk qadam” davlat dasturi o‘rganildi.

2. Kuzatuv: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida bolalarning o‘yin va jamoaviy faoliyat jarayonidagi xulq-atvori kuzatildi.

3. Suhbat: Tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida bolalarning hissiy barqarorligini baholash bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Tahlillar va natijalar

Quyida ushbu yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni batafsil ko‘rib chiqamiz:

1. Hissiyotlarni boshqarish

5 yoshgacha bolalar o‘z hissiyotlarini jilovlay olmaydilar (yig‘lagisi kelsa yig‘laydi, jahli chiqsa baqiradi). 5-7 yosh oraliq‘ida esa:

- Hissiy barqarorlik paydo bo‘ladi: Bola o‘z hissiyotlarini jamiyat qoidalariga moslashtirishni o‘rganadi. Masalan, mag‘lubiyatga uchraganda o‘zini tutish, navbat kutish kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

- “Qiliq qilish” (Krizis davri): L.Vygotskiy bo‘yicha “7 yosh inqirozi” davrida bolada bevosita va samimiy harakatlar yo‘qola boshlaydi. Bola o‘z hissiyotlarini biroz “yashirishni” yoki vaziyatga qarab ish tutishni boshlaydi.

2. Ijtimoiy muloqot va tengdoshlar bilan munosabat

Bu yoshda bolaning asosiy e‘tibori kattalardan tengdoshlariga ko‘chadi:

- Jamoaviy o‘yinlar: O‘yinlar murakkablashadi. Endi bolalar shunchaki birga o‘ynamasdan, rollarni taqsimlaydilar va qat’iy qoidalarga bo‘ysunadilar.



- Do‘stlik tushunchasi: “Men u bilan do‘stman, chunki u menga o‘yinchoq berdi” degan tushunchadan “Biz birga o‘ynashni yoqtiramiz” degan barqarorroq munosabatga o‘tiladi.

- Konfliktlarni hal qilish: 5-7 yoshli bola muammoni urishish bilan emas, balki kelishuv yoki shart qo‘yish orqali hal qilishga urinib ko‘radi.

3. Empatiyaning rivojlanishi (Boshqalarni tushunish)

Bu yoshdagi bolalarda “Egosentrizm” (faqat o‘zini o‘ylash) kamayadi:

- Ular boshqa odamning ham his-tuyg‘ulari borligini va ular o‘zinikidan farq qilishi mumkinligini tushuna boshlaydilar.

- Xafa bo‘lgan do‘stiga tasalli berish, unga yordam taklif qilish kabi ijtimoiy xulq-atvor shakllanadi.

4. O‘z-o‘zini anglash va baholash

5-7 yoshda bolaning o‘ziga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi:

- O‘z-o‘zini baholash: Avvaliga bolalar o‘zlarini faqat ijobiy baholasa (Men eng kuchliman, men eng chiroyliman), 6-7 yoshga kelib ular o‘z imkoniyatlarini realroq baholay boshlaydi (“Men rasm chizishni yaxshi ko‘raman, lekin sanashga biroz qiynalaman”).

- Ijtimoiy status: Bola guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishni xohlaydi. Tan olinish, maqtoV eshitish uning uchun juda muhim bo‘ladi.

5. Motivatsiyaning o‘zgarishi (O‘yin vs O‘qish)

Bu davrning eng katta xususiyati — bolada "O‘quvchi ichki pozitsiyasi"ning shakllanishidir:

- Bola endi shunchaki o‘ynashni emas, balki natijaga erishishni, yangi narsa o‘rganishni xohlaydi.

- Unga “Sen endi katta bo‘lib qolding, maktabga borasan” degan gaplar g‘urur bag‘ishlaydi. Bu ijtimoiy motivatsiya uni qiyin topshiriqlarni bajarishga undaydi.

6. Irodaviy sifatlar

- Bola o‘z diqqatini uzoqroq vaqt davomida (15-25 daqiqa) bir joyga jamlay oladi.

- O‘ziga yoqmagan, lekin “kerak” bo‘lgan topshiriqni oxiriga yetkazish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi (irodaviy nazorat).

Tadqiqot natijasida 5-7 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar aniqlandi:

1. Irodaviy tartibga solish: 5-7 yoshda bolada “xohlayman” tushunchasidan “kerak” tushunchasiga o‘tish boshlanadi. Ular o‘z hissiyotlarini jilovlashni, navbat kutishni va qoidalarga bo‘ysunishni o‘rganadilar.

2. Empatiyaning shakllanishi: Bu yoshdagi bolalar boshqalarning his-tuyg‘ularini tushuna boshlaydi. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, faoliyat markazlarida birgalikda ishlayotgan bolalarning 65% i sherigiga yordam berishga moyillik bildiradi.

3. Ijtimoiy kompetensiya: Maktabga tayyor bolalar konfliktli vaziyatlarni janjalsiz, muloqot orqali hal qilishga harakat qiladilar. Ular guruhda yetakchilik yoki ergashuvchanlik rollarini qabul qila oladilar.



4. Motivatsiyaning o‘zgarishi: O‘yinga bo‘lgan qiziqish saqlanib qolsa-da, bolada “o‘quvchi bo‘lish”, “yangi bilim olish” kabi ijtimoiy motivlar paydo bo‘ladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-hissiy rivojlanish maktabga moslashishning (adaptatsiya) poydevori hisoblanadi. Agar bolada ushbu soha yaxshi rivojlanmagan bo‘lsa, u maktabda quyidagi muammolarga duch keladi:

- Tarbiyachining ko‘rsatmalarini oxirigacha eshita olmaslik;
- Muvaffaqiyatsizlikka uchraganda (masalan, xato yozganda) kuchli agressiya yoki tushkunlikka tushish;
- Tengdoshlari bilan jamoaviy ishlarda qatnasha olmaslik.

Xorij tajribasi (masalan, Finlyandiya va AQSHning HighScope modeli) shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha yoshda hissiy intellektni (EQ) rivojlantirish akademik yutuqlarni 20-25% ga oshiradi. O‘zbekistondagi MTTlarda tashkil etilgan “Syujetli-rolli o‘yinlar” va “Nutq va til” markazlari aynan mana shu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun eng qulay muhit hisoblanadi.

Xulosa

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda asosiy e‘tibor quyidagilarga qaratilishi lozim:

1. Bolani faqat bilim bilan qurollantirmasdan, balki uni o‘z hissiyotlarini boshqarishga o‘rgatish.
2. Guruhlarda jamoaviy loyihalarni ko‘paytirish orqali ijtimoiy muloqotni kuchaytirish.
3. Ota-onalar o‘rtasida bolaning hissiy salomatligi akademik baholardan muhimroq ekanligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-hissiy jihatdan yetuk bola maktab muhitiga tez moslashadi va o‘quv dasturlarini oson o‘zlashtiradi.

5-7 yoshli bolaning maktabga tayyorligi faqatgina uning harflarni bilishi bilan o‘lchanmaydi. Agar bola o‘z hislarini boshqara olsa, tengdoshlari bilan til topishsa va qoidalarga bo‘ysunishni bilsa, u maktab muhitiga eng tez va og‘riqsiz moslashadigan bola hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ilk qadam” davlat dasturi.
2. Vygotskiy L.S. “Bola kamolotida o‘yinning roli”.
3. Goleman D. “Emotional Intelligence” (Hissiy intellekt).
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini ijtimoiy pedagogic faoliyatga tayyorlash: ped.fan.nom. ...diss. – Toshkent, 2010. 139 b.
5. Qurbonova Z.I. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Kamolot 2026. Darslik.



*G. E. Djanpeisova
Professor, Department of Education, Kokand University*

*M. Tursunkulova
Third-year student, Preschool Education program,
Tashkent Branch of the Herzen State Pedagogical University of Russia*

UDC: 37.013; 37.091; 373.2

**INTEGRATING STEAMS EDUCATION IN PRESCHOOL SETTINGS:
CONTEMPORARY APPROACHES TO DEVELOPING A CHILD’S KEY
COMPETENCIES**

Abstract. The paper examines innovative STEAMS practices aimed at developing preschool children’s logical thinking and social competencies. The study highlights the relevance of integrating science, technology, engineering thinking, arts, mathematics, and social-communicative experience to foster key competencies in early childhood. Pedagogical conditions and methodological techniques that ensure the effectiveness of implementing the STEAMS model in preschool education are discussed.

Key words: STEAMS practices; preschool education; logical thinking; social interaction; innovative technologies; variability; key competencies.

*Г.Э. Джанпеисова
Профессор кафедры “Образования”, Кокандский университет*

*М. Турсункулова
Студентка 3 курса направление “Дошкольное образование”,
Ташкентский филиал Российского государственного педагогического
университета им. А. И. Герцена*

**ИНТЕГРАЦИЯ STEAMS-ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНОЙ
ОРГАНИЗАЦИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ
КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ РЕБЁНКА**

Аннотация. В статье рассматриваются инновационные STEAMS-практики, направленные на развитие логического мышления и социальных компетенций у детей дошкольного возраста. Подчеркивается актуальность интеграции науки, технологий, инженерного мышления, искусства, математики и социально-коммуникативного опыта для формирования ключевых компетенций в раннем детстве. Обсуждаются педагогические условия и методические приёмы, обеспечивающие эффективность внедрения модели STEAMS в системе дошкольного образования.



Ключевые слова: STEAMS-практики; дошкольное образование; логическое мышление; социальное взаимодействие; инновационные технологии; вариативность; ключевые компетенции.

G.E. Djanpeisova
Quvon universiteti “Ta’lim” kafedrasi professori

M. Tursunkulova
Rossiya davlat pedagogika universiteti (A. I. Gersen nomidagi) Toshkent filiali
“Maktabgacha ta’lim” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA STEAMS-TA’LIMINI INTEGRATSIYALASH: BOLANING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkur va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion STEAMS-amaliyotlar tahlil qilinadi. Ilk bolalik davrida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda fan, texnologiya, muhandislik tafakkuri, san’at, matematika hamda ijtimoiy-kommunikativ tajribani integratsiyalashning dolzarbligi asoslab beriladi. Maktabgacha ta’lim tizimida STEAMS modelini samarali joriy etishni ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar va metodik usullar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: STEAMS-amaliyotlar; maktabgacha ta’lim; mantiqiy tafakkur; ijtimoiy o‘zaro hamkorlik; innovatsion texnologiyalar; variativlik; tayanch kompetensiyalar.

Introduction

At the current stage of preschool education development, the idea of educational variability is closely linked with the principles of democratization, humanization, and individualization. Such an approach creates opportunities for every child to reveal and develop their abilities and cognitive potential through diverse educational programs and innovative methodologies [1,7]. From this perspective, implementing STEAMS practices is of particular importance. By integrating science, technology, engineering creativity, arts, mathematics, and social-communicative experience, STEAMS supports not only the development of logical-mathematical thinking but also collaboration, communication, and teamwork-based problem-solving skills. The combination of traditional and innovative methods provides favorable conditions for developing analytical thinking, comparison and generalization abilities, and for strengthening children’s social communication skills [1,3,4,7].

The STEAMS (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics, Social) approach is enriched in preschool education by emphasizing children’s social development as a key component. Practical examples include establishing STEAMS laboratories in preschool institutions, using digital interactive



applications, and designing didactic games that introduce children to basic scientific and mathematical concepts [6,7,10].

Literature Review

Competency-based education emphasizes outcomes that combine knowledge, skills, values, and behavioral dispositions—especially in early childhood, where foundational cognitive and socio-emotional capacities are formed. In this regard, cultural-historical and developmental learning approaches underline the role of mediated activity, dialogue, and purposeful educational tasks in advancing children’s thinking and speech development [4,5]. Within this theoretical field, STEAMS can be interpreted as an integrative model that operationalizes competency formation through interdisciplinary practice, project-based activities, and collaborative learning formats. It aligns with modern views that educational effectiveness increases when children are placed in meaning-rich contexts requiring observation, reasoning, construction, artistic expression, and communication [2,3,8,10].

Research and practice-oriented publications also argue that variability in preschool education is not a peripheral feature but a system-forming factor that strengthens adaptability, individual progress, and readiness for school learning [1,7].

Research Object and Methodology

Object of the study: the process of developing preschool children’s key competencies through STEAMS-based educational practices in preschool settings.

Aim: to justify contemporary STEAMS approaches as an effective means of developing preschool children’s logical thinking and social competencies and to present a practice-oriented implementation model.

Objectives:

1. to clarify the pedagogical rationale for STEAMS integration in preschool education;
2. to describe key pedagogical conditions for effective STEAMS implementation;
3. to present a structured STEAMS project model with expected learning outcomes;
4. to demonstrate methodological techniques through an illustrative project case.

Methods: theoretical analysis of pedagogical and psychological literature, synthesis of methodological approaches, educational modeling, and description of practice-based cases.

Analyses and Results

The analysis suggests that the STEAMS model functions effectively in preschool settings when it is organized as a coherent system of activities where each component contributes to children’s competencies. In particular, the model supports:

- logical and spatial thinking (through classification, modeling, and problem-solving);



- speech and communication (through explanation, discussion, and presentation);
- social interaction (through cooperation, role distribution, and shared responsibility);
- creative imagination and aesthetic perception (through artistic and constructive tasks).

Table 1. STEAMS components and expected competency outcomes in preschool education

STEAMS component	Typical preschool activities	Key competencies developed	Expected outcomes
Science	observation games; simple experiments	curiosity; reasoning; basic cause–effect thinking	ability to notice patterns; explain observations
Technology	interactive apps; digital didactic tasks	digital literacy foundations; attention; self-regulation	improved focus; purposeful use of digital tools
Engineering	building models; конструктив tasks with LEGO/blocks	modeling; planning; problem-solving	understanding stability, structure, and function
Arts	appliqué; composition from shapes; creative design	creativity; aesthetic taste; expressive skills	visual thinking; refined fine-motor actions
Mathematics	counting; sorting; grouping; seriation	number sense; classification; logical operations	“number–quantity” matching; structured reasoning
Social	group projects; role play; collective presentations	teamwork; communication; responsibility	negotiation skills; ability to justify ideas

Practical Implementation Case

As an illustrative case, the paper presents methodological experience from the “World of Shapes” STEAMS project implemented with children aged 5–6 in preschool educational organizations in Ташкент [6,7]. The project enhanced spatial and logical thinking and activated children’s cooperation and group-work skills.

1) Project goal

To develop preschool children’s basic mathematical concepts and enhance logical-spatial thinking through modeling with geometric shapes.

2) Project objectives

- To introduce basic geometric shapes (circle, square, triangle, rectangle, oval);



- To teach grouping shapes by form, size, and color;
- To construct holistic images from separate elements;
- To develop teamwork skills (role distribution, negotiation, joint task completion);
- To develop aesthetic taste and creative imagination through artistic and constructive activity.

3) Implementation directions (STEAMS components)

Science

Observation game “Shapes Around Us.”

Purpose: to teach children to identify geometric properties of objects.
Procedure: the teacher shows everyday objects (a plate, a book, a ball, a window).

Children identify which geometric shape each object resembles; reinforcement uses guiding questions (“What shape is a clock?”).

Expected outcomes: matching objects to shapes; vocabulary expansion; basic logical-mathematical concepts.

Experiment “The Magic Symmetry Mirror.”

Purpose: to introduce the concept of symmetry.

Procedure: children receive cards with half-images (e.g., half of a butterfly). A mirror reveals the missing part; discussion focuses on why the images become identical.

Expected outcomes: understanding symmetry; improved visual analysis and attention; interest in exploration.

Technology

Interactive game “GeoBoard: The World of Geometry.”

Purpose: to develop spatial representations and master key features of shapes.

Procedure: children build shapes in an app first by teacher instruction, then independently create combinations.

Expected outcomes: analytical and synthetic thinking; ability to follow a model and create a plan; motivation for mathematics.

Technology workshop “Mathematics on the Screen.”

Purpose: to reinforce number, shape, and size concepts.

Procedure: digital apps (e.g., Montessori Numbers) are used for counting and matching tasks; final reflection: “What did we learn today?”

Expected outcomes: counting and grouping skills; attention and perseverance; positive engagement.

Engineering

Construction workshop “Let’s Build Together.”

Purpose: to develop modeling and constructive thinking.

Procedure: children build models (houses, bridges, objects) using shapes and LEGO;

teacher prompts (“Why doesn’t the tower fall?”).

Expected outcomes: spatial imagination; understanding structure; early engineering thinking.

Arts



Creative activity “Houses on Our Street.”

Purpose: to build compositions using geometric shapes.

Appliqué “Geometric Ornament.”

Purpose: to introduce symmetry and ornaments.

Procedure: children create symmetric patterns using colored shapes, then discuss aesthetic effects.

Expected outcomes: symmetry understanding; aesthetic taste; accuracy and neatness.

Mathematics

Game “Count and Place.”

Purpose: to match number and quantity.

Procedure: children take as many shapes as indicated by a numeral card; results are checked collectively.

Expected outcomes: oral counting; “number–quantity” concept; attention and self-control.

Classification game “Find the Pair.”

Purpose: to group objects by attributes.

Procedure: children group shapes by color and form and build “shape families.”

Expected outcomes: grouping and seriation; logical differentiation skills.

Social (Social competence)

Project-game “Let’s Build Together.”

Purpose: teamwork, role distribution, negotiation.

Procedure: groups build a “school of the future” or a “dream garden,” assign responsibilities, and present results.

Expected outcomes: collective planning; responsibility for a shared product; presentation skills.

Collaborative creative task “Geometric Landscape.”

Purpose: cooperation through creating a shared product.

Procedure: groups create appliqué on themes such as “Our City” or “Seasons” and present their work.

Expected outcomes: aesthetic perception; collective responsibility; planning and task distribution.

Conclusion

Thus, variability in Uzbekistan’s preschool education can be understood as a multifaceted phenomenon that includes content-related, organizational, methodological, and monitoring components. Their coherence ensures children’s high-quality development, including the formation of logical and critical thinking and social communication skills [5,6,7,8,10].

Practical experience shows that the use of a wide range of educational technologies – from traditional didactic methods to digital solutions and STEAMS – contributes to developing core intellectual competencies in preschool children. Combining learner-centered, competency-based, and system-activity approaches with innovative learning formats enables the development not only of logical



thinking but also of creative, adaptive, and forecasting abilities. In summary, variability in preschool education in Uzbekistan is not merely an isolated feature of pedagogical practice; it is a system-forming factor. Its effective implementation supports successful preparation for schooling, the development of independent thinking, and readiness to adapt to the demands of a rapidly changing world.

References:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ–4312 (May 8, 2019). On Approval of the Concept for the Development of the Preschool Education System until 2030.
2. Asmolov A. G. (2001). *Personality Psychology: A Cultural-Historical Understanding of Human Development*. Moscow: Smysl.
3. Amonashvili, Sh. A. (2018). *Learner-Centered Humanistic Pedagogy*. Moscow: Amrita-Rus.
4. Vygotsky L. S. (2000). *Thinking and Speech*. Moscow: Labirint.
5. Davydov V. V. (2000). *Theory of Developmental Learning*. Moscow: Institute for the Development of School Education.
6. Djanpeisova, G. E. (2017). The formation and development of mathematical thinking as a factor of effective preparation of children for school education. *Pedagogika*, (2), 84–90.
7. Djanpeisova G. E. (2017). Strategies and prospects for the development of preschool education in Uzbekistan. *Yosh Olim*, 51(185), 272–274.
8. Zimnyaya I. A. (2004). *Key Competencies as a New Paradigm of Educational Outcomes*. Moscow: Scientific Center on Training Quality Problems.
9. Podlasy I. P. (2019). *Pedagogy: A New Course*. Moscow: Vlados.
10. Khutorskoy, A. V. *Key Competencies and Educational Standards*. Moscow: Akademiya. (Bibliographic details require clarification.)



“ILMGA BAG‘ISHLANGAN UMR”



Faxriy unvonlari:

Turon Fanlar Akademiyasi akademigi (2013),
Xalqaro Rossiya “Psixologiya fanlari akademiyasi” akademigi (2016),

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi haqiqiy a‘zosi – akademik (2023).

Hukumat mukofotlari:

Samarqand viloyati Lenin komsomoli mukofoti laureati (1986),
“Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni (2005, 2006),
“O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 15 yil” (2006),
“O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 20 yil” (2011).

Olim uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va modernizatsiya qilish, oliy pedagogik ta’lim uchun yangi avlod darsliklarini yaratish jarayonlarida faol ishtirok etgan. 2004-2009-yillarda Navoiy shahar va viloyat xalq deputati, 2010-2014-yillarda Navoiy viloyati xalq deputati hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zosi sifatida faoliyat olib borgan.

IBRAIMOV XOLBOY IBRAGIMOVICH
Pedagogika fanlari doktori, professor,
akademik

Ibraimov Xolboy Ibragimovich 1957-yil 20-yanvarda Samarqand viloyati Payariq tumani Paxtakor qishlog‘ida tug‘ilgan. 1979-yilda Samarqand davlat pedagogika institutini “Matematika” mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.

Ilmiy faoliyatini M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti bilan bog‘lab, 1980-1984-yillarda stajyor-tadqiqotchi va aspirant, 1994-1996-yillarda doktorant sifatida tahsil olgan.

1984-yilda nomzodlik, 1996-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1989-yilda dotsent, 2005-yilda professor ilmiy unvonlariga sazovor bo‘lgan.

Olim 1979-yildan buyon ta’lim tizimida samarali faoliyat yuritib, Samarqand davlat pedagogika institutida o‘qituvchi, dotsent, kafedra mudiri, fakultet dekani, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, Navoiy davlat pedagogika instituti rektori lavozimlarida ishlagan. 2016-2022-yillarda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida professor bo‘lib faoliyat yuritgan. 2022-yildan buyon T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori lavozimida ishlab kelmoqda.

Professor X.Ibraimov ta’lim sifati va pedagog kadrlar tayyorlash muammolariga bag‘ishlangan fundamental va amaliy tadqiqotlar muallifi bo‘lib, 600 dan ortiq ilmiy ishlari, jumladan, 7 ta darslik, 5 ta o‘quv qo‘llanma, 13 ta monografiya va umumta’lim maktablari uchun 13 ta o‘quv qo‘llanmasi chop etilgan. Uning ilmiy natijalari respublika ta’lim muassasalarida keng joriy etilgan.